

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI  
KINEMATOGRAFIYA AGENTLIGI  
O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

**“MARKAZIY OSIYO FILMLARIDA  
AN‘ANALAR VA YANGILIKKA  
INTILISH TENDENSIYALARI”  
xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami**

**“DONISHMAND ZIYOSI”  
Toshkent – 2024**

UO‘K 791.079(575.1)(08)

KBK 85.37(50‘)

Ya 49

**TAHRIR HAY‘ATI:**

**Shuhratilla Rizayev** – O‘zbekiston Kinematografiya agentligi bosh direktori, professor

**Nodirbek Sayfullayev** – O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti rektori, professor

**Baxtiyor Yakubov** – O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti prorektori, dotsent

**TAQRIZCHILAR:**

**Oltinoy Tojiboyeva** – O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti professori, san‘atshunoslik fanlari doktori

**Abdumannon Ubaydullayev** – O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti dotsenti, san‘atshunoslik fanlari nomzodi

**MAS‘UL MUHARRIR:** Anvar Adilov

**MUHARRIRLAR:** Dilorom Mirsaidova, Kamola Xidirova, Kamola Suleymanova

“Markaziy Osiyo filmlarida an‘analar va yangilikka intilish tendensiyalari” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami [Matn]: to‘plam. – Toshkent: “Donishmand ziyosi” nashriyoti, 2024. – 304 bet.

*Ushbu to‘plam O‘zbekiston kinematografiya agentligi, O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti hamkorligida “MARKAZIY OSIYO FILMLARIDA AN‘ANALAR VA YANGILIKKA INTILISH TENDENSIYALARI” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari asosida tayyorlandi. To‘plamga kiritilgan oltmishdan ortiq maqolalarda san‘atshunos olimlar, san‘at jurnalistlari, tadqiqotchilarning bugungi kun o‘zbek kinosi yutuqlari, istiqboldagi muhim vazifalari, ta‘limdagi muammolari bilan bog‘liq ilmiy-tahliliy mulohazalari o‘rin olgan.*

---

**Shuhratilla Rizayev**  
*Kinematografiya agentligi direktori,  
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, professor*

## **O‘ZBEKISTON KINOSINING NURLI YO‘LI**

Hurmatli xalqaro ilmiy anjuman qatnashchilari. Dunyoda turli taloto‘p va ziddiyatlar, nizo va kurashlar ketayotgan, globallashuv nihoyatda yuqori pog‘onaga ko‘tarilayotgan davrda Markaziy Osiyo mantaqasining o‘zaro qardoshlik, do‘stlik va hamjihatlikdagi munosabati yangi bosqichga ko‘tarildi. Tenghuquqli hamkorlikka asoslangan milliy birlikni tashkil etish va mustahkamlash uchun mintaqa rahbarlari qo‘lni qo‘lga berib keng siyosiy iroda va ulkan sa’y-harakatlar qilmoqdalar. Turkiston xalqlarining birlashishdek ezgu orzulari ushalmoqda. Biz madaniyat va san’at vakillari yakdil maqsadlar yo‘lida, ma’naviy-madaniy, yanada aniqroq aytadigan bo‘lsam, kinematograf tilida so‘zlashib, amalga oshirilayotgan tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlamog‘imiz kerak. “Markaziy Osiyo filmlarida an’analar va yangilikka intilish tendensiyalari” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi ham ushbu mushtarak maqsadlarning ro‘yobi sifatida amalga oshmoqda. Mintaqa kino ustalarining ijodiy izlanishlari va yutuqlarini kuzatib kelmoqdamiz. Kelgusidagi hamkorlikning uzviy yo‘nalishini o‘ylaymanki, bugungi anjuman hal eta oladi. Ruxsatingiz bilan, O‘zbekiston kinematografiyasida keyingi yillar sodir bo‘lgan yangiliklar xususida sizlar bilan o‘rtoqlashsam.

Bundan yetti yil muqaddam – 2017-yil 3-avgust kuni yetti oy avval xalqimiz xohish-irodasi bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylangan Shavkat Mirziyoyev hali to‘laqonli Oqsaroyga aylanmagan sobiq “Bahor” konsert zalining yig‘in-izdihomga moslashtirilgan chorburchak majlisxonasida mamlakatimizning bari madaniyat, san’at, adabiyot ahli vakillari bilan uchrashuv o‘tkazdi. Qariyb yetti soatcha davom etgan yig‘in-mashvaratda xalqimiz ma’naviyati, ruhiy dunyosini rostlashga, yuksaltirishga qaratilgan ne-ne mulohaza, mushohadalar o‘rtaga tushmadi. Hayajonga, hatto junbishga evrilgan fikr-u o‘ylar yangradi izdihomda. Sanasa bir daftarni to‘ldirgulik muammo-munozaralar aytildi, kuyunib, suyunib aytildi. Kuyunilgani yillar davomi tax-batax yig‘ilib, dillarni o‘rtab yurgan masalalarni ochiq-oshkor aytish imkoni sabab bo‘lsa, suyunilgani shu alam-u armonlarni eshitib, unga chora topamiz, birgalashib hal etamiz deb turgan vallahat rahnamoning samimiy munosabati bois edi. To‘g‘ri, madaniyat, adabiyot, san’at ahli, o‘z qavmining tabiatiga xos yo‘sinda, bir yig‘ilishib qolibmiz deya silkinib, olamshumul muammolardan to‘pichratqi, jo‘n, bachki bir gapigacha aytib qolmoqqa mayl ko‘rsatdi. Baraka topkur yurt Otasi sabr-u toqat bilan, hech mardumni kesmay, yuksak odob va madaniyat bilan barchani eshitdi, so‘zlarning ma’no-mazmuniga qarab, barchasiga zarur munosabat bildirib turdi.

Muhtaram Prezidentimiz 2024-yil 16-may kuni o‘zbek kinochilari huzuriga tashrif buyurdi va rasmiy “protokol”ga ko‘ra bir soatga mo‘ljallangan tashrif-uchrashuv rosa uch soat davom etdi.

Bu Prezidentimizning kinematografiya muassasalariga ikkinchi bora tashriflari. Dastlab COVID-19 pandemiyasi avjlangan 2020-yil 20-noyabrda to‘liq rekonstruksiya qilinib, qayta ta‘mirlangan “O‘zbekfilm” studiyasidagi inshootlar bilan tanishib, bir guruh kinoijodkorlar bilan dildan suhbat qurgan edilar. Umr o‘qar suv – hash-pash deguncha uch yarim yil o‘tib, yana kino sarhadlarida uchrashdik. Bu safar Rahbarimizning Qarorlariga ko‘ra 2021-yili “Toshkent xalqaro kinofestivalini qayta tiklash va o‘tkazish” borasidagi ko‘rsatmalari asosida tashkil etilgan sobiq “Panorama” nomi bilan mashhur, hozirda “Kinochilar uyi” deb nomlanuvchi muhtasham saroydagi “Yangi O‘zbekiston kino san’ati muzeyi”da kutib oldik aziz mehmonimizni.

“Yangi O‘zbekiston kino san’ati muzeyi” bilan obdan tanishgach, Prezidentimiz kinosaroyning ikkinchi qavatida joylashgan ilmiy-ma‘rifiy anjumanlar zaliga kirib, taklif etilgan bir guruh kinoijodkorlar vakillari bilan uchrashib, suhbat qurdilar. O‘zlarining tashabbusi mahsuli bo‘lgan “Tirik tarix” deb nomlangan 50 ta yangi kinoloyihani qamragan Dastur taqdimoti bilan tanishtirildilar. Tashrif davomi 15–20 daqiqa rejalashtirilgan uchrashuv-suhbat va taqdimot ikki soatlar davom etdi. Nazarimda, bu tasodifiy emas edi. Chunki mamlakatimizda yuz berayotgan olamshumul voqeliklarning tashabbuskori va Bosh Rahbarining siyosat, iqtisod va ijtimoiy hayot yo‘nalishidagi yuzlarcha yumushlar, uchrashuvlardan ortib, ijod ahli bilan jonli muloqotlar qilish imkoniyati hamisha ham bo‘lavermaydi. Vaholanki, Shavkat Miromonovich ziyolilar, ayniqsa, adabiyot va san’at ahli bilan dildorlashishni juda xush ko‘radilar. Ayniqsa, shu davralarda katta-kichik shoirlardan va hatto yosh yigit-qizlarning orasida havaskorlari so‘z olib, she‘r yozishini bildirsa, mashqlaridan o‘qib berishlarini so‘rab qoladilar. Nazdimda bu ham muntazam rasmiy jiddiyat bilan o‘tadigan tadbirlar orasida Yurtimiz Rahnamosi qalbiga alohida bir iliqlik, ruhiyatiga tiniqlik va kayfiyatiga ko‘tarinkilik bag‘ishlayotgandek bo‘ladi. Shunday damlarda Shavkat Miromonovich yayrab ketadilar, dilkashlikka, dildorlikka moyil bo‘lib, dunyo tashvishlaridan biroz yengil tortadilar, chamasi. Shundanmi, ijod ahli bilan suhbatlarda hamisha vaqt chegarasini unutishga, kamida uzaytirishga istak sezadilar.

Bu safar ham xuddi shunday bo‘ldi. Malayziya davlati Bosh vaziri bilan bo‘ladigan uchrashuv tadoriklariga tayyorgarlikning g‘oyat tig‘iz vaziyatida kinochilar bilan bemalolroq suhbatlashishga mayl ko‘rsatdilar. Ochig‘i, suhbatni kuzata turib, o‘zimizcha o‘yladimki, bu nafaqat dildorlik, dilkashlik, ayni chog‘da, zimmasiga yanada zalvarliroq vazifa yuklanayotgan kino ahlining fikr saviyasi qanday, xalqimiz, jumladan, katta hayot chorrahalariga kirib kelayotgan farzand-u nabiralarimiz ma‘naviy olamiga ta‘sir ko‘rsata oladigan, dunyo hamjamiyati oldida milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni, o‘zligimizni munosib darajada namoyon eta oladigan kinofilmlar yaratishga qodir, salohiyatli ijodkorlarimiz bormikan degan, zimmida teran ma‘no va maqsad ko‘zda tutilgan uchrashuv edi bu. Ishonch hosil qilish uchun razmoyish olish, qaror qabul qilishdan avval qat‘iy xulosa chiqarish uchun sinov edi bu uchrashuv. Yelkasida ulug‘vor mas‘uliyat turgan yurt Otasining o‘ziga xos sinovi edi bu. Chunki

o'sha kuni O'zbekiston Prezidentiga taqdim etilajak strategik maqsadlarni ko'zlab, milliy ma'naviyatimiz va milliy kinomiz taraqqiyotiga xizmat qiladigan jiddiy g'oyaviy-badiiy ijodiy dastur – "Tirik tarix" nomli O'zbek davlatchiligining uch ming yillik buyuk tarixi, shonli va qayg'uli kechmishlari, ulug' siymolari hayoti va faoliyatiga bag'ishlab milliardlab mablag'lar yo'naltirilishi talab etiladigan muhtasham kinoloyiha xususida so'z bormog'i kerak edi. Xalqning har bir tiyin-u so'mi uchun javobgarlik, uni nimaga qanday sarflash, umummamlakat manfaati uchun qanday yo'naltirish masalasi Prezident uchun eng birlamchi vazifa va mas'uliyat. Shuning uchun ham Rahbarimiz boshqa zarur joriy yumushlarini biroz tovsallatib bo'lsa-da, yurt kelajagiga bevosita daxldor ma'naviyat va uni kino vositasida rivojlantirish borasidagi izdihomga alohida e'tibor qaratdilar, vaqt ajratdilar.

Ana endi shu jiddiy, g'oyat ko'lamdor va tagdor maqsad qay darajada yuzaga chiqib, qanday natijaga kelingani tafsilotlari xususida ayrim mulohazalar.

To'g'risini aytsam, bugungi milliy kinomizning ob-havosini belgilashda o'rni bor ijodkorlardan Erkin A'zam, Shuhrat Mahmudov, Zulfiqor Musoqov, Abduqayum Yo'ldoshev, Jahongir Qosimov, Nazar Eshonqul, Yolqin To'lchiyev, Umid Hamdamov kabilarning uchrashuvda ishtirok etishlarini istagan bo'lardim. Afsuski, ular aksariyat safarda, suratga olish jarayonlarida, sog'liqlarini tiklash bilan bog'liq tadoriklarda band bo'lganliklari uchun taklif etilmadilar. Qolaversa, Oliy tashrif kun tartibida yangi yaratilgan "Yalangto'sh Bahodir" filmi ko'rigi ham rejalashtirilgani uchun, aksariyat shu film ijodkorlari – postanovkachi rejissyor Jahongir Ahmedov, film prodyuseri Zafar Yo'ldoshev, filmda ishtirok etgan aktyorlar Matyoqub Matchonov, Behzod Muhammadkarimov, Tohir Saidov, Shahrizoda Do'smuhamedova taklif etilgan edi. Bulardan tashqari, Yodgor Sa'diyev, Hilol Nasimov, Lola Eltoyeva, Ra'no Zokirova, Ayub Shahobiddinov, Muzaffarxon Erkinov, Ra'no Shodiyeva, Furqat Usmonovlar ham qatnashib, bugungi kinematografiya jarayonlari, milliy kinomizda yuz bergan jonlanish, o'zgarish, islohotlar, ulkan bunyodkorlik ishlari, hududiy uchrashuvlar, kinokarvonlar, Toshkent xalqaro kinofestivalining tiklangani, muhtaram Prezidentimizning ana shu yangilanishlarda bosh tashabbuskor bo'lib, doimiy e'tibor ko'rsatib turganlari, kinochilarning ijtimoiy himoyasi, o'zlarining ijodiy jarayonda doimiy bandliklari va hokazolar xususida gapirdilar. Xususan, Prezidentimiz "Tirik tarix" kinoloyihasi atroflicha to'xtaldilar. Xalqimizning uch ming yillik tarixi, Birinchi, Ikkinchi Renessans, Jadidchilik davrlarida yuz bergan tom ma'noda Buriyish, Intilish, Yuksalish hodisalari, Chor hukumati va qizil Sho'rolar hukmronligida istibdod tufayli Turkiston sarhadlarining parchalanib tanazzulga uchrashi, millat oydinlari bo'lgan buyuk olim-u allomalar, din-u diyonat peshvolari, jasur sarkarda, yo'l boshchi ajdodlarimiz, dunyo tamadduniga o'zbek xalqining qo'shgan benazir hissasi haqida yaqin kelgusida yaratilajak filmlar xususida salmoqli, asosli, jo'yali mulohaza va takliflarning mavridi edi.

"Tirik tarix" kinoloyihasi aynan ana shu o'tmish imperiyacha tushunchalarni batamom sindirib, yo'qotib, bugungi va kelajak avlodlar qalbi, ruhiyatini o'z milliy o'tmishi, tarixi uchun g'urur tuyg'ulariga to'ldirishi, vatanparvarlik hissiyatini sharaf va saodat deb bilishiga xizmat qilmog'i lozim.

Shu o‘rinda vatanparvarlik xususida Prezidentimizning aytgan gaplari yig‘ilishdagi aksariyat ishtirokchilar uchun yashin urgandek ta‘sir qildi desam mubolag‘a emas. “Yaqin-yaqingacha harbiy sohalarga qiziqqan bolalarimizni Jaloliddin Manguberdi, Amir Temurdek bobolari qolib, “Suvorovchilar maktabi”da o‘qitib keldik. Mana qanday film qilish kerak. Bugun endi “Temurbeklar maktabi”, “Prezident maktablari” farzandlarimiz uchun eshiklarini ochib turibdi. Turli zamonaviy ilmlarni, murakkab matematik amallarni o‘zlashtirayotgan ming-minglab bolalarimiz o‘syapti. Ammo menga ularning matematik bo‘lishi shart emas, farzandlarimiz, avvalo, vatanparvar bo‘lishsin!”

Ha, vatanparvarlar yurtini hech bir mustabid asoratga, istibdodga sololmaydi.

Biz mustabidlik deganda kechmish tariximizning qadim yunon-u fors istibdodi, Qurush (Kir)dan boshlab, Makedonskiygacha, arab-u mo‘g‘il, safaviy-u jung‘or, oq-u qizil Chor va sovetlar Rossiyasining xalqimiz boshiga solgan ne-ne shafqatsiz qirg‘in-barotlarini va ularga qarshi matonat bilan kurashgan jonfido ajdod bobolarimiz, podishoh-u sarkarda, yovqur bahodirlarimiz bilan bog‘liq voqea-tarixlarini nazarda tutamiz.

Ana shular “Tirik tarix” kinoloyhasining avvalo Muqaddimasi bo‘lgan “Qadimgi davrlar” nomli bo‘limning mavzular doirasini belgilagan va biz “Shiroq”, “Afrosiyob”, “Guloyim va qirqqiz” tarixlari orqali ona zaminimizga qilingan tajovuzlar va ularga qarshi mardona kurashgan bahodir ajdodlarimizni yoshlarimizga ibrat timsoli sifatida jonli badiiy lavhalarda namoyon etamiz. Shoyadki, farzandlarimiz o‘z bobolarini, o‘zliklarini tanib, ko‘hna, mo‘ysafid tariximizni buyuk shoirimiz Erkin Vohidov she‘riy lafzidek “O‘zbekim” istilohi tushunchasi orqali idrok etsalar va sharaflasalar, g‘urur tuyub iftixorlansalar.

Nafaqat qadimgi davrlar, o‘tgan barcha ming yilliklarni, to shu kungacha bo‘lgan kechmishlarimizni qahramonlik kurashlari tarixi deb ko‘rsatmog‘imiz kerakligini uqtirib, muhtaram Prezidentimiz: “Yoshlarimizni shu yo‘l bilan kino orqali qo‘lga olishimiz, shiddatkor global dunyoning yot g‘oyalardan asrab qolishimiz mumkin” deb aytdilar. O‘sha paytda xayolimda yana 2017-yil 3-avgustdagi ijodkor ziyolilar bilan bo‘lgan suhbat jonlandi.

Shavkat Miromonovich bu tarixiy mashvaratda ma‘naviyatimiz, adabiyotimiz, san‘atimiz, jumladan, kinosan‘atimiz borasida alohida-maxsus to‘xtalib, kino-ning bugungi dunyodagi o‘rni va undan O‘zbekistonimiz manfaatlari uchun qanday foydalanishimiz kerakligi xususida quyidagi fikrni aytdilar: “Agar biz ajdodlarimiz xotirasini ulug‘lamoqchi, shu asosda o‘zbek nomini, O‘zbekiston nomini butun dunyoga tarannum etmoqchi ekanmiz, bu ishni birinchi navbatda kino san‘ati orqali amalga oshirishimiz kerak. Aynan kino san‘ati orqali jahon ekranlarini zabt etishimiz, shu yo‘l bilan dunyo ahlining diqqat-e‘tiborini qozonishimiz mumkin”. Ajabki, yetti yil avval aytilgan ayni ish so‘zlar bilan biz muzeyimizning “Yangi O‘zbekistonning yangi kino san‘ati” nomli asosiy ekspozitsiya bo‘limlarini boshlagan edik. Bu fikrlar biz uchun ma‘naviy ochqich – konseptual yo‘nalish bo‘lib xizmat qildi. Kinoijodkorlar bilan bu safargi uchrashuvda Prezidentimiz o‘sha fikrni yanada rivojlantirib, mantiqan izchillikda davom ettirdilar.

“Kino bizni yangi bosqichga olib chiqadi”.

“Hali marralarimiz baland, qiladigan ishlarimiz ko‘p. Har bir sohaning ichiga kirib, mukammal shug‘ullanmas ekanmiz, natija bo‘lmaydi”.

“Biz faqat fidoyi mehnatimiz bilan o‘zimizni hurmat qilishga dunyo hamjamiyatini majbur qilmasak, natija bo‘lmaydi”.

“Agar biz ma‘naviyatimizni-ma‘rifatimizni yo‘lga qo‘yamiz deb aytsak, kinodek nurli yo‘limiz, kinodek nurli kelajagimiz yo‘q”.

Demak, oldimizda favqulodda jiddiy, favqulodda ko‘lamdor, ulkan vazifalar turibdi – kino orqali O‘zbekistonni, tarixi-yu buguni, zahmatkash xalqi va hozirgi bunyodkor zamondoshlarimizni, ilm-ma‘rifat, ziyoga intilayotgan yoshlarimizni film qahramonlariga aylantirib, ularning betakror, o‘ziga xos obrazlarini yaratishimiz kerak va ularni bori dunyo e’tirof etadigan darajada badiiy mukammallikda ko‘rsata bilishimiz zarur. Shu oliy maqsad uchun mamlakatimiz rahbari mablag‘ni ayamaymiz, barcha imkoniyatlarni yaratamiz deb aytdilar. Bizdan pul sarflab, moddiy daromad keltirishni emas, ma‘naviy barkamol jamiyat barpo etish va uni dunyoga tanitish tadoriklarida kamrasta, ta‘bir joiz bo‘lsa, ma‘naviy lokomotiv kuch bo‘lishini so‘radilar. Yetti yillik kamtarona urinishlarimizdan muayyan qoniqish hosil etib, hatto “Hozir nima desanglar “ha” deyman”... “Men Sizlar bilan faxrlanaman” deya yuksak lutf ko‘rsatdilar. So‘zlarining tasdig‘i o‘laroq poytaxtimizning naqd markazida oltmish yil avval ne-ne umidlar bilan qurilib, ne-ne ulug‘larning nafasini his qilib yashab kelayotgan va bugungi kunda aynan Yurtboshimiz tashabbusi bilan tamomila yangi qiyofa, salobat, go‘zallik, joziba kasb etgan Kinochilar uyi – xalqimiz zikrida “Panorama” deb nomlangan muhtasham kino maskanini kinoijodkorlar taklifiga ko‘ra “O‘zbekiston Milliy kino san‘ati saroyi” deb nomlashni va shunga munosib shart-sharoit, imkoniyatlar berishni to‘la qo‘llab-quvvatladilar. Ellik nomdagi kinoloyihadan iborat strategik ahamiyatdagi kino dasturni ellik to‘rttaga to‘ldirib, dadil ishga kirishmoq uchun oq fотиha berdilar. Shunday ko‘lamdor, mahobatli Dasturni har tomonidan mukammal etib, hech bir jihatni e’tibordan qochirmay, tugal alfozda, o‘z Oliy imzolariga – Prezident tasdig‘iga kiritishni tayinlab, uchrashuv-suhbatga so‘nggi nuqtani qo‘ydilar.

Albatta, bu ikki qismli bir-birini to‘kis to‘ldirgan tadbir, ya‘ni “Yangi O‘zbekiston kinosan‘ati muzeyi” ekspozitsiyasi bilan tanishuv va undan so‘ng kinoijodkorlar bilan bo‘lib o‘tgan alohida uchrashuv-suhbat, shubhasiz, tarixiy voqea bo‘lib qoldi. O‘zbekchasi aytganda, hali izlar bosilmasidan, ertasi kuniyoq is chiqarilib, kinochilarga bayram qilib berildi. Orada yana uch-to‘rt kun o‘tib “Kino – kelajakning nurli yo‘li” shiori ostida to‘rt yuzga yaqin kinoijodkorlar Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazini jalb etib ma‘rifiy-amaliy forum o‘tkazildi. Prezidentimiz bilan uchrashuv va ko‘rsatilgan e’tibor hamda “Tirik tarix” kino Dasturini amalga oshirish yuzasidan bildirilgan ishonch, himmat uchun kinoanjuan ishtirokchilari nomidan “Tashakkurnoma – murojaat” qabul qilindi. Bular bari shukronalik, hayotdan, Prezidentimizdan rozilik, minnatdorchilik tuyg‘ulari ifodasi bo‘ldi. Bu qutlug‘ kunlar shukuhi so‘nmay yana uning davomida dastlab Samarqand shahrida, so‘ng mana shu yangi chiroy ochgan “O‘zbekiston Milliy kino san‘ati saroyi”ning muhtasham tomoshaxonasida

“Yalangto‘sh Bahodir” nomli yangi epik tarixiy badiiy filmning taqdimotlarini o‘tkazdik. Hazrat bobomiz Alisher Navoiy ta’biri ila aytganda, har tunimiz qadr-u, har kunimiz Navro‘z bo‘lib, shukuhli kunlar safosi ila fayziyob bo‘ldik.

Ana endi navbat yangi ijodiy ishga, yaratishga, yangi, ulug‘vor rejalarni, yangi kinoloyihalarni hayotga, haqiqatga aylantirish uchun katta jabhalarga otlanib, Yangi O‘zbekiston uchun, tabarruk ona zaminimizda uchinchi Renessans poydevorini barpo etish uchun yana g‘ayrat, shitob-u shiddat bilan fidoyilik ko‘rsatmoqqa fursat yetdi. Yana bir buyuk adibimiz G‘afur G‘ulom aytmoqchi:

Fursat g‘animatdir, shoh satrlar-la,  
Bezamoq chog‘idir umr daftarin!

Inshalloh, ko‘z tegmasin!

**Nodirbek Sayfullayev**  
*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat  
instituti rektori, professor*

## **KINO SAN'ATI: TINCHLIK, TARAQQIYOT VA MA'RIFAT VOSITASIGA AYLANSIN!**

O'zbekiston kino san'atining nufuzi va saviyasini yanada oshirish so'nggi yillar sohada olib borilayotgan islohotlarning bosh mezonini tashkil etmoqda. Keyingi davrda tashkiliy-huquqiy jihatdan amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar ushbu maqsadning qanchalik qat'iyiligini tasdiqlash bilan birga, sohaga daxldor har kimning zimmasiga jiddiy mas'uliyat yuklaydi. Shu ma'noda, "Markaziy Osiyo filmlarida an'analar va yangilikka intilish tendensiyalari" mavzusida o'tkazilayotgan xalqaro konferensiya muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ayniqsa, anjumanning xalqaro ko'lam kasb etgani va mavzu doirasida butun Markaziy Osiyo kino san'ati masalalari qamrab olingani shaxsan davlat rahbari tashabbusi bilan boshlangan istiqbolli rejalarini yuzaga chiqarish yo'lida yana bir muhim odimlardan bo'lmoqda.

2017-yil avgust oyida davlat rahbarining ijodkor-ziyolilar bilan uchrashuvi san'at va madaniyat sohalarini sezilarli rivojlantirishga turtki bo'lgan katta to'liqinni yuzaga keltirgani ko'pchilikka yaxshi ma'lum. Ushbu o'zgarishlar to'liqini bevosita kino san'atida ham o'z aksini ko'rsatdi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-avgustdagi "Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3176-son, 2018-yil 24-iyuldagi "Milliy kinoindustriyani rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3880-son qarorlari sohani yanada rivojlantirish yo'lida zarur qonuniy me'yorlarni belgilagan bo'lsa, 2021-yil 7-apreldagi "Kino san'ati va sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6202-son Farmoni hamda "Kinematografiya sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish hamda soha vakillarining ijodiy faoliyati uchun munosib sharoit yaratish to'g'risida"gi PQ-5060-son qarori kino san'atini yangi bosqichga ko'tarishda hal qiluvchi o'rin tutdi.

Aynan yuqoridagi hujjatlar bilan kino san'ati va sanoati vakillarining tashabbuslari qo'llab-quvvatlangan holda, "Oltin Humo" milliy kino mukofoti taqdimotini har yili an'anaviy ravishda o'tkazish; kino vakillarini rag'batlantirish maqsadida "Kinematografiya fidokori" ko'krak nishonini ta'asis etish; Milliy kinematografiyani rivojlantirish markazi nodavlat notijorat tashkilotini tashkil etish bilan bog'liq muhim ko'rsatmalar berildi.

Natijada, ko'p vaqt o'tmay, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyundagi "Toshkent xalqaro kinofestivalini qayta tiklash va o'tkazish to'g'risida"gi PQ-5151-son qarori qabul qilinib, 1968–1997-yillar davomida Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidek ulkan uch qit'a kino ixlosmandlarini O'zbekistonga jamlagan xalqaro festival butunlay yangi formatda qayta tiklandi va barcha qit'a vakillarini "Tinchlik, taraqqiyot va ma'rifat" shiori ostida birlashtirishga kirishdi.

Toshkent xalqaro kinofestivalining qayta tiklanishi eng sara filmlarni mukofotlash bilangina cheklanmaydi, uning maqsad va g'oyalari ancha uzoqni ko'zlagan. Festival asnosida milliy kino san'atini yanada rivojlantirish va xalqaro hamjamiyatdagi nufuzini oshirish, ushbu san'at turi orqali xalqimizning boy tarixi va betakror madaniyatini dunyoga keng targ'ib etish; xorijlik kino san'ati vakillari bilan hamkorlikda ushbu sohada ilmiy tadqiqot va izlanishlarni amalga oshirish, o'zaro tajriba almashish, taniqli kino namoyandalari ishtirokida konferensiya, davra suhbatlari, taqdimot va mahorat darslarini tashkillashtirish; kinofestival arafasida chet davlatlarda O'zbek kino san'ati kunlari hamda O'zbekistonda xorijiy mamlakatlarning kino san'ati kunlarini tashkil etish; Osiyo qit'asi va qadimiy Ipak yo'li bo'ylab joylashgan mamlakatlar yosh kinoijodkorlarining qisqa metrajli filmlari festivalini o'tkazish va g'oliblarni taqdirlash, uning doirasida konferensiya, davra suhbatlari, dunyoga mashhur kinoijodkorlar ishtirokida mahorat saboqlari va treninglar, ijodiy uchrashuvlar tashkil qilish; xorijlik va mahalliy kinokompaniyalar, kinostudiyalar va telekompaniyalar ishtirokida kinobozor tashkil qilish, ularning filmlar, seriallar va boshqa audiovizual mahsulotlarni o'zaro almashishi, xarid qilishi va sotishiga ko'maklashish; mamlakatimiz kinolokatsiyalarini namoyish etish, O'zbekistonning kino va turizm sohalaridagi salohiyatini targ'ib qilish hamda bu boradagi keng imkoniyatlardan samarali foydalanishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish singari ko'pqirrali vazifalar ilgari surildi. O'tgan uch yillik davrda "Festival-lar festivali" shaklida tashkil etilgan Toshkent xalqaro kinofestivali misolida esa ushbu vazifalarning amaliyotga tatbiq etilishi, chin ma'noda, milliy kinomiz nufuzini yanada oshirishga xizmat qilib kelayotgani o'z tasdig'ini topmoqda.

"Markaziy Osiyo filmlarida an'analar va yangilikka intilish tendensiyalari" mavzusidagi xalqaro anjumanning aynan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida tashkillashtirilgani ham bejiz emas. Yuqori malakali kino sohasi mutaxassislarini tayyorlovchi yetakchi oliy ta'lim muassasasi sifatida institut mazkur konferensiya orqali yosh tadqiqotchilar nigohini kino san'atining dolzarb masalalariga qaratishni va buni xalqaro ekspertlar ishtirokida o'zaro hamfikir holda amalga oshirishni maqsad qilgan. Bugungi kino jarayonlari haqida mulohaza yuritish, uning og'riqli nuqtalari to'g'risida ko'plashib muhokama qilish, o'ylaymizki, konferensiyaning ilmiy-nazariy ahamiyatini ham oshiradi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bugun Markaziy Osiyo kinosida o'tmish sahifalarini yoritish, tarixiy mavzular orqali milliy qahramonlar obrazini jonlantirishga alohida urg'u berilyapti. Konferensiya doirasida ana shu tendensiyalarni ilmiy baholash ham ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Zero, Prezidentimizning 2020-yil 20-noyabrda "O'zbekfilm" kinostudiyasiga tashrifi chog'ida yurtimiz tarixini ochib beruvchi turkum tarixiy filmlarni yaratish kerakligiga alohida urg'u berganligi milliy kino san'atimizda chinakam rezonansga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi "Kinematografiya sohasini yanada rivojlantirish hamda mamlakatimiz tarixiga bag'ishlangan filmlar turkumini yaratishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-209-son qarori bilan "Tirik tarix" filmlar turkumini yaratish dasturining tasdiqlanishi esa milliy tariximizning hali ochilmagan ko'plab sahifalarini yoritib beruvchi o'nlab tarixiy filmlar yaratilishi uchun o'ziga xos yo'llanma bo'ldi. Jumladan, 2024-yilda

ana shu say-harakatlarning samarasi sifatida “Bahodir Yalangto‘sh” filmi keng omma-ga namoyish etilgan bo‘lsa, yil yakuniga qadar navbatda “Yulduzlar shu‘lasi: Jomiy va Navoiy”, “Buyuk Amir va donna Mariya”, “Kazbek. Osiyo arsloni”, “Xiva langari”, “Matonatli Maryam”, “Ajiniyoz” singari badiiy filmlarning katta ekranlarga chiqishi kutilmoqda.

Milliy kinomizni yanada rivojlantirish, uni son va sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish yo‘lida amalga oshirilayotgan ana shunday ko‘lamli ishlarga O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutining jonkuyar ustoz-pedagoglari, intiluvchan va yangilikka ishtiyoqmand talabalari, umuman, institutning butun jamoasi munosib hissa qo‘shib kelishmoqda. Institutda kino san‘atining barcha bo‘g‘inlari uchun kadrlar yeti-shib chiqadi. Alohida qayd etish kerakki, mustaqillikkacha O‘zbekiston hududida kino-ga mutaxassislar tayyorlanmas edi. Bugungi kunda institutimizda kinoteleoperatorlik, kino va televideniye rejissyorligi, ovoz rejissyorligi, san‘atda animatsiyaviy va multi-mediya loyihalash, kinoshunoslik kabi yo‘nalishlarda yuzlab yoshlar tahsil olish-moqda. O‘zlarining ijodiy ishlari bilan mamlakatimiz va xorijdagi ko‘plab tanlov va festivallarda yutuqlarni qo‘lga kiritishmoqda. Xususan, 2023-yil 24–30-sentabr kunlari S.A.Gerasimov Butunrossiya davlat kinematografiya institutining “Фестиваль стран СНГ. Кинообразование: совместные образовательные проекты государств-стран СНГ” xalqaro kinofestivali taqdimotida O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat insti-tuti talabalari “Rava” qisqametrajli filmi “За оптимизм и радость жизни” deb nom-langan diplom bilan taqdirlandi. “Подарок отца” qisqametrajli film “Лучшая женская роль” nominatsiyasida g‘olib deb topilib, diplom va maxsus statuetka bilan taqdirlandi. O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti bitiruvchisi Shokir Xoliqov talabalik davridan boshlab rejissyorlik ishlari bilan xalqaro kinofestivallarda yuqori o‘rinlarni egallashga sazovor bo‘lgan. Jumladan, “Choy” qisqametrajli filmi Fransiyaning Kann shahridagi “Entr’2 Marches” festivalida “Gran-pri” (2019) mukofotini qo‘lga kiritgan-ligini aytib o‘tsa bo‘ladi. 2024-yil Qozog‘istonda o‘tkazilgan yosh ijodkorlar festiva-lida institutimiz talabasi Atambayev Jamshid o‘zining “Sog‘inch” animesi bilan “Eng yaxshi animatsiya” gran-pri mukofotini qo‘lga kiritdi.

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutida ijodiy ishlar barobarida kino sohasining ilmiga ham katta e‘tibor qaratilib kelinmoqda. Ko‘plab yoshlarimiz insti-tutdagi ixtisoslashgan ilmiy kengashda o‘zlarining doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilishdi va himoya qilib kelishmoqda. Shuningdek, kinoshunoslarimiz respublika va xorijdagi ko‘plab konferensiyalarda ishtirok etishib, mamlakatimiz kino san‘atining nufuzini oshishiga hissa qo‘shishmoqda. “Markaziy Osiyo filmlarida an‘analar va yan-gilikka intilish tendensiyalari” mavzusidagi xalqaro anjuman ham bu borada kino va-killariga xolis minbar bo‘lishiga tilakdoshman.

**Nigora Karimova**

*O‘zR FA San‘atshunoslik instituti  
“Kino va televideniye” bo‘limi mudiri,  
san‘atshunoslik fanlari doktori (DSc)*

## **KINOAVANGARDDAN KINOKLASSIKA (MUMTOZ KINO) SARI BOSIB O‘TILGAN YO‘L**

**Annotatsiya.** *Mazkur maqola o‘zbek kinosida avangard kinodan klassik kino (mumtoz kino) sari bosib o‘tilgan yo‘l haqida bayon qiladi. Muallif o‘zbek kinosida avangard tendensiyalarining shakllanishi va 1920–1930-yillarda suratga olingan ovozsiz filmlarning ta‘sirini tahlil qiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *avangard kino, klassik kino, ovozsiz filmlar, o‘zbek kinosi, kino-ijodkorlar.*

**Аннотация:** *Данная статья посвящена пути, пройденному от авангардного кино до классического кино в истории узбекского кинематографа. Автор анализирует формирование авангардных тенденций в узбекском кино и влияние немых фильмов 1920-30-х годов.*

**Ключевые слова:** *авангардное кино, классическое кино, немые фильмы, узбекский кинематограф, кинематографисты.*

**Abstract:** *This article explores the journey from avant-garde cinema to classical (mumtoz) cinema in the history of Uzbek filmmaking. The author analyzes the development of avant-garde tendencies in Uzbek cinema and the influence of silent films from the 1920s and 1930s.*

**Keywords:** *avant-garde cinema, classical cinema, silent films, Uzbek cinema, political repression, filmmakers.*

O‘zbek xalqi kinoni ilk bor ekranda mo‘jizaviy tasvir paydo bo‘lgan ondan buyon yaxshi ko‘radi. O‘zbekistonda birinchi kinonamoyish 1897-yilda – Toshkentda, aka-uka Lyumyelarning Parijdagi mashhur birinchi kinosayearlaridan bor-yo‘g‘i ikki yil o‘tgach yuz bergan. O‘zbekiston – Markaziy Osiyo kinematografiyasining beshigi. Zotan, aynan Buxoro va Toshkent shaharlarida 1920-yillar o‘rtalaridan e‘tiboran dastlabki ovozsiz filmlar suratga olinib boshladi. Ular O‘zbekiston milliy kinematografiyasiga asos solish bilan birga butun mintaqaning milliy kinematografiyasi shakllanishiga ham turtki bergan o‘ziga xos namuna bo‘la oldi. O‘zbekiston o‘zining G‘arb va Sharq madaniy aloqalarining chorrahasi hamda rivojlangan shaharsozlik tuzilmasiga ega hudud sifatidagi tarixiy vazifasiga ko‘ra, haqli ravishda O‘rta Osiyo kinematografi yuzaga kelgan yurtga aylandi.

1925-yilning mart oyida Toshkentda Eshonquli madrasasi binosida O‘rta Osiyodagi ilk kinostudiya – “Sharq yulduzi” kinofabrikasi ta‘sis etildi. 1935-yili studiya nomi “O‘zbekfilm” deya o‘zgartirildi va bugungi kungacha mazkur nom bilan faoliyatni davom ettirib kelmoqda (1941–1958-yillarda Toshkent badiiy filmlar kinostudiyasi deb yuritilgan). Kinostudiyaning ilk palladagi faoliyati asosan ikki yo‘nalish – “sharq

ekzotikasi”ga qurilgan filmlar hamda eski tartiblarga qarshi kurashuvchi tashviqiy kartinalar ishlab chiqarishdan iborat bo‘ldi.

Suratga olish guruhlar bor-yo‘g‘i 5–6 kishidan iborat bo‘lib, ularning a‘zolari kezi kelganda yorituvchi, operator yordamchisi, rekvizitchi, personajlar ijrosi va boshqa ko‘plab vazifalarni bajarib ketar edilar. Darhaqiqat, “Baxt quyoshi” (1926), “Ravot qashqirlari” (1927), “Soyabonli arava” (1928), “Arabiy” (1930), “Ajal qudug‘i” (1933) filmlarida biz Nabi G‘aniyev, Sulaymon Xo‘jayev, Komil Yormatov, Malik Qayumov, Boriy Haydarovlarni turli epizodik rollarda hamda titrlarda rejissyor yordamchisi va etnografiya bo‘yicha maslahatchi sifatida kuzatishimiz mumkin

1926–1937-yillarda “Sharq yulduzi” kinostudiyasida jami yigirma ikki ovozsiz badiiy film, yuzga yaqin xronikal syujetlar suratga olingan. Ularda butun bir davrning betakror qiyofasi – insonlar, tabiatimiz manzaralari, shahar va qishloq ko‘chalari, maihiy hayot manzaralari aks etgan. Shu ma’noda O‘zbekistonning ovozsiz kinosi o‘tmishning eng boy vizual xazinasi hisoblanadi. Milliy hayot panoramasi kelajak uchun nafaqat hujjatli xronikada, balki badiiy filmlarda ham aks etgan edi. Ovozsiz, oq-qora kadrlardagi tasvirlarning eng muhim jihati vaqtni muhrlashdan iborat edi.

Aynan shu yillarda Nabi G‘aniyev o‘zining “Yuksalish” (1930), “Ramazon” (1932), “Yigit” (1934) nomli ovozsiz badiiy filmlarini suratga olib, milliy kino san’atimizning poydevorini yaratgan edi. Sulaymon Xo‘jayev ham qator yirik kinoobrazlar yaratish barobarida o‘zi yozga ssenariy asosida “Tong oldidan” (1934) nomli dastlabki ovozsiz filmini suratga oladi. Yo‘ldosh A‘zamov avvaliga aktyor, so‘ng rejissyor sifatida kinodagi faoliyatini boshlab, “Qilich” nomli filmini tomoshabinlarga havola qilgan. Ergash Hamroyev birinchi o‘zbek filmlarida bosh rollarni ijro etish bilan bir qatorda ssenariylar ham yoza boshlagan edi...

Komil Yormatov, Rahim Pirmuhammedov, Obid Jalilov, To‘ra Xo‘jayev, Afandixon Ismoilov, Karim Zaripovlar ovozsiz filmlarda katta-kichik rollarni ijro eta boshladilar. Malik Qayumov dastlab ovozsiz filmlarda epizodik rollarda ishtirok etib, keyinchalik kinooperator sifatida o‘zbek hujjatli kinosining shakllanishiga asos solgan edi. Bu ijodkorlarning barchasi favqulodda iste’dod va mahorat sohiblari edi. Ularning yoshligi siyosiy taloto‘plar, iqtisodiy bo‘hronlar va keskin ijtimoiy o‘zgarishlar davriga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa-da, ular tinim va tushkunlik bilmay, butun kuch va shijoatini bunyod etilayotgan yosh kino san’atining taraqqiyotiga bag‘ishlaganlar. Bugun mazkur kinoijodkorlarning merosisiz o‘zbek kino san’atining tarixini tasavvur etib bo‘lmaydi.

Birinchi bo‘lish doim qiyin va mas’uliyatli. Birinchilar hamisha manzilga borar yo‘lning boshida turib sarbonlik qilar ekan, ular katta fidoyilik ko‘rsatadilar. O‘z davrida “Sharq yulduzi” kinofabrikasida kichik hujralarga dekoratsiya qurib, shu yerning o‘zida filmlarni ham suratga olib, ham tomoshabinga namoyish etish ijodkorlardan ulkan qalb va katta mehnat talab qilgani aniq.

“Arabi” (1930), “Yuksalish” (1931), “Bog‘doddan kelgan amerikalik” (1933), “Ayol huquqi” (1931), “Ramazon” (1932) kabi ovozsiz filmlarda montajning avangardistik uslubini qo‘llanilgan bo‘lib, voqelikning mahobatli lavhalari bilan birgalikda eksentrik syujetlar va personajlar paydo bo‘ldi. Kinoavangardga moyillik kabi filmla-

rining nomlarida ham aks etdi. “Arabiy”, “Qilich” filmlarida intertitrlar va ayrim kadr-larga animatsiyali iqtiboslar kiritilgan edi.

1920–1930-yillar afisha va gazeta anonslaridan “jangari”, “agitfilm”lar bilan bir qatorda “psixologik drama” yoki “kinodrama” deb nomlanuvchi janrlardagi filmlar ham o‘rin olgan edi. Aslida, bu ijtimoiy melodrama edi. “Hayotdan olingan” zamonaviy syujetli filmlar shu davr kinotomoshabinlarining sevimli mavzusini tashkil etgan. Aynan shu janr zamirida milliy kinoning o‘ziga xos estetikasi ham shakllanib ulgurdi. Xususan, “Ikkinchi xotin” (1927) filmida rejissyor yordamchisi, etnografik maslahatchi va aktyor sifatida kinodagi faoliyatini boshlagan Nabi G‘aniyevning sa‘y-harakatlari bilan ushbu filmda ilk bor o‘zbek ayollari – Shahodat Mag‘zumova, O‘ktamxon Mirzaboyeva va Zuhra Yo‘ldoshboyeva ishtirok etdilar [2; 3-b.].

1927-yilda ekranlarga chiqqan “Ravot qashqirlari” o‘zbek tomoshabini orasida ulkan muvaffaqiyatga erishgan ilk ovozsiz filmlaridan bo‘ldi. Asosiy sabab deyarli barcha rollarni o‘zbek aktyorlari – Sulaymon Xo‘jayev, Rustam Ahmedov va Rahim Pirmuhamedovlar ijro etgani bo‘lsa, yana bir sabab etnomusiqashunos V.Uspenskiy tomonidan film namoyishiga jo‘rlik uchun maxsus yozilgan asar bilan ham bog‘liq edi. Musiqiy partitura “Gulyor”, “Karima” singari mashhur xalq kuylari asosida yaratilib, betakror milliy musiqiy ijodiyotni tarannum etgandi. Atoqli o‘zbek adibi Abdulla Qodiriy filmdan olgan taassurotlarini matbuotda e‘lon qilib, jumladan shunday yozadi: “O‘zbek davlat kinosining “Ravot qashqirlari” husuli chodirda ko‘rsatila boshlag‘anini eshitgach, ko‘ngil yana suslana boshladi... Shu susov (tashnalik) orasi “Ravot qashqirlari”ni ko‘rgani bordim. “Taassuf” emas, “taqdir”kim, o‘zbekning birinchi kino o‘yuni-dan rozi, qanoatlangan holda qaytdim. O‘zbekning boyi, kambag‘al dehqoni, Karomat bibisi, domla-imomi, Sodiqi, Jalili, to‘y-hashamini... ko‘rdim. Bundagi mas‘ul ro‘llarni havaskor bo‘la turib ham durust ado qilg‘an o‘zbek artistlarimiz o‘zlariga yaxshi umid bog‘latdilar...” [1; 802–804-b.]. Abdulla Qodiriyga manzur bo‘lgan Sodiq rolini Sulaymon Xo‘jayev ijro etgan edi...

1930-yillarning birinchi yarmida ishlangan “Tong oldidan” (1934), “Yigit” (1935) filmlari orqali o‘zbek kinematografiyasida milliy o‘ziga xoslik unsurlari yuzaga kela boshladi. Nabi G‘aniyevning “Yigit” filmida milliylik qahramon xarakteri va hayotiy materiallarni yetkazib berishda namoyon bo‘lsa, Sulaymon Xo‘jayevning “Tong oldidan” filmining g‘oyasi milliy ruh bilan sug‘orilgan edi. Jizzax qo‘zg‘oloni voqealariga bag‘ishlangan film mavzusi nazorat qiluvchi rasmiy organlar tomonidan milliy ayirmachilik tashviqoti sifatida butunlay salbiy baholandi va tarixiy haqiqatni buzganlikda, to‘liq tajovuzkorlik singdirilganlikda ayblandi va bu haqda rasmiy matbuot bong urdi. Aynan shu qismat N. G‘aniyevning “Yigit” filmining ham boshiga tushdi. Natijada, san‘atning boshqa turlarida bo‘lgani kabi, o‘zbek kinoijodkorlari ham shafqatsiz siyosiy qatag‘onlarga duch keldilar. Bu yillarda o‘zbek kinematografiyasining deyarli barcha yetakchi ijodiy kuchlari – Sulaymon Xo‘jayev, Xudoybergan Devonov, Nabi G‘aniyev, Ergash Hamroyev qatag‘on qilindi. Xudoybergan Devonov va Sulaymon Xo‘jayevlar sovetlarga qarshi millatchilik faoliyati ayblovlari bilan hibsga olinib, otib tashlandilar. Nabi G‘aniyev, Ergash Hamroyevlar qayta-qayta hibsga olinib, ishonchli dalil topilmagani tufayli 1939-yilda ozod qilingan bo‘lsalar-da, suratga olish jarayonidan butkul

chetlatilgan edilar. Milliy kadrlarga nisbatan ishonchsizlik muhiti, ijodiy erkinlikning keskin cheklanishiga olib keldi (faqat Ikkinchi jahon urushi davriga kelibgina majburiy to'xtatilgan kino jarayoni tiklandi va o'z iziga tushdi).

Shunday qilib, kinoavangarddan – kinoklassikaga qadar yo'lni bosib o'tgan o'zbek ovozsiz kinosining shitobli rivoji siyosiy qatag'onlar girdobida so'ndi... Ustiga ustak, aynan shu davrga kelib kino san'ati o'zining ovozli pallasiga o'tmoqda edi. Bu esa o'z ijodiy an'alarini, poetikasini va betakror ifoda uslublarini shakllantirib ulgurgan ovozsiz kino ijodkorlaridan yangi texnologik bosqichni egallashni, ovoz bilan ishlash ko'nikmalarini talab etardi. O'zbek kino san'ati rivojining ilk pallasida o'z ijodlarini kinoavangard negizida boshlagan Nabi G'aniyev, Yo'ldosh A'zamovlarni yaqin kelajakda milliy madaniyatning mumtoz namunalarini yaratish baxti va mas'uliyati kutmoqda edi.

Ma'lumki, har bir davr o'ziga xos tarixiy-siyosiy, ijtimoiy-madaniy xususiyatlar kashf etadi. Ovozsiz kinematograf ham, o'ziga xos "davr hujjati", tarixiy-madaniy manba sifatida muhimdir. Ilk o'zbek ovozsiz filmlari millatning ma'naviy-intellektual tarixini, hayotiy-vizual solnomasini yaratishda muhim aqamiyatga ega. Garchand, o'zbek ovozsiz filmlarining vujuga kelishi va rivojlanish davri sovet mafkuraviy tazyiqi ostida kechgan bo'lsa-da, tasmalarga muhrlangan manzara, tasvir va obrazlar noyob tarixiy manba sifatida qimmatlidir. O'zbek kinosining mazkur davrini aks ettiruvchi manbalar, maxsus arxivlar juda kam bo'lib, kino tasmalari vaqt o'tgan sari eskirib, yaroqsizlanib borish xususiyatiga ega. Shu ma'noda, milliy madaniyatimizning muhim davrini tashkil etgan ovozsiz filmlar xususidagi ma'lumotlarni kelgusi avlodlar uchun yetkazish bugun alohida dolzarflik kasb etmoqda. Oradan o'tgan asrga teng masofa va ijtimoiy evrilishlar ovozsiz filmlarni mafkuraviy negizidan forig' etib, ularda aks etgan tarixiy-madaniy xususiyatlarni, milliy qadriyatlarni yanada yorqinlashtirdi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qodiriy-Julqunboy. Ravot qashqirlari ("Qizil O'zbekiston" gazetining 1927-yil 28-aprel sonida nashr etilgan maqola). Tanlangan asarlar. – Toshkent: "Sharq", 2014. – 802–804-b.
2. Гафиз. Жизненная фильма "Правда Востока", 12 апреля 1927 г. стр. 3.
3. Пужол К. Феномен модернизации: мусульманская устойчивость и адаптация при колониальном и советском режиме в Туркестане. Исламские ценности Центральной Азии: толерантность и гуманизм. Историко-философские и культурные аспекты // Материалы Международной научной конференции. Ташкент, 2008. С.35-36.
4. Mesguich F. Tours de manivelle. Paris. Grasset. 1933. pp.76-80.

## **KINO OLIYGOHI MUKAMMALLASHUVI OMILLARINI BILASIZMI?**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada, ijod, kino, audiovizual madaniy alifbosi, texnikasi, estetikasi, imkoniyatlari va chegaralarini maxsus bilim yurtida o‘rganish masalasi hamda jahon miqyosidagi o‘rni muhokama qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** kino, audiovisual, texnika, estetika, ekran, video, ovoz, rang, elektron texnika.*

***Аннотация.** В данной статье обсуждается вопрос изучения творчества, кинематографа, аудиовизуальной культурной азбуки, техник, эстетики, возможностей и ограничений в стране специального знания, а также его места в мировом масштабе.*

***Ключевые слова:** Кино, аудиовизуальное, технологии, эстетика, экран, видео, звук, цвет, электронные технологии.*

***Annotation.** In this article, the issue of studying creativity, cinema, audiovisual cultural alphabet, techniques, aesthetics, possibilities and limits in the country of special knowledge, as well as its place on the world scale, is discussed.*

***Keywords:** Cinema, audiovisual, technology, aesthetics, screen, video, sound, color, electronic technology.*

Ijod, kino, audiovizual madaniy alifbosi, texnikasi, estetikasi, imkoniyatlari va chegaralarini maxsus bilim yurtida o‘rganmagan, o‘zlashtirmagan biror san’atkor jahon miqyosida shuhrat qozonmagan. Bundan biz ko‘p, uzoq o‘rgangan xorazmlik hamkasbimiz Xudoybergan Devonov istisno. Tangri bergan iqtidorning kuch-quvvati, qobiliyatning noyoblighi va u istiqomat qilgan davrning yorqin siymolari o‘z faoliyatlari bilan yaratgan muhit kino san’atimizning qaldirg‘och arbobi auditoriya, rasmana ekran, video, ovoz va rang, elektron texnika va ixcham kameralar bo‘lmaganda ham XX asr san’ati – kinematograf mo‘jizasi sirlarini anglab, uning ko‘magida bir-bir yarim asr muqaddam sodir bo‘lgan voqealar, endigina barpo etilgan minoralar, machitlar qutbalari, xivaliklarning ko‘rinishlari, kundalik hayotini kino tasmaga muhrlash imkoniga ega bo‘ldi. Mavlono Ogahiy shoh va shoir Feruz saroyida endilikda barchamiz xirgoyi qilib yuradigan “Feruz” ashulasini tinglagan, uning ajoyib kuyi, durustgina yozilgan misralarini ham qaqbul qilgan. Lekin san’atning jonkuyar homiysi adib va xorazmshoh Feruz Ogahiyga saroy ahli guvohligida so‘z aytgan:

– Yo‘q, domla, ohang durustdur, lekin she’rni siz yozing. Shu kuyga tushar yozganingiz, – deb buyuk “Feruz” ashulasi – mukammalashuvini ta’minlagan davr edi. X. Devonov shoir Ogahiydan ilhom olib, tarixnavis Ogahiydan tarixiy voqealarni, kundalik hayotni qay tarzda, Bobur aytganidek, betakalluf, haqqoniylik mezonlarini his etib tasvirni harakatda, o‘zaro bog‘liq holda, uzluksiz bir tarzda tasmaga muhrlagan. Zehni o‘tkir, Yevropa va sharq tillarini o‘rganib, qo‘llab teleskop, grammofon, velosi-

ped g'ildiragi aylanib elektr energiyasini paydo qilishini ko'rib, hayratomuz holatda bu yangiliklardan foydalanish yo'llarini izlagan, topgan ham. Uning birinchi ustoz Vilgelm Pinner (uni yosh Xudoybergan "Pinar buva" deb atagan) hamda bu nemis bilimdoni istiqomat qilgan Xiva yaqinidagi qishloqqa borib turgan.

O'zbek kinosi tarixidagi eng mukammal ishlangan ovozsiz film "Tong oldidan"ning muallifi, rejissyori, bosh rol ijrochisi Sulaymon Xo'jayev kino texnikasi, estetikasini Moskvada, buyuk S.Eyzenshteyn darslarida o'rgangan. Uning asarlaridan oziq olgan, ularning bevosita ta'sirida ssenariy yozgan, filmning hikoya maqomini, majoziy ifodalarni qo'llash yo'llaridan ilk bor voqif bo'lib, tajribani o'zlashtirib borgan. Shu bois "Tong oldidan" tarixiy dramada birorta nuqson uchramadi. Lekin asar, uning buyuk ijodkorining samarali mehnatini sho'rolar davri qabul qilmadi. Vaholanki, bu asarlar – ssenariy hamda uning kinotasvirdagi ifodasi Moskvada, Eyzenshteyn saboqlarini, o'gitlarini o'zlashtirish oqibati bo'lgan edi. Birgina tafsilot – kino o'quv yurtida Sulaymon Xo'jayev farzandi Hamid Sulaymonov bilan birga, bir auditoriyada o'qigan, uqqan ham.

Nabi G'aniyev VXUTEMAS o'quv dargohida ta'lim olishida Moskvada kino ahli, adib Abdulla Qodiriy bilan uchrashib turgan. Do'stlik, inoqlik uzoq davom etgan. Qatag'on yillari bu hamkorlik samara berishga to'sqinlik qilingan. Faqat Ikkinchi jahon urushi yillari nazorat biroz sustlashgan hamda Nabi aka bir yo'la – bir vaqtning o'zida ikki durdona – "Tohir va Zuhra" hamda "Nasriddin sarguzashtlari" asarini yaratgan. Keyinchalik rejissyor, aktyor, ssenariynavis sifatida tanilgan Nabi G'aniyev yurtimizda mustaqil faoliyati, chorizm adolatsizligiga qarshi faoliyati bilan tanilgan: pyesalar, jajji ssenariylar yozgan, musavvir sifatida tanilgan. Samarqand atrofida Nomoz ismli xalq qahramonining hayoti lavhalarini to'plab, gazetada e'lon qilib katta film tayyorlashga taraddud ko'rgan. Bu holni biz ataylab ta'kidlab o'tardik. Chunki Moskvada o'qigan ayrim vatandoshlarimiz yurt bilan uzviy aloqada bo'lmagani, merosimizni o'rganmagani sababli ayrim nuqsonlarga yo'l qo'yganlari ham ma'lum. Binobarin, ta'lim jarayoni mentallik, o'ziga xoslik, merosni barhayot deb bilish bilan ham bog'liq deb bilamiz.

Shuhrat Abbosov, Yolqin To'ychiyev, Ayub Shahobiddinov kabi milliy rejissuraning keyingi avlodi vakillari gumanitar sohadagi uquvlarini yurtimizda boshlab o'zga yurtda – Rossiyaning oliy rejissyorlik kurslarida davom ettirib, kamol topib, "Sen yetim emassan", "Toshkent – non shahri", "Chashma", "Ilova", "Faridaning 2000 qo'shig'i", "Qor qo'ynida lola" kabi durdonalarni yaratgani, Qamara Kamolova va Rashid Malikov ham shu darajadagi oliy kino ta'limdan bahramand bo'lib "Yo'l bo'lsin", "Matonat" durdonalarini yaratganini alohida qayd etib o'tamiz. Bu asarlar yaratilishi davrida, o'nlab, hatto yuzlab zaif, nursiz tasmalar ham ekran sari yo'l olganini tilga, kalomga olganimizda kino ta'limini oliy o'quv yurtlarida, ssenariynavislar va rejissyorlarning oliy kurslarida (Moskvada) tahsil ko'rmaganlarga malaka, bilim, mahorat yetishmagani qayd etamiz. Yillar, o'nyilliklar davomida muammoga aylanib kelinayotgan mazkur ijodiy, texnik, kino ishlab chiqarishning ma'muriy, moliyaviy, texnik sohalarida mutaxassislari yetishmasligi emas, umuman yo'qligiga qaramay davom etayotgan faoliyatning kemptik joylari yil sayin ortib borayotgani tabiiy hol bo'lib kelyapti. Ko'pmillatli, ko'pmehnatli, ko'pxarajatli kino mahsulotini shu sohani egallagan adib, san'atkor

iqtisod va texnika xodimi ijodning deyarli barcha tarmoqlari bilan hamkorlikda yarata-di. Bu jarayon oylar, yillar davomida aqliy, ijodiy, jismoniy, tashkiliy, iqtisod sohasida-gi mehnat evaziga film deb ataladigan badiiylikka da'vosi bo'ladigan mahsulot barpo etilishi bilan yakunlanishi ko'zda tutiladi. Bunday mutaxassislarining o'zi bormi bugun-gi kino dargohida? Agar bo'lsa, ularning safi muttasil to'ldirilib borilyaptimi? Badiiyot, elektron texnika, turli millat, tayyorgarligi darajasi talab darajasida bo'lmaganlar bilan kimlar ishlayapti?

Bu kabi ritorik savollarga javob olish amri mahol bo'lsa kerak. Iste'dodli kinota'li-mini oliy darajada olgan mutaxassislarining yangi avlodi studiyamiz ostonasini xatlab o'tmay qo'yganiga necha yil bo'ldi? Maqolamiz debochasida ataylab jahon miqyosida tanilgan o'zbek o'g'lonlari (ular orasida birgina qobiliyatli ayol bor – rejissyor Qama-ra Kamolova)ning barchasi Moskvada VGIKda, rejissyorlarning, ssenariynavislarning oliy kursida ta'lim olgan. Rejissyorlar, ularning xizmatida bo'ladigan film direktori, assistentlar, yordamchilar, ma'murlarning soni esa yuzdan ortadi. O'rtamiyona asar-lari bilan kun ko'rganlarning birortasini eslash ham amri mahol. Ayrim misollar bilan fikrimni tasdiqlashga urinib ko'ray. Ikki buyuk qalam sohibi Abdulla Qodiriy hamda Chingiz Aytmatovning asarlari bo'yicha suratga olingan ikki film bamisoli kino sohasi-da besavodlar tomonidan yasalganga o'xshaydi. "Sarvqomat dilbarim" qissasi to'rtin-chi marta ekranlashtirishida Ch.Aytmatovni "to'g'rilab" qo'yish niyat qilingandek. Se-vib uylangan Ilyos Asalga xiyonat qilishi, kayf-u safoga berilishi, Xadicha bilan intim munosabatda bo'lishi tafsilotlari bilan ko'rsatiladi-da, uni og'ziga kino ahli Asal bilan qolishni istaganini bildiruvchi so'zlarni "solib" qo'yishi Chingiz To'raqulovich asari-ga yot-ku! Asal tog' qizi. Tinimsiz esadigan tog' shamoli, yiroqlardagi kimsasiz dala-dashtdagi bir-ikki xonadonda ko'proq tanho qolib tog' qizi sifatida shakllangan qizni dovonlar osha olib kelib gavjum, serxonadon, serjahl ayolga yaqinlashtirib qo'yish, kimsasiz o'lkada shakllangan xarakterga mutlaqo zid ko'rinadi... Majoziy ifoda bevosi-ta voqealar mohiyati, Asal dramasi bilan mutlaqo bog'lanmagan. Aktyorlarning birorta-si Aytmatov chizgan, badiiy ta'riflagan qahramonlarga o'xshamaydi ham. Filmida qissa-ning shoirona ruhi, toptalgan sevgi-sadoqat dramasi ochilmay qolgan. Oddiy, an'anaviy "uchburchak", sayoz melodrama darajasiga tushib qolgan.

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani ruhiga, obrazlar ta'rifi, yechimiga mos kelgan, muhimi, katta epik asarda ilgari surilgan mangu sevgisiga sodiq qolgani, ularning nafis portretlari, ishq o'tining turli vaziyatdagi ifodalarining hayotiyliigi, o'sha ziddiyatlarga to'la davrning ayanchli ko'rinishlari filmida namoyon bo'lmadi. Saodat bo'layotgan qiz ko'chada, bozorda yuzi ochiq yurishiga nima deysiz? Qodiriy qalamga olgan davr ayollar paranjiga o'ralgan, 12–13 yoshli qizaloqlar kichik bir echki, qo'y, mol to'dasiga almashtirilgan vaqt emasmi?

Азербайджанский Государственный Университет Культуры и Искусств (АГУКИ) играет основную роль в подготовке творческих кадров для киноотрасли страны. Деятельность факультета Аудиовизуальных искусств и кафедры Кино-телевизионных искусств направлена на выполнение миссии АГУКИ, которая определяет следующие принципы: «Признание ведущей роли культуры в сохранении материальных и духовных ценностей Азербайджанского народа; достижение АГУКИ лидирующих позиций в области образования, науки, творчества, культуры и искусства в целом. Наш Вуз предлагает различные образовательные программы в области кинематографии. Студенты могут получить образование как в области режиссуры, операторского искусства, сценарного и актёрского мастерства, так и в технических аспектах кино.

2021 год стал отправной точкой для нашего с вами сотрудничества. Начиная с 2021 года наши студенты каждый год активно участвуют в Международном Ташкентском Кинофестивале с участием стран СНГ. Участники фестиваля обме-

ниваются опытом и знаниями в области кинематографии, обсуждают различные аспекты киноискусства и кинопроизводства, которые наиболее интересны каждому учебному заведению. Мы считаем этот фестиваль очень продуктивным и взаимовыгодным как для наших учебных заведений, так и для студентов.

Организация Ташкентского кинофестиваля предоставляет студентам уникальную возможность продемонстрировать свои знания и навыки в технических аспектах кинематографии, творческих методах и профессиональных приемах, применяемых в киноискусстве. В целом, мы считаем организованный Ташкентский фестиваль интересным и вдохновляющим процессом, который мотивирует студентов на новые проекты, идеи и подходы к своей работе. Таким образом, наше с вами активно развивающееся сотрудничество не только способствует обмену опытом и знаниями, но и помогает профессиональному росту и подготовке студентов к современным вызовам кинематографии.

Студенты кафедры кино-телевизионных искусств активно участвуют в различных международных кинофестивалях, что способствует их развитию и продвижению. Это позволяет не только представлять аудиовизуальные проекты, но и устанавливать контакты, что способствует обмену опытом и межкультурному взаимодействию.

За успехи наших студентов достигнутые на международной арене, 10 июня 2024 года был заключён договор между киностудией “Учебный-фильм” Функционирующей при Азербайджанском Государственном Университете Культуры и Искусств с Киноагентством Азербайджанской Республики подведомственным Министерству Культуры Азербайджана. Согласно достигнутой договоренности, для дальнейшего развития студентов Агентство кино выделило средства в размере 167 000 манатов на реализацию 12-ти аудиовизуальных студенческих проектов. Хочу особенно отметить, что за время деятельности кафедры кино-телевизионных искусств важным фактором стало выделение столь большого объема средств государственными учреждениями на реализацию студенческих проектов. Всё это свидетельствует о высоком уровне кадрового потенциала нашей кафедры.

В целом, система организации и государственная поддержка отрасли кино в Азербайджане способствует устойчивому развитию кинематографии, поддерживает творческий потенциал и стимулирует производство качественных и значимых кинопроектов как на внутреннем, так и на международном рынке.

23 августа 2024 года в Ташкенте, при участии глав государств Азербайджанской Республики и Республики Узбекистан, состоялась церемония подписания ряда важных документов, касающихся азербайджано-узбекских отношений. Учитывая ряд подписанных документов и выражая заинтересованность в развитии научного, образовательного и творческого сотрудничества, а также принимая во внимание межгосударственные соглашения между братскими народами о углублении взаимодействия в области культуры, образования и науки, наш вуз предлагает активизировать работу по следующим направлениям для дальнейшего взаимного сотрудничества.

Взаимный обмен студентами и педагогами между нашими вузами с целью ознакомления с ценностями образовательного процесса, методиками обучения, научными исследованиями и творческой деятельностью партнерского учебного заведения. Обменный показ учебных фильмов. Реализация совместных студенческих проектов в области аудиовизуальных произведений. Проведение совместных культурных мероприятий, научно-практических конференций и семинаров. Организация международных студенческих фестивалей. Обмен образовательными программами и учебными планами. Мы надеемся в ближайшем будущем реализовать все эти инициативы.

## ЛИТЕРАТУРА

1. Жусубалиев К. «Исторические события и культурные аспекты в документальном кино Азербайджана». Издательство «Киноискусство», Баку, 2021.
2. Аббас-кули оглы Тахмасиб, Р. «Аршин мал алан». 1945.
3. Океев Т., Шамшиев Б., Базаров Г. «Развитие азербайджанской документалистики в 21 веке». Международный кинофестиваль стран СНГ, Ташкент, 2023.
4. Агентство кино Азербайджана. «Документы и стратегические программы поддержки кинематографии Азербайджанской Республики», 2022.

## **TARIHI FIGURLERIN BEYAZPERDEDE HAYAT BULMASI (CELALEDDIN MANGUBERDI DIZISI UZERINE)**

**Özet.** Makale, dizilerin ÷lke aısından önemini “Mendirman Jaloliddin” dizisi örneğinden yola ıkararak ortaya koymaktadır.

**Anahtar kelimeler:** sanat, dizi, kiři, tarih, kiřilik, iřbirliğı.

**Аннотация.** В статье раскрывается значение сериалов для страны на примере сериала «Мендирман Джалолитдин».

**Ключевые слова:** искусство, сериал, человек, история, личность, сотрудничество.

**Annotasiya.** Maqolada serialarning mamlakat uchun ahamiyati “Mendirman Jaloliddin” seriali misolida ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** san‘at, serial, inson, tarix, shaxs, hamkorlik

Tarih milletin gemiři ve geleceğinin temelidir. Atalarimizin bir sözü vardır «Tarih olmadan gelecek olmaz», tarihi bilmeden geleceğe adım atmak zordur. Her millet, tarihine, bilimine, bilgi ve költürüne, sanatına ve edebiyatına katkıda bulunan tarihi řahsiyetler bakımından zengindir. Bugün bu tarihi řahsiyetlerin yaşam faaliyetleri her kese örnek teşkil etmektedir. Türk milletinin kendi tarihi vardır, Özbekistan ÷lkesinin de kendi tarihi vardır. Hepimizin paylařtığı tarihi figürler. Türk költür ve sanatında tarihi řahsiyetlere önem verilmiştir. Gemişte Sultan Süleyman, Yunus Amri (yazar), Kasım Sultan gibi tarihi řahsiyetler yaşamıştır. Gemişlerini dünyaya getirmek çok fazla sorumluluk gerektirir. Tarihi dizi, gemişte geen bir film veya televizyon dizisidir. Bu tür diziler genellikle gerçek olaylara dayanmakta ve ünlü kiřilerin hayatlarını, tarihi olayları ve költürel olayları anlatmaktadır. Tarihi olaylara dayanan Türk dizileri, ÷lkenin gemişine büyüleyici bir bakış sunuyor. İzleyicilerin Türk tarihi, költürü ve gelenekleri hakkında daha fazla bilgi edinmesine olanak tanıyor. Bazı popüler Türk dizileri: «Asos. Osman», Kaia’nin evini yöneten Ertuğrul’un oğlu Osman Bey’in saltanatını konu alan bir dizidir. Alparslan, Türk boylarını birleřtirmeyi planlayan savařçı Ertuğrul’un atasının hikayesidir. «Uyanış: Büyük Selçuklular», Alparslan’in torunlarını ve onların kâfirlere ve Müslümanlara karşı mücadelelerini konu alan bir dizi.

«Efsane», dağlı bir kabilede gelen bir kızın, statü farkına rağmen kabileler arasındaki savaři, hükümdarın oğluna aşık olmasını konu alan bir film. Bu diziler ilginç hikayeler, yüksek kaliteli çekimler ve iyi oyunculuklarla öne ıkıyor.

Türkiye ile Özbekistan arasındaki karşılıklı ilişkilerin geliştirilmesi amacıyla dün çekilen «Mendirman Celaleddin» dizisi yayınlandı. Dizinin olayları, kökeni Begdili klanına dayanan Muhammed Khorezmshah’in en büyük oğlu olan Khorezmshah devletinin son hükümdarı (1220’den itibaren) tarihi figür Celaleddin Abulmuzaffar Manguberdi ibn Muhammed) (1198-1231)’e dayanmaktadır. . Celaleddin 33 yaşında bir general. O zamandan beri çeřitli savařlarda 11 yıl geti. Tam adı Celaleddin ibn Alovuddin

Muhammed'dir. Annesi Oychechak'ti. Celaleddin Manguberdi tahtın ana yarışmacısı olarak görülmüyordu. Annesi Aychechak, Aluddin Khorezmshah'ın haremındaki cariyelerden biriydi. Tahtın varisi Ghiyaziddin Pirşah'ti ve taht iddiası annesi Terken Hotun tarafından destekleniyordu. Ancak ölmeden önce babası Celaleddin'i tahtın varisi olarak atar. Kısa ömrü tüm dünya tarafından tanınmaktadır. İki ülke iş birliğiyle çekilen dizi 2 sezondan oluşuyor. Fikrin yazarı Özbekistan Cumhuriyeti Kültür Bakanı Özodbek Nazarbekov, sadece Özbek ülkesinin kahraman atalarının hikâyesini anlatmakla kalmadı, aynı zamanda bu iki ülke arasındaki dostane ilişkilere de bugün olumlu bir etki yaptı. Mendirman Jaloliddin dizisi, Diriliş Ertuğrul ve Hükmdor Osman gibi Türk dizileriyle ünlenen Bozdağ Film şirketi tarafından çekildi. 2019 yılında Özbekistan ve Türkiye arasında yaratıcı iş birliği anlaşması imzalandı ve dizinin yaratıcı süreci başlatıldı. Özbek ve Türk oyuncuların ortak yaratıcı süreci yoğun bir şekilde gerçekleştirildi. Oyuncu Emre Kiviljim, dizinin ana karakteri Jaloliddin Maguberdi'yi ustaca canlandırarak büyük beğeni topladı. Bayan Kutlugbeka, Celaleddin'in sevgili kadınıdır. Cengiz Han'ın köyünden getirdi. Şehzade Kutbiddin'in annesi, Moğollar onu ve çocuğunu öldürmesin, esir almasın diye kendini ve çocuğunu nehirde boğdu. Turkon'un karısıyla birçok anlaşmazlığı vardı. Kayınvalidesi Oychechak'la çok arkadaş canlısıydı. Yulduz Rajabova bu dizide rolü ustaca oynadı. Khorezmshah Muhammed, Celaleddin'in babası Alauddin Takash'ın oğludur. Deliliğinin nedeni devletin çökmek üzere olduğu bir dönemde geldi. Türk aktör Kaan Yalçın tarafından canlandırıldı. Oychechak Khotun, Harezmsah Muhammed'in karısıdır. Celaleddin'in annesi. Sevdiği oğlu için her şeye hazırdır. Dizinin bir bölümünde Kundoshi Mehrijahonjing'in gelinine tokat atıyor ve Moğol askerlerinin etkisinden kaçmak için Sin Nehri'ne atlıyor. Özbek topraklarının bir diğer güzel oyuncusu Rana Shodiyeva ise ustaca bir performans sergiledi. Turkon Khotun, Alovuddin Tekish'in karısıdır. Khorezmshah Muhammed'in annesi çok güçlü bir kadındır. Dizinin sonunda Cengiz Han tarafından esir alındı. Celaleddin'in Oğuzlu adamı onu kurtarmaya gelir ama Turkon Hatun bunu reddeder. Düşünmeden hareket eder ve çoğu zaman kendini düşünür. Yetenekli Türk oyuncu Gülenay Kalkan canlandırılıyor.

Cengiz Han – ünlü Moğol hükümdarı ve generali – Moğol İmparatorluğu'nun kurucusu. Özbek aktör Jawahir Zakirov'u bir anti-kahraman imajında görebilirsiniz. Mehrija Khan, Khorezmshah Muhammed'in en genç karısıdır. Özlok Şah'ın annesi. Çok kurnaz bir kadındır. Dizide koleradan ölüyor. Özbek oyuncu Rayhon Ulasenova tarafından seslendirildi. Timur Malik – Harezmsahların devlet adamı, Hocend valisi. Celaleddin'in öğretmeni. Orta Asya'nın fethi sırasında Cengiz Han'ın birliklerine karşı gösterdiği şiddetli direnişle ünlendi. Türk oyuncu Sezgin Erdamir ustaca bir performans sergiledi. İşbirliğiyle çekilen tarihi dizinin birçok Özbek ve Türk oyuncusu, kendilerine verilen görevleri mükemmel düzeyde yerine getirdi. Tüm genel süreçlerin ulusların dostane ilişkileri üzerinde güçlü bir etkisi vardır. Sanat olsun, ekonomi olsun, bilim olsun, maneviyat olsun birçok yön ortak değerleri güçlendirir.

## **KELAJAK VA O‘TMISH KO‘PRIGI – “YAKSHANBA”**

**Annotatsiya.** *Maqolada o‘zbek mualliflik kinosi rejissyor Sh. Xoliqovning “Yakshanba” filmi misolida tadqiq etiladi. Unda rejissyorning dramaturgiya, rejissura va montaj borasidagi topilmalari, uning avvalgi ijod namunalari o‘zlashgan uslublar nazariy jihatdan tahlil qilinadi.*

**Kalit so‘zlar:** *mualliflik kinosi, to‘liq metrajli badiiy film, katta ekran, dramaturgiya, rejissura, aktyorlik mahorati.*

**Аннотация:** *В статье рассматривается узбекское авторское кино на примере фильма режиссера Ш. Халикова «Воскресенье». В ней теоретически анализируются находки режиссера с точки зрения драматургии, режиссуры и монтажа, а также методы, заимствованные из его предыдущих работ.*

**Ключевые слова:** *авторское кино, полнометражный художественный фильм, большой экран, драматургия, режиссура, актерское мастерство.*

**Annotation:** *In the article, the director of the Uzbek author’s film studied on the example of Sh. Khalikov’s film «Yakshanba». In it, the director’s findings in terms of dramaturgy, directing and editing, and the methods adopted from his previous works are theoretically researched.*

**Keywords:** *auteur cinema, feature film, big screen, dramaturgy, directing, acting skills.*

Bugungi kunda O‘zbekistonda kino san’atining ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni oshib bormoqda. Mamlakatimizda yosh, umidli, iste’dodli va o‘ziga xos dunyoqarashga ega bo‘lgan ijodkorlar shakllanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “Biz buyuk xalqimizni ulug‘lamoqchi, O‘zbekiston nomini butun dunyoga tarannum etmoqchi ekanmiz, bu ishni birinchi navbatda kino san’ati yordamida amalga oshirishimiz kerak. Aynan kino san’ati orqali jahon ekranlarini zabt etishimiz mumkin. Buning uchun yana bir bor kuch va imkoniyatlar, ijodiy salohiyatni ishga solishimiz kerak”, [1] deya ta’kidlagan edilar.

Kinematografiya agentligi buyurtmasiga binoan “Yoshlik” kinostudiyasi DUK tomonidan o‘zbek kinosining umidli yosh ijodkorlari qatoridan joy olgan Shokir Xoliqovning “Yakshanba” to‘liq metrajli badiiy filmi mualliflik kinosini yana bir asar bilan boyitdi. Film XXV Shanxay Xalqaro kinofestivalining bosh mukofoti – oltin kubok bilan taqdirlandi. Taniqli kinotanqidchi A. Dolin “Yakshanba” filmini Markaziy Osiyoning eng yaxshi kinolari qatoriga kiritdi” [2]. Bunga qadar esa Sh. Xoliqov “Choy” qisqa metrajli filmi uchun “International Festival Entr’2 marches”, “Prologue” (2018) festivallarida mukofotlangan. Uning “Messi” qisqa metrajli filmi Qozog‘istonning Olmaota shahrida o‘tkazilgan “48 hour film race” (2021) festivalida “Eng yaxshi film” va “Eng yaxshi drama” nominatsiyalari bo‘yicha, “Qiz va bulut” animatsion filmi esa

Yaponiyada o‘tkazilgan “DigiCon6 Asia” animatsion filmlar festivalida “Mintaqaning oltin filmi” va “Festivalning oltin filmi” (2021) nominatsiyalari bo‘yicha g‘olib deb topilgan. “Bahorsiz umr” hujjatli filmi esa “Baiqanur Xalqaro filmlar festivali”da (2022) ishtirok etgan edi.

Chindan ham rejissyor Sh.Xoliqov har bir filmi bilan birgalikda o‘zining bormoqda. Bilamizki, rejissyorni qishloq hayoti, shaharning suronli rivojidan yiroqda umrguzaronlik qilayotgan oddiy qahramonlar qiziqtiradi. “Yakshanba” filmi ham bundan mustasno emas. Filmni tomosha qilgan tomoshabin rejissyorning “Choy” filmidagi g‘oyalarning mantiqiy davomini ko‘rgandek bo‘ladi. Avlodlar o‘rtasidagi tafovut azaliy mavzu bo‘lib, unga turli xil rakursdan yondashish mumkin.

Albatta, kino mutaxassislari va muxlislari ushbu yangi ekran asaridan rejissyorning “Bizni tushunishmaydi” (2016), “Dilemma” (2017), “Choy” (2018) va “Messi” (2021) filmlaridagi kabi o‘ziga xos topilmalar va yana bir pog‘ona yuksalishni kutishlari tabiiy. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, ushbu ijod namunasi haqida qarashlar turli xil. “Iste’dodli” va “umidli” sifatlarini yelkasida “ko‘tarib yurishning” ham o‘ziga yarasha yuki bor. O‘zbek kino san‘atida so‘nggi besh yillikni tahlil etadigan bo‘lsak, mazmun jihatdan puxta ishlangan filmlar soni ortganiga qaramay, umumiy hisobda olib qaralganda, natija hali yuqori ko‘rsatkichda emas. “Eng yomoni badiiy ijod sohasida jaholat ko‘rinishlari kuchayib bormoqda. Ba’zi filmlarda mayda maqsadlar bilan yashaydigan, hayotga faqat iste’molchilik kayfiyatida qaraydigan kimsalar asosiy qahramon sifatida tasvirlanayotgani tashvish uyg‘otmasdan qo‘ymaydi” [3]. Bugungi tomoshabin yengil kulgu uyg‘otuvchi, yakuni yaxshilik bilan nihoyalanaadigan filmlarga qattiq bog‘lanib qoldi. Fikrlashga undovchi, tomoshabinga mulohaza yuritish uchun imkon beruvchi kino asarlaridan chekinish odatiy holga aylandi.

Filmning ilk ishchi nomi “Qaytish” bo‘lib, keyinchalik “Yakshanba” nomiga o‘zgartirilgan. Rejissyor yoshlar orasida zamon qahramoni aks etgan film suratga olish uchun ajratilgan grand mablag‘ini aynan qariyalar hayotiga bag‘ishlangan filmga sarflamoqchi ekanligini 2020-yildayoq oshkor etgan edi. Rejissyorning bu istagiga nisbatan O‘zbekiston Kinematografiya agentligi bosh direktori F. Abduxoliqov hech qanday e’tirozi yo‘qligini ma’lum qilgan. Aynan o‘zbek kinematografiyasida uzoq yillardan beri asosiy qahramonlar yoshlardan iborat bo‘lgan filmlar soni juda ko‘pchilikni tashkil etadi. Aslini olganda esa kino san‘ati barcha yosh kategoriyasiga mos keladigan filmlarni taqdim eta bilishi kerak.

S.A. Tugushi ta’kidlaganidek, “Mualliflik kinosi” yo‘nalish yoki maktab emas, chunki uning mohiyati o‘z qarashlariga ega ijodkorning erkin fikrlab, dunyoni cheksiz o‘rganishidir” [4]. Haqiqatan ham mualliflik filmlarida ifoda borasida chegara tushunchasi ortga chekinadi. Bunday erkin yondashuv kino san‘atining kuchli raqobatni yengib o‘tib, yangi formatlarga o‘tishiga va “yashab qolishiga” ko‘maklashadi.

“Yakshanba”ni tomoshabinbop va kassabop filmlar sirasiga kiritib bo‘lmaydi. Unda mualliflik filmlariga xos bo‘lgan tabu darajasidagi mavzu ham yo‘q. Uni tomosha qilish uchun bugungi tezkor zamon insonlari uchun noyob xislat bo‘lib borayotgan – sinchkovlik bilan filmni ko‘rish va mulohaza yuritish darkor. Media olami tinimsiz ravishda ko‘ngilochar kontentlarni taqdim qilayotgan bir davrda, sabr bilan film tomosha

qiluvchilar soni ham sezilarli darajada qisqargan. Aslida ham haqiqiy san'at asarlari xos odamlar uchun yaratiladi. Istaymizmi, yo'qmi, ko'p holatlarda ular ommaviy ravishda qabul qilinmaydi.

“Yakshanba” rejissyor Sh. Xoliqovning oddiy insonlarning odatiy, samimiy va ortiqcha bo'yoqlarsiz taqdim etilgan hikoyasiga asoslangan bo'lib, bunday hikoya qilish uslubi uning tashrif qog'oziga aylangan. “Shokir Xoliqov kartinasida o'zbekning dardi bor” [5]. “Yakshanba” “sokin” ruhda suratga olingan filmlar sirasiga kiradi: unda o'ta tezkor va shiddatli kadrda kadrda o'tish, voqealarning shitob bilan sodir bo'lishi kuzatilmaydi. Shu jihati bilan ham u tomoshabinni xayolini bir joyga jamlab, ko'rayotgan voqeligi haqida mulohaza yuritishiga sharoit yaratadi. Natijada uni ko'rgan inson nafaqat kechayotgan voqealarga, balki ularga yashirin tarzda singdirilgan ma'no-mazmunga e'tibor qaratadi.

Sh. Xoliqov “Yakshanba”da kino san'atida inqilob yasash istagida yonmagani sezilib turadi. Uning o'zi e'tirof etganidek: “...kinoda yangilik qilib bo'lmay qoldi” [6]. Rejissyor maxsus effektlar bilan yo'g'rilgan, shaharning shiddati aks etgan filmlar insonlar ongini egallab olayotgan bir davrda, bu sivilizatsiyadan uzoqlashib, sokin va sodda hayotga e'tiborini qaratadi. Bunday yondashuv o'zbek kinorejissurasida yangilik emas, albatta. Xususan, U. Hamdamovning “Issiq non” filmi ham aynan mana shu yo'ldan borib, mutaxassislar va tomoshabinlar e'tirofiga sazovor bo'lgan edi. “Tomoshabin filmdagi ramzlarga ko'chgan “ulkan bilim” orqali rejissyor nima demoqchiligini anglashi mumkin. Zero, ramzlar film mazmunini tushinishda bir kalit” [7].

Rejissyor tabiiylikni maksimal darajada saqlab qolgan holda, faqat va faqat kino tilida so'zlovchi ijod mahsulini yaratishni maqsad qilgan. Filmida ijodkor so'zlarni qo'llashda nihoyatda “ziqnalik” qilgani filmni to'la kino tilida so'zlashga majbur etgan. So'zlarning haddan ortiq ko'p qo'llanishi uning qadrini tushirishi inkor etib bo'lmas haqiqatdir. Rejissyorning bu tanlovi eron mualliflik kinosidagi yaxshi an'ana – hashamdorlik, aristokratiyaga xos hayot tarzi va maxsus effektlardan chekingan holda sof film yaratishga asoslanadi.

Film ssenariysi ustida jiddiy ish olib borilgani uning ilk daqiqalaridayoq ko'zga tashlanadi. Ssenariy muallifi Sh. Xoliqovning o'zi ekanligidan kelib chiqib, postanovkada muallifning g'oyasi to'liq ravishda yoritilgan deya olamiz. Xususan, Sh. Xoliqov bu ssenariy g'oyasini bir necha muddat avval o'ylab yurganini va keyinchalik ssenariyga aylantirganini e'tirof etgan edi. Filmida timsollarga (gugurt, ip, televizion kanallar, musiqa) juda katta urg'u berilgan bo'lib, bu mualliflik kinosining ajralmas qismi ekanligi hisobga olinsa, tabiiy holat deya qabul qilish mumkin. Xususan, rejissyorning hech bir ijodiy ishida asarning ma'no-mazmuni to'g'ridan to'g'ri kelib chiquvchi o'ta primitiv syujetdan foydalanilmagan. Timsollar ortidan borish yosh rejissyorga filmning qiymatini oshiruvchi vosita bo'lgani tahlil jarayonida ayon bo'ladi.

Film qahramonlari bugungi zamonaviy dunyoda borgan sari kamayib borayotgan prototiplardan bo'lib, ularning o'ziga xosligi oddiyligidadir. Avlodlar o'rtasidagi munosabatlar masalasi rejissyorning barcha filmlarida uchraydi. Sh. Xoliqov “Yakshan-

ba”da ham “Choy”dagi kabi kelajakni tanlangani ayon bo‘ladi. Ular betoblik chog‘ida ham erkalikni bilmaydigan, yon-atrofidagi hech kimdan (hatto farzandlaridan ham), hech narsa kutmaydigan va tama qilmaydigan qahramonlardir. Hayot shomi yaqinlashib qolgan ikki inson taqdiri filmning asosiy motivini tashkil etadi.

Cholning shusiz ham og‘ir fe‘l-atvorini qarilik yanada murakkablashtirgan, kampirning esa itoatkorligi va sadoqati yillar davomida toblanib, mustahkamlangani yaqqol ko‘zga tashlanadi. Chol (Abdurahmon Yusufaliyev) film avvalida o‘zining umri o‘tib, o‘tmishga aylanib borayotganini tan olgisi kelmaydi. Suvoqlari ko‘chib tushayotgan uyni o‘z qo‘llari bilan ta‘mirlamoqchi bo‘ladi-yu qarilik o‘z kuchini ko‘rsatib, buning uddasidan chiqolmaganida uning hamon vaqt o‘tib borayotganini tan olishni istamasligi ayon bo‘ladi. Chol uchun o‘zi umrini o‘tkazgan maskanning har qarich yeri aziz va qadr don bo‘lib, unga zarracha o‘zgartirish kiritishni istamaydi. Uning bu qaysarligi farzandlarini o‘zidan uzoqlashtirayotganini anglamaydi. Film boshida uning rafiqasiga bo‘lgan munosabati ham namunali emas. Ota-onasining qulaylikda yashashini istab, eski uyni yangi jihozlar bilan to‘ldirayotgan katta o‘g‘lining urinishlarini xushlamaydi, farzandlarini “pul topib, aql topmagan nodonlar” deb biladi. Kampirga esa “Bu uyda sendan boshqa eski narsa yo‘q” deya qo‘rslik bilan javob qaytarganida, uning ichidan zil ketganiga parvo ham qilmaydi.

Uning rafiqasi esa farzandlariga nazar tashlab, kulbadan tashqaridagi hayot ular yashab o‘tgan hayotdan tubdan farq qilishini allaqachon tushunib yetgan. Kampir (Roza Piyazova) chol va farzandlari o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini o‘taydigan qahramon sifatida diqqatni tortadi. Turmush o‘rtog‘i ham, farzandlari ham unga nisbatan adolat qilmayotganlari tomoshabin ko‘nglida g‘ashlik uyg‘otadi. Syujetni tahlil qilish borasida tajribaga ega bo‘lgan tomoshabin kampir bilan ko‘ngilsiz voqea sodir bo‘lishini tezda anglab oladi.

Yoshi bir joyga borib qolgan, farzand ko‘rib, ularni voyaga yetkazib, ammo ularning birortasidan to‘la-to‘kis mehr ololmagan ona turmush o‘rtog‘idan ham qadr topmayotgani kishini o‘yga toldiradi. Afsuski, bunday qahramonlar real hayotimizda ko‘plab uchrayotgani yurakda og‘riqli his uyg‘otadi. Bu haqda rejissyor A. Shahobiddinov: “Filmni ko‘rib, bir o‘zbek, bir o‘g‘il sifatida Shokirning ayol qahramoni oldida vijdonim qiynaldi” [8] deydi. Haqiqatan ham, ayniqsa, filmning boshida ikki qariya qarovsiz qolgandek taassurot uyg‘onganida bu aybdorlik hissi tomoshabinni chulg‘ab oladi. Oxori to‘kilgan libosda, eski oshxonada kuymalanib yurgan onaizorga achinish hissisiz boqishning imkoni yo‘q.

Ammo filmni tomosha qilishda davom etar ekanmiz, rejissyorning bejiz iste‘dodli ijodkor sifatida e‘tirof etilmaganiga yana bir bor amin bo‘lamiz. Chunki endi ma‘lum bo‘ladiki, ular farzandlari tomonidan butkul qarovsiz qoldirilgan kimsalar emas, balki shahar sivilizatsiyasidan xoli, sokin qishloq hayotini tanlagan juftlik ekani ayon bo‘ladi. Tomoshabin tomosha jarayonida ikki qutbga bo‘linishi mumkin: biri qariyalarning butun umri davomida ko‘nikkan qadriyatlarni tushunishni istamayotgan farzandlardan norozi bo‘lsa, ikkinchisi yoshlarni va zamon zaylini tushunishni istamay, qaysarlik qilayotgan ota-onani (ayniqsa, otani) “ayblashi” mumkin. Asl muammo esa qahramonlarning bir-birini tinglamasligida. Tinglashki, faqatgina so‘zlashuv bilan emas, ko‘z

qarashlari, sukut va qahramonning qadam tashlashi ham katta ma'no kasb etadi, ya'ni ularni ham "tinglash" mumkin.

Kuch-g'ayratga to'lgan yosh avlod doim jo'shqin hayotga intiladi. Ammo katta avlod vakillari uchun tinchlik-xotirjamlik – ulug' ne'mat. Xohishlarning turlichaligi sekin-asta konfliktni yuzaga keltiraveradi. Ona o'g'lining navbatdagi "mehribonchiligidan" g'azab otiga mingan turmush o'rtog'iga: "Qo'limizdan nima ham kelardi? Qoladigan ular..." deya aytgan xitobi qahramonlar xarakterini yanada ochilishiga xizmat qiladi.

Ikki qahramonda allaqachon qarilik alomatlari boshlanib, chol eski televizorining shang'irlagan ovozisiz, kampir esa eski muzlatgichning yoqimsiz ovozisiz uxlay olmaydigan holga kelgan. Ular bir-birni to'ldirish o'rniga eski jihozlarga bog'lanib, shu bilan qalbi va butun hayotidagi kemtikni to'ldirmoqchi bo'lishadi.

Chol turmush o'rtog'i bilan o'tayotgan har bir daqiqa g'animat ekanini tan olgisi kelmagani uchun o'zini go'yoki umr nihoyalab borayotganini o'ylamayotgandek tutadi va hatto u bilan bir uyda tunashni istamaydi. Mehr olishga intilib, unga tomon qadam tashlagan ayolini o'zidan itarib, sovuqqonligini isbotlamoqchidek bo'ladi. Ammo vaqt oliy hakam – u bizning hisobimiz bilan qiziqmay, o'z rejasi bo'yicha harakatlanadi. Nihoyat o'lim eshik qoqa boshlaydi va shundagina qaysar bosh qahramonni tuyg'ularini yashirishga madori yetmaydi. Butun borliq bilan olishishga unda na kuch va na xohish qolmaydi. Afsuski, u qancha mehr ko'rsatmasin, turmush o'rtog'ini yumushlaridan ozod etib, barcha og'irlikni bo'yniga olib, atrofida girdikapalak bo'lmasin shafqatsiz o'lim eshik qoqadi. Rejissyor va aktyorning mohirligi sabab voqealar rivojida tomoshabin mehribonga aylangan boboni yaxshi ko'rib qoladi.

Sh. Xoliqovga filmning yakunini to'y-tomosha bilan yakunlash, ya'ni "happy end" taklif etilgani, ammo rejissyor bu variantning u aytmoqchi bo'lgan yakuniy fikrga putur yetkazishini aytib o'tgan edi. Mukofotlar film uchun to'g'ri yakun tanlanganini isbot etmoqda. Finalda kutilmagan portlash bo'lishini istagan tomoshabinlar biroz salbiy fikrlar bildirgan o'rinlari ham bo'ldi. Ammo har bir asardan o'ta muarakkab, falsafiy yechim qidiraverish ham har dom to'g'ri bo'lavermasligini unutmazlik lozim. Ijodkor sodda odamlarning oddiy hayotini ekranga ko'chirishni maqsad qilgan ekan, yakun ham shunga monand bo'lishi o'zini oqlaydi.

Filmning katta yutug'i hayotni bezamasdan ko'rsatishga urinishidadir. Aynan samimiyat, haqiqatini aslicha namoyon etish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Ko'pchiligimiz sershovqin va tezkor shaharlarda yashab, asl hayot mazmuni haqida fikr yuritishni anchayin unutib qo'yganmiz. Tabiiylik, soddadillik, qishloqlardagi tabiat bilan chambarchaslikda kechadigan umrguzaronlik ko'pchiligimizga yot bo'lib qolgan zamonda "Yakshanba" bizga ko'zgu tutgandek bo'ldi. Filmda jimjimador maxsus effektlardan foydalanilmagani samimiyatni saqlab qolishga katta hissa qo'shgan.

Yakunda bosh qahramon o'zi tish-tirnog'i bilan qarshi chiqqan eski uyning buzilishiga beparvo holda o'tirganini ko'rgach, yana bir savol tug'iladi: o'zi u uchun nima qadrli edi? Rafiqasimi, farzandlarimi yoki uy timsolidagi qadriyatlarimi? Bosh qahramon bu hayotda eng oliy qadriyat inson ekanligini birmuncha kech tan oladi. Asli

hayotning asosi umr va o'lim o'rtasidagi bosib o'tiladigan yo'l ekanligiga "Yakshanba" yana bir bor eslatma berib o'tadi.

Rejissyorning yosh bo'lishiga qaramay, yoshi ulug' insonlar kechinmalari, hayot haqidagi falsafiy qarashlari, umr poyoni yaqinlashgani sari ko'ngilda paydo bo'ladigan umr sarhisobi mavzusiga qo'l urishining o'ziyiq katta natijadir. Filmda ikki bosh qahramonning bir-biriga nisbatan munosabati naqadar hayotiy ekanini ko'rib, rejissyorning o'ta sinchkov ekanligiga qoyil qolmay iloj yo'q. Odatda bunday mavzuga ma'lum bir yoshga yetib, hayotning achchiq-chuchugini totib, yashashdan asl ma'noni izlashga tushgan ijodkorlar qo'l uradi. Umrning naqadar bebaho va qisqa, dunyo boyligiga ham topib bo'lmaydigan ne'mat ekanligini anglash yana bir bor ko'z oldimizda namoyon bo'ladi.

Timsol sifatida gugurtdan juda ko'p foydalanilgani har qanday mutaxassis-u tomoshabin e'tiborini tortadi. Hatto haddan tashqari ko'p o'rin berilgandek taassurot uyg'otishi ham mumkin. Xususan, kampir va tamaki chekadigan cholning yondirgichdan foydalanishni bilmasliklari erish tuyulishi tabiiy. Umuman olib qaralganda ham yondirgich iste'molga kirib kelganiga ancha uzoq vaqt bo'lgan va tamakiga o'rgangan odam uchun undan foydalanishni bilmaslik rejissyorning qishloq aholisini sivilizatsiyadan o'ta uzilib qolgan tarzda ko'rsatishida bo'rttish bordek ko'rinadi. Lekin umumiy planda olib qaralganda, bunday mayda detallar filmning umumiy tuzilishiga jiddiy ta'sir etmaydi.

Bemorlik va o'limni har bir tirik jon totib ko'radi, ammo ulug' yoshga yetish har kimning ham taqdiriga bitilmaydi. Rivojlanish albatta yaxshi, ammo uning talablariga ko'nikolmayotgan qatlam vakillarining holi nima kechishi masalasi ham mavjud. Tomoshabin bunday vaziyat uni ham chetlab o'tmasligi mumkinligini his eta olsa, rejissyorning filmdan ko'zlagan maqsadini qisman tushunib yetadi. Film o'zbekona milliy koloritni saqlab qolgani bilan faqatgina o'zbek tomoshabinigagina tushunarli tor doiradagi asar bo'lib qolmagan, undagi tasviriy yechim umuminsoniyligi bilan hammaga tushunarlidir.

Qishloqda yashovchi bobo-buvisi bo'lmagan shaharliklar uchun ishkimli hovli, somon suvoqli uy, qaymog'i olinmagan sut, yangi yopilgan non isi va ta'mi hissin tushunish qiyinroq. Bolaligi qishloqda o'tgan tomoshabin uchun filmdagi har bir kadr nostalgiya. Afsuski, bunday hayot tarzi sekin-asta bobo-buvilar bilan birgalikda yo'qlikka tomon yo'l olmoqda. Asrlar davomida avlodlar avlodga o'tib kelayotgan qadriyatlar va turmush tarzi universallashtuvi ta'sirida tanazzulga yuz tutmoqda. Rejissyor "Yakshanba" orqali mana shu bizdan uzoqlashayotgan qadriyatlarni kadrlarga muhrladi.

Endilikda rejissyorning oldida yana bir qiyin vazifa bor: bu o'z uslubining asiri bo'lib qolmaslik. Kino olamida o'z yo'nalishini topgan ko'plab iste'dodli rejissyorlar vaqt o'tgani sari uslubni saqlab qolish ilinjida o'zlarini takrorlay boshlaganliklarini sezmay qolishadi. Avval boshida aytganimizdek, Sh. Xoliqov rejissurasida avlodlar o'rtasidagi munosabatlar katta o'rin tutadi va shuning uchun ham uning har bir filmida bu mavzu bo'y cho'zgan. Rejissyor keyingi ishlarida boshqa mavzularga ham e'tibor qaratishi uning filmografiyasi rang-barang bo'lishiga hissa qo'shadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Milliy kino san’ati va kinoindustriyani rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlili va bu borada mavjud muammolarni hal etish” masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi nutqidan // Ma’rifat, 2017, 30-dekabr, № 104. – 2-bet.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-avgustda mamlakat ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi nutqi. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir.

3. Тугуши С. А. «Авторское кино» как феномен культуры XX века. Вестник МГУКИ. 2014-3. 216 стр.

4. Qo‘shshayeva. [https://uza.uz/oz/posts/ozbek-kinosi-ozining-avvalgi-shuhratini-qayta-tiklay-oladimi\\_488184](https://uza.uz/oz/posts/ozbek-kinosi-ozining-avvalgi-shuhratini-qayta-tiklay-oladimi_488184)

5. Umarova N. Ramzlar jilosi\“O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, 2020. 52-son.

**Iqbol Meliqo‘ziyev**  
*S.A. Gerasimov nomidagi Butunrossiya davlat  
kinematografiya universiteti filiali direktori,  
san‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor*

## **KINOOPERATOR MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA TA‘LIMNI MODERNIZATSIYALASH**

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada kinooperatorlik san‘atining o‘ziga xosligi, badiiy xususiyatlari, shuningdek kasbiy ta‘lim masalalari borasida fikr yuritilgan. Kinooperator mutaxassislarni o‘qitish, bu boradagi ta‘lim tizimining shakllanishi, rivojlanish yo‘li va zamonaviy holati borasida mulohazalar bayon qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** *kino, kinooperator, san‘at, kinooperatorlik maktabi, ijodkor, fotokamera, rang, yorug‘lik, kompozitsiya, tasviriy yechim.*

**Аннотация.** *В данной статье рассматриваются своеобразие искусства кинематографии, художественные особенности, а также вопросы профессионального образования. Представлены мнения о подготовке кинематографистов, формировании образовательной системы в этой связи, пути развития и современном состоянии.*

**Ключевые слова:** *кино, кинооператор, искусство, киношкола, создатель. фотоаппарат, цвет, свет, композиция, живописное решение.*

**Annotation.** *This article discusses the uniqueness of the art of cinematography, artistic features, as well as issues of professional education. Opinions on the training of cinematographers, the formation of the educational system in this regard, the way of development and the modern state are presented.*

**Keywords:** *cinema, cinematographer, art, cinematographer, schools, teacher, camera, painting, lighting, composition, painting.*

Kinooperatorlik san‘ati texnika bazasidagi ijoddir. Shu bois mazkur sohaga kirishda texnikani o‘zlashtirishning o‘zi kamlik qiladi, bo‘lajak operator ijodkor ham bo‘lmog‘i lozim. Mazkur kasbni egallashda quyidagi vazifalarni egallash joizdir: “Operator – kinoda montajning o‘rnini bilmog‘i va tushunmog‘i lozim. Operator – kinoaktyor ishining metodikasi va texnikasini bilishi va tushunishi kerak. Operator – filmning tasviriy-dekorativ bezatish uslubini his qilmog‘i, rassom bilan ishlashni bilishi lozim. Operator-postanovkachi rejissyorning maqsad va g‘oyasini idrok etishi shart”<sup>1</sup>.

Asardagi muayyan g‘oyaning tug‘ilishidan uning film tarzida ishlab chiqilishi hamda tarqatilishi milliy madaniyat negizi va milliy-estetik an‘analardan kelib chiqmog‘i, badiiy ijod qonuniyatiga bo‘ysunmog‘i zarur. Hozirda ko‘plab o‘zbek filmlari tasviriy yechimida hind, koreys, turk filmlariga taqlid qilish va o‘z an‘analaridan uzoqlashish kuzatiladi. Buning bir tomoni kinotexnika bilan ham bog‘liq bo‘lib, suratga olish jarayoni va apparatining arzon tushishi, qolaversa, film targ‘ibotida internet vositasining qulayligi, sohaga tasodifiy kishilarning kirib qolishi sabab bo‘lmoqda.

<sup>1</sup> Исмаилов А. Кинооператорское мастерство. – Ташкент: УзДСМИ, 2004. – С.22.

Ma'lumki, kino rivojining ilk pallasidanoq kadrdagi ma'no-mazmun asosan tasvir orqali yoritilgan. Hozir esa rivojlangan yuqori texnologiyalardan foydalanilayotgan bo'lsa-da, hatto iqtidorli yosh operatorlar ishlarida ham badiiy tasviriy yoki san'at asari darajadagi kadrlar kamayib ketgan. Buning sabablaridan yana biri shuki, videoda tasvirga olinayotgan filmlarda kadrlarning vaqt davomiyligi qisqa bo'lib qolmoqda. Atigi 2–3 soniya davom etadigan, kadrdan kadrga tez-tez almashib turadigan ko'rinishlar operatorning “*jivopisniy*” tasvir yaratishi uchun kamlik qiladi, tomoshabin ham bunday qisqa vaqt ichida kadrdagi obyekt formasi va uning harakatidan boshqasini payqay olmaydi.

So'nggi paytlarda aksariyat yosh rejissyorlar ssenariyga yoki undagi aktyor dialogiga asosiy e'tibor qaratish bilan kifoyalanmoqdalar. Ular uchun tasvir, bo'layotgan voqeaning faktik ko'rinishiga aylanib qolgan, ayrim yosh rejissyorlar kino san'atining asosi optik-tasvir va fonik-ovozdan iborat ekanligini unutishgan. Endilikda ekran tasviriy jihatiga bo'lgan e'tibor yetarli emasligi tufayli kino ekrandagi spektaklga aylanib bormoqda, desak mubolag'a bo'lmas.

Hozirgi kunda ko'zga tashlanayotgan ijodiy muammolar amaliy faoliyat bilan chambarchas bog'lanib ketadiki, buning bir tomoni bo'lajak kinooperatorlar ta'limi masalasidir.

Jahon tajribasidan shu narsa yaxshi ma'lumki, boshqa sohalarga qaraganda, san'at sohasida, xususan, kinooperatorlik sohasida kam sonli mutaxassislar ta'lim oladilar. Bu albatta, sohaga nisbatan qiziqishning pastligidan emas, balki mazkur san'atning o'ta murakkab va kamyob ekanligidandir. Buni nazarda tutgan holda mamlakatimizda kinotasvirchilar tayyorlash ikki etapda – o'rta maxsus va oliy o'quv yurtida amalga oshiriladi. Bugungi kunda ikkita kollej hamda bir OO'Y kafedrasida kinotasvirchilar tayyorlash yo'lga qo'yilgan. Bular Toshkent madaniyat kolleji, Toshkent televideniye va radio kasb-hunar kolleji hamda O'zDSMIning “Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati” kafedrasidir. Bo'lajak kinooperatorlar o'rta maktab ta'limidan so'ng nomlari qayd etilgan o'quv yurtlarida tahsil olishlari, oliy ta'limni esa O'zDSMI da davom ettirishi mumkin. “Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati” kafedrasida bugungi kunda oliy ma'lumotli kinoteleoperatorlar tayyorlab beradigan respublikada yagona o'quv dargohidir.

Kino san'ati rivoji, mamlakatimizda kinooperator kadrlarga bo'lgan talab, yoshlarning sohaga bo'lgan qiziqishlari inobatga olinib, 1991-yilda O'rta Osiyoda birinchi bo'lib Mannon Uyg'ur nomidagi Toshkent Davlat san'at (hozirgi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat) institutida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Abdurahim Ismoilovning tashabbusi bilan “Kinoteleoperatorlik” bo'limi tashkil etilgan. Dastlab bu dargohda viloyat televideniylarida ishlayotgan operator assistentlari, yordamchi operatorlar, iqtidorli yoshlar talabalar safiga qabul qilingan edi.

1993-yildan boshlab “Kinoteleoperatorlik” bo'limining rivojlanishi va tashkiliy jarayonida san'atshunoslik fanlari nomzodi Abdumannon Ubaydullayev faol qatnashdi. Hozirda har ikki ustoz – A. Ismoilov va A. Ubaydullayev mazkur kafedrada ta'lim berib, o'z tajribalarini yoshlarga o'rgatib kelmoqdalar. 1997-yilda “Kinoteleoperatorlik mahorati” kafedrasida rasman tashkil etildi. Talabalarga dars berish uchun

amaliyotda katta tajriba orttirgan malakali mutaxassislar taklif qilindi. Jumladan, nomlari qayd etilgan ustozlar safiga O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Kim Gim Nyan, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, Davlat mukofoti sovrindori Hotam Fayziyev, “O‘zbektelefilm” studiyasi operatorlari K.Karimov, N.Gerasimov, O‘zbekiston ilmiy ommabop va hujjatli filmlar studiyasi” operatori Sh.Mahmudov, G‘.Shukurov va kinomuhandis L.Muhamedovlar, keyinchalik “O‘zbekfilm” kinostudiyasi operatori Hasan Fayziyev, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, Davlat mukofoti sovrindori, operator Turdi Nodirov, “O‘zbekfilm” kinostudiyasi kinoapparatura va optika bo‘yicha muhandis va tasvirga olish texnik bo‘limi boshlig‘i Serafima Kim, “O‘zbektelefilm” studiyasi kinooperatori Marat Soliyev, “O‘zbekfilm” kinostudiyasi rejissyor-montajchisi Adiba Nosirova, “O‘zbekiston ilmiy ommabop va hujjatli filmlar studiyasi” rejissyor-operatori Marat Ismoilov kabi o‘zbek kinosining taniqli namoyandalari qo‘shildilar. A.Ismoilov kafedrani boshqardi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mannon Uyg‘ur nomidagi Toshkent davlat san’at instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 21.07.2005-yildagi PQ-128-son qaroriga muvofiq, institut strukturasi qayta ko‘rib chiqildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2012-yil 4-iyundagi PQ-1771-sonli qaroridan so‘ng kafedraning ham moddiy-texnik bazasi boyitildi, o‘qitilish uslubi va yo‘nalishi yangilandi.

Hozirda “Ovoz rejissyorligi va kinooperatorlik mahorati” kafedrasida O‘zbekiston kino va televideniyesining tajribali mutaxassislari faoliyat olib boradilar, o‘qitish bakalavriyat va magistratura shaklida amalga oshirilib, sohaning ijodiy-texnik masalalarini qamrab olgan fanlar o‘qitiladi.

Bo‘lg‘usi kinooperatorlar sohaning asosi bo‘lmish fotografiya san’atining umumiy qonuniyatlari, tasviriy san’atning rang, yorug‘lik, kompozitsiya qonuniyati bilan bog‘liq predmetlarni o‘rganish bilan sohaga kirib keladilar. Zero, fotografiya bo‘lajak kinooperatorning poetik tasvirni his qilish idrokini tarbiyalaydi. Birinchi o‘zbek kinopublitsisti Malik Qayumov operator Daniil Demuskiy qo‘lida tahsil olarkan, ustozlari olgan fotosuratlar ilk bor tasvir, tasviriy yechim, kompozitsiya haqidagi fikrlarini shakllantirganligini bunday eslaydi, “D.Demuskiyning “Choyxona” deb nomlangan fotosurati bor. Unda oldingi planda yo‘g‘on tanali, fonus chiroq osilgan tol tagida, qo‘sh so‘rida oq yaktakli, yo‘l-yo‘l chopon kiygan kishilar hordiq chiqarib, suhbatlashib o‘tirishibdi. Ulardan biri qiyiq bilan boshini tang‘ib olgan. Orqa planda aravakash qo‘qon aravada ikki nuroniy kishini olib ketmoqda. Oldingi va orqa planlar bir-biri bilan solishtirilganda keskin kontrast holat ko‘zga tashlanadi. Xullas, 30-yillardagi tipik o‘zbek choyxonasi va qishloq kishilarining jonli obrazlari ko‘z oldimizda namoyon bo‘ladi. Suratdan professional fotografning yuksak san’atkorona didini sezish mumkin”<sup>2</sup>. Buningdek suratlardagi puxta kompozitsion qurilishlar, yorug‘lik-nurning me‘yori bo‘lajak operatorlar uchun o‘ziga xos saboq edi.

O‘qitish tizimida jahon xalqlari madaniyati, adabiyoti, tasviriy san’ati, arxitekturasini, din tarixi bilan bir qatorda tabiiy fanlardan fizika, kimyo, geometriyani o‘rganish, tasviriy san’atdagi mavjud uslublar va yangi oqimlar bilan uzviy ravishda bog‘liq

<sup>2</sup> Hasanov B. Malik Qayumov. – T.: Adabiyot va san’at, 1972. – 11-b.

bo‘lish katta ahamiyat kasb etadi. Kafedra kinematografiya sohasidagi bo‘lajak mu-taxassislarining film yaratish ishida, ijodiy va texnik muammolarni yechishda kerakli bilim va tajribaga ega bo‘lishini ta’minlaydi. Shu maqsadda kino-tele-video kameralar, yoritish uskunalari, suratga olish mini pavilyoni, montaj stoli kabi texnik uskunalar bilan jihozlangan. Bugungi kunda kafedra texnik uskunalarini modernizatsiya qilinishi talabalar uchun imkoniyatlar doirasini kengaytirdi. Talabalar ijodiy imtihon bilan qabul qilinadilar. O‘qish davrida esa har bir kurs rejasi bo‘yicha foto yoki video, oxirgi yilda bitiruv ishi sifatida qisqa metrajli film suratga olish yo‘lga qo‘yilgan.

Kinooperatorning tasviriy yechim yaratishdagi hammaslagi rassomdir. O‘zbek kino san’ati taraqqiyotida B.Chelli, G.Sentorn, S.Fedorchenko, V.Sinichenko, S.Ali-mov, A.Boim, L.Kusakova, V.Levental, E.Kolontarov, N.Dvigubskiy, N.Rahimboyev, M.Kartoshev, M.Romadin, V.Dobrin singari kinorassomlarining ijodiy faoliyati alohida o‘rin tutadi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, milliy kino san’atimizda yirik san’atkor, ul-kan rassom Varsham Yeremyan o‘ziga xos ijodiy maktab yaratib ketgan. Uning uslubiy o‘ziga xosligi, kinokartina yaratishdagi roli har qanday filmda postanovkachi rassom-ning o‘rni operatornikidan kam emasligi, aksincha, eng mas’uliyatli vazifalardan biri ekanligini isbot etgan edi. Bu rassomning film postanovkasi uchun tayyorlagan rasm-lari rejissyorlar N.G‘aniyev, K.Yormatov, Y.A‘zamov, Z.Sobitov, L.Fayziyevlar uchun chizma ssenariy bo‘lsa, operator D.Demuskiy, M.Krasnyanskiy, M.Penson, A.Pann, N.Ryadovlar uchun esa eskiz bo‘lib xizmat qilgan. Mahoratli rassom eskizlari qaysi tomondan yoritish, kamerani qay tomonga harakatlantirish, qanday kadrlarni qo‘lda yoki bo‘lmasa rels telejkada olish, qaysi vaziyatda transfokatoridan foydalanishni ko‘rsatib beruvchi o‘ziga xos barometr, muhim tayanch vosita sanalgan. Rassom ijodini tushuna bilish va u bilan ijodiy hamkorlik o‘rnata olish bugungi kun kinooperatorlari ishida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, hozirgi kunda kinooperatorlar O‘zDSMI da ta’lim olganlari holda kinorassomlar Milliy rassomlik va dizayn institutida tahsil ko‘radilar. Tabiiyki, ular-ning o‘zaro ijodiy aloqalar o‘rnatishi, birgalikda asar yaratishlari uchun yetarli da-rajada imkoniyat va shart-sharoitlar mavjud emas. Bunga hududiy masofa, dars jad-vallari, o‘quv-amaliy faoliyatning turlichaligi monelik qiladi. Mazkur ikki soha bitta yo‘nalishga xizmat qilishi va bu borada kino san’atining ko‘p yillik o‘z an’analari mav-jud ekanligidan kelib chiqqanda, ushbu muammoning hal etilishi endilikda nihoyatda muhimdir.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, texnik imkoniyatlarning kengayganligi ortidan ho-zirda kinooperatorlik sohasi bilan ko‘pchilik shug‘ullanmoqda. Ko‘p hollarda esa ha-vaskor operatorlar xususiy kinolarda suratga olish faoliyatiga ham jalb etilmoqda. Shu munosabat bilan hozirda faoliyat olib borayotgan kafedra qoshida havaskor operatorlar tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari ochish, ularda umumiy qonuniyatlarni o‘rgatish ishini yo‘lga qo‘yish mumkin. Mazkur o‘quv kurslarini tugallagan yoshlarga sertifikat berish va shu hujjat asosida xususiy filmlarda ishlash huquqini qo‘lga kiritishi amaliyo-tini tashkil etish lozim deb o‘ylaymiz. Bizningcha, mazkur faoliyatning yo‘l qo‘yilishi bugungi kunda xususiy kinoda kechayotgan muammolarga yechim topishda bir qadar ahamiyatli bo‘lishi mumkin.

Kuzatilganlardan ko‘rinadiki, har qanday jabhaning ertasi yetuk kadrlar tayyorlanishi bilan bog‘liq. Shunday ekan, kinooperatorlik sohasining taraqqiyoti ham o‘qitish tizimida islohotlar olib borish, predmetlar tizimida va tashkiliy jarayonlarda amaliy o‘zgartirishlar qilish nihoyatda zarurligini ko‘rsatmoqda. Hozirda jahon kino jarayonlarida tasviriy yechim borasida kechayotgan tub o‘zgarishlarni o‘rganish uchun o‘zaro ijodiy aloqalarni yo‘lga qo‘yish, mahoratli kasb ustalarini birgalikda film yaratish ishlariga jalb qilish kerak. Kinokinooperatorlik sohasida tahsil olayotgan talabalarning son jihatidan kamaytirib, sifat darajasini ko‘tarish va ularni amaliyot bilan ko‘proq bog‘lash zarur.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абулкасимова Х. Кино и художественная культура Узбекистана. – Т.: “Фан”, 1991.
2. Abulqosimova X. Kino san’ati asoslari/ X. Abulqosimova; mas’ul muharrir H. Ikromov; O‘zbekiston davlat san’at instituti. – Т.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2009. – 100-b.
3. Akbarov H. Adabiyot va kino. – Т.: G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1984.
4. Akbarov H. Sehrli yog‘du. Yillar va filmlar, yetuklik bo‘sag‘asida, ekran va ikki muammo. – Т.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1977. – 176-b.
5. Melikuziyev I. C inematographer’s ability in the creation of graphic image in uzbek historical films. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(05), 1554-1567. Retriyeved from [http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/1007\(2020\)](http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/1007(2020)).

**Baxtiyor Yakubov**

*O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti  
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori,  
san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

## **O‘ZBEK BADIY KINOSIDA ILK TARIXIY-BIOGRAFIK FILM**

**Annotatsiya.** *Ushbu maqola o‘zbek badiiy kinosidagi dastlabki tarixiy-biografik film bo‘lgan “Alisher Navoiy” kartinasi, uning yaratilish tarixi, badiiy-estetik, ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari haqidadir. Ushbu film oradan necha yillar o‘tib ham o‘zining badiiy qimmatini yo‘qotmay kelayotgani, ko‘p jihatlari bilan bugungi kun tarixiy film-lari uchun namuna vazifasini o‘tay olishi bilan dolzarbdir.*

**Kalit so‘zlar:** o‘zbek kinosi, tarixiy janr, rejissyor, kinodramaturgiya, tasviriy yechim, obrazli ifoda, kino tili, tarixiy voqelik.

**Аннотация.** *В данной статье речь идет о первом историко-биографическом фильме в узбекском художественном кино «Алишер Навои», истории его создания, художественно-эстетических, социально-философских особенностях. Этот фильм актуален тем, что даже спустя многие годы он не потерял своей художественной ценности и во многом может служить образцом для сегодняшних исторических фильмов.*

**Ключевые слова:** *узбекское кино, исторический жанр, режиссёр, кинодраматургия, изобразительное решение, образное выражение, киноязык, историческая реальность.*

**Annotation.** *This article is about the first historical and biographical film in Uzbek feature cinema “Alisher Navoi”, the history of its creation, artistic, aesthetic, social and philosophical features. This film is relevant because even after many years it has not lost its artistic value and in many ways can serve as a model for today’s historical films.*

**Keywords:** *Uzbek cinema, historical genre, director, film dramaturgy, visual design, figurative expression, film language, historical reality...*

O‘tgan asrning qirqinchi yillari vatanimiz tarixiga juda og‘ir kunlar, sinovli onlar sifatida yoziladi. Ikkinchi jahon urushi butun dunyoga ko‘rsatgan mudhish ta’sirini bizning millat boshiga ham solgani barchaga ayon. Shunga qaramay, xalqimiz o‘zining mardligi, jasorati, birdamligi, bunyodkorlikka bo‘lgan intilishi bilan barchaga namuna bo‘la oldi. Mana shunday og‘ir damlarda milliy san’atimiz, xususan, kinematografiyamizda katta yuksalishlar, yangiliklar sodir bo‘ldi. Garchi bu tiklanishni kimlardir urush davrida O‘rta Osiyoga ko‘chirib keltirilgan kinostudiyalar bilan bog‘lasalar-da, aslida milliy kadrlar tomonidan suratga olingan badiiy filmlar chinakamiga dunyo ahlini lol qoldirgani tarixdan ma’lum. Xususan, 1945-yilda rejissyor Nabi G‘aniyev operator Daniil Demuskiy bilan tasvirga olgan “Tohir va Zuhra” tarixiy-afsonaviy filmining dov-rug‘i olis Gollivudgacha borib yetgan edi. Mana shu film ta’sirida o‘zbek kinosida qator o‘zgarishlar sodir bo‘la boshladi. “1947-yilda Komil Yormatovning “Alisher Navoiy”

The pavilion often features screenings of select Uzbek films that capture the spirit of the nation – from stories rooted in Uzbekistan's Silk Road heritage to those exploring modern social issues. This duality of ancient and contemporary narratives provides a compelling glimpse into the evolving identity of the nation.

Uzbekistan's government has been actively supporting the film industry as a means of promoting the country's cultural and economic development.

The pavilion at Cannes serves as a promotional tool for the country's incentives for foreign filmmakers, including tax breaks, grants, and streamlined access to shooting locations that range from ancient cities like Samarkand and Bukhara to modern urban centers like Tashkent.

These efforts aim to position Uzbekistan not only as a center for unique storytelling but also as an attractive destination for international film production. With a diverse landscape that includes deserts, mountains, and historical architecture, Uzbekistan offers a variety of visually stunning backdrops for filmmakers.

The Uzbekistan Film Pavilion at Cannes symbolizes a bridge between Eastern and Western cinema, fostering a dialogue between filmmakers and film lovers from around the world. It reflects the country's ambitions to be seen as a dynamic player in the international film community and a country open to new ideas, perspectives, and collaborations.

As Uzbekistan continues to invest in its film industry and promote its unique cinematic voice, the future looks promising.

### Reference

1. Mirzamuhammedova M. Cinematography of Uzbekistan in the years of independence.
2. Teshabayev Dj. "Uzbekkino": results and prospects, "News of the week" newspaper.
3. The Classic French Cinema, 1930–1960 By C. G. Crisp / p223
4. <https://www.festival-cannes.com/>

Диана Маркарян  
старший педагог кафедры иностранных языков  
Санкт-Петербургский государственный институт  
кино и телевидения (Россия)

## КОРЕЙСКАЯ ДОРАМА: СКРЫТЫЕ СМЫСЛЫ В ПРОСТЫХ ФРАЗАХ

**Аннотация:** *Кинематограф – это мир, которому доступна возможность объяснить сложные вещи простыми словами. Корейские драмы уделяют достаточно большое внимание проблемам современного общества, пытаются найти возможные варианты решения имеющихся проблем, а высказывания, содержащиеся в себе важную, а иногда и заставляющую трепетать душу информацию наводят на определенные мысли и позволяют посмотреть на ситуацию с другой стороны.*

**Ключевые слова:** *корейская драма, цитаты из фильмов, крылатые выражения*

**Abstract:** *Cinematography is a world which has an opportunity to express difficult issues in simple words. K-Drama touches upon the problems of modern society, tries to find and show available ways of solving daily problems and expressions which consist of important information which from time to time makes you shiver, give us a great opportunity to think and reflect upon the problem and view the situation from different perspective.*

**Keywords:** *K-Drama, film quotes, eloquent expression.*

**Annotatsiya:** *Kino – bu murakkab narsalarni oddiy so‘zlar bilan tushuntirish imkoniyatiga ega bo‘lgan dunyo. Koreys dramalari zamonaviy jamiyat muammolariga juda katta e‘tibor beradi, mavjud muammolarning mumkin bo‘lgan echimlarini topishga harakat qiladi va muhim va ba‘zan yurakni to‘xtatuvchi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan bayonotlar muayyan fikrlarga olib keladi va vaziyatga boshqa nuqtai nazardan qarashga imkon beradi. .*

**Kalit so‘zlar:** *koreys dramasi, kino iqtiboslari, iboralar*

В корейском кинематографе достаточно большую роль занимает культурный аспект, который позволяет выделить корейское кино среди различных фильмов мирового кинематографа. В каждом фильме, вне зависимости от того, в какой стране он был снят, наблюдаются реплики героев, которые заставляют задумываться о каких-либо проблемах в жизни или посмотреть на какие-либо моменты несколько с другой точки зрения.

В корейских дорамах достаточно часто главные герои, не зависимо от того является ли герой злодеем или благодетелем, произносят фразы, которые находят отражение в состоянии героя, в его душевном равновесии и позволяют ему понять, на какой стадии он находится и в какую сторону ему двигаться далее. Такая особенность и способ построения диалогов героев является отличительной чертой корейского кинематографа, а именно дорам.

В данной статье будет рассмотрено несколько примеров подобных высказываний из разных отрывков дорам, фрагменты будут проанализированы с точки зрения воздействия словесных форм на героя и зрителя.

1. 죽음을 찾지 말라 죽음이 당신을 찾을 것이니 – не ищи смерти, смерть сама тебя найдет. (Дорама: *쓸쓸하고 찬란하神 – 도깨비*/»Токкеби», 2016-2017 г.)

Первое высказывание было обращено к главной героине драмы «Токкеби». В данном высказывании главный герой, а именно Токкеби, обращается к своей невесте, которая по приданию была предопределена для него с целью исцеления и возвращения в небесное царство. Она, понимая всю сложность своего положения и положения ее жениха говорит ему, что не желает его терять и хочет исчезнуть вместе с ним, на что он просит ее не следовать за ним, не искать смерти и упокоения вместе с ним, а дождаться своего часа, так как смерть рано или поздно придет за ней. Так и случается в конце, смерть забирает героиню, в ситуации, когда главный герой бессилен и никак не сможет ее спасти, хотя изначально именно она была призвана быть его спасением.

Если задуматься, то цитата действительно имеет глубокий смысл и заставляет нас задуматься о том, как прожить эту жизнь, призывает ценить время, проведенное здесь, на земле, исполнить все то, чего требует душа.

2. 안 좋은 추억이 가슴에 더 오래 남는데요 – плохие воспоминания дольше задерживаются в моем сердце. (Дорама: *사이코지만 괜찮아*/»Псих, но все в порядке», 2020 г.)

«Псих, но все в порядке» – это дорама, посвященная психическому здоровью. Главная героиня – успешный автор детских книг с антисоциальным расстройством личности, а главный герой работает в психиатрической больнице. Сцены в данной драме наполнены непредсказуемыми моментами и переносят нас на эмоциональные американские горки, которые ведут то к резким взлетам, то к еще более стремительным падениям. В приведенном фрагменте рассказывается о силе исцеления и о том, как у каждого из нас имеются обиды из прошлого за которые мы цепляемся. Мы переживаем их заново каждый день, и они часто влияют на то, как мы относимся к другим. Главные герои, после очередной перепалки приходят к перемирию, и герой просит девушку постараться оставить обиды в прошлом и начать жизнь с чистого листа, на что она, не имея сил бороться с обстоятельствами, сообщает, что печальные моменты занимают все ее воспоминания и она не может приобрести новые, положительные, приносящие радость и счастье.

Вероятнее всего автору хотелось показать ту разницу между человеком, который пытается бороться с обстоятельствами, тянущимися из прошлого и тем, кто, цепляясь за прошлое не дает себе жить в настоящем. Подобное высказывание дает возможность зрителю понять, что жизнь это постоянная борьба и те, кто смогут преодолеть все тягбы жизненного пути смогут обрести счастье.

3. 제 눈에 안경이다 – красота в глазах смотрящего (Дорама: *월계수 양복점 신사들*/»Джентльмены из ателье Вольгесу», 2016 г.)

В данном фрагменте драмы показан разговор двух женщин, о дочери одной из них и мать выражает в некотором роде возмущение в отношении того, что ее дочь отвергают:

4. - ...집으로 찾아온 미용실 원장이 다섯이 넘었어. 그런 애가 인물이 빠져서 퇴짜를 맞다니, 이게 가당키나 한 말이여(야)? / ... Ко мне домой пришли дизайнеры и предложили ей поучаствовать в конкурсе «Мисс Корея». И сейчас ее отвергают из-за ее внешности? Это же абсурд!

5. - 제 눈에 안경이라고 하잖아요. / Говорят: «красота в глазах смотрящего»

Данный фрагмент отчетливо указывает нам на то, что в жизни существуют тысячи мнений и они чаще всего не совпадают. Мать героини так нахваливает свою дочь, приписывая ей неземную красоту, не в силах оценить внешность дочери субъективно, ведь ни один родитель не пойдет на то, чтобы признать недостатки своего ребенка. Однако собеседник, используя фразу «Красота в глазах смотрящего» тонко намекает на то, что с одной стороны позиция матери понятна и она правильна, и в тоже время с другой стороны, она говорит о том, что существует и так называемый «взгляд со стороны», который тоже способен дать субъективную оценку человеку и тоже имеет право на существование. Таким образом автор дает зрителю возможность посмотреть на ситуацию с нескольких сторон, понять мысли и мотивы героев и возможно занять сторону одного из них.

Подводя итоги данного исследования, хочется отметить, что такие значимые фразы крайне важны для корейского кинематографа, так как позволяют, с одной стороны, раскрыть персонажа, его мыслительные и поведенческие паттерны, и с другой стороны, оказывают влияние на зрителя, давая ему пищу для размышления и возможность примерить на себя образ героя, найти новый смысл в жизни или пути исхода для сложных ситуаций. Также следует заметить очень интересный факт, что подобные высказывания произносятся в момент какой-либо беседы 2-х персонажей. Это позволяет достичь максимальной приватности и вовлеченности как героев, так и зрителя и создает эффект уединения и единения двух мыслительных потоков, которые сливаясь воедино способны найти выход даже из самых, казалось бы, неразрешимых ситуаций, а также отразить те стороны вопроса или проблемы, которые не всегда бывают видны.

## ЛИТЕРАТУРА

1. [https://www.fluentu.com/blog/korean/korean-drama-quotes/#toc\\_1](https://www.fluentu.com/blog/korean/korean-drama-quotes/#toc_1)
2. <https://www.90daykorean.com/korean-proverbs-sayings/>
3. [https://world.kbs.co.kr/service/contents\\_view.htm?lang=e&menu\\_cate=learn-korean&id=&board\\_seq=285589](https://world.kbs.co.kr/service/contents_view.htm?lang=e&menu_cate=learn-korean&id=&board_seq=285589)

**Абдурахим Исмаилов**  
профессор Государственного института искусств  
и культуры Узбекистана,  
Заслуженный деятель искусства Республики Узбекистан,  
**Камола Хидирова**  
доцент Государственного института искусств  
и культуры Узбекистана

## ТВОРЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОБЛЕМ КИНО В ТВОРЧЕСТВЕ СЕРГЕЯ МИХАЙЛОВИЧА ЭЙЗЕНШТЕЙНА

**Аннотация:** В статье рассматривается творческое наследие Сергея Михайловича Эйзенштейна, выдающегося советского режиссера и теоретика кино. Особое внимание уделено его новаторским подходам в монтаже и художественной композиции, а также влиянию его работ на мировую кинематографическую практику. Рассматриваются ключевые моменты в его творчестве, начиная с ранних фильмов и до поздних работ, включая их культурное и историческое значение.

**Ключевые слова:** монтаж, кинематографическая теория, киноискусство, художественная композиция, влияние на мировое кино

**Abstract:** This article explores the creative legacy of Sergei Mikhailovich Eisenstein, a prominent Soviet director and film theorist. Special attention is given to his innovative approaches to montage and artistic composition, as well as the impact of his works on global cinematic practices. The article examines key aspects of his career, from his early films to his later works, highlighting their cultural and historical significance.

**Keywords:** Montage, film theory, cinematic art, artistic composition, Influence on world cinema

**Annotatsiya:** Maqolada taniqli sovet rejissyori va kino nazariyotchisi Sergey Mixaylovich Eyzenshteynning ijodiy merosi ko'rib chiqiladi. Uning montaj va badiiy kompozitsiyaga innovatsion yondashuvlari, ijodining jahon kinematografiya amaliyotiga ta'siriga alohida e'tibor qaratilgan. Uning ijodidagi muhim lahzalar, uning dastlabki filmlaridan tortib keyingi asarlarigacha, jumladan, ularning madaniy va tarixiy ahamiyati ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** montaj, kino nazariyasi, kino san'ati, badiiy kompozitsiya, jahon kinosiga ta'siri

Мировая известность достигла Сергея Михайловича в молодости, в начале 1926 года, сразу после премьеры фильма «Броненосец “Потёмкин”» в Берлине, и не покидала его ни в период безмерных похвал, ни в эпоху репрессий, постигших его творения и едва не стоивших ему самому свободы и жизни. Она сопровождала имя Эйзенштейна даже во времена, когда стала казаться устаревшей «типажно-монтажная» стилистика его ранних фильмов, и позже, когда со скепсисом воспринимали «оперно-фресковый» строй его поздних постановок. Новые поколения кинематографистов спорили с его режиссерской практикой, с его теоретическими постулатами – но тем самым волей-неволей возвращали их в актуальное

поле экранного искусства. В течение всего XX века приливы и отливы внимания были не только индикаторами интереса к наследию Эйзенштейна, но и сейсмограммами социальных процессов в той или иной стране. Удивительным образом, тяга к нему пробуждалась в такие моменты истории, когда в стране начинались сдвиги в общественном сознании, а затем происходили перемены в государственном устройстве – то на Кубе, то в Португалии, то во Франции или Бразилии... Примечательной стороной возрождавшегося внимания был сознательный отказ от эпигонства – от поверхностного подражания фильмам Эйзенштейна в тематике и стилистике постановок. Его идеи и открытия усваивались на глубинном уровне – и даже в полемике с ними. Так бразилец Глаубер Роша туго переплетает социальную критику с фольклорной мифологией, подхватив основную традицию незавершенного фильма Эйзенштейна «Да здравствует Мексика!» Так Жан-Люк Годар, вернувшись после гимнов Дзиге Вертову и агиток 1968 года в игровое кино, все более радикально выявляет ресурсы гипотезы об «интеллектуальном кино» и возможности звукозрительной полифонии в цифровую эпоху. Так Фрэнсис Форд Коппола, в поисках «большого стиля» для постановки «Крёстного отца», находит его не в опере-сериа на сцене «Ла Скала», а в экранном «Иване Грозном».

Как тут не вспомнить давнюю остроту Виктора Шкловского об Эйзенштейне – он-де разошелся в кинематографе, как сахар в чаю. Во второй половине XX века случается еще одна метаморфоза славы Сергея Михайловича: она выходит за пределы кино. После публикации теоретических трудов, при его жизни не издававшихся, ими заинтересовываются психологи и антропологи, лингвисты и семиотики, генетики и кибернетики. Прозвище «Леонардо да Винчи кинематографа», данное Эйзенштейну еще в молодости за разнообразие и мощь дарований, оправдывается тем, что его идеи, казавшиеся современникам странными или ошибочными, осознаются вдруг как прозрения и открытия.

На своих занятиях со студентами во ВГИКе Эйзенштейн любил раскрывать принципы композиции путем «раскадровки» и монтажного анализа сложных произведений живописи, таких как «Тайная вечеря» Леонардо да Винчи, «Изгнание торгующих из храма» и «Буря над Толедо» Эль Греко, «Боярыня Морозова» и «Утро стрелецкой казни» Сурикова, В Серова «Девушка с персиками», портрет М.Н. Ермоловой.

Разделяя картину на десятки «кадры в» различной крупности и располагая эти «кадры» в определенном смысловом, драматургическом порядке, студенты как бы оживляли картины, превращали зафиксированный в статике момент действия в процесс, развивающийся во времени и пространстве. Эти занятия, развивая творческую фантазию будущих режиссеров, операторов одновременно учили их скупости, сдержанности, экономии изобразительных решений, умению эксплуатировать каждый штрих, каждую деталь для выражения основной мысли. Лучшие из студенческих работ (В.Кадочникова, П.Павленко, К.Пипинашвили и других) Эйзенштейн обрабатывал сам, предупреждал, что хочет использовать их в своих теоретических работах описывая их в своих статьях.

Снабженная рисунками и схемами эта статья «Эйзенштейна о монтаже» является шедевром монтажного мышления и должна изучаться студентами как блестящий пример кинематографической режиссуры.

Эйзенштейн смело выстроил систему приемов монтажа раскадровок – от наиболее простого, повествовательного к самым сложным, обусловленным тонкостям художественной формы и идейного содержания. Применение всех этих приемов Эйзенштейн считал возможным в рамках одного фильма, в зависимости от содержания сцен, от намерений режиссера.

А коллеги уже не удивляются тому, что он еще в 1931 году в письме к Эсфири Шуб написал странные для режиссера слова: «Кинематограф занимателен постольку, поскольку он “маленькая экспериментальная Вселенная”, по которой можно изучать законы явлений, гораздо более интересных и значительных, чем бегающие картинки».

«Броненосец Потемкин» был первым советским фильмом, который восторженно приняли за рубежом: в 1926 году на Выставке искусств в Париже ему была присуждена большая золотая медаль. Лучшим фильмом в мире был признан «Броненосец Потемкин» и спустя более тридцати лет, в 1958 году, в результате закрытого голосования, проведенного среди кино-критиков и киноведов на Всемирной выставке в Брюсселе.

Это фильм Броненосец «Потемкин» является фильмом для всех народов и времён писал выдающийся режиссёр Чарли Чаплин.

Посещая Третьяковскую галерею и увидев картину художника И.Репина «Иван Грозный с сыном» у С.Эйзенштейна появилось идея написать сценарий и снять фильм под названием «Иван Грозный». В 1946 году сняв фильм «Иван Грозный» в творческом содружестве с операторами Э.Тиссэ, А.Москвинным удостоено Сталинской премией 1-степени. Далее у Сергей Михайловича Эйзенштейна появилось идея написать второй серии сценария «Иван Грозный» пригласив на картину операторов Э.Тиссэ и А.Москвина и художника И.Шпинеля приступил к съёмкам. Снимая фильм «Иван Грозный», режиссёр С.Эйзенштейн и оператор фильма А.Москвин учился у великого Рембрандта искусству светотени, уметь передать свет объём, фактуру, вводить свет (освещение) в сюжет картины. С.М.Эйзенштейну нужна была сложная в борьбе ЧБ света и тени, мизансцене, в динамике цвета – реализацию основного конфликта кинотрагедии. В нем как бы снова ожила зрительная поэзия немого кино, слившись в гармоничном единстве с музыкально звучащим киноизображением. Здесь каждый кадр и жест, движение актера вписано в живописную кино композицию, заданы режиссерским сценарием фильма.

Иван Грозный подозрением понимает, кто был центром боярского заговора против него, – слабоумный Владимир Старицкий с дурашливой радостью надевает Мономахову шапку и бармы, берет скипетр и державу, выдавая этим свою мать тетку царя. Огонь мщенья и ненависти, злой страсти такой силы бушует, Иване, что сжигает не только его врагов, но и самого Ивана.

Каждый кадр – законченная живописная композиция, по гармонии пластики и силе выразительности ничуть не уступающая станковой картине. И главное, несущая в своих изобразительных элементах – в борьбе света и тени, мизансцене, в динамике цвета – реализацию основного конфликта трагедии. В нем как бы снова ожила зрительная поэзия немого кино, слившись в гармоничном единстве с музыкально звучащим словом. Здесь каждый жест и движение актера вписаны в живописную композицию, заданы режиссерским видением.

Один из центральных эпизодов второй серии «Ивана Грозного» – при в Александровой слободе – решен Эйзенштейном и Москвиным в цвете. В стихию черно – белой живописи ворвалось кровавая пламя, как говорил Эйзенштейн цветового эпизода как написано монтажные кадры в режиссёрском сценарии фильма.

Можно без преувеличения сказать, что это сильнейшая сцена фильма и одна из наиболее интересных попыток овладения драматургией цвета в мировом кино с помощью киномонтажа она сделано на самом раннем этапе, когда кино едва едва преодолевало свою техническую и эстетическую неграмотность в вопросах цвета.

Работа Эйзенштейна и Москвина опередила поиски кинематографа в этом направлении. Специфику цвета в кинематографе, его особую роль и значение открыли на экране Эйзенштейн и Москвин. Они первыми освоили цвет как динамический фактор, изменяющийся во времени и пространстве и несущий в своем движении глубочайший внутренний смысл.

Освещение, свет в кинематографе, могучее изобразительное средство эмоционального раскрытия содержания кадра, эпизода и фильме в целом.

Великие живописные произведения Рембрандта – чародея света – питали наши искусство.

Термин «рембрандтовское освещение» приобрел у нас свой смысл, а «рембрандтовский свет» – свой характер.

В борьбе цвета и монтажа в его движении и реализуется накаленный драматизм этой сцены.

Цвет не только усилил драматическую коллизию эпизода, но и с предельной доступностью выразил то, что другими средствами было невыразимо.

Расчет создателей фильма «Иван Грозный» был верным. Чувство цвета, «которое является популярнейшей формой эстетического чувства вообще», могло и стало одним из сильнейших выразительных средств мирового кинематографа. Это было еще одним открытием драматургии цвета С.М.Эйзенштейна и А.Н.Москвина в открытии нового языка в мировом кинематографе.

С этой статьёй ещё не заканчивается творческое исследование Сергея Михайловича Эйзенштейна. Сегодня самые авторитетные мировые киноведы едины во мнении о том, что Сергей Эйзенштейн стал настоящим автором кинематографа. Имя Эйзенштейна навсегда останется в истории мирового кино. Кроме того, Эйзенштейну удалось создать особую киношколу, в рамках которой он старался раскрыть в каждом из учеников их собственную индивидуальность. Творческие и теоретические труды Эйзенштейна не устарели и сегодня, так как он занимался исследованием не специфики кино, а поиском его сходства с другими видами искусства.

## ЛИТЕРАТУРА

1. В.Нильсон. «Изобразительное построение фильма» 1936 г. Кинофотоиздание.
2. Р.Н.Ильин. «Мастерство оператора кино и телевидения».
3. С.Эйзенштейн. «Избранное сочинение» в 6 томах.
4. А. Д. Головня. Мастерство кинооператора. – Москва: Искусство, 1965.
5. А.Исмаилов. Кинотелеоператорское мастерство. – Ташкент, 2004.

## **KINOSHUNOSLIK FAN SIFATIDA**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada kinoshunoslik va kinoshunoslikning kelib chiqish tarixi yoritilgan hamda ularning rivojlanish yo'llari fanlararo kesimda tahlil qilingan. Jahon kinematografiyasining yetakchi tarixchilari va nazariyotchilarining, shu jumladan rus va milliy asarlari tarixiy kontekstda ko'rib chiqilgan. Ayniqsa, o'zbek kino mutaxassisleri va kino tanqidchilari tajribasi va yutuqlari, ularning O'zbekiston kino san'ati rivojiga qo'shgan hissasi, yosh avlodni kinoshunoslikning professional kadrlari sifatida tayyorlash masalalariga ham e'tibor qaratilgan.*

***Kalit so'zlar:** kinematograf, kino san'ati, san'atshunoslik, kinoshunoslik, kino tanqidchilik, tahlil, kino, film, tarix, nazariya, muammo, tendensiya, kino jarayon.*

***Аннотация.** В статье освещается история зарождения киноведения и кинокритики и анализируются пути их развития в контексте междисциплинарной науки. В историографическом разрезе рассматриваются труды ведущих историков и теоретиков мирового киноискусства, в том числе российского и национального. Особо прослеживается опыт и достижения узбекских киноведов и кинокритиков и их вклад в развитие киноискусства Узбекистана, уделяется внимание и вопросам подготовки молодого поколения профессиональных кадров киноведческой науки.*

***Ключевые слова:** кинематограф, киноискусство, искусствоведение, киноведение, кинокритика, анализ, кино, фильм, история, теория, проблема, тенденция, кинопроцесс.*

***Annotation.** The article highlights the history of the origin of film studies, film criticism, and analyzes the ways of their development in the context of interdisciplinary science. The works of leading historians and theoreticians of world cinema, including Russian and national ones, are examined in a historiographical context. The experience and achievements of Uzbek film experts and film critics and their contribution to the development of cinematography in Uzbekistan are especially traced. The article also pays attention to the issues of training the young generation of professional cadres of film studies.*

***Keywords:** Cinematography, cinematography art history, cinematography, film criticism, analysis, cinema, film, history, theory, problem, trend, film process.*

Kinoshunoslik kino san'ati, falsafa, sotsiologiya, psixologiya, tarix va madaniyatshunoslik, texnogen san'ati elementlarini o'z ichiga olgan fanlararo sohadir. Bu fan kinonon san'at, media vositasi va jamiyatning real badiiy ko'zgusi sifatida rivojlanib keldi.

Kinoshunoslik tarixi kinoning paydo bo'lishidan boshlab yuz yildan ko'proq vaqtga borib taqaladi. Bu davrda kinoshunoslar kinoning san'at va ommaviy axborot vositasi sifatida mohiyatini tushunishga yordam beradigan ko'plab nazariya va tahlil usullari-

ni ishlab chiqdilar. Shu bilan birga, ular kino san'atining madaniyat va jamiyatga ta'siri, dunyoqarash va badiiy didni shakllantiradigan roliga katta e'tibor qaratdilar.

Zamonaviy kinoshunoslik filmlarni tahlil qilish bilan cheklanib qolmaydi, balki ular yaratilgan va iste'mol qilinadigan madaniy kontekstni ham o'rganadi. Bu bizga kinoning ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar va tendensiyalarni qanday aks ettirishi, hayotimiz va dunyoni idrok etishimizga ta'sirini tushunishga yordam beradi.

Ushbu maqolada kinoshunoslikning asosiy jihatlari, uning tarixi, metodologiyasi va asosiy yo'nalishlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada kinoshunoslik sohasida paydo bo'lgan muhim nazariya va tushunchalar, zamonaviy tadqiqotchilar oldida turgan dolzarb mavzular, muammolar tahlil qilinadi.

Kinoshunoslik kinodramaturgiya muammolari, kinorejissura, kinooperatorlik, aktyorlar mahorati, kinomusiqqa, kinorassomchilik, ovoz rejissyorligi, liboslar bo'yicha rassomchilik, grim ustasi va boshqa masalalarni yillar davomida o'rganib kelgan fan hisoblanadi va kino tarixi, uning shakllanish hamda rivojlanish jarayonida muhim rol o'ynaydi.

Kinematografning paydo bo'lishi va rivojlanishi jarayonida ko'ngilochar tomoshadan san'at turiga aylanishining turli davrlarida kino asarlarni nafaqat tomosha qilish, balki uni tahlil qilib tanqidiy fikr yuritish ehtiyoji paydo bo'ldi. XX asrning 1910–1920-yillarda kino hali ovozsiz bo'lgan bir davrda Yevropaning turli mamlakatlarida, masalan, Fransiya, Germaniyada ilk tahliliy ishlar paydo bo'la boshladi. G.Uefker, V.Panovski, E.Alteplab (Germaniya), R.Kanudo (Fransiya) ishlarida teatr va kino aktyorlarining ijrosidagi farq, filmning sotsiologiyasi, tasviriy yechimiga e'tibor berilgan. A.Antuan, L.Dellyuk, L.Mussinak (Fransiya) san'atning boshqa turlari ichida kino spetsifikasini o'rganishgan. Ushbu mualliflar ishlarida "harakatdagi tasvir", "ko'rinarli musiqa" singari yangicha nazariyalar yuzaga keldi. Ba'zi bir tadqiqotchilar kinoni elitar san'at deb hisoblashdi (A.Shomet). Kinoshunoslik bilan bir qatorda kino tanqidchilik ham paydo bo'la boshladi. 1930-yillarga kelib ko'zga ko'rinarli nazariy ishlar ichida kino san'atiga bag'ishlangan tadqiqotlarda kinematograf murakkab va mutlaq obyekt sifatida o'rganila boshladi (A.Арнхейм. "Кино как искусство" ("Kino san'at sifatida"), Germaniya). Mazkur tadqiqot ishida asosan kino san'atining ovozsiz davri o'rganilgan. Angliyada esa ilk jahon kino san'ati tarixi kitobi nashr etildi (П.Рота. "История кино до наших дней"). Nemis kinoshunoslari R.Arnxeym va Z.Krakauer o'z kinoshunoslik tadqiqotlarini keyinchalik AQS-Hda davom ettirdilar. Ikkinchi jahon urushidan keyin 1939–1945-yillarda italiyalik kinoshunoslar U.Barbaro, L.Kyarini, G.Aristarko o'z ishlarida kinoda realizm qonuniyatlarini o'rganib chiqqan holda, kino san'atining ijtimoiy kuchini isbotladilar. Fransiyalik kinoshunos J.Sadul "Butun jahon kino tarixi" 6-tomlik kitobini yaratdi (1946). Polshalik taniqli kinoshunos Y.Teplisning "Kino san'ati tarixi" 4 tomli kitobi kinoshunoslik fani uchun juda katta manba sifatida xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, fransiyalik kinoshunos A.Bazenning "Что такое кино?" ("Kino o'zi nima?") kitobi kino tanqidchiligi va kinoshunoslikning absolyut klassikasi deb hisoblanadi. A.Bazen kinoni teatr, fotografiya va boshqalardan farq qiladigan alohida san'at sifatida birinchilardan bo'lib tushungan. U kino – bu rejissyorning san'ati degan g'oyani

ilgari surdi. Kinorejissyor Bazen fikricha, bu filmning yaratuvchisidir. A. Bazen bu kitobida ko‘plab tanqidiy va nazariy fikrlar bildirgan [7, 9–10-b.].

Shu tariqa, kino sohasidagi ilk izlanishlar 1914–1918-yillarda Birinchi jahon urushidan oldin paydo bo‘lgan. 1920-yillarda san’atning boshqa turlari – “harakatlanuvchi rasm” va “vizual musiqa” singari kinoning o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganildi. Shu bilan birga, Rossiyada kino masalalarini o‘rganishga birinchi urinishlar bo‘ldi.

Kino san’ati rivojlangani sari uning ekspressiv vositalari, tabiati va badiiy imkoniyatlarini o‘rganish boshlandi. XX asrning 1960–1970-yillariga kelib jahon kino sohasida kinoshunoslik mukammal o‘rganila boshlandi. Xususan, Rossiyada kinoshunoslik san’atshunoslik va kinematografiyaning turli institutlarida o‘rganilgan.

Rossiya kino tarixi va nazariyasi yaratilishida ko‘plab kinoshunoslar va kinotanqidchilar faoliyat olib borganlar. Sobiq Ittifoqdagi Kino san’ati ilmiy-tadqiqot instituti, Rossiya san’atshunoslik instituti, S.A.Gerasimov nomidagi Butunittifoq davlat kinematografiya instituti (hozirgi S.A.Gerasimov nomidagi Butunrossiya davlat kinematografiya instituti), “Искусство кино” (“Kino san’ati”) jurnali hamda ko‘plab nashriyotlarda chop etilgan maqolalar, ilmiy ishlar, tanqidiy retsenziyalar bilan rus kino san’atining shakllanishi, rivojlanish bosqichlar, tarixi va nazariyasi yaratilgan. Rossiya kinosi taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan kinoshunoslik orasida S.Freylix, N.Zorkaya, A.Karaganov, I.Vaysfeld, M.Zak, R.Yurenev, B.Dondurey, V.Kichin, V.Matizen, Y.Bogomolov, Y.Stishova, M.Turovskaya, V.Kisunko, L.Mamatova, V.Malishev, I.Shilova, V.Shitova, M.Yampolskiy, V.Dyomin, L.Karaxan, S.Lavrentyev, K.Paramonova, Y.Tyurin, A.Fyodorov va boshqalarni sanab o‘tish joiz [7, 8-b.].

Bugungi kunda Rossiya kinoshunosligini A.Plaxov, K.Razlogov, A.Dolin, I.Didenko, S.Xoxryakova, A.Shemyakin kabi qator o‘z o‘rniga ega bo‘lgan va zamonaviy rus kino tanqidchiligi rivojiga mislsiz hissa qo‘shayotgan taniqli kinoshunoslar hamda kino tanqidchilar tashkil etadi.

Xalqaro Kino Matbuotlari Federatsiyasi (FIPRESCI, Fr. Fédération internationale de la presse cinématographique) – kinoshunoslar va kino tanqidchilarni birlashtiradigan xalqaro tashkilot hisoblanadi. U 1930-yil 6-iyunda Parijda tashkil etilgan. Tashkilotning maqsadi jahon kinosi rivojiga hissa qo‘shish, shuningdek, kino haqida yozadigan mutaxassislar manfaatlarini himoya qilishdir. FIPRESCI mukofoti ta’sis etilgan va u juda nufuzli sovrin hisoblanadi. FIPRESCI Bosh assambleyasi Italiyada joylashgan. FIPRESCIning Rossiyadan vakili taniqli kinoshunos K.Razlogov, MDH davlatlaridan a’zolari yetuk tanqidchi hamda kinoshunoslar G.Abikeyeva (Qozog‘iston) va G.Tolomushova (Qirg‘iziston), O‘zbekistondan esa san’atshunoslik fanlari doktori N. Karimovadir.

O‘zbekistonda kinoshunoslik fani XX asrning 1920-yillaridan rivojlana boshlagan. Unda yozuvchi, jurnalist, muharrir va boshqalar tomonidan kino haqida ilk maqola va taqrizlar chop etila boshladi. 1930-yillarda o‘zbek kinosining asoschilari va yetakchi mutaxassislari N.G‘aniyev, S.Xo‘jayevlar ham kino haqida risola va maqolalar e’lon qilishgan. 1949 yilda Z.Kalonovning “Sovet O‘zbekistoni kinematografiyasi” nomli birinchi kitobi o‘zbek va rus tillarida chop etilgan.

1950-yillarda adabiyotshunoslik sohasida faoliyat olib borgan kinotanqidchilar va ilmiy xodimlarning bir guruhi milliy ekran san'atining rivojlanish jarayonini o'rganishga kirishdilar. Bunga o'sha davrda ishlab chiqarilgan filmlar doirasining kengayishi, yirik kino ustalari guruhining shakllanib borayotganligi turtki bo'ldi. S.Muhamedov, R.Pirmuhamedov, M.Melkumov, A.Abdullayev, L.Fayziyev kabi kinochilarning o'zlari ham kinoshunoslik bilan shug'ullanganlar.

O'zbek kinoshunosligining rasmiy rivoji 1960-yillarning boshlaridan shakllangan. Bu san'atshunoslik institutida o'z ishini boshlagan bir guruh kinoshunolar faoliyati bilan bog'liq. J.Teshaboyev, X.Abulqosimova, X.Akbarov, B.Hasanovlar shular jumlasidan. Keyinchalik bu bo'limga M.Mirzamuhamedova, S.Xo'jayeva, V. Kosheleva, M.Zohidov, S.Xaytmatova kabilar kelib qo'shildilar. Bu davrda J.Teshaboyev ("Komil Yormatov", 1964; "Sovet O'zbekistoni kino san'ati", 1968; "Shukur Burxonov", 1968; "Asad Ismatov", 1968), X.Abulqosimovalarning ("Nabi G'aniyev", 1965; "O'zbek kinosining tug'ilishi", 1967) kino san'ati rivojlanish jarayoni, tarixi, o'zbek kino ustalari ijodi va boshqa masalalarga oid asarlari yaratildi, ilmiy-tadqiqot ishlari boshlandi. Asosiy e'tibor milliy kino nazariyasi masalalariga qaratildi, milliy kinodramaturgiya va rejissura rivoji, teatr aktyorlarining kino san'ati rivojiga qo'shayotgan hissasi, kinoning boshqa san'at turlari bilan o'zaro bog'liqligi kabi masalalarga qaratilgan asarlar yaratildi. O'zbek kinosidagi an'ana, milliylik va baynalmilallik, mashhur kino ijodkorlarining hayot va ijod yo'lini yoritishga alohida e'tibor qaratildi. B.Hasanovning "Malik Qayumov" (1970), "O'zbek hujjatli kinosi" (1972), X.Akbarovning "Yetuklik" (1971), "Sehrli nur" (1977), X.Abulqosimovanning "Taniqli rejissyor" (1971), "Yo'ldosh A'zamov" (1972), "Shuhrat Abbosov" (1976), J.Teshaboyevning "Qahramon – yirik planda" (1972), "Taraqqiyot yo'li va izlanishlar" (1973), "Ustaning baxti" (1975), "O'zbek kinosi: an'ana va novatorlik" (1979) kabi asarlari nashr qilindi. M.Mirzamuhamedovanning bolalar kinosi rivoji, "O'zbekfilm"da yaratilgan bolalar va multiplikatsion filmlarga bag'ishlangan "O'zbekistonda bolalar kinosi" (1976) kitobi chop etildi.

San'atshunoslik institutida 1980-yillarda yangi kitoblar bilan bir qatorda kino sohasidagi muhim muammolarga bag'ishlangan tadqiqotlar amalga oshirildi. Ularda ko'proq respublika kino san'atining turli jabhalari, milliy san'atda o'zbek kinosining tutgan o'rni va roli, televideniye va televizion filmlar muammolariga e'tibor berildi. X.Akbarovning "Zohid Sobitov" (1980), "Adabiyot va kino" (1981), "Latif Fayziyev" (1985), "O'zbekiston kino va televideniyesi" (1989), M. Mirzamuhamedovanning "O'zbekiston bolalar kinosi" (rus tilida, 1982), S.Xo'jayevaning "60–70-yillar Osiyo va Afrika mamlakatlari kino san'atidagi ilg'or g'oyalar" (1982), J.Teshaboyevning "O'zbek kinosi: izlanishlar va ishonchlar" (1984), X.Abulqosimova, J.Teshaboyev, M. Mirzamuhamedovalarning "O'zbekiston kinosi" (1985) kabi asarlari shular jumlasidan. Bundan tashqari, S.Xaytmatovanning "Становление и развитие телевизионного кино Узбекистана" (1987) X.Abulqosimovanning "Кино и художественная культура Узбекистана" (1992), N.Karimovanning "Молодой современный герой узбекского игрового кино (1960–1990)" (1997) singari ilmiy tadqiqotlari yaratildi. Ta'kidlash joizki, bu yillarda nafaqat o'zbek kinosi, balki hind, turk, arab mamlakatlari, qo'shni dav-

latlar kinematografiyasiga oid ilmiy tadqiqot ishlari o‘zbek kinoshunoslari tomonidan olib borildi.

Mustaqillik yillarida kinoshunoslik masalalari yuzasidan yangi davr nuqtayi nazaridan izlanishlar olib borildi. Ayniqsa, 2000-yillarda kinoshunoslikda o‘zbek kino tarixi yangi bosqichi bo‘lgan mustaqillik davrini chuqur o‘rganish maqsadida bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Bu tadqiqotlarda jahon kinosining zamonaviy tendensiyalarga oid masalalari, kinoshunoslik ilmida jamlangan nazariy bilimlarga asoslangan holda o‘zbek kinematografi tarixini qayta ko‘rib chiqish ustuvor vazifa qilib belgilandi. Jumladan, N.Karimova tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida “O‘zbekiston badiiy kinematografining shakllanishi va taraqqiyoti” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi yuzaga keldi. N.Karimova birinchilardan bo‘lib, kinoshunoslik masalalarini kengaytirgan holda, o‘z izlanishlarida nafaqat o‘zbek kino san’ati taraqqiyoti, balki keng ma’nodagi o‘zbek kinematografining bugungi kundagi dolzarb muammolariga e’tiborini qaratdi. N.Karimovanning “Игровой кинематограф Узбекистана” monografiyasi yangi avlod kinoshunoslarini ushbu yo‘nalishda to‘laqonli ta’lim va tahsil olishiga imkon yaratdi. Shu bilan birgalikda, 2008-yilda “Аннотированный каталог художественного кино Узбекистана 1925–2008” nomli kitobni yaratish ehtiyoji tug‘ildi hamda o‘zbek kinoshunoslari tomonidan tizimga solingan O‘zbekistonda yaratilgan filmlar ro‘yxati tuzildi (loyiha rahbari S.Xaytmatova). Bu davrda o‘zbek kinosining janr va turlari (multiplikatsiya, hujjatli kino, teleseriallar va boshqalar)ga bag‘ishlangan tadqiqot ishlar ham paydo bo‘ldi. Televideniye sohasiga ham alohida e’tibor berildi. Televideniye amaliyotidan chiqqan tadqiqotchilar F.Fayziyeva va I.Raxmatullayevalarning ilmiy tadqiqot ishlari mavzuviy jihatdan kinoshunoslikning ko‘lamini kengaytirdi. Respublikada kinoshunoslik va kinotanqidchilik safi ommaviy axborot vositalarida o‘z nashrlari, televizion ko‘rsatuvlari va bahslari bilan tanilgan O.Kopadze, F.Nodirova, E.Hasanova, B.Yakubov, E.Ganiyeva, R. Tursunmetova va boshqalar bilan yanada ko‘paydi.

Keyingi yillarda kinoshunoslik fani o‘z safini kengaytirmoqda. Zamonaviy o‘zbek kino san’ati nafaqat FA San’atshunoslik institutida, balki O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida ham o‘rganilmoqda. Professional kadrlar tayyorlash maqsadida O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida kinoshunoslik yo‘nalishi va mutaxassisligi tashkil etildi. Aytish mumkinki, so‘nggi yillarda qisqa vaqt ichida o‘zbek kinosi barcha jabhalardan o‘rganilmoqda. Xususan, kinoning boshqa san’at turlari bilan aloqadorligi, kino tur va janrlari, dramaturgiya, kinoda musiqa, operatorlik mahorati, kino san’atining barcha komponentlari singari mavzularda bakalavr talabalari, magistrantlar va ilmiy tadqiqotchilar (doktorantura, PhD) tomonidan izlanishlar olib borilmoqda hamda milliy kino rivoji uchun hissa qo‘sha oladigan loyiq kadrlar tarbiyalanmoqda. Bu yo‘lda institutda tashkil qilingan doktorantura (PhD) ta’limi ham o‘z natijasini bermoqda. Kinoshunoslikning dolzarb masalalaridan zamonaviy o‘zbek kinosida xarakter yaratish masalasi, tasviriy yechim muammolari, yangi davrdagi rivojlanish tendensiyalari, teatr va kino aktyori fenomeni, o‘zbek hujjatli kino masalalari, vizual madaniyat kabi mavzular yosh kinoshunoslar diqqat markazida.

Kino san'ati, shunindek, kinoshunoslik fani bir-birini to'ldiradgan kategoriyalardir. Kino san'ati rivojlangan sari kinoshunoslik ham rivojini topadi. Kinoshunoslikda ilmiy tadqiqot predmetiga aylangan, badiiy jihatdan ahamiyatli kinoasarlari yaratilsa va ko'paysa, kinoshunoslik fani kuchayadi, yanada rivojlanadi. Kinoshunoslik fani hali deyarli yosh bo'lsa-da, uning markazlashturuvchi kuchlari zamonaviy kinojarayonga samarali ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu juda muhim masala, chunki "kino san'ati san'atlar ichida eng muhimidir" deb bejiz aytilmagan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абул-Касымова Х. Кино и художественная культура Узбекистана. – Т., 1997.
2. Базен А. Что такое кино? Сб. ст. пер. с фр. – М.: Искусство, 1972. – 383 с.
3. Каримова Н. Игровой кинематограф Узбекистана: истоки. –Т.: Санъат, 2012. –120 с.
4. Кино.ru [Электронный ресурс]: новая энциклопедия кино. – Режим доступа: <http://www.kinox.ru/index.asp>.
5. Кино: энциклопедический словарь / гл. ред. С.И. Юткевич. – М.: Сов. энциклопедия, 1987. – 640 с.
6. Садуль Ж. Всеобщая история кино (6 томов). – М.: Искусство, 1958-1963.
7. Хренов Н. А. Киноведение как гуманитарная наука //Артикульт. – 2015. – №. 3 (19). – С. 6-17.

**Sayyid-Akmal Rasulov**  
*O'zbekiston davlat san'at*  
*va madaniyat instituti dotsenti,*  
*O'zbekiston Respublikasida*  
*xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi*

## **TASVIRIY KAYFIYAT – DRAMATURGIYANING PLASTIK OBRAZI**

***Annotatsiya.** Maqolada tasvir komponentlarining ekran asarida tutgan o'rni haqida so'z yuritiladi. Muallif tasvir salohiyati asar badiiyligi omili degan fikrni ilgari suradi. Zero, ekran asari badiiyatini oshiruvchi eng muhim jihat mualliflar ichki olami boyligidadir. Ushbu sintez kadrlar ta'sirchanligi omili degan fikr maqolada asoslab berilgan.*

***Kalit so'zlar:** tasvir, rassom, asar, ekran, epizod, kayfiyat, rejissyor, film, nur, soya, shakl, kompozitsiya, janr*

***Аннотация.** В статье говорится о роли компонентов изображения в экранном искусстве. Автором выдвигается мысль о том, что потенциал образа является фактором художественности произведения. Главным аспектом, повышающим художественность произведения, является богатство внутреннего мира авторов. В статье приоритет отдается идее о том, что этот синтез является фактором выразительности кадров.*

***Ключевые слова:** образ, художник, работа, экран, эпизод, настроение, режиссёр, фильм, работа, свет, тень, форма, композиция, жанр.*

***Abstract.** The article talks about the role of image components in screen art. In the text, the idea that the potential of the image is a factor of the artistry of the work is put forward. Another aspect that increases the artistry of the work is the wealth of the inner world of the authors. The idea that only this synthesis is a factor of the effectiveness of the shots is given priority in the article.*

***Keywords:** image, artist, work, screen, episode, mood, director, film, work, light, shade, form, composition, genre*

Dramaturgiya – kino yoki telerrassomning asar obrazli tasviriy yechimi izlanishlari manbayidir. Bu izlanishlar dramaturg aytmoqchi bo'lgan mazmunning rassom salohiyati orqali yoritilgan plastik aksi deyish o'rinli bo'ladi. Film tasviriy shaklini qurishda, uning tasviriy qatori mazmuniy yo'nalishini aniqlashda asar janri birlamchi jihat bo'lib xizmat qiladi. Eskiz kompozitsiyasi xususiyati, unda tasvirlanayotgan kechinmalar yuzaga chiqishida rassom asar janrini chuqur his qilishi va shu orqali o'z ijodida uni ifodalay bilishi lozim.

Film uchun yozilgan ssenariy asosan muhitning umumiy yechimini havola qilib, rassomga obyektlarni epizod ruhiga qarab turlicha ifodada tasvirlash ozodligini beradi. Bu o'rinda rassomning vazifasi eskizda tabiat manzarasimi, shu manzara qo'ynida yoki pavilyonda hayotiy-real, shartli-uslubiy qiyofadagi dekoratsiyami, qat'i nazar, uning yagona, eng qulay va ma'qul variantini taklif qilishdir. Bunday obyektlar eskizi tasvirga tushirish uchun mo'ljallangan muhitning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Rassom intilishida arsenalidagi tasvirlash va ifodalash vositalariga tayanib, so'zlar orqali shakllangan fikrni tasvirda aks etishiga zamin yaratadi. Kadrdan shunga xos tasviriy shakl, film janrini belgilovchi plastik obrazlar yuzaga chiqadi.

Kino va televideniye tarixidagi badiiy tajriba ekran ijodiyoti rassom individualligini namoyish etishga ziddlik qilmasligi, aksincha, unga keng imkoniyat berishini isbotladi. Rassom tomonidan dramaturgiyani interpretatsiya qilinishi – uni tasviriy-ifodaviy vositalar yordamida nigohan shakllantirishi o‘ziga xos tasviriy rejissurani namoyon etib, kino va televideniyeidagi muhim ahamiyatini ko‘rsatdi.

Dastgohli rangtasvirdan rassomlar teatrga olib kirgan «tasviriy rejissura» madaniyati an‘analari ekran tasvirida yangi izlanishlarga asos bo‘ldi. Bunda rassom tasvirga o‘z dunyosini olib kirishi, tabiati, munosabati, holatlari mushtarak bo‘lgan kayfiyatini ifodalashi uchun qulay sharoit yaratdi. Boshqacha aytganda «tasviriy rejissura» rassom uchun o‘zlikni namoyon etish vositasi, ehtiyojga aylandi. Rassom shaxsidagi salohiyat uning ichki olamida aks etib, ekran asarida tasvirga ko‘chadi. Ana shunda uning o‘ziga xos serqirra dunyosi asari badiiyatiga xizmat qiladi, rassomni hammuallifga aylantiradi.

Tasvir emotsional-ta‘sirchanlikka erishishida rejissyor va operatorning hayotiy kuzatuvlari, borliqqa munosabati, individual tafakkuri, salohiyati va rassom idrokini his etgan holda yondashuvi muhimdir. Faqat shundagina tasvirlar zanjirida so‘zlar birligi orqali dunyoga kelgan dramaturgik holatlar majmuasi ko‘z orqali nigohan anglaniluvchi plastik obrazlarga aylanib, tomoshabin tafakkuri va hissiyotiga singib ketishuviga erishiladi. Buningdek sintez tasvirni befarq, loqaydlik, aks taassurot uyg‘otuvchi badiiylikka zid kadrlardan xoli qiladi.

Aynan shu xususiyatni rejissyor D.Karimova (op. A.Sulaymonov) ekranlashtirgan, X.Davronning «Alg‘ul yoxud Mirzo Ulug‘bek» videoasarida ko‘ramiz. Tasviriy yechimni rassom (S.-A.Rasulov) saroy tashqi yaltiroqligi va shu hashamat qobig‘ida yashirin adolat va razolat, ziyo va riyo kontrastida qurdi. Asar shoh Ulug‘bek va o‘g‘li, shahzoda Abdullatif oralaridagi qarama-qarshiliklar atrofidagi voqealarni qamrab olib, olimning so‘nggi kunlari haqida hikoya qiladi. Syujet o‘zagi saltanatda yuzaga kelgan fojiali kunlarga asar qahramonlari – shoh Mirzo Ulug‘bek, valiahd Abdullatif, saroy a‘yonlarining qarashlari kontrastidan iborat. Konflikt ularning shu vaziyat yechimiga bo‘lgan turlicha mantiqiy munosabatlarini tasvirlaydi.

Asosiy obyekt – salomxonani planirovkasini uyushtirgan uslubiy tik ravoq va ustunlar muhitga monumentallik kiritdi. Mirzo Ulug‘bek tushib qolgan nochor ahvolni ifodalash maqsadida rassom dekoratsiya tizimini kompozitsion uzviylikda ishlab, salomxonani umumiy planlarda berk fazoviy makon – «oltin qafasga» aylantirdi. Mirzo Ulug‘bekning muammolar yechimini topa olmay ikkilangan – ruhi jismi bilan olishayotgan iztirobli onlarida buningdek tuzoq, serhasham muhit kontrast tuyg‘ular uyg‘otadi. Ushbu majoziylik Mirzo Ulug‘bekni qafasdagi sher talqinida aks ettirish imkonini berdi.

«Alg‘ul...» faqat Mirzo Ulug‘bek hayotining so‘nggi kunlarini yorituvchi asar emas. Spektaklda qahramonning podshoh va alloma sifatidagi bayoni qatorida, uning oddiy inson, ota siymosidagi odamiylik xususiyatlari ham ochiladi. U oddiy insonlardek nochor yoki tetik, shod yoki mahzun bo‘lishi, ehtiroslariga erk berishi, ichki g‘alayonlarini ifoda etishi asar voqealarida tasvirlanadi. Buningdek vaziyatlarni ifodalash maqsadida rejissyor qirq yil davlat tepasida turgan Mirzo Ulug‘bekning bolalik yillarida bobosi Sohibqiron Amir Temur bilan o‘tgan onlarini entikib, eslash sahnasini kiritgan.

Asarda Mirzo Ulug‘bekning ichki olami obrazli tarzda uning «Feruza»si timsolida ifodalanadi. Bu kabi rejissyor D.Karimova salohiyati hosilasi sifatida syujetga kiritilib, asar dramaturgiyasini sezilarli kuchaytirgan sahnalar adabiy asosda yo‘q. Ular Mirzo

Ulug‘bek ruhiyati va kechinmalariga xos olamni badiiy talqin etgan ijodkor rejissyorning ichki olami mevasi. Aynan shu epizodlar ekran asari badiiyligini oshirgan, tomoshabinni hamdardlikka chaqirgan. Asarda shu boisdan ham aynan shu epizodlar issiq kunda yengil erkalagan yoqimli nasimdek, mayin va salqin nafasdek zarur edi. Bu sahnalar asarga mahzunlik kiritdi, tomoshabinda hamdardlik uyg‘otdi – o‘ziga xos tasviriy rejissura uyushtirdi.

Keng darchalardan birining ochiq, girih tasvirli panjarasi orqali ko‘rinib turgan ko‘rkam bog‘. Subhidamoldi osmon fonida majnuntolning egilgan kokillari aro ko‘rinayotgan hilolning nozik «o‘rog‘i» va uni biri-biridan qizg‘anishib, ko‘zlari mo‘ltilayotgan yulduzlari... Xona markazida joylashtirilgan miz ustida bichimi naqsh-nigor bilan nafis bezalgan shamdonda parvonalar o‘zini urgan sham miltillab, jilolanadi. Nur va soya tuslari bilan yasangan muhit sirtida aks etayotgan turfa xil ko‘laga-yu, sharpalar bu yerga jon kiritadi... Bu ma’vo rassom ichki olami mevasi. Uni operator tasvirga mohirona muhrlaydi.

Mirzo Ulug‘bek ko‘zlari o‘ychan, nigohida harirdan harir parivash ro‘yo, yo xul-yomi zohir bo‘lib, sabo nafasida nafis qo‘shiq taraladi:

*Meni shaydo qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul,  
Xoru rasvo qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul...*

Ekran uchun yaratilayotgan badiiy asar rassomi uning qahramonlaridan bir mo‘yi kam bo‘lmagan asosiy «personaj»lardan. Zero, u har bir personaj bilan hamnafas – ular rassom vujudida yashaydi. Har bir qahramon qiyofasini tomoshabin aynan rassom nigohi – uning tasavvurlari orqali ko‘radi, xarakterining nozik «isi»ni rassom hissiyotlari orqali tuyadi. Rassom intilishlari nafaqat asar voqealari sodir bo‘luvchi muhitlar atmosferasi, voqelik ruhini tomoshabin nigohiga havola qilish. Asar ruhiyatini hissiyotga boy tomoshabin muhit atmosferasi – voqelikning tasviriy konstruksiyasi, uning yoritilganlik holati, rang va tuslar boyligi, maishiy predmetlar olami, libos tabiati orqali anglab yetadi. Sabab – rassomning intilishlari negizi aynan shu. Bu orqali tomoshabin nafaqat rassom, balki dramaturg, rejissyor va operator salohiyatiga ham baho beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Березкин В.И. Типология декорационного искусства. Советские художники театра и кино. – М.: «Искусство», 1982.
2. Арнхейм Р. Искусство и визуальное восприятие. – М.: «Прогресс», 1974.
3. Сборник статей. Художник и зрелище. – М.: Сов. художник, 1990.
4. Rasulov S.-A. Kino va TVda badiiy bezak. – T., 2018.
5. Muhamedov M., Fayziyeva F., Ablayeva V. Televideniye asoslari. – T: «Voris-nashriyot», 2009.
6. Jakson M., Tomarik J. Behind the screen. Directors Craft (master the art of directing actors and the camera) – USA, San Bernarfino C.A. 2016.
7. Rasulov S.-A. “Navoiy”, “Bobur” va “Alg‘ul yoxud “Mirzo Ulug‘bek””. – T.: “Ziyo Nur”, 2024.

## BADIIY FILMLAR YAXLITLIGIDA MONTAJ SAN'ATINING O'RNI

(rejissyor Shuhrat Abbosovning "Toshkent – non shahri" filmi misolida)

**Annotatsiya.** Mazkur maqola rejissyor Shuhrat Abbosovning "Toshkent – non shahri" badiiy filmining hozirda mavjud bo'lgan ikki variantiga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** epizod, personaj, obraz, maqsad, g'oya, syujet, montaj, badiiy yaxlitlik.

**Аннотация.** Данная статья посвящена двум доступным на данный момент версиям художественного фильма "Ташкент – город хлебный" режиссёра Шухрата Аббосова.

**Ключевые слова:** эпизод, персонаж, образ, цель, идея, сюжет, монтаж, художественное целое.

**Annotation.** This article is dedicated to the two currently available versions of the feature film "Tashkent, the City of Bread" by the director Shuhrat Abbosov.

**Keywords:** episode, character, image, goal, idea, plot, montage, artistic whole.

Montaj atamasi ma'naviy yoki ijodiy hayotimizda odatiy, biz anglamagan holda zaruriy darajadagi maqsadga muvofiq harakatimizni yakunlovchi tushunchadir. Shuning uchun bo'lsa kerak, internetda montaj so'zining o'zbek tiliga tarjimasi "o'rnatish" deb berilgan [1]. Maishiy hayotimizda barcha narsalarini biron joyga maqsadga muvofiq o'rnatamiz, lekin bu jarayon "montaj" atamasining mohiyatini ochmaydi. Biz har kuni nimanidir biron joyga o'rnatamiz. Biron narsaning qismlarini mantiqan va ketma-ket yig'ib, shu izchillik asosida yaxlit narsaga ega bo'lamiz. Demak, biz har kuni montaj yordamida o'z maqsadimizga erishib, maishiy hayotimizni takomillashtiramiz. Bu jarayon maqsadga muvofiq – jamlash, yig'ish, o'rnatish, butlash kabi bosqichni boshqargan – montajdan iborat ekan.

Masalan, biron jihoz xarid qilsak, uni o'z ko'rsatmasi asosida yig'ib, bir butun shaklga aylantirib, so'ngra foydalanamiz. Bolalar uchun xarid qilingan maxsus o'yinchoqlar ham ota-ona yordamida yig'ilib yaxlit shaklga keltiriladi. Bu jarayon bolalar tasavvurini o'stiradi. Demak, biz bolalarimizni ilk qadamdan qismlardan iborat bo'laklarni maqsadga muvofiq jamlashga, ya'ni montajga o'rgatar ekanmiz.

Ijod jarayonida montaj qanday ma'noni anglatar ekan deb internetga "kinoda montaj" deb tarjimaga bersak, "tahrir qilmoq" javobini olamiz [2]. Aslida, montaj san'atning boshqa turlari uchun ham xos. Masalan, ushbu jarayon teatr rejissurasida progon, kompozitorlar faoliyatida garmoniya, kinematografiyada esa montaj termini bilan ataladi. Kino san'atida montaj alohida jarayon ekanligi hamda bu shtatda mashhur ijodkorlar faoliyat yuritgani barchaga ayon.

"Tahrir qilmoq" badiiy ijod jarayoni uchun nihoyatda zarur. Chunki badiiy atamasi arabchadan o'zbek tiliga tarjima qilinganda "qayta ishlamoq", "g'oyaga bo'ysun-

dirib tahrir qilmoq” ma’nolarini anglatadi [3:300]. Demak, badiiy adabiyot yoki kino ma’lum maqsadga muvofiq qayta ishlangan va g’oyaviy jihatdan takomillashtirilgan degan ma’noni anglatadi. Kinoda montaj shtatida maxsus xodim faoliyat yuritishi sabab kinossenariy asosida, rejissyor rahbarligida, rassom va kompozitor hamkorligida operator va texnik xodimlar nazoratida jamlangan materialni film rahbari, ya’ni rejissyor montaj stoliga olib keladi.

Hayotning yozilmagan “qonuni”ga binoan ilk kino olgan havaskorga tajribali montaj ustasi birlashtiriladi. Agar u farosatli bo’lsa, montaj sirlarini ixlos bilan o’rganadi va olgan tasvirlarini ovoz, musiqa, so’z bilan boyita olsa ijodkorga aylanadi. U tajribali rejissyorga aylangach, Shuhrat Abbosov singari yosh montaj ustalarini tarbiyalay boshlaydi. Ularga o’zi duch kelgan montaj turlarini o’rgatadi. Ular, masalan, oddiy montaj, ya’ni tozalash, tarixiy voqeani asl holda saqlab qolish uchun “ortiqcha” joylarini olib tashlashdan iborat. Mafkuraviy montaj – davr talabidan kelib chiqib, ba’zan achchiq haqiqat bo’lsa ham, uni yumshatish. Murakkab montaj – chala olingan suratlarini rejaga binoan to’ldirish, qayta ko’rib chiqish. Mantiqan, kompozitsion, tempo-ritmik, g’oyaviy jihatdan tahrir qilish. Ijodiy hamkorlikdagi montaj – ikki ijodkor yaratayotgan yangilikdan zavqlanib, bir-birini to’ldirib, montajdan so’ng yanada boyitish mumkin bo’lgan jihatlarni – ovozdagi, so’zdagi, ohangdagi, musiqadagi tempo-ritmidagi, rangdagi imkoniyatlarni inobatga olib montaj qilish eng namunali badiiy yaxlitlikni dunyoga keltiradi. Bu jarayonlar haqida Shuhrat Abbosov filmlari alohida o’rganilishi lozim. Biz bugun quyida mafkuraviy montaj masalasiga qisman to’xtalamiz.

Rejissyor Shuhrat Abbosovning “Toshkent – non shahri” badiiy filmi 1967-yilda yaratildi. Film ssenariysi A. Neverov qalamiga mansub qissa asosida A. Konchalovskiy hamda A. Tarkovskiy hamkorligida yozilgan. Film operatori – Hotam Fayziyev. Rassom – E. Kalantarov. Montaj ustasi – M. Makarova.

Filmda samaralik Mixail Dodonov (Misha) ismli bolaning 1921-yilda yurtiga kelgan ocharchilikdan qutulish yo’li ko’rsatiladi. Tomoshabin Mishaning maqsadga erishish yo’li, uning hayot iztiroblarining guvohi bo’ladi.

“Toshkent – non shahri” filmining dastlabki namoyishi rejalashtirilgan bir yarim soat o’rniga ikki soat-u yigirma daqiqa davom etgan. Bahsli o’rinlari sabab uni qisqartirishni talab qilishdi [4]. Natijada film qisqartirilib, uning 104 daqiqali varianti yuzaga kelgan.

Ta’kidlash kerakki, hozirda filmning ikkita varianti mavjud. 2013 -yilda operator Hotam Fayziyev dastlabki versiyaning negatividan nusxa oldirib saqlab kelayotgan 154 daqiqali to’liq shaklini ommaga taqdim etdi [5]. Shu ma’noda, rejissyor g’oyasini ochib berishda va uning ko’lamini aks ettirishda qaysi nusxa muhim o’rin tutgan degan savol yuzaga keladi. Chunki 1967-yilda taqdim etilgan 104 daqiqali variant zamon, siyosat nuqtayi nazaridan tahrir etilgan variant edi. 2013-yilda keng ommaga namoyish etilgan variant esa 1967-yilgi nusxa uchun asos bo’lib xizmat qilgan.

Xo’sh, bu ikki qismli, umumiy hajmi 154 daqiqali filmning qaysi o’rinlari olib tashlangan, qisqartirilgan yoki kadrlar ketma-ketligi almashtirilgan? Bu ikki variant badiiy yaxlitligi Aristotelning yaxlitlik haqidagi nazariyasiga javob bera oladimi? Bilamizki, Aristotel nazariyasiga ko’ra, “yaxlit narsa ibtidosi, o’rtasi va intihosi bo’lgan narsadir” [6:32].

Senzura sabab filmning ikki qismdan iborat dastlabki variantining quyidagi epizodlari olib tashlangan:

1. Kirish qismidagi titrlar va tasvirlar ko'rsatilgan kadrlar.
2. Yegor amaki obrazi aks etgan epizod.
3. Film bosh qahramonining Toshkentga borish jarayonida hamrohlik qilgan keksa dehqon obrazi bilan bog'liq katta hajmli epizod.

Shu bilan birga, turli o'rinlardagi ayrim epizodlarda sahnalar va kadrlar qisqartirilgan.

"Toshkent – non shahri"ning 154 va 104 daqiqali shakllarining boshlanish qismi bir-biridan mutlaqo farq qiladi. Filmning tahrirlangan 104 daqiqali shakli Volgabo'yi hududlarida yuzaga kelgan ocharchilik haqidagi ma'lumotlar aks ettirilgan qisqa titrlardan keyin Misha ukalari bilan stol atrofida o'tirgan interyer tasvirlaridan boshlanadi. Ushbu sahnada bola onasiga Toshkentga borib, non va don olib kelish g'oyasini aytadi. Filmning 154 daqiqali shaklida esa bu sahnagacha bo'lgan 10 daqiqali tasvirlar mavjud. Uning kirish qismidagi titrlar turli tasvirlar ketma-ketligi bilan ocharchilikning dahshatli ko'lamini to'laqonli ko'rsatgan. Kadr ortidan qo'yilgan ovoz esa tasvirlarning emotsional ta'sirini kuchaytirgan, keyingi qabriston sahnasiga tomoshabinni tayyorlagan. Mazkur variantning aynan shu sahnasida Mishaning hamqishlog'i Yegor hamda go'rkov bilan suhbat berilgan. Misha Yegordan Toshkent haqida bilib oladi va u yerga borishni maqsad qiladi. Ta'kidlash kerakki, 104 daqiqali variantda Mishaning Toshkentga borib kelish istagi qay tarzda yuzaga kelganligi bir qadar tushunarsiz. Bizningcha, film boshlanish qismidagi Yegor obrazi bilan bog'liq voqealar tizimining olib tashlanishi ushbu muammoning bosh sababi sanaladi.

Ijodkorlar davr senzurasini tufayli olib tashlagan kadrlar qatorida Misha xarakterini ochishga xizmat qiluvchi yana bir sahna bor. Unda bola va uning Toshkentga borish maqsadida yurgan hamqishlog'i Yegor amaki bilan o'zaro qarama-qarshiligi aks ettirilgan. Misha yeyish uchun o't-o'lanlar terib yurar ekan, ukalari Yegor amaki ularning mushugini yeyish uchun uni quvib yurganligi xabarini keltiradi. Misha Yegor amakidan ularning hayvonini qaytarib berishini yolvorib so'rar ekan, uning hayotiy pozitsiyasi: yuksak insoniy fazilatli shaxs ekanligi namoyon bo'ladi.

Ko'rinadiki, filmning bosh qahramoni yosh bo'lishiga qaramasdan, eng og'ir, murakkab sharoitlarda ham o'zining insonlarga, tabiatga, jonzotga bo'lgan samimiy muhabbatini saqlab qoladi. Chunki u o'ta ochlik va muhtojlikda ham mushukni so'yib yemaydi. Aynan mana shu voqea tomoshabin ko'z oldida bolaning insoniylik martabasini yaqqol ko'rsatib turadi. Toshkentga borish orzusi Yegor amakida ham, Mishada ham bor edi. Bu orzu Mishada maqsadga aylandi. U o'z maqsadini amalga oshirish uchun do'sti Seryoja bilan yo'lga chiqdi. Yegor amaki personaji esa mushuk bilan bog'liq epizoddan so'ng film voqealar tizimida boshqa uchramaydi. Bizningcha, aynan shu holat 104 daqiqali variantdan Yegor amaki obrazi aks etgan barcha epizodlarning olib tashlanishiga sabab bo'lgan. Ushbu olib tashlanish filmda nafaqat bosh qahramon xarakterining to'laqonli ochilishiga, balki inson va tabiat munosabatlar tizimini yanada yorqinroq tasvirlanishiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazgan.

Ikki variant o'rtasidagi yana shunday farqlardan biri – biz yuqorida ko'rsatib o'tgan, yeriga don qidirib chiqqan keksa dehqon va unga hamrohlikni taklif qilgan bir

oyog‘i nogiron kishi bilan bog‘liq voqealar tasviri. Filmning to‘liq variantida umid insonni maqsadga yetishishida naqadar muhimligi keksa dehqon va bola obrazlarini qarama-qarshi qo‘yish orqali aks ettirilgan. Har ikkalasi ham ona zaminiga ekinlik olib qaytish maqsadida yo‘lga chiqqan. Biroq keksa dehqon o‘zi yetib borgan notanish joylarni Toshkent deb o‘ylaydi va u manzillar Toshkent bo‘lmaganligi bois, bora-bora unda Toshkentni topish ishonchi so‘nadi. Navbatdagi manzillarning birida esa holdan tolgan chol olamdan o‘tadi.

Keksa dehon, Misha, Rahim va cho‘loq kishi birgalikda temiryo‘li bo‘ylab ketayotgan epizodda cho‘loq kishi tabiatining o‘ziga xos jihatlari namoyon bo‘ladi. U yo‘lda o‘lib yotgan insonning narsalarini o‘zlashtirib, kiyimlarigacha yechib oladi. Misha va Rahim esa, aksincha, keksa dehqon holdan tolib olamdan o‘tganida mayitni tosh bilan ko‘mib, hoch o‘rnatib ketadi. Mazkur voqealar tizimi qayta tahrirda olib tashlanib, 104 daqiqali variantda Misha va Rahim, keksa dehqon va unga hamrohlik taklif qilgan bir oyog‘i nogiron kishi ortidan poyezd yo‘li bo‘ylab borishi kadridan darhol ularni Toshkentga ketayotgan poyezdga duch kelishi sahnasiga o‘tilgan. Natijada chol va nogiron kishi personajlari o‘zining avvalgi yukini yo‘qotgan. Berilgan kadrlarda cho‘loq kishi harakatdagi poyezdga chiqa olmay qolib ketadi. Bolalar poyezdga chiqib oladilar. Qiyinchiliklarni ishonch bilan yengib o‘tayotgan Misha, va nihoyat, Toshkentga yetadi. Qisqartirilgan variantdagi voqealar tizimini tomosha qilar ekanmiz, bizda qo‘ltiq ta-yoqli kishi va keksa dehqonga nisbatan yo‘lda qolib ketdi degan tushuncha uyg‘onadi. Asos variantda esa tomoshabin keksa chol o‘limiga guvoh bo‘ladi.

Ko‘rinadiki, 104 daqiqali variantda biz yuqorida sanab o‘tgan epizodlarning yo‘q-ligi “Toshkent – non shahri” badiiy filmining ikki xil talqinini yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Ikkala variantda ham bola uchun Toshkent – sehrli diyor. Bu sehrli diyor – bosh qahramon o‘z hayotida duch kelgan asosiy muammoning yechimi.

Biz filmning ikki qismli shaklida “Aynan qanday shaxs Toshkentga yetadi, yetib boradi yoki yetib bora oladi?” degan masala ham ko‘tarilganligini hamda bu masa-laning badiiy yoritilishda ilohiy-falsafiy yondashuvni ko‘ramiz. Bu filmning yutug‘i edi. Filmning 104 daqiqali shaklida mana shu ilohiy – falsafiy yondashuv avvalgisi darajasida aks etmagan. Buning bosh sababi – mafkuraviy montaj, ya’ni bosh g‘oya-ni ochib berish uchun xizmat qiladigan epizodlarning olib tashlanishidir. Xo‘sh, bular qaysi epizodlar edi? Bular quyidagilar edi: film avvalidagi titrlar tasviri; Yegor amaki obrazi bilan bog‘liq epizodlar; cho‘loq kishining temiryo‘lda o‘lib yotgan insonni tu-nashi tasviri; keksa dehqonning Toshkentga borish yo‘lidagi chekkan mashaqqatlari va tinka-madori qurib olamdan o‘tishi epizodlari va boshqalar.

Filmning har ikki varianti ham bola Toshkentdan olib borgan urug‘ligini shudgor-langan yerga sochishi kadrlari bilan yakunlanadi.

“...har kuni, har soatda fidoiy bo‘lish, o‘zini tomchi va tomchi, zarrama-zarra bu-yuk maqsadlar sari charchamay, toliqmay tinimsiz safarbar etib borish, bu fazilatni do-imiy, kundalik faoliyat mezoniga aylantirish – haqiqiy qahramonlik aslida mana shu” [7:165-166]. Bola obrazida biz mana shu insoniy fazilatlarning hammasini ko‘ramiz. Shuhrat Abbosovning asosiy maqsadi ham mana shu qudratli ma’naviyatni ko‘rsatish edi. Zero, “ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan,

odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, imon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir" [7:19].

Har ikkala variant badiiy jihatdan boshlanish, o'rta qism va intihoga ega. Filmning Hotam Fayziyev tomonidan taqdim etilgan asosiy varianti nafaqat kinoshunoslar, balki tomoshabinlarning ham "Toshkent – non shahri" badiiy filmi haqidagi fikr va tasavvurlarini tubdan o'zgartirib yubordi. Filmning asosiy va davr tazyiqi ortidan majburan o'zgartirilgan varianti mavjudligi kinoshunoslik tarixida noyob hodisalardan biri bo'lib, film ijodkorlarining ijodiy laboratoriyasini o'rganishda va ilmiy tahlil etishda muhim ashyoviy vosita vazifasini o'taydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, mustaqillikka qadar o'zbek badiiy filmlarida mafkuraviy montaj davr taqazosiga ko'ra yetakchilik qilgan. Shunga qaramay, Shuhrat Abbosovning barcha filmlarida montaj san'at darajasiga ko'tarilgan. Ulardagi montaj san'ati, shubhasiz, alohida taqiqot mavzusi sifatida o'rganilishi lozim, deb hisoblaymiz.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Umarov M., Yuldashev T. Rejissyorlik va aktyorlik san'ati asoslari. – T.: O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, 2016. – 312 b.
2. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/hotam-fayziyev-toshkent-non-shahri>.
3. Arastu. Axloqi kabir. Tarjimonlar Zohir A'lam va Urfon Otajon. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 352 b.
4. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008. –176 b.

## ANIMATSIYA FILM DRAMATURGIYASINING O'ZIGA XOS TAMOYILLARI

**Annotatsiya.** Maqolada boshqa san'at turlari singari, animatsiyada dramaturgiyaning muhim o'rin tutishi, uning badiiy xususiyatlari, ifoda vositalari, tarixiy shakllanish yo'li va yangi davrdagi yetakchi tamoyillari borasida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** kinematograf, film, dramaturgiya, ssenariy, ekspozitsiya, kompozitsiya, syujet, fabula, janr, dramaturg, avtor, rejissyor, kulminatsiya, konflikt, obraz, qahramon, matn, final.

**Аннотация.** В статье рассматривается важная роль драматургии в анимации, ее художественные особенности, средства выразительности, способ исторического формирования и ее ведущие принципы в новую эпоху, а также в других видах искусства.

**Ключевые слова:** оператор, фильм, драматургия, сценарий, экспозиция, композиция, сюжет, басня, жанр, драматург, автор, режиссер, кульминация, конфликт, образ, герой, текст, финал.

**Annotation.** The article examines the important role of drama in animation, its artistic features, means of expression, the method of historical formation and its leading principles in the new era, as well as in other types of art.

**Keywords:** camera operator, film, drama, script, exposition, composition, plot, fable, genre, playwright, author, director, culmination, conflict, image, hero, text, finale.

Dramaturgiya hayot singari o'z evrilishini yashab kelmoqda, yangi davr talablaridan kelib chiqib rivojlanmoqda. Animatsiya dramaturgiyasi ham oddiy 5–10 daqiqali filmchalardan, to'lametrajli turli janrlar va yo'nalishlardagi haqiqiy san'at asarlari darajasiga yetishdi.

Har qanday filmlar badiiy, hujjatli yoki animatsion bo'ladimi, barchasining asosini ssenariy tashkil etadi. Shunga qaramay, badiiy va animatsiya filmlar dramaturgiyasida o'ziga xos tamoyillar mavjud. Masalan, animatsiya filmlarda syujet real hayotga erkin yondashuvi, mustaqil rivojlanish imkoniyatlari ko'proq, tasavvurga boy, kutilmagan voqealar tizimi, turli burilishlarga ega bo'ladi. Animatsion filmda asosan fantastik dunyo, noodatiy personajlar va g'aroyib voqealar ifoda etiladi.

Texnika va texnologiya bilan bog'liq bo'lgan animatsiya san'ati yil sayin tinimsiz rivojlanish jarayonini kechirmoqda. Muhimi animatsiyaning rivojlanishi, badiiy kino-ning ham taraqqiyotiga hissa qo'shmoqda. Hozirda to'lametrajli badiiy filmlar janridan qat'i nazar, deyarli barchasida animatsiya vositalari qo'llanib kelmoqda. Animatsiya san'atining rivojlanishi – zamon talabi. Kinematograf kompyuter grafikasi rivojlani- shidan juda katta ta'sir va yuksalishga ega bo'ldi. Ayniqsa, tarixiy, fantastik, sarguzasht filmlarda animatsiya vositasidan foydalanmaslikning iloji yo'q.

Antik davrda Aristotel o‘zining mashhur “Poetika” asarida dramaturgiyaning muhim komponenti bo‘lgan fabula haqida shunday yozgandi: “Har bir jonli yoki jonsiz jism o‘zining aniq ko‘rinishiga ega bo‘lgani singari, asar fabulasi ham qanchalik uzun bo‘lmasin, lekin oson xotirasida qoladigan bo‘lishi kerak”. Qadimgi yunon olimining bu qarashlari bugungi kunda ham o‘z kuchini yo‘qotmagan. Dramaturgiya – agar muxtasar qilib aytganda, muallif g‘oyasidan kelib chiqqan holda yaratilgan voqealar tizimi, taklif etilgan syujet orqali, personajlarning chuqur va ta’sirchanligi bilan tomoshabin qalbidan o‘rin olib, abadiy mavzular ustida fikrlashga chorlaydi.

Dramaturgiyaning tuzilish tarkibi o‘z ichiga nimalarni oladi? Har bir san’at asarining yaratilishi, avvalo uning g‘oyasidan boshlanadi. Ijodkor albatta, “nima uchun bu asarni yaratyapman?” degan savolga javob topgandan keyin, ssenariy yaratilishi keyingi bosqichga o‘tadi.

G‘oyani topish va rivojlantirishda yangi fikrlarni sinovdan o‘tkazish, o‘z oldiga qo‘ygan maqsad sari intilish lozim. Dramaturgiyaning muhim bo‘g‘ini bo‘lgan ssenariy voqea-hodisalar tizimini tuzib chiqib, asar hikoyasini to‘g‘ri belgilashga asoslanadi. Tomoshabinni qiziqtiradigan, zavqlantiradigan, maroqli hikoyani taqdim etish uchun avvalo asarning kuchli, puxta yuki bo‘lgan tugunini topish kerak.

*Tugun* – asrning ilk sahifa – daqiqalarini kuchaytirish uchun eng muhim vositalardan biri. Uning vazifasi ssenariyning ilk epizodlaridayoq tomoshabin diqqat-e’tiborini o‘ziga tortib, keskin ziddiyatlar ichiga olib kirishdan iborat. Ssenariy epizodlarida intrigalar, kuchli to‘qnashuvlar, yorqin personajlar namoyon bo‘lishi tugunning mustahkam asosga qurilganligi bilan bog‘liq. Tugun taqdim etilgandan so‘ng, imkon qadar tezroq keyingi etapga, bosqichga o‘tish talab qilinadi. Agar tugunni hosil qiluvchi voqea cho‘zilsa yoki bir joyda aylanib qolsa, syujet zerikarli tus oladi. Voqealar rivojida personajlar orasidagi munosabatlar va ziddiyatlar yuzaga chiqadi. Agar tugun ssenariydagi muammoni tushunishiga yo‘l ochsa, voqealar rivoji uning hal etilishi yo‘llari sari yetaklaydi.

*Konflikt* (lot. *conflictus* – to‘qnashuv, kurash) – atrof-muhit, vaziyat, personajlarning o‘zaro kurashi, to‘qnashuvidir. Ko‘p hollarda asar qahramonining o‘z tafakkuri, ichki, ma’naviy dunyosi bilan kurashi asnosida yuz beradi. Konflikt dialog, monologlar orqali yoki personajlar to‘qnashuvida aks etadi. Asarda konflikt shakllari, yo‘nalishlari turlicha bo‘ladi. Bular: ijtimoiy, shaxsiy, sotsial-tarixiy, falsafiy, ma’naviy, etik-estetik, psixologik, axloqiy va boshqalar.

*Kulminatsiya* – asar syujeti rivojlanishining eng keskin, yuqori nuqtasiga chiqqan holatdir. Kulminatsiya asarda ko‘tarilgan muammoni nihoyatda o‘tkirlashtirib, kuchaytirib, ta’sirchanligini oshirib berish vositasi hisoblanadi. Aynan kulminatsiyadan so‘ng voqealar tizimida burilish paydo bo‘lib, o‘zgacha rivojlanishni boshlaydi. Shu bilan birga qahramonlar orasida ham munosabatlar o‘zgarishi hosil bo‘ladi. Qahramonlarning yangi paydo bo‘lgan shart-sharoit, vaziyat, voqelikka qarashi o‘zgaradi. Boshqacha qilib aytganda, kulminatsiya qahramonlar orasidagi yoki ularning voqelikka bo‘lgan munosabatlari, qarama-qarshilik, konfliktning maksimal yuqori darajaga chiqqan holatidir. Shuni ham ta’kidlash kerakki, kulminatsiya filmda taqdim etilgan syujet *tugu-*

nining yechimiga xizmat qiladi, voqelikni yangi pog‘onaga, boshqacha rivojlanishiga asos bo‘ladi

Dramaturiyada muhim bo‘lgan elementlardan yana biri, bu, shubhasiz asar “yechimi”dir. Asarning yechimiga qarab muallif g‘oyasi yuzaga chiqadi.

*Yechim* – asarda voqealar rivojidadagi, qahramonlar o‘rtasidagi qarama-qarshilikning hal bo‘lishi, u yoki bu tomonga o‘zgarib, butkul tamomlanishidir. Yechim asarning final qismida ma‘lum bo‘lib, barcha konfliktlar, qarama-qarshiliklar nihoyasiga yetkaziladi. Asarning “tuguni”da, kulminatsiyasida qo‘yilgan masalalar, muammolar aynan o‘z javobini, final qismida topadi.

Asar yechimi kutilgan yoki kutilmagan, baxtli yoki baxtsiz bo‘lishi mumkin. Ba’zi hollarda esa barcha savollar javobsiz qolib, yakuniy fikr tomoshabin tasavvuri, tafakkuri zimmasiga havola etiladi. Film yechimi albatta voqealar tizimining mantiqiy yakuni bo‘lmog‘i lozim. Aristotel o‘zining “Poetika” asarida yechimni, tasvirlanayotgan voqealarning qanday hal bo‘lishini ko‘rsatuvchi yoki uning hal etilishi yo‘llari haqida tasavvur beruvchi tarkibiy qism deya baholagan.

Dramaturgiyaning rivojlanishida boshqa komponentlarning ham o‘rni muhimdir. Zamonaviy dramaturgiyada yangi tushunchalar, vositalar ham dunyoga kelmoqda. Masalan, saspens tushunchasi shulardan biridir. *Saspens* (lot. *suspendere*) – xavotirga tushgan holda voqea davomini kutish, bezovta bo‘lish holati. Saspens tushunchasi hozirgi kunda kinematografda badiiy effekt sifatida keng qo‘llaniladi. Ko‘p hollarda tomoshabinlarni voqelikdagi intrigaga jalb qilishda aynan saspens usulidan foydalaniladi. Jahon kinosi rivojlanish tendensiyasida saspens holati keng targ‘ibot qilinmoqda. U ayniqsa ekshn, shiddat bilan rivojlanadigan filmlarning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan.

Ssenariy muallifning g‘oyasini tomoshabinga yetkazuvchi eng kuchli va muhim vosita bu shubhasiz personajlardir.

*Personaj* (fran. *personnage*). Film qahramonlarining har biri katta-kichik obraz bo‘lishidan qat’i nazar, o‘z xarakteri, fe‘l-atvori, odati, gapirish intonatsiyasi, yurish-turishi, temperamenti, o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lishi kerak. Personajlar ko‘pqirrali, ishonarli va albatda tomoshabinda o‘ziga nisbatan hamdardlik, hamfirklik paydo qilishi lozim.

*Syujet* (lot. *subiectum* – predmet, narsa) badiiy asarda, (adabiyot, kino, teatr) dramaturgiyada voqealar tizimining tuzilishidir. Syujet badiiy asar voqealari ketma-ketligi, qahramonlar xarakterini belgilab berib, aniq bir shaklni taqdim etadi. Syujetsiz ssenariy, umuman badiiy asar bo‘lishi mumkin emas, chunki tor ma’noda syujet – butun voqealar zanjirini belgilab bersa, keng ma’noda esa personaj xarakterini aniqlash uchun vositadir. Aynan syujet keskinligiga qarab, badiiy asar qiziqarli, mazmunli bo‘lishi mumkin.

Bugungi kunda kinematografning ajralmas qismiga aylangan, hatto ba’zi bir hollarda kino san’atining muhim yo‘nalishi sanalgan animatsiya sohasi professional kadrlarga muhtoj. Ta’lim sohasida animatsiya uchun yetarli kadrlar tayyorlanmayotgani bu masalaning dolzarbligini anglatadi. Ta’lim yo‘nalishida muammolarning eng kattasi o‘quv qo‘llanma va uslubiy materiallar yetishmasligidir. Shuning bilan birga, animatsiya ta’limi sohasida tanlangan fanlar ro‘yxatini ham qayta ko‘rib chiqish maqsadga

muvoftiq. Shuningdek, amaliy jarayonlar ko‘proq tasvirga olish joyida o‘tkazilishi, talabalar ijodiy-amaliy faoliyatga jalb etilishi darkor.

Har bir ishda eksperiment, sinovlar, yangicha munosabatda bo‘lish, innovatsion yondashish muhimdir. Ma‘lumki, san‘at sohasi, jumladan animatsiya yo‘nalishi har doim yangilanib borishi lozim.

Tabiiyki, animatsiyaning rivojlanishi, ta‘limning bu sohasi oldiga ham o‘z talablarini qo‘yadi. Mamlakatimizda mazkur soha yanada jadallab borishi, endilikda animatsiya yo‘nalishidagi ta‘lim tizimi yangi tamoyillar hisobiga rivojlanib bormog‘i shubhasizdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Хитрук Ф. Профессия аниматор. – М.: Гаятри, 2007. – С. 85-86.
2. Анимация. Создаем персонажей вместе со студией Walt Disney 2; [перевод с английского О. Милениной]. – М.: Эксмо, 2021. – С.. 155-156.
3. Крис Стакманн. Anime World. От «Покемонов» до «Тетради смерти»: как менялся мир японской анимации. – М.: Эксмо, 2018. – С. 88-99.
4. Линда Сегер. Как хороший сценарий сделать великим. – М.: «Манн, Иванов, Фербер», 2019. – С.. 110-111.
5. Норштейн Ю. Снег на траве – М.: ВГИК. 2005. – С. 35-36.

## TELESERIALLARNING G'OYAVIY IFODASIDAGI IZLANISHLAR

**Annotatsiya.** Maqolada teleseriallarning tarkibiy tuzilmasi va undagi dramaturgik yechim hamda ssenariynavis va rejissyorning ijodiy hamkorligi masalalari xususida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** videofilm, telerejissura, ekran, telekamera, montaj, ekspozitsiya, rejissyor, aktyor, teletomoshabin, ekranlashtirish.

**Аннотация.** В статье рассматривается структура телесериала и драматургическое решение, а также вопросы творческого сотрудничества сценариста и режиссера.

**Ключевые слова:** видеофильм, телережиссура, экран, телекамера, монтаж, экспозиция, режиссер, актер, телезритель, показ.

**Annotation:** The article deals with the morphology of television series and creative cooperation between the author of the script and the director

**Keywords:** video films, TV directing, screen, TV camera editing exposition, directing actor TV audience screening

Bugungi kunda hayotimizni teleseriallarsiz tasavvur qilib bo'lmay qoldi. Har bir kanalda kamida ikkita milliy serial namoyish etilmoqda. Turk va koreys seriallarini-ku aytmasa ham bo'ladi. Seriallar namoyish etilyaptimi, demak, tomoshabinda bunga ehtiyoj mavjud. Zero, mazkur san'at turi "zamonaviy ijtimoiy-madaniy muhitda mustahkam joy egallab, muntazam o'ziga qiziqish uyg'otib kelmoqda"<sup>3</sup>.

Odatda teleserial ssenariysi o'zida dramatik, epik, lirik janrlarni uyg'unlashtirish imkoniga ega. "Film ssenariysining kompozitsion qurilmasi shakllantirilar ekan, avvalo uning janri aniqlab olinishi kerak. Chunki janr hikoyaning qay yo'sinda tomoshabinga yetkazilishini hal qiladi"<sup>4</sup>. Uning dramatik qurilishi va kompozitsiyasi mahsulot mazmunining ro'yobga chiqishi, syujetni harakatga keltirib, xarakterlarni ochilishini ta'minlaydi.

Ssenariy muallifi teleserial ustida ish olib borayotganida syujet liniyasini epizodlar bilan bog'laydi. Masalan, rejissyor Ergash Mo'minov va ssenariy muallifi Surayyo Xoshimovaning "Bedor tuyg'ular" teleseriali o'zining gumanistik g'oyasi, hayotiy obrazlari, o'tkir dramatik kolliziyalari bilan teletomoshabinni qiziqtiradi. Bu asarni ixcham sig'imli kompozitsiyasi, dramatik voqealarni birlashtirib, ssenariy muallifi fikrini sodda va ravon, badiiy formada ochilishi uchun xizmat qiladi. Teleserial qahramonlarini lirik kayfiyati, kulgu uyg'otuvchi xatti-harakatlari, murakkab psixologik holatlari, yurak iztiroblari ixcham sahnalarda tasvirlangan. Qahramonlar xa-

<sup>3</sup> Савельева Е.Н. Искусство кино. – Томск: Томский университет, 2013. – С. 2.

<sup>4</sup> Kasimova, N. Genre variety and features of compositional forming of Uzbek short films. Central Asian Journal of Art Studies. Almati, – 2020, N4. P. 86

rakteri, tipajlar hamda ularning harakati ushbu film g‘oyasi va ichki ruhiyatini to‘liq namoyon etgan.

Ushbu film yoshlarga mo‘ljallangan sentimental melodrama janridadir. Rejissyor E.Mo‘minovdan boshqa kinoijodkorlarga nisbatan o‘zgacha ijod namunasini kutish tabiiy. Ssenariy muallifi S.Xoshimova va kinorejissyor E.Mo‘minov hamkorligida xususiy hamda davlat buyurtmasi asosida badiiy saviyasi baland, professional yondashuvga ega ko‘pgina filmlar yaratilgan. E.Mo‘minovning bugungi kunga qadar yaratgan filmlari televizion kino san‘ati nufuzini ko‘tarishga xizmat qilgan. “Bedor tuyg‘ular” seriali ham avvalgi filmlar taassuroti ostida tomoshabin kutgan natijani berdi, desak mubolag‘a bo‘lmas. E.Mo‘minov har bir sahna ko‘rinishini sinchkovlik bilan amalga oshiradi. U ko‘proq mualliflik filmlari ustida ishlaydi. Shuning uchun har bir ekran asari boshqasining takrori bo‘lmay, o‘zgacha ifodasi bilan ajralib turadi.

Asardagi voqelikning namoyon bo‘lishida xatti-harakatlar katta ahamiyat kasb etadi. “Filmning so‘zga emas, aynan harakat va obrazlarning yuz-ko‘z tasvirlariga qurilganligi asarning badiiy qiymatini oshiradi”<sup>5</sup>. Chunki xatti-harakat orqali qahramonni maqsadga yo‘naltirish hamda berilgan shart-sharoitdagi ruhiy va jismoniy holatini aks ettirish imkoniyati yaratiladi. Rejissyor aktyor bilan ishlash jarayonida sahna va mizansahnalarga e‘tiborini kuchaytiradi. Voqealar rivojida aktyorga to‘g‘ri vazifa qo‘ya bilishi muhim. Bunda tomoshabin qahramon xatti-harakatlarini kuzatishi orqali voqealar rivojini ko‘radi. Qahramon holati, uning ruhiyatida yuzaga kelayotgan kurashlar ana shu bo‘g‘inda shakllanadi. Ssenariydagi tugun esa undagi voqealarning kuchayib borayotganidan darak beradi. Bunda qahramonlar asar g‘oyasini ochishga xizmat qiluvchi muhitda birlashadi. Ssenariydagi asosiy bo‘g‘inlardan biri tugun – kulminatsiya asar ziddiyati ya‘ni konfliktning yuzaga kelish lahzasi hisoblanib, unda xatti-harakat, voqea va hodisalar kuchayadi, konflikt nihoyatda o‘tkirlashadi. Tugun konfliktni ilk marotaba ro‘yobga chiqishi va syujetning rivojlana boshlashiga turtki bo‘ladi. U bevosita ekspozitsiyadan o‘sib chiqadi. Qahramon taqdiriga qiziqish ortadi. Personajlarni kolliziya maydoniga yetaklaydi. Ziddiyatlarni kurash zaminida hal qilinishiga omil bo‘ladi. Masalan, ssenariy muallifi R.Raldugina va rejissyor M.Xamrayeva hamkorligi mahsuli bo‘lgan “Yodgor” teleserialidagi voqealarning parallel tarzda rivojlanishi hamda retro shaklidagi lavhalar o‘rin olishi asar tomoshabopligini ta‘minlashi birobarida ichki kolliziyalar kuchayishiga sabab bo‘lgan. Serial qahramoni Yodgorning murakkab taqdiri, uning xolasi bilan bo‘ladigan uchrashuvidagi holatlar, onasi o‘gay ekanligini bilgandagi ruhiy iztiroblari asarning kulminatsion nuqtasi hisoblanadi. Serial sportchi yoshlar hayotidan hikoya qiladi. Rejissyor undagi rollarga mahoratli aktyorlar bilan bir qatorda yosh aktyor va aktrisalarni ham taklif qilgan. Tajribali aktyorlarning sa‘y-harakatlari yoshlarga tayanch bo‘lgan. Shuningdek rejissyor aktyorlarning har biriga to‘g‘ri vazifa bera olgani uning muvaffaqiyatini ta‘minlashga xizmat qilgan.

Odatda yechim barcha asarlarning yakunida bo‘ladi. Lekin bu jarayon ekran asarlarida ba‘zan boshida ham berilishi va tomoshabinni keyingi voqea ichiga olib kirishi mumkin. Yechim – asar konfliktining hal bo‘lish lahzasi hisoblanadi. “Yodgor” telese-

---

<sup>5</sup> Kasimova, N. Genre variety and features of compositional forming of Uzbek short films. Central Asian Journal of Art Studies. Almati, – 2020, N4. P. 86

rialiga ham rejissyor nihoyatda ziyraklik bilan o'ziga xos tarzda yechim topolgan. Bir qarashda qahramonlar tabiatida yoshlarga xos jo'shqinlik, cho'rtkesarlik va biroz qaysarlik bo'lishiga qaramay, hammasiga xos umumiy jihat bor, u ham bo'lsa ko'ngillar pokligi va tuyg'ular soffligidir. Asar yakuni, ya'ni finalda undagi asosiy konflikt yechimini topgandan keyin qahramonlar yangi maqom, yangi o'rinlarini o'zida aks ettirgan hissiy mazmundor xulosaga kelish nazarda tutiladi.

Shu o'rinda yana bir teleserial xususida to'xtalish joiz. Rejissyor D.To'laganova-ning "Sevgi" teleseriali 20 qismdan iborat bo'lib, u biografik shaklda yaratilgan. Sevgi ismli qizning bolaligidan to'ulg'ayib hayotda o'z o'rniga ega bo'lishi, zamonaviy tadbirkor ayol darajasigacha ko'tarilgunicha bosib o'tgan hayot yo'li, turmushidagi mashaqqatlarni yengishi, qiyinchiliklari nihoyatda hayotiy, ortiqcha badiiy bo'yoqlarsiz, ishonarli tarzda yetkazilgan. Kompozitsion qurilishida ham rejissyor konfliktni nihoyatda mohirona ko'rsatishga harakat qilgan. Qahramonlar obrazini yaratishda biryoqlamalikka og'ish, sayoz, zamiri bo'sh dramaturgiya, yuzakilikka moyillikni ayrim teleseriallarda uchratish mumkin. Bu o'rinda ssenariy muallifi va rejissyor kinoning badiiy mezonlariga asoslanishi lozim. Obrazlarning g'oyaviy yetukligi, oliy maqsad va yetakchi xatti-harakat to'g'ri belgilangani, dramaturgik jihatidan pishiq, puxtaligi, rejissurasi va aktyorlar ijrosi yuqori saviyada bo'lishi ekran san'atining mustahkam mezon va qoidalarini tashkil etadi.

Teleserial yaratilishidagi asosiy mas'uliyat baribir rejissyor zimmasiga yuklatiladi. Tomoshabin ekran asarlarini o'z psixologiyasi, dunyoqarashi, biologik qobiliyatiga ko'ra qabul qiladi. Kingadir asar muallifning uslubi, chekinishlari, so'z o'yini, mantiq kuchi muhim bo'lsa, kimlar uning mavzusi va obrazlaridan ozuqa axtaradi. Ssenariyda kolliziya keskinlashgan vaqtda teleserialda konflikt ishlatiladi. Masalan, "Mehmonjonlardan aylanay" teleserialidagi qahramonlar to'qnashuvida keskin konflikt kelib chiqadi. Konflikt asar voqealarini harakatga keltiruvchi motor hisoblanadi. Konflikt muallif maqsadi, oldiga qo'ygan vazifasi, tomonlarning o'zaro kurashini ifoda etadi. "Zero, har bir film, garchi u qaysi bir janrda suratga olingan bo'lmasin, o'zida davr nafasini aks ettiradi. Qolaversa, har bir kartina davrimizning eng muhim voqealari-yu, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy jabhalarda kechayotgan ulkan islohotlarning o'ziga xos in'ikosidir"<sup>6</sup>.

Ssenariy kompozitsiyasini o'rganish uchun avvalo kino san'atining montaj tabiatini idrok qilish maqsadga muvofiq. Shunda rejissyor syomka jarayonida ham materialni qanday montaj qilish, kadr dan kadr ga o'tishda detallar qo'llashni inobatga oladi. Undagi voqealar tuzilishi, rivojlanishi, turli predmetlar, vositalar, makon va zamon ko'lamini bilish montaj davrida juda asqatadi.

Kompozitsion jihatdan mukammal ssenariyni o'qigandayoq rejissyor voqealarni ko'rishi, eshita bilishi, tasavvur qilishi lozim. Teleseriallar uchun ssenariy yozilarkan, unda muallifga g'oyaviy mazmunni ochish uchun ekran vaqti va kenglik zarur bo'ladi. Teletomoshabin ko'ngliga haqiqiy yo'l topish uchun, teleserial tabiatining o'ziga xosligini his qilish uning muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillardan biridir. Buning uchun syomkadan avval kadr kompozitsiyasi tasavvuriga ega bo'lish hamda har bir sahna va

<sup>6</sup> Sh.Murodova. O'zbekiston hujjatli kinosi. – T., 2008. – 4-b.

epizod haqida tugal fikrga kelish zarur. Misol uchun ko‘p seriallarda kompozitsiyani belgilaydigan elementlarga ekspozitsiya, tugun, voqea rivoji, voqealarning takrorlanishi, kulminatsiya, fojia, tugun, prolog va epilog, qoliplash kiradi.

Telesarning yaxlit kompozitsiyasi – dastlab rejissyorlik ssenariysida aks ettiriladi va ijodiy jarayonni boshlash barobarida unga puxta texnik tayyorgarlik ko‘rish talab etiladi.

Teleseriallarni tomosha qilar ekanmiz, insonlar dunyoqarashi, tabiati to‘g‘risida fikr yuritamiz, mulohaza, mushohada qilamiz. Bunday san‘at asarlari orqali o‘zligimizni yana bir bor teranroq anglay boshlaymiz. San‘at muhim tarbiya vositasi sanaladi. Kino san‘ati esa inchunin. Shunday ekan, bu soha ijodkorlari ulkan mahorat, keng dunyoqarash va yuksak tafakkurga ega bo‘lishi nihoyatda muhimki, ana shundagina badiiy barkamol asarlar yaratiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Б.Ахмедов. Под знаком кино. –Т.: Академия, 2005.
2. Басов В. Режиссёр на ТВ. – М.: Искусство, 1978.
3. Немирович-Данченко В.И. Из прошлого. – М.: Академия, 1936.
4. Клер Р. Кино вчера, кино сегодня. –М.: Прогресс, 1981.
5. Kasimova, N. Genre variety and features of compositional forming of Uzbek short films. Central Asian Journal of Art Studies. Almati, – 2020, N4. P. 84-93
6. Kasimova, N. Expressing peculiar views in Uzbek short films in the XXI century. Collequem-jpurnal, – Warszawa, – 2018, N4. P. 4-6

## **O'ZBEKISTONDA KINOINDUSTRIYA RIVOJI: XALQARO ALOQALAR VA KO-PRODUKSIYALAR**

***Annotatsiya.** Maqolada O'zbekistonda kino san'ati, kinoindustriyasining so'nggi yuz yillikdagi tadrijiy rivojlanib borishi, unga xorij kinoijodkorlari bilan hamkorlikning ta'siri, salbiy va ijobiy omillar manbalari, davriy matbuot materiallari, arxiv hujjatlari asosida tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston kinoindustriyasining sovet va mustaqillik yillaridagi xorijiy davlatlar kinoindustriyasi bilan hamkorligining sur'atlari qiyosiy tahlil etilgan.*

***Kalit so'zlar:** O'zbekiston, Turkiston, globallashtiruv, kino, kinoindustriya, xorij, kinokartina, film, namoyish, festival, kinoijodkor, aktyor, asar.*

***Аннотация.** В статье анализируется поэтапное развитие киноискусства и киноиндустрии Узбекистана за последние сто лет, влияние сотрудничества с зарубежными кинематографистами, источники негативных и позитивных факторов, материалы периодической печати, архивные документы. Также сравнительно проанализированы темпы сотрудничества киноиндустрии Узбекистана с киноиндустрией зарубежных стран в годы СССР и независимости.*

***Ключевые слова:** Узбекистан, Туркестан, глобализация, кинематограф, киноиндустрия, зарубежье, кино, кино, шоу, фестиваль, кинорежиссер, актер, работа.*

***Annotation.** The article analyzes the gradual development of film art and film industry in Uzbekistan over the last hundred years, the influence of cooperation with foreign filmmakers, sources of negative and positive factors, periodical press materials, archival documents. Also, the speed of cooperation of the film industry of Uzbekistan with the film industry of foreign countries during the Soviet and independence years is comparatively analyzed.*

***Keywords:** Uzbekistan, Turkestan, globalization, cinema, film industry, abroad, film, film, show, festival, filmmaker, actor, work.*

Globallashtiruv asri bo'lgan XXI asr insoniyat taraqqiyotida madaniyatlarning zamonaviy rivojlanish bosqichini boshlab berdi. Innovatsion va intellektual salohiyatni yuksaltirish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish, ma'naviy saviyani oshirish hamda ko'plab yo'nalishlarga ega madaniyat va san'at, xususan, kino sohasi san'atning bir turi sifatida dunyoda tan olindi, jahon miqyosida ilmiy-ijodiy faoliyatni anglashga nisbatan yangi yondashuvlarning shakllanishiga sabab bo'ldi. Insoniyat tarixida o'zgarish va taraqqiyot pog'onalari yo'lini ochish imkonini bergan kino san'ati bugungi kunda dunyo davlatlari hayotida o'z o'rniga ega bo'lib, yangicha siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy qiyofa kasb etdi. Kino san'ati dunyo tan olgan adiblar asarlarini sahnalashtirish, ularni namoyish etish orqali davlatlar o'rtasidagi madaniy hamkorlik hamda yaqin qo'shnichilik aloqalarini yanada rivojlantirish yo'llarini ochmoqda.

O‘zbek kinosining bugungi qiyofasi so‘nggi yuz yillikda shakllanib keldi. Uning tarixiy bosqichlariga e‘tibor beriladigan bo‘lsa, Turkiston o‘lkasida 1920-yillarning boshlari, umuman, 1920–1930-yillar kino san’atining endi rivojlanib, shakllanib kelayotgan davri bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Bu davrda mahalliy kadrlarning kamligi, xalqaro tajribaning yetishmasligi natijasida xalqning mazkur san’at sohasiga bo‘lgan kuchli ehtiyojini qondirish qiyin edi. Shuning uchun ham bu davrda xorijiy davlatlardan kino mahsulotlari sotib olishga e‘tibor kuchaydi. Masalan, 1925-yilda Turkistonda jami 254 ta kino asarlari namoyish qilingan bo‘lsa, bulardan 40 tasi yoki jami asarlarning 16 foizigina sovet davlatida ishlab chiqarilgan asarlar edi. Ularning 214 tasi yoki 84 foizini chet ellarda ishlab chiqilgan asarlar tashkil etardi.

Keyingi yillarda bu nisbat katta tezlik bilan o‘sib bordi. Masalan, 1926-yilda sovet davlatida ishlab chiqilgan kino asarlari namoyishi 35 foizni tashkil etgan bo‘lsa, xorijdan keltirilgan asarlar salmog‘i 65 foizdan iborat bo‘ldi. Yuqoridagi raqamlarga mos ravishda ushbu raqam 1927-yilda 45,55, 1928-yilda 55,45, 1929-yilda esa 58,42 foizni tashkil etdi<sup>7</sup>.

Bunday raqamlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, 1920-yillar davomida Turkiston o‘lkasida mahalliy kino industriya shakllanib bordi. Shuning uchun ham yildan yilga mahalliy kino asarlari soni-salmog‘i ortib bordi. Boshqa tomondan, xorij kino sa‘ati sovet tuzumiga nisbatan mafkuraviy-g‘oyaviy kurashni kuchaytirdi. Bu narsa kino san’ati misolida yaqqol ko‘rindi. Shu bilan birga, sovet davlati o‘zining siyosiy manfaatlarini himoya qilish uchun kino asarlarida sovetlashtirish siyosatini kuchaytirdi. G‘oyaviy-mafkuraviy bosimning zo‘rayishi, o‘z navbatida, sovet kinosi “rivojiga” ta’sir ko‘rsatdi<sup>8</sup>. 1926-yilga kelib Toshkentda aktyorlar studiyasi ochildi. Unda iqtidorli, qobiliyatli ijrochilar uchun kinopavilyon ochib berildi. Bu yerda zamonaviy ijod maktabi yuzaga kela boshladi.

Bu vaqtlarda o‘zbek kinosini milliy kadrlar bilan ta’minlash maqsadida bir qancha yoshlar, xususan, Y.A’zamov, E.Hamroyev, S.Iskandarov, R.Pirmuhammedov, R.Ahmedov, R.To‘raxo‘jayev va boshqalar Moskva kino texnikumiga o‘qishga yuborildi. Kinorejissyorlar Nabi G‘aniyev va Sulaymon Xo‘jayev rus rejissyorlari bilan hamkorlikda film yaratish jarayonida professionallik sirlarini o‘zlashtirib bordilar<sup>9</sup>. XX asrning 20-yillari ikkinchi yarmida yaratilgan filmlar, asosan, respublika ijtimoiy-siyosiy voqealari, yer-suv islohotlariga bag‘ishlandi. “Paxtaorol”, “Baxt qushi”, “Ikkinchi xotin”, “Rovot qashqirlari”, “Chodira” va boshqa filmlar shu yillarda yaratildi. Bu filmlarda N.G‘aniyev, S.Xo‘jayev, R.To‘raxo‘jayev, K.Yormatov, R.Messerer va boshqalar suratga tushgan.

Shu yillari Malik Qayumov aktyor va operator, Ergash Hamroyev ssenariychi va aktyor, Yo‘ldosh A’zamov ijrochi va rejissyor, Rahim Pirmuhammedov, Rustam To‘raxo‘jayev turli harakatdagi rollar ijrochilari, Sulaymon Xo‘jayev rejissyor va aktyor, obraz yaratishga qodir iqtidor sohiblari sifatida ijod maydoniga chiqdilar.

<sup>7</sup> O‘zR MDA, R-95-fond, 1-ro‘yxat, 1844-yig‘majild, 26-varaq.

<sup>8</sup> O‘zR MDA, R-94-fond, 1-ro‘yxat, 220-yig‘majild, 212–214-varaqlar.

<sup>9</sup> O‘zR MDA, R-86-fond, 1-ro‘yxat, 2746-yig‘majild, 21-varaq.

O‘zbek kino san’atining tadrijiy rivojlanish bosqichlari aynan sovet davlati davrida shakllangani, xalqning yetuk kino arboblari ana shu vaqtda yetishib chiqqanligi va ma’lum mafkuraviy tazyiqlar, siyosiy ta’sirlar, ijodiy cheklovlarga qaramay milliy kinoning shoh asarlari mana shu davrda yaratilganligi, XX asr boshlarida nashr etilgan gazeta va jurnallar tom ma’noda yangi o‘zbek kinosining tug‘ilishi va shakllanishidek murakkab jarayonni aks ettiruvchi ko‘zgu va ochqich vazifasini o‘taganligini inkor etib bo‘lmaydi. Ayni paytda kinoning g‘oyaviy-badiiy saviyasini oshirish, uning moddiy texnikasini kuchaytirish borasidagi bir qator farmon, qonunlar qabul qilinib, ma’lum vazifalar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, lekin mutaxassislar yetishmasligi, kinoapparatlardagi arzimagan kamchiliklar bu amalga oshirilayotgan ishlarning o‘zi keti o‘ylanmagan, oxiri haqida aniq xulosalar bo‘lmagan ishlar ekanligidan dalolat berar edi.

Ta’kidlash joizki, ana shu vaqtlarda o‘zbek, qozoq, tojik, qirg‘iz, turkman kinoijodkorlari bir jamoa bo‘lib ishlaganlar. Millatlar internatsiyalashuvini biz sobiq SSSR davridagi istalgan filmda uchratishimiz mumkin. Birgina Komil Yormatovning tojik millatiga mansubligi, o‘z vaqtida “O‘zbekfilm” kinostudiyasida faoliyat olib borganligi, keyinchalik ushbu kinostudiyaga uning nomi berilishi ham fikrimizni tasdiqlaydi.

– O‘zbek va tojik kinosini bemalol egizak deb atash mumkin, – deydi Kinematografiya agentligi direktori Shuhrat Rizayev. – Chunki Komil Yormatov, Boris Kimyogarov singari taniqli kino darg‘alari har ikki mamlakat kinematografiyasiga munosib hissa qo‘shishgan. Yodgor Sa’diyev, Isamat Ergashev, To‘g‘on Rejаметov singari o‘zbek aktyorlari ko‘plab tojik filmlarida suratga tutishgan. Sayram Isayeva, Ato Muhammadjonov, Tohir Sobirov singari tojik san’atkorlari o‘zbekistonlik kinoijodkorlar yaratgan filmlarda esda qolarli rollar ijro etishgan. Bugungi kunda ham bu an’ana davom etmoqda<sup>10</sup>.

Darhaqiqat, so‘nggi yillarda o‘zbek kinosi tobora rivojlanib, jahon kinoijodkorlari e’tiboriga tushdi. Yangi O‘zbekistonda kino san’atiga bo‘lgan yuksak e’tibor va shaxsan mamlakat rahbarining jonkuyarligi va g‘amxo‘rliги tufayli sohada salmoqli ishlar amalga oshirildi va bu jarayon uzluksiz davom etmoqda. Milliy kinematografiyani rivojlantirishga qaratilgan o‘nlab qaror va farmonlar, me’yoriy hujjatlar qabul qilinganligi ham fikrimizni isbotlaydi. Eng avvalo, davlat tomonidan filmlarga berilayotgan mablag‘ miqdori oshirilib, xalqaro andozaga javob bera oladigan, sifatli kinomahsulotlar yaratish mexanizmi shakllantirildi. Kinematografiya agentligi tomonidan ijodkorlar ish faoliyati uchun sharoit yaratildi, yangi zamonaviy texnikalar sotib olindi. Xorij davlatlari bilan yaqindan hamkorlik kengaydi va ko-produksiyalar yaratildi. Turli mamlakatlarda o‘tkazilayotgan xalqaro festivallarda o‘zbek kinoijodkorlari milliy filmlari bilan ishtirok etib, nufuzli sovrinlarni qo‘lga kirita boshlashdi.

Shuningdek, 2021-yilda O‘zbekiston milliy kinematografiyani rivojlantirish markazi tashkil etildi<sup>11</sup> hamda Butunrossiya Davlat Kinematografiya instituti Toshkent filiali ochildi<sup>12</sup>. “O‘zbekfilm” kinokonserni kapital rekonstruksiya qilinib, zamonaviy texnik uskunalalar bilan jihozlandi, 2023-yilda “Renessans kino uyi” barpo qilindi, “O‘z-

<sup>10</sup> “Tojik ovozi” <https://vot.tj/uz/?p=13140>

<sup>11</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.04.2021-yildagi PF-6202-son <https://lex.uz/docs/5374440>

<sup>12</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 28.08.2021-yildagi PQ-5238-son <https://lex.uz/docs/5608426>

bekiston milliy kino san'ati saroyi"da ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi, O'zbekiston Milliy kinofondi, Milliy kino muzeyining yangi binolari ishga tushirildi.

Shaxsan Prezident Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan "Toshkent xalqaro kinofestivali" qayta tiklandi va ushbu festival milliy kinomizni va o'zbek kinoijodkorlarini jahonga to'liq o'z qiyofasini namoyon etishiga zamin bo'ldi<sup>13</sup>. Har yili davom etib kelayotgan xalqaro kinofestival orqali 30 dan oshiq mamlakatlar bilan hamkorlik memorandumlari tuzildi, 50 dan ortiq davlatlar kinoijodkorlari bilan filmlar suratga olindi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari kinoustalari bilan ham o'zbek kinoijodkorlarining hamkorligi mustahkamlanib, aktyorlar ansambli turli millat vakillari orasidan tanlanib, ijodiy ishlar davom ettirilmoqda. 2018-yilda suratga olingan Chingiz Aytmatovning "Sarvqomat dilbarim" (rej. S.Karimov) asari asosida suratga olingan kartinada ham bosh qahramonlar obrazini o'zbek kinosining eng talabgir aktyorlari Adiz Rajabov va Ulug'bek Qodirov, shuningdek qirg'izistonlik aktrissalar Madina Talipbek va Elina Abay qizi ijro etishgan<sup>14</sup>.

2021-yilda suratga olingan "Meros" kinokartinasini (rej H.Nasimov) o'zbek va qozoq xalqlarining do'stligi, an'ana va urf-odatlarining o'xshashligi haqida hikoya qiladi<sup>15</sup>. Film Lima shahrida bo'lib o'tgan «Imperial International Film Festival» xalqaro festivalida «Eng yaxshi xorijiy film» nominatsiyasida g'olib chiqdi. Kalkutta shahrida bo'lib o'tgan xalqaro kinofestivalda «Yilning eng yaxshi xorijiy filmi»<sup>16</sup> hamda Hindistonda o'tkazilgan «Oltin tulpor» («Golden Horse Film Festival») xalqaro kinofestivalida «Eng yaxshi xorijiy film» nominatsiyasi bo'yicha g'olib bo'ldi. Film ushbu kinofestivalda «Eng yaxshi rejissyorlik ishi» nominatsiyasi bo'yicha ham e'tirof etildi<sup>17</sup>.

Bundan tashqari, Tojikiston Respublikasi kinoijodkorlari bilan hamkorlikda "Yulduzlar shu'lasini. Jomiy va Navoiy" (rej. D.Masaidov), "Ko'rinmas yulduz" (rej. M.Ali-zoda), Turkmaniston bilan taniqli turkman shoiri Maxtumquli Firog'iy haqida "Maxtumquli" (rej. M.Erkinov), Qirg'iziston bilan "Samarqandda bir kuni" (rej. N.Sidiqov) kabi to'liq metrajli badiiy filmlar ishlab chiqarilmoqda. Bundan tashqari, Markaziy Osiyo davlatlari bilan keng miqyosida har yili kino kunlari o'tkazilib kelinmoqda. Ushbu tadbirlar doirasida milliy filmlarimiz namoyish etilishi qardosh davlatlar bilan xalqaro aloqalarimiz yanada rivojlanishi, hamkorlikda turli ko-produksiyalar paydo bo'lishiga xizmat qilmoqda.

Raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, birgina 2023-yilda Kinematografiya agentligi buyurtmasiga binoan 392 ta kinomahsulot yaratilgan<sup>18</sup>. Natijada ishlab chiqarish ko'rsatkichlari 2017-yilga nisbatan qariyb uch baravarga oshgan. Olti-yetti yil avval xalqaro ko-produksiya, ya'ni xorijiy kinoustalar ishtirokida birorta kinoloyiha yaratilmagan bo'lsa, 2023-yilga kelib ishlab chiqarilgan kinomahsulotlar soni 20 dan oshiqni tashkil etgan. 2017-yilda bitta xalqaro mukofot qo'lga kiritilgan bo'lsa, 2023-yilning

<sup>13</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 19.06.2021-yildagi PQ-5151-son <https://lex.uz/docs/5464678>

<sup>14</sup> <https://aniq.uz/yangiliklar/sarvqomat-dilbarim>

<sup>15</sup> <https://yuz.uz/news/ozbek-va-qozoq-xalqlarining-qadimiy-dostligi-xaqida-badiiy-film-suratga-olindi>

<sup>16</sup> [https://oz.inform.kz/news/zbek-va-kozok-halklarining-d-stligi-akidagi-fil-m-halkaro-mukofotga-sazovor-b-ldi\\_a3934672/](https://oz.inform.kz/news/zbek-va-kozok-halklarining-d-stligi-akidagi-fil-m-halkaro-mukofotga-sazovor-b-ldi_a3934672/)

<sup>17</sup> [https://oz.inform.kz/news/zbek-kozok-d-stligiga-bagishlangan-fil-m-indistondagi-kinofestivalda-yana-bir-mukofot-bilan-takdirlandi\\_a3959382/](https://oz.inform.kz/news/zbek-kozok-d-stligiga-bagishlangan-fil-m-indistondagi-kinofestivalda-yana-bir-mukofot-bilan-takdirlandi_a3959382/)

<sup>18</sup> <https://xabar.uz/madaniyat/kinoijodkorlar-murojaat-yollashdi-unda-mamlakat>

o‘zida o‘zbek kinoijodkorlari 24 ta xalqaro kinofestivalda ishtirok etib, 56 ta mukofotni qo‘lga kiritishgan<sup>19</sup>.

Islohotlar davomini kuzatadigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Kinematografiya agentligiga “Tirik tarix” turkumidan millatning shonli o‘tmishiga bag‘ishlangan 50 dan ortiq filmlar yaratish<sup>20</sup>, jajji bolajonlar uchun buyuk ajdodlarning ibratli hayot yo‘li haqida ko‘p qismli animatsion filmlar suratga olish, “erkin iqtisodiy kinohududlar” barpo etish, milliy seriallar bo‘yicha mavjud tizimni tubdan isloh etish, buning uchun erkin iqtisodiy zona – “Cinema park”lar tashkil qilish bo‘yicha muhim vazifalar berdi<sup>21</sup>.

Ayni vaqtda ushbu tarixiy filmlar jahonning eng rivojlangan va yirik kinoshaharlarga ega bo‘lgan Fransiya, Germaniya, Vengriya, Yaponiya, Xitoy, Turkiya, Rossiya, Ozarbayjon, Eron kabi davlatlari bilan hamkorlikda suratga olinishi rejalashtirilgan. Bunday hamkorlik kinoindustriyasi rivojlangan davlatlar bilan do‘stona aloqalar kuchayishi, soha rivoji uchun yangiliklarga intilish va shu bilan birgalikda tashqi turizmga xizmat qilishi shubhasiz.

Bunda, albatta, Yangi O‘zbekistonning milliy kino san’ati vakillari zimmasiga alohida mas’uliyat yuklanadi. Zamonaviy formatda yaratiladigan kinomahsulotlar orqali milliy qadriyatlarimiz, tariximiz, buyuk ajdodlarimiz hayoti va faoliyatini keng targ‘ib etish dolzarb vazifa etib belgilanadi. Zero, o‘zbek kinosini zamon va jahon bilan hamnafas, bugungi imkoniyatlar doirasida rivojlantirish davr talabidir.

---

<sup>19</sup> <https://t.me/uzbekkinopress/19011>

<sup>20</sup> <https://president.uz/uz/lists/view/7238>

<sup>21</sup> [https://t.me/Press\\_Secretary\\_Uz/3670](https://t.me/Press_Secretary_Uz/3670)

**Хамидулла Хасанов**  
доцент Государственного института  
искусств и культуры Узбекистана,  
Заслуженный работник культуры  
Республики Узбекистан,

## СОВРЕМЕННЫЙ КИНЕМАТОГРАФ: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ

***Аннотация:** В статье, рассматривается профессия кинооператора, тенденции и перспективы в современном кинематографе. XXI век – это век новых технологий и компьютерной графики, новые технологии открыли кинематографу новые возможности. И речь идёт не только о тотальной «компьютеризации», когда на замену привычной плёнке пришла компьютерная графика, но и о таких совершенно новых тенденциях, как 5D и интерактивное кино, 3D-кино. Также рассматривается развитие узбекской кинематографии в нынешнее время.*

***Ключевые слова:** искусство, кино, режиссура, художественность, образность, мастерство, художник-оператор, компьютеризация, эффект, ракурс, свет и цвет, композиция.*

***Annotatsiya.** Maqolada kinematograf kasbi, zamonaviy kinodagi tendensiyalar va istiqbollar ko‘rib chiqiladi. XXI asr yangi texnologiyalar asridir va yangi texnologiyalar kino uchun yangi imkoniyatlar ochdi va biz nafaqat kompyuter grafikasi odatiy filmni almashtirgan to‘liq “kompyuterlashtirish”, balki 5D va interaktiv kino, 3D kino kabi mutlaqo yangi tendensiyalar haqida ham gapirishimiz mumkin. O‘zbek kinematografiyasining hozirgi davrdagi taraqqiyoti ham ko‘rib chiqiladi.*

***Kalit so‘zlar:** san‘at, kino, rejissyorlik, artistlik, tasvir, mahorat, operator, kompyuterlashtirish, effekt, burchak, yorug‘lik va rang, kompozitsiya.*

***Annotation:** the article examines the profession of cinematographer, trends and prospects in modern cinema. The XXI century is the age of new technologies and computer graphics, new technologies have opened up new possibilities for cinema. And we are talking not only about total «computerization», when computer graphics came to replace the usual film, but also about such completely new trends as 5D and interactive cinema, 3D cinema. The development of Uzbek cinematography at the present time is also considered.*

***Keywords:** art, cinema, directing, artistry, imagery, skill, cinematographer, computerization, effect, angle, light and color, composition.*

XXI век – это век новых технологий и компьютерной графики, ознаменовавший конец привычной нам эры кинематографа. Плёночное кино, за которое весь мир благодарен братьям Люмьер, уходит в прошлое, уступая дорогу кинематографу компьютерному. Чего ещё ждать искусству и культуре кино от нового века? Потенциал кинематографа – в любом его проявлении – сегодня огромен как никогда. Новые технологии открыли кинематографу новые возможности. И речь идёт не только о тотальной «компьютеризации», когда на замену привычной

плёнке пришла компьютерная графика, но и о таких совершенно новых тенденциях, как 5D и интерактивном кино, 3D-кино, которое можно посмотреть прямо дома, очки виртуальной реальности и другие новомодные «фишки» технического прогресса, которыми всюду пользуются создатели современного кино.

В современном мире кинематограф занимает одно из важнейших мест в жизни человека. С каждым годом появляется все больше фильмов, сериалов и анимационных проектов, которые привлекают внимание зрителей разных возрастов и интересов. В наши дни какие тенденции развития наблюдаются в современном кинематографе и какими перспективами он обладает.

#### 1. Развитие стриминговых платформ и OTT-сервисов

С появлением и распространением таких платформ, как Netflix, Amazon Prime, Hulu и популярный OTT – медиасервис (также известный как популярное телевидение или просто OTT) другие медиасервисы, киноиндустрия получила новый толчок к развитию. Эти сервисы предоставляют возможность просмотра фильмов и сериалов в режиме реального времени, что привлекает все больше пользователей, особенно в условиях самоизоляции.

#### 2. Рост популярности жанрового кино

Современный кинематограф предлагает зрителю широкий выбор фильмов различных жанров: от комедий до драм, от боевиков до ужасов. В последние годы особенно популярны стали фильмы в жанре фэнтези и научной фантастики, а также фильмы на основе комиксов.

#### 3. Увеличение бюджета фильмов

Бюджеты современных фильмов значительно выросли по сравнению с прошлыми десятилетиями. Это связано со стремлением киностудий создавать более качественные и дорогие проекты, способные привлечь больше зрителей.

#### Перспективы современного кинематографа

##### 1. Внедрение новых технологий и форматов

С развитием технологий кино становится все более реалистичным и захватывающим. Уже сейчас активно используются технологии виртуальной реальности, 3D-форматы, а в ближайшем будущем можно ожидать появления фильмов с использованием искусственного интеллекта и дополненной реальности.

##### 2. Расширение географии кинематографа

Сегодня кинематограф охватывает весь мир, и каждый год на экраны выходят фильмы различных стран и культур. Это способствует взаимообогащению киноязыков и развитию международного сотрудничества.

Современный кинематограф продолжает развиваться и удивлять зрителей новыми идеями, технологиями и форматами. Благодаря появлению стриминговых сервисов, увеличению бюджетов и росту популярности жанрового кино, киноиндустрия будет продолжать радовать нас интересными и увлекательными фильмами в будущем.

После сумасшедшего и вряд ли запланированного успеха «Аватара» Джеймса Кэмерона Голливуд практически полностью переориентировал свои блокбастеры на трехмерную проекцию – что привело, в частности, к повышению цен на билеты. Это еще и требование времени: зрелищное кино отныне претендует на

тактильность. Соучастие публики, иллюзия ее присутствия «в фильме», – обязательное условие качественного развлечения.

Ясно одно: создатели фильмов стараются снять барьеры между происходящим на экране и зрителем. Это означает не только погружение в виртуальную реальность, но и тотальную геймификацию. Зритель уходит внутрь кино, участвует в его создании и в нём самом, примеряя на себя маску актёра, режиссера, сценариста и оператора.

Узбекский кинематограф в нынешнее время переживает период активного развития. За последние несколько лет было выпущено множество успешных фильмов, которые получили признание как в Узбекистане так и за ее пределами. Некоторые из наиболее ярких примеров включают такие картины, как “Баходир Ялангтуш”, “Узбечка”, “101”, “Илхак” и “101 рейс”.

Одной из ключевых особенностей современного узбекского кинематографа является его разнообразие. Фильмы представлены в разных жанрах, таких как драмы, комедии, боевики, триллеры и даже фэнтези. Например, исторические фильмы “Баходир Ялангтуш”, “Мукимий”, “Ибрат”, “Узбечка”, “101”, “Илхак” – это военные фильмы, “Тенгиз” – драма, “Непобедимый. Дорога в Токио” – спортивный жанр, “Есть денги...” – комедия.

***Отечественные эксперты киноотрасли надеются, что проектов с участием кинематографистов Узбекистана станет еще больше.***

Кинематограф в Узбекистане проживает новый этап: в СМИ соседних стран в новостях кино – почти везде фигурирует Узбекистан.

Например: Республика Беларусь активно снимает совместно с Узбекистаном фильмы о Второй мировой войне: 2024 году представили на кинофестивалях фильм «Узбечка», а настоящее время снимается совместная картина “Казбек”.

С Туркменскими кинематографистами снимается исторический фильм о поэте Махтумкули.

Совместно с индийскими кинематографистами “EAGLES FILMS”, снимается сложнопостановочная историческая кинокартина “ХИВА ЛАНГАРИ” (ЯКОРЬ ХИВЫ).



Кадр из фильма “Хива лангари” (якорь Хивы). Режиссёр: Х.Хасанов.

Кино и телевидение говорят со зритель-лем при помощи изображения. Отсюда понятна и естественна, высокая требовательность к качеству работы кино-теле-оператора и необходимость его отличной профессиональной подготовки.

Кино изобразительные операторские средства не могут быть отделены от других изобразительно – выразительных средств киноискусства, так же как и творчество оператора не может существовать в отрыве от творчества других участников художественного процесса создания фильма. Работа кинооператора обладает целым рядом специфических художественных особенностей, которые позволяют рассматривать операторское творчество как новый вид изобразительного искусства – кино изобразительное искусство.

Кинооператор – настоящий художник. Он пользуется светом, объективом, как красками – съёмочной камерой, как кистью. Экран – это полотно, на котором он запечатлевает свои работы.

Художественные образы кинопроизведений возникают перед зрителем как оптико-фонические явления. На экране нет ничего, кроме света различной силы и цвета, но этот свет формирует самые разнообразные картины действительности; в сочетании звука и изображения на экране возникают художественные образы.

Киноизображение наиболее полно и широко воспроизводит картину реальной жизни, сохраняя качество достоверности фотографического изображения. Кино – единственное из всех изобразительных искусств, обладающее возможностью передать движение.

Кино – искусство зрелищное, пластическое, и изображение является одним из главнейших компонентов в воплощении идейно-художественных задач. Специфика этого вида искусства предполагает особое значение профессии киноопера-тора, роль которого в процессе работы над фильмом трудно переоценить.

Вопросы профессионализма в кинооператорской среде, остры и всегда актуальны. Настоящий время но-вые технологические возможности, кино и видео техники, требуют инновационного подхода, гораздо более высокого уровня профессионализма, отменяют те критерии и нормы, которые еще недавно казались навсегда уста-новленными.

Кинооператорская профессия основана на знании и практическом освое-нии таких всеобъемлющих понятий, как композиция и свет, а также дисциплин тех-нических.

Необходимо особо подчеркнуть, что композиция и свет не поддаются никакому техническому совершенствованию, они целиком и полностью зависят от умения кинооператора видеть, чувствовать и воплощать на экране свои творче-ские замыслы. Иными словами, зависят от способностей и профессиональной подготовки кинооператора.

На один талант рассчитывать нельзя. Вообще любой кинематографист дол-жен стать сначала профессионалом – виртуозом, а уж потом к этому фундаменту прикладывается талант. Талант без крепкого ремесла долго не выдержит.

Нас всех учили этому еще во ВГИКе с институтских лет – и в теории, и на практике. И все же эти очевидные вещи далеко не для каждого стали жизненной формулой.

Любой кинооператор, начинающий самостоятельную творческую жизнь, должен овладеть достаточным комплексом знаний по всем аспектам кино и видео техники и технологии кинопроцесса. Для этого требуется время и собственная практика, постоять как следует у камеры, освоить все тонкости работы со светом в современных павильонах, изучить экспонометрию, провести немало часов в кино лаборатории и освоит компьютерные изобразительные программы.

Профессионализм в операторском искусстве – необходимое условие успешной работы. «Болтание» камерой, перспективные деформации и фотографические недодержки совершенно недопустимы для квалифицированной работы кинооператора.

Кинооператор, как совершенно правильно определил А. Н. Москвин, по самому смыслу своей производственной работы отвечает за эстетику и выразительность кадров кинокартины на экране. Поэтому кинооператор должен уметь профессионально оценивать качества и свойства материалов, предлагаемых к съемке. Кинооператор в этой оценке является «последней инстанцией», как художник, владеющий средствами кино изобразительности.

Современные кинооператоры обязаны следит за технологиями, ведь они развиваются так стремительно. Когда-то менялись форматы пленки, появился стедикам... Сегодня у нас есть краны, коптеры, открывающие невероятные возможности для движения камеры. Кроме того, у нас есть цифровые технологии и 3D.

В общем, технологии меняются, но в то же время не меняется главное – кинооператор по-прежнему занимается тем, что рассказывает истории посредством света, композиции, движения камеры. Технологии важны, но их значение второстепенно, они – лишь средство достижения результата.

## ЛИТЕРАТУРА

1. А.Д.Головня. Кинооператорское мастерство. – М.: Искусство, 1965.
2. Л.В.Косматов. Кинооператорское мастерство. – М.: Искусство, 1966.
3. Л.В.Косматов. Свет в интерьере. – М., 1973.
4. Журнал. Техника кино и телевидения.
5. М.М.Волынец. «Профессия: оператор». – М., Аспект Пресс, 2007. – С.160.
6. Питер Уорд. Композиция кадра в кино и на телевидении. – М.: ГИТР, 2005. С.196.
7. Х.Хасанов, И.Меликузиев. 14 золотых принципов работы оператора от Роджера Дикинса.
8. Интернет: [rewizor.ru](http://rewizor.ru/cinema/reviews/kino-xxi-veka) cinema/reviews/kino-xxi-veka [dzen.ru](http://dzen.ru) SweetTheOne's

## **MILLIY SERIALLARNING MAHORATLI REJISSYORI**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston televideniyesida o'zining qator seriallari bilan tomoshabinlar e'tiborini qozongan rejissyor Mohigul Hamrayeva ijodiga murojaat qilingan. Unda rejissyor ijodining o'ziga xos jihatlari: asarlarining janri, mavzusi, ilgari surilgan g'oya va maqsadlari, milliy madaniyat, ma'naviyat va qadriyatlar tasviri xususida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:** rejissyor, teleserial, milliy qadriyatlar, melodrama.*

***Аннотация.** В данной статье речь идет о творчестве режиссера Мохигуль Хамраевой, завоевавшей внимание зрителей своим сериалом на узбекском телевидении. Рассказывается об особенностях творчества режиссера: жанре, теме, идеях и целях его произведений, изображении национальной культуры, духовности и ценностей.*

***Ключевые слова:** режиссёр, сериал, национальные ценности, мелодрама.*

***Annotation.** This article refers to the work of the director Mohigul Hamrayeva, who has won the attention of the audience with his series on Uzbek television. It talks about the specific aspects of the director's work: genre, theme, ideas and goals of his works, depiction of national culture, spirituality and values.*

***Keywords:** director, TV series, national values, melodrama.*

Televizion seriallar bugungi kunda barcha telekanallarning ajralmas qismiga aylangan. Ular asosan keng tomoshabin auditoriyasiga mo'ljallanib, kunduzgi ko'rsatuvlarning asosini tashkil etadi. Binobarin, teleko'rsatuvlarning 5 ta asosiy vazifasini (informasion, madaniy-ma'rifiy, integrativ, ijtimoiy-pedagogik, rekreativ-hordiq chiqaruvchi) e'tirof etgan holda [1], teleseriallarning asosan rekreativ vazifani bajarishi bilan cheklanayotganligi sir emas. To'g'ri, inson kamolotida bularning ham o'z o'rnini bor. AQSShlik olim R.Allenning ta'kidlashicha, aynan kunduzgi serial (ayniqsa, melodrama) xilma-xil yoshdagi, har xil saviyadagi tomoshabinni birlashtirish xususiyatiga ega. Chunki bu paytdagi tomoshadan olingan taassurot uzoq vaqt muhokama yuritish imkonini beradi [2].

Roppa-rosa 13 yil avval televizor ekranlarida 15 qismli "Mehmonjonlardan aylanay" seriali namoyish etildi. Uni butun O'zbekiston xalqi tomosha qildi va Mohigul Hamrayeva serial rejissyori sifatida tanildi. Mohigul Hamrayeva O'zbekiston televideniyesida ancha yillar faoliyat yuritgan, turli ko'rsatuvlar rejissyori sifatida tajriba orttirib, so'ngra teleserial yaratishga qo'l urgan rejissyorlardan biridir. Jumladan, O'zbekiston televideniyesida uzoq yillar namoyish etilgan "Ajab saodat erur", "Ayol dunyoni tebratar", "Tasvirga ko'chgan ko'ngil", "Rangin dunyo", "Sahna hayoti", "Rakurs", "Umr bahori" nomli badiiy-publitsistik ko'rsatuvlari rejissyori Mohigul Hamrayeva bo'lgan. Rejissyor tomonidan "Bu qo'llar", "Jaloliddin Manguberdi", "Navro'z mubo-

rak”, “Navro‘z sayli” va “Texnika universiteti” nomli hujjatli filmlar, “Laura uchun qadah” va “Qadah” nomli telenovellalar hamda “Xayrlashuv oqshomi” nomli psixologik drama janridagi televizion badiiy film ham sahnalashtirilgan [3].

Hamrayeva Mohigul Xushvaqtoyna 1971-yil 8-oktyabrda Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanida tug‘ilgan. 1997-yil Mannon Uyg‘ur nomidagi Toshkent davlat san‘at institutining Televideniye rejissyorligi bo‘limini tamomlagan. M.Hamrayeva mehnat faoliyatini 1990–1991-yillar “Kinoaktyor” teatr studiyasi aktyorligidan boshlagan. Hatto rejissyor Yusuf Roziqovning “Domla”, “Tartib” seriallarida rol ham ijro etgan. 1991–1997-yillar esa “O‘zbekfilm” kinostudiyasi qoshidagi “Kinoaktyor” ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasida rejissyor assistenti vazifasida ishlagan. O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tizimida 1997-yildan faoliyat yurita boshlagan.

M.Hamrayeva sahnalashtiruvchi rejissyor sifatida 15 qismli “Mehmonjonlardan aylanay” (muallif E.Xushvaqtoy), 20 qismli “Orzular fasli” (muallif N.Azim), 20 qismli “Dugonajonlar”, (N.Azim, S.Murodova, M.Hamrayeva hammualliflikda) 10 qismli “Shohsupa” (R.Raldugina, M.Hamrayeva hammualliflikda) va 20 qismli “Yodgor” (R. Raldugina, M.Hamrayeva hammualliflikda), 30 qismli “Daraxtlar qo‘shig‘i” (S. Murodova, M.Hamrayeva hammuallifligida) nomli milliy teleseriallarni sahnalash-tirdi. Bu asarlarning har biri haqida alohida tadqiqotlar qilsa arziydi. Biz ularning mavzusi, ma‘rifiy-tarbiyaviy ahamiyati, bugungi teleseriallar ichidagi afzalliklari haqida fikr yuritmoqchimiz.

Dastlab o‘zbek milliy teleseriallari ichida klassik asarga aylangan “Mehmonjonlardan aylanay” asariga to‘xtalsak. Bu teleserial taniqli dramaturg Erkin Xushvaqtoy ssenariysi asosida olingan bo‘lib, unda xalqimizning asosiy fazilatlaridan biri bo‘lgan mehmondo‘stlik xususida gap boradi. Bir oilaning hayoti misolida turli hayotiy voqealar tasviri orqali o‘zbek xalqining mehmondo‘stligi, bag‘rikengligi, hotamtoyligi, saxiyli-gi, mehr-oqibati ko‘rsatiladi. Har bir qismda tomoshabin xalqimizning fe‘lidagi ijobiy jihatlarni ko‘rib faxrlanadi, hayotimizda uchraydigan salbiy hodisalar, kishilarga xos qusurlarni ko‘rib ularni isloh qilish xususida o‘ylanib qoladi. Odatda, biror-bir xalq-ning madaniyati, urf-odatlarini o‘rganish uchun o‘sha xalq haqida yaratilgan u yoki bu film, serialni tomosha qilishni tavsiya etishadi. “Mehmonjonlardan aylanay” teleseriali aynan boshqa xalq vakillarining o‘zbekning xarakteri, fe‘l-atvori, madaniyati, ma‘naviyati, qadriyatlari haqida ma‘lumotga ega bo‘lishiga, uni yaqindan tanishiga yordam beruvchi teleasar desak adashmaymiz.

Rejissyor Mohigul Hamrayeva zamonaviy mavzularga qo‘l urar ekan, ko‘proq za-monaviy yoshlar hayoti, ularning orzulari, intilishlari, jamiyat hayotidagi o‘zgarishlar-dagi o‘rni masalalariga e‘tibor qaratadi. 2017-yilda namoyish etilgan “Dugonajonlar” teleserialida rejissyor to‘rt qiz taqdiri orqali bugungi yoshlarning orzu-umidlari va unga yetishish yo‘lidagi qiyinchilik hamda kurash masalalarini tasvirlaydi. Katta hayotga endi qadam tashlagan abituriyent qizlarning talabalik yillari, bo‘lajak turmush o‘rtoq-lari bilan uchrashuvi, qalblarida muhabbatning kurtak otishi, oila qurish, kelinlik davri, farzandli bo‘lib, bir xonadonning bekasi sifatida turmushda uchraydigan turli muam-molarni hal etishlari aks etadi. Serialning asosiy g‘oyasi – bu inson dunyoga kelarkan, u baxtli bo‘lishga haqli. Buning uchun kurashish, mehnat qilish, intilish, qiyinchiliklarni

yengish va marralarni egallash lozim. Serial qahramonlarining har biri baxtni o'zicha tushunadi. Biri farzandlarini parvarishlab, o'zini oilasiga bag'ishlashni baxt deb sanasa (Zebo), ikkinchisi ilm olishni, fanda yangiliklar qilishni istaydi (Oqila), uchinchi qahramonimiz katta lavozimlarda ishlab, jamiyat rivojlanishiga o'z hissasini qo'shmoqchi (Adolat), yana boshqasi tadbirkor, u boylik, iqtisodiy barqarorlik saodatning kaliti deb sanaydi (Yoqutxon). Qahramonlarimiz o'z baxtlarini izlaydilar, kurashadilar, topadilar, yo'qotadilar, ba'zan uning haqiqatan baxt ekaniga shubhalanadilar. Ular eng qiyin davrlarda ham, quvonchli damlarda ham birga. Talabalik ostonasida paydo bo'lgan mustahkam do'stlik rishtalari bilan bog'langan dugonalar muammolarni birgalikda hal qiladilar, eng qiyin paytlarda ham bir-biriga suyanish mumkinligini biladilar. Hech qachon bir-biridan yordamini ayamaydilar, nima bo'lganda ham bir-birlarini tushunadilar. O'zaro maslahatlashadilar, dardlashadilar, quvonadilar.

Voqealar asosan Toshent shahrida sodir bo'ladi. Qizlarning ota-onalari bilan bog'liq sahnalarni Samarqand, Xorazm va Qo'qon viloyatlarida tasvirga olinishi milliy kolorit, urf-odatlar rangi-rangligini ko'rsatishga xizmat qilgan. Shu tariqa boy merosimizni saqlash, uni avlodlarga singdirish, faxr tuyg'usini uyg'otishga diqqat qaratilgan. Serial melodrama janrida bo'lib, personajlar o'rtasidagi dialoglarga yengil yumor singdirilgan.

Jahon kinosida, teleseriallar tarixida ham bunday mavzudagi filmlar juda ko'p uchraydi. Rossiyada ishlangan "Vse mujiki...", Turkiyada ishlangan "Umutsuz ev kadinlari" teleseriallari shu mavzuga yaqin teleasarlari sanaladi. "Dugonajonlar" teleseriali tomoshabinni hayot qiyinchiliklariga qaramay oldinga intilishni, ayollar ham jamiyatning bir a'zosi sifatida o'z o'rnini topishga haqli ekanligini yana bir bor uqtiradi.

2021-yilda rejissyor 30 qismli yangi "Qo'riqxon" nomli teleserialni suratga oldi. Rejissyor Mohigul Hamrayevani o'zbek xalqining kundalik hayotini, orzu-armonlarini, urf-odatlarini, otalar va bolalar, ajdodlar va avlodlar o'rtasidagi munosabatlarni tadqiq qiluvchi izlanuvchan olimaga qiyos qilish mumkin. Turli ijtimoiy masalalar kabi xalqimizning sport sohasidagi yutuqlari ham uning nazaridan chetda qolmaydi. Jumladan, uning o'zbek sporti, sportchilari hayotidan hikoya qiluvchi "Shohsupa" va "Yodgor" seriallari fikrimiz dalilidir. "Shohsupa" teleseriali 2015-yilning 18-21-sentyabr kunlari Toshkentda bo'lib o'tgan X Xalqaro "Kino va televideniya sport" festivalida "Eng yaxshi badiiy film" nominatsiyasiga loyiq topilgan.

Mohigul Hamrayeva rejissyor sifatida shakllanishi bilan bir paytda pedagogik faoliyat ham yuritib kelmoqda. U 1997-yildan hozirgi vaqtgacha O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti teatr san'ati fakulteti, musiqali, drama teatri va kino aktyorligi kafedrasida o'rindosh katta o'qituvchi sanaladi. 2013-yildan O'zbekiston milliy teleraudiokompaniyasi "O'zbektelefilm" davlat unitar korxonasi rejissyor-muharrirlar guruhi bosh rejissyori lavozimida ishlab kelmoqda.

O'zbek kinosida ayol rejissyorlar kamchilikni tashkil qiladi. Mashhur kinorejissyor Qamara Kamalova, "Tutash taqdirlar", "Opa-singillar" kabi teleseriallar rejissyori Zamira Begimqulovalar o'zbek kinosi va televideniyesi tarixida o'z o'rniga ega bo'lgan ijodkorlardir. Ularning davomchisi bo'lgan Mohigul Hamrayeva tomoshabinlarga ma'qul keladigan, yoshlarda milliy qadriyatlarga ehtirom va e'tiborni tarbiyalaydigan,

o‘zbekning milliyligini saqlab qolishga xizmat qiladigan asarlar yaratib kelayotgan mahoratli rejissyorlardan biridir.

Mohigul Hamrayeva yaratgan teleseriallar vaqti kelib kinoshunoslarimiz tomondan atroflicha tadqiq qilinadi, kino va televideniye rejissyorligi yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalarga bu ijodkor yaratgan teleasarlar o‘quv-uslubiy qo‘llanma vazifasini o‘taydi, degan umiddamiz. Zero, ularda o‘zbek xalqining hayoti, qadriyatlari, orzu-armonlari, o‘tmish va kelajak haqidagi o‘ylari o‘z aksini topgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Шергова К.А. Эволюция жанров в документальном телевизионном кино. КД. – М., 2010. – С. 45.
2. Allen R. Introdustion/ To be continued... Soap operas Around the world. London, 2003. P.4
3. Mahmudova S. Milliy kino taraqqiyotida badiiy adabiyotning o‘rni. O‘zDSMI xabarlari jurnali, 2022-yil 1-soni, 17–19-betlar.

**Faxriddin Abduvohidov**  
*san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),*  
*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti*  
*dotsenti*

## **O'ZBEK KINODRAMATURGIYASIDA ZAMONAVIY MAVZUGA YONDASHUV MASALALARI**

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada kino san'ati asosini tashkil etadigan dramaturgiya hamda ssenariynavislik mahoratida professional kadrlarni tarbiyalash hamda jahon dramaturglari bilan bellasha oladigan, shuningdek, bir safda tura oladigan malakali mutaxassislarni shakllantirish xususida fikr yuritilgan. Kinossenariyning muhim komponentini saqlab qolgan holda rejissyorlik ssenariysini yoza olish mahorat kasb etishi tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *kinematografiya, kino san'ati, film, ssenariy muallifi, dramaturg, rejissyor, ssenariy, komponent.*

**Аннотация.** *В данной статье основное внимание уделяется подготовке профессиональных кадров навыкам драматургии и сценарного мастерства, которые являются основой киноискусства, а также формированию квалифицированных специалистов, способных конкурировать с мировыми драматургами и стоять в одном ряду. Анализируется, что приобретается умение писать режиссерский сценарий с сохранением важной составляющей сценария.*

**Ключевые слова:** *кинematография, киноискусство, фильм, сценарист, драматург, режиссёр, сценарий, компонент.*

**Annotation.** *This article focuses on the training of professional staff in the skills of dramaturgy and screenwriting, which are the basis of cinematography, as well as the formation of qualified specialists who are able to compete with world playwrights and stand in the same row. It is analyzed that the ability to write a director's script is acquired while preserving an important component of the script.*

**Keywords:** *cinematography, cinematography, film, screenwriter, playwright, director, script, component.*

So'nggi yillar o'zbek milliy kinematografiyasi taraqqiyotida sezilarli qadamlar tashlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbek milliy kinematografiyasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori<sup>22</sup> imzolandi. Unga ko'ra turli yo'nalishlar bo'yicha qator rejalar belgilanib, konseptual vazifalar oldinga qo'yilgan. Mazkur qonun mamlakatimizda milliy kinematografiya rivojini yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qilmoqda. Bu sohaga davlat tomonidan alohida e'tibor qaratilayotgani bejiz emas, sababi kino san'ati xalqning madaniy-ma'rifiy hayotida muhim o'rin tutadi. Yillar davriyligida yangi kinoloyihalar ishga tushirilib, yosh kino ijodkorlar uchun 10 soatdan iborat qisqa metrajli filmlar, bolalar uchun

---

<sup>22</sup> O'zbek milliy kinematografiyasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. [www.uza.uz](http://www.uza.uz) (elektron manba)

yumoristik kinojurnallar suratga olish, davlat buyurtmasi asosida yaratilgan filmlarni jahon bozoriga olib chiqish, chet tillariga subtitrlashtirish va dublyaj qilish kabi qator vazifalar belgilab berilgan.

Kino san'ati asosini kinodramaturgiya belgilaydi, yuqoridagi barcha vazifalarni bajarishda, eng avvalo professional darajadagi ssenariychilarni tarbiyalash, o'z mahorati va qalami ila jahon dramaturglari bilan bemalol bellasha oladigan ijodkorlar yetishtirish lozim bo'ladi. Muhtaram yurtboshimizning soha vakillariga bildirgan ishonchi doirasida O'zbekiston Kinematografiya agentligi zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklangani, barcha tashabbuslar va harakatlar mazkur tashkilot tomonidan amalga oshirilishi ma'lum.

Mazkur o'zgarishlar, turli yangiliklar bevosita o'zbek kinodramaturgiyasida ham yangi izlanishlar eshigini ochayotir. Zamonaviy o'zbek kinodramaturgiyasining rivojlanish tendensiyalari qator bosqichlarni bosib o'tmoqda. Davr ruhiyati, insonlarning orzu-intilishlari, mafkuraviy jarayonlar haqidagi kinoasarlarni yaratish, ijtimoiy-siyosiy yo'nalishga xos badiiy filmlar suratga olish davri kechdi. Shuningdek, ijtimoiy-siyosiy, davr ruhiyati aks etgan kartinalar ko'proq davlat buyurtmasi asosida suratga olindi. Rustam Sagdiyevning "Sotqin" filmi Andijon voqealariga asoslangan bo'lsa, Rixsiyov Muhammadjonov va Abduvohid G'aniyevning "Isnod" filmi, Hilol Nasimovning "Odnoklassniki", Orif Yo'ldoshev va Najmiddin G'ulomovning "Uqubat" kartinalari o'tgan davrlarda dolzarb bo'lgan mavzu – odam savdosiga qaratilgan. Kinodramaturglar davr konsepsiyasidan kelib chiqib, o'ziga xos ssenariylar yaratishdi, ijodiy mahorat davr talabi asosida rivojlandi va samarali natija berdi. Kinorejissyorlar o'z ishida talab doirasida ishlay boshlashdi.

Kinossenariyning muhim komponentini saqlab qolgan holda rejissyorlik ssenariysini yoza olish ham mahorat kasb etadi. Film suratga olish operator va rassomning jamoaviy ishlovida amalga oshadi. Kinorejissyor Bahodir Ahmedov: "Aslida rejissyor ssenariysidagi har bir epizoddagi, har bir kadr raskadrovkalangan bo'lishi kerak, oddiy qilib aytilganda, har bir aktyorning xatti-harakatini postanovkachi rejissyor postanovkachi rassom bilan birgalikda tasvir orqali ishlab chiqishi kerak"<sup>23</sup>, – deydi. Yangi davr o'zbek filmlari dramaturgiyasining rivojlanishi mahoratli rejissyorlar ijodiy potentsiali bilan ham bevosita bog'liq. Yani bir muhim jihat, o'zbek kino san'atida janrli filmlar ozchilikni tashkil etadi. Ammo xorij kino tendensiyasiga nazar solsangiz janrli kartinalar tomoshabop filmlar qatorida turadi.

Vaqt odimi ildam harakatlangan sari insonlarning qarashlari, estetik dunyosi, moddiy va ma'naviy ehtiyojlari ham davr nafasiga xos tarzda o'zgarib bormoqda. Asriy an'analar, ulug' insoniylik g'oyalari, sof tuyg'ular tarannumi biroz o'zgarsa-da, ammo ularning asl maqsadi insonlarning baxt-saodati uchun xizmat qilishda davom etaveradi. Yangi davr o'zbek filmlari yaratilishida ham bir qator o'zgarishlar, yangilanishlar kuzatila boshladi. Yillar davomida badiiy g'oyasi ezgulikka, porloq kelajakka yo'g'rilgan filmlar suratga olinib boshladi.

---

<sup>23</sup> Ahmedov B. Adabiy va rejissyor ssenariysi. – T.: Ilm-ziyo, 2008.

Postanovkachi rejissyor Abduvohid G'aniyevning 2011-yili suratga olingan "Qutqaring, qariyapman!" kartinasi o'zbek kinosida o'ziga xos mavzudagi asar bo'lgan. Buyuk rejissyor Aleksandr Mitta: "Mavzu – bu biz filmda hikoya qiladigan barcha eng muhim narsalarning ekstrakti", – deya fikr bildirgan edi. Mazkur kino asar mavzusi dolzarb va o'ziga xos syujetda ochib berilgan. Film janri fentezi drama bo'lib, bosh qahramon Quدرات ismli yigitning sarguzashtlari haqida kechadi.

Quدرات – hayotda omadi chopmagan yigit, onasi va buvijonisi bilan birga eski uyda yashaydi. Ko'ngil qo'ygani Aziza bilan uchrashib yuradi, ammo uylanishga daromadi yo'q. Shunda u birdan boyib ketishni, kattagina uy-joy va qimmatbaho mashina olishni istaydi. "Toqqa chiqmasdan do'lana yeyish"ni xayol qiladi. Va nihoyat, tushida marhum buvasini uchratadi. Buvasi unga "sehrli yong'oq" berib, evaziga eng qimmatli ne'mati umrini, navqiron yoshligini so'raydi. Yigit tezda boyib ketish maqsadida shartga rozi bo'lib, yong'oqni yeydi va qarib boraveradi. Film voqealari shu tarzda rivojlanadi. Quدرات har tush ko'rganida buvasidan kattaroq boylik so'rab, evaziga guldek umrining ko'p qismini almashib yuboradi. Natijada, tez qarish kasalligi, ya'ni "bagiriya" kasalligiga uchraydi.

Postanovka rejissyori filmda fentezi janrining xususiyatlaridan kelib chiqib, o'ziga xos tarzda yondashgan. Buyuk fransuz adibi Onore de Balzakning "Sag'ri teri tilsimi" asari asosida Shoira G'iyosova ssenariy yaratgan. Filmدا Quدراتning marhum buvasi bilan so'zlashadigan kadrlarda tush elementlaridan foydalangan, chegarasiz kenglikda, hech qanday devor-to'siqlar yo'q tepalik xuddi arsh-a'lo bilan muvozanatda turgan qiyofani ko'rsatadi. Professional aktyorlar ijrosi chuqur dramatismni tomoshabin qalbiga singdiradi. Bosh rolda Adiz Rajabov mahoratini ko'ramiz. Sho'x-shaddod oshiq yigitning ko'cha yigitlari singari tavakkalchiligi, bir ishni boshini eplab tutolmay, doim omadsizliklar orttirib yurishi hayotiy chiqqan. Keskin peripetiyada esa bosh qahramon o'zgarib boshlaydi. U o'zi anglab yeta olmayotgan, ming urinsa-da, ortga qaytmas bebaho yoshligini boylikka almashadi, bu bilan to'kin va farovon turmushni o'ylaydi. Adiz Rajabov kartina davomiyligida 21 yoshdan tortib qariya qiyofasigacha betakror ijroni ko'rsatadi. Bunda grimyor Galina Ivanova hamda murakkab grim ustasi Lyudmila Dudnikning xizmatlari katta. Quدرات har uyg'onib, qarshisidagi ko'zguga qaraganda, qarilik soyasini ko'radi, nigohlari toliqib, yuzlari uniqib borayotganini angelaydi. Avvaliga tushlariga ishonmaydi, so'ng qarib borayotgan aksini ko'rsatgan ko'zguga qo'rquv bilan razm soladi. Vaqt hammasi haqiqatga aylanib borayotganini anglatadi. Tasvirda aktyor qiyofasining o'zgarayotgan fusuni, nigohlaridagi vahima, ko'z ostidagi ajinlarni ko'rib, ta'sirlanasiz, uning dard-u dunyosiga aylangan boylik tashvishi umrini zavol qilib borayotganiga ishonasiz. Filmdagi hayratga soluvchi musiqaviy ifodalar kompozitor Doniyor Agzamov tomonidan yaratilgan. Voqealardagi ko'chishlar, muhabbat chizig'ining notekis harakati, oshiq qalblarning talqini aktrisa Shahzoda Matchonova ijrosida gavdalangan. Aziza sevikli yigitini o'zgarishini, ijobiy xislatlari ko'payishini istaydi, ammo sevgilisi ishidan ham haydaladi.

Tush kadrlaridagi kulminatsion yechim juda ta'sirli chiqqan, marhum bobosi "Bu yerga boshqa kelma", deya yig'lab so'zlagani, ammo Quدرات jondek sevuvchi yorining onasi qattiq betob bo'lib qolganligi sababli, endi doimgidek o'ziga emas, o'sha

bemorga umr so‘rab boradi. Kuchli shamol va shovqin ostida yolvorib sevgilisining onasi uchun sog‘lik va umr so‘raydi. Buning uchun bor hayotini baxshida etadi. Kad-rda tutunli va shamolli sahna, qo‘rqinchli ovoz va musiqa Quadratning umr poyonini, go‘zal va laziz yoshlik onlarining vidosini aks ettiradi. Uning boylikka o‘ch, osongina yaxshi yashashga bo‘lgan intilishlarining sarobi, ammo so‘nggi voqealarda yigitning insoniyligi va imoni aks ettiriladi. Bobosi rovida To‘xtamurod Azizovning o‘ziga xos ijrosi, qiyofasi jonli gavdalangan. Buvi personajida O‘zbekiston xalq artisti Shafolat Rahmatullayeva, ona rovida Sayyora Yunusova mahorat bilan yondashishgan. Buvi-ning nevarasini tejab-tergashlari, o‘zbek onalariga xos plastikasi, pullarini yo‘qotgach, qon bosimining ortib ketishi, arz-hol qilib bo‘ydoqni uylanish taraddudiga tushganligi xalqona chiqqan. Ayniqsa, rahmatli turmush o‘rtog‘idan qolgan eski hovlini sotishga qarshiligi, yangisini faqat shu yerda barbod etmoqchiligi asriy an‘analarga, ajdodlarga mos avlod ekanini, bir paytlar saodatli umrguzaronlik qilgan jufti haloliga sadoqatli ekanini ko‘rsatadi. Quadratning onasi Hakima personajining bo‘layotgan voqealarga, jondan aziz yagona dilbandini o‘zgarib borayotganiga tushunmay hayratlar ichida qol-gan qiyofasi, erta qarib ketgan o‘g‘lini ko‘rgandagi vahimali nigohlari, ichki dardlari ta’sirli chiqqan. O‘g‘lining holatidagi o‘zgarishlarga achinishi, mehridaryo qalbining tuyg‘ulari yorqin aks ettirilgan.

Kinokartina syujetining izchilligi, kino dinamikaning o‘sib borishi, dramatik ho-latlarning rivoji uning tomoshaviyiligini oshiradi. Quadrat katta boyluk so‘raganda ko‘-chada unga duch kelgan boyvachchaning pul hadya etishi, Yaratgandan farzand so‘rab, niyatiga yetganidan shodligi ko‘rsatilgan. Eng muhimi, so‘ralgan boyluk shunchaki kel-masdan, balki hayotiy tasodiflar, ishonarli hodisalar orqali syujetga ulanib ketadi.

Quadrat bagiriyadan azob chekib, ko‘zini ochadi, onasi va buvisini qoshida termi-lib o‘tirishganini ko‘radi. Azizaning onasi sog‘ayib ketganini, hatto turmushga chiqib ketganini eshitib, uning uyiga ravona bo‘ladi. Hovlida farzand kutayotgan Aziza xarrir libosda, ko‘rkam va mamnun qiyofada, ortidan jufti haloli unga mehr bilan talpinadi. Quadrat qo‘lidan boy bergan baxtini, shirin muhabbatini, sevimli yorini ko‘radi. Ham-masi o‘tkinchi ekani, oson yo‘l bilan topilgan boyluk unga baxt keltirmaganini anglay-di. Aziza bilan yomg‘ir ostida tanishganini eslab, ichidagi isyonni olov olayotganini ko‘rsatadi. Yomg‘irning tomchilari ostida xushidan ketadi. Yakunda hammasi tushga aylanadi. Rejissyor mazkur holatda boshqacha yechimdan foydalangan. Ya’ni barcha ko‘ngilsiz voqealarni tushga ko‘chirib ko‘rsatgan.

“Qutqaring, qariyapman” kartinasi yangi davr o‘zbek filmlari dramaturgiyasida o‘ziga xos o‘rinni egallaydi. Janrning yangiligi va syujetning o‘ziga xosligi bilan alohi-da ajralib turadi. Qolaversa, betakror ijrolar, yorqin xarakterlar ijobiy talqinini topgan. Tomoshabinga osonlikcha baxt va boylikka erishib bo‘lmaslik, bu dunyoda yoshlik va umr hamma boylukdan ham aziz ekanligini anglatadi. Kino tili murakkab emas, o‘ziga xos komik ijrolar va xarakterlardagi yorqinlik filmni boyitgan. Postanovkachi operator Muzaffar Erkinov hamda rassom Bektosh Rajabovning mahoratli ishi ko‘rinadi. Ayniq-sa, tush sahnalarining qiyofasi betakror yaratilgan.

Ssenariy muallifi Shoira G‘iyosova dramaturgik asarning pishiqligi va original syujetda yaxlitlik yaratgan, personajlarda milliy xarakter gavdalantirilgan. Film kom-

pozitsiyasi yaxlit badiiylikda namoyon bo‘ladi. Professor Piter Uord ta’kidlaganidek: “Qiziqarli va nafis qurilgan kompozitsiya tomoshabinni tarbiyalaydi”<sup>24</sup>. Mazkur kartina yangi davr o‘zbek kinosidagi izlanishlar hosilasi bo‘lib, taraqqiy topayotgan o‘zbek kinosi uchun tomoshabop asarlardan biri bo‘lib qoladi. O‘zbek kinosida yana bir tajribali ssenariychilardan biri G‘afur Shermuhammad bo‘lib, uning turli mavzu va janrlardagi filmlari xalqonaligi bilan tomoshabinlar qalbidan joy egallagan.

Haqiqiy o‘zbekona xarakter, oddiy insonlarimizning baxtli turmushi, betakror boy madaniyatimiz haqidagi asarlar vaqtning har lahzasi o‘tgani sayin qadrli bo‘lib bormoqda. O‘zining ijodiy faoliyatida ana shunday asarlarni yaratgan ijodkorlar bugun butun xalqning mehrini va e’tiborini qozonib, umrboqiylikka teng bo‘lgan adabiy merosni yaratishdi. G‘afur Shermuhammad ham jonkuyar ijodkorlar safidan joy olgan, o‘zbek adabiyoti va san’atida tinimsiz mehnat qilayotgan shaxslardan hisoblanadi.

2007-yilda G‘afur Shermuhammadning O‘zbekinosida ilk asari davlat buyurtmasi asosida “Chavandoz” filmi yaratildi. O‘z vaqtida kattagina shov-shuvlarga, adabiy fikrlarga sababchi bo‘lgan mazkur asarning premyerasi tom ma’noda ssenariy muallifiga ham, rejissyor va aktyorlarga ham shuhrat olib keldi. Adabiyotshunos Shuhrat Rizaev: “Bu film jahonga olib chiqiladigan asar bo‘lgan, birinchi navbatda g‘oyaviy-badiiy jihatdan kuchli ssenariy ishlangan”, – deya hayratomuz fikr bildirgan.

Haqiqatan, “Chavandoz” filmida G‘afur aka o‘zi tug‘ilib o‘sgan Qashqadaryo vohasining milliy urf-odati bo‘lmish ko‘pkari o‘yinini badiiy yuksak darajaga olib chiqib qiziqarli asar yaratdi. Boir Xolmirzayev, Yulduz Hamidova, Tohir Saidov singari professional aktyorlarning mahoratli ijrosini ko‘rib har qanday tomoshabin bu dunyoda o‘z ko‘pkarisini o‘ynab yashayotgan o‘yinchi, g‘oliblar chavandoz, mag‘lublar yana kurashga otlanuvchi sifatida namoyon bo‘laveradi. Ko‘rinib turibdiki, asarning falsafiy tomondan ham yakuniy yechimi, adabiy yuki ham anchagina puxta ishlangan. “Chavandoz” badiiy filmi 2009-yilda Toshkentda va Italiyaning Milan shahrida o‘tkazilgan “Sport va kino” xalqaro kinofestivallarining bosh mukofotiga sazovor bo‘lgan. Shuningdek, ushbu film Rossiya, Fransiya, Qozog‘iston, Vengriya va boshqa davlatlarda tashkil etilgan o‘nga yaqin xalqaro kinofestivallarda muvaffaqiyatli ishtirok etib, sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritgan. Film 2011-yilda O‘zbekiston mustaqilligining 20 yilligiga bag‘ishlab tashkil etilgan kino san’ati sohasidagi “Istiqlol solnomasi” tanlovida ikkinchi darajali diplom bilan taqdirlangan.

Ijodkorning “Arosat” (2009-y.), “Ta’ziyadagi to‘y” (2010-y.), “Aldangan ayol” (2011-y.), “Quduq” (2013-y.) badiiy filmlari, bir qator multiplikatsion, televizion hamda hujjatli filmlari suratga olingan.

“Arosat” filmida o‘z dinidan uzoqlashgan, pok e’tiqodini o‘tkinchi saroblarga alishtirgan, oqibatda butun oilasini isnodga qo‘ygan ayol haqida hikoya qilinadi. Postanovkachi rejissyor Mansur Abduxoliqov filmidagi har bir kadrning ta’sirchanligiga, musiqiy bezagiga, aktyorlar ijrosining potensial darajasiga alohida e’tibor qaratgan.

“Aldangan ayol” filmi 2011-yilda dolzarb mavzuga bag‘ishlangan eng yaxshi kinoasarlardan biri sifatida e’tirof etildi. Bosh rol ijrochisi Rayhon Ulasenova “Eng yaxshi roli uchun yil aktrisasi” mukofoti bilan taqdirlangan. Ushbu filmida bugungi

<sup>24</sup> Uord P. “Kino va televideniya kadr kompozitsiyasi”. (Elektron manba)

davrimizning o‘ta dolzarb muammosiga aylangan odam savdosi illati haqida kuchli dramaturgik syujetni ko‘rish mumkin. Ayniqsa, xorijda olingan tasvirlar, betakror ijro-lar inson qalbini larzaga soladi. Aldangan ayol har qanday harakatga tayyor bo‘lajagi, uning ortida butun boshli oilasi, Vatani, millati g‘ururi turganligini ko‘rsatadi. Kino-ssenarist bu borada ko‘p izlanganligi, hayotiy motivlardan oqilona foydalanganligini ko‘rish mumkin. Dramatik asardagi kuchli konflikt, konkret xarakter va izchil fabula asar badiiyligi bilan birga tomoshabopligini ta‘minlaydi. Muallifning dramaturgik iqtidori, bilim saviyasining yuqoriligi natijalarning ijobiyligidan dalolat. Nazarimda hozirgi ekranlarimizda bir martalik ko‘rishga yaratilayotgan ayrim, ssenariy muallifi va rejissyori (hatto boshqa guruhda ham bor) bo‘lgan ijodkorlar uchun ushbu yo‘l bimalol bosh tamoyil bo‘la oladi. “Hatto chumchuqni ham qassob so‘ysin”...

2013-yilga kelib o‘zbek kinosida yangilik bo‘ldi. Dramaturgning “Quduq” asari bo‘yicha yaratilgan film katta ekranlarga chiqdi va oz fursatda mutaxassislar tomonidan ijobiy baholandi. Bir necha nufuzli xalqaro kinofestivallarda ishtirok etib, faxrli sovrinlarni qo‘lga kiritdi.

“Quduq”da hayot falsafasini sabr-toqat bilan izlayotgan inson Lallay amaki taqdiri gavdalantirilgan. Aslida “baxtdan lallaygan”, bir umr gardanida halol mehnatning qopi tursa-da, biroq odamlar orasida turfa g‘iybatlarga uchraydigan sodda insonning qiyofasini ko‘rish mumkin. “Lallay haqiqatan hayotda bor personaj, men o‘z ko‘zim bilan ko‘rib, ushbu qahramonni yaratganman”, – deydi muallif. Hayotiy voqeaning ta‘sirchanligi va ishonchliligi Muhammadiso Abdulkayirov, Lola Eltoyeva, Abduxalil Mignarov, Yulduz Hamidova, Sayfiddin Meliyev kabi o‘zbek aktyorlarimizning mahorati bilan bog‘liq. Rejissyor Mansur Abduxoliqov bilan o‘zaro ijodiy hamkorlik G‘afur Shermuhammad nomi va shuhratini yanada mustahkamladi. Ijodiy ko‘ngillarning o‘zaro kashfiyotlari, qarashlar uyg‘unligi, asosiysi, mushtarak maqsadning samarasi ijodda muhim sanaladi.

Birinci Prezidentimiz tashabbusi bilan Ustyurt haqida G‘afur Shermuhammad ssenariysi asosida “Ustyurtga yo‘l” badiiy filmi hamda ijodiy hamkorlikdagi hujjatli filmi ishlandi. Bu asar Vatanimiz bugungi kunda bunyodkorlik islohotlarida ulkan yutuqqa erishayotgan, boshqa mamlakatlarga o‘rnak bo‘la oladigan mintaqa sifatida e‘tirof etilishining yorqin isbotidir. Aynan hujjatli film yaratish borasida ham G‘afur akaning ijodiy potentsiali yuqoriligini ko‘rish mumkin.

So‘nggi paytda “O‘zbekkino” va “O‘zbekfilm” kinostudiyasi hamkorligi bilan G‘afur Shermuhammad ssenariysi asosida “Ko‘pkarini sog‘ingan tulpor” nomli hujjatli film ishlandi, endilikda “Chavandoz” kartinasining ikkinchi qismi uchun loyihalar tayyorlanmoqda. Tez orada yana bir katta premyera o‘zbek tomoshabinlarga tuhfa etiladi.

Vaqt g‘ildiragi shiddatkor, soatlar kapkiri uzluksiz, hayot ummoni oldinga mavjlanarkan, mohir ijodkor insonning qadri va qalami bebahoki, G‘afur Shermuhammaddek asl kinossenaristlarning ijodiy faoliyati asrlarga teng, yaratilgan har asarning yutug‘i cho‘qqilardak balanddir. Ijodkordan o‘sha cho‘qqilardan yanada yuksak osmono‘par g‘oyalardagi asarlar kutib qolamiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abulqosimova X. Kino san'ati asoslari. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009.
2. Abulqosimova X. Kinoteleradio tarixi va nazariyasi. –T.: Ilm-ziyo, 2008.
3. Akbarov H. Kino-teledramaturgiya: Nazariya va ma'lumot. –T.: Ilm-ziyo, 2006.
4. Akbarov H. Kino san'ati tarixi. – T.: Toshkent islom universiteti, 2005.
5. Хайтматова С. Аннотированный каталог художественного кино Узбекистана 1925-2008. – Т.: Санъат, 2009.
6. Каримова Н. Игровой кинематограф Узбекистана: Истоки. –Т.: Санъат, 2012. 106-б.
7. Rizayev SH. Iztirob san'ati. –T.: Yangi asr avlodi, 2013.

## **ABDUXALIL MIGNAROV IJOD MAYDONIDA**

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada aktyor, rejissyor va ssenariychi Abduxalil Mignarovning o'zbek kinosida turgan o'rni va ijodi borasida fikr yuritiladi. Ijodkorning har bir yo'nalishda tutgan o'ziga xos intilish va izlanishlari tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *kino, rejissyor, ssenariy, film, operator, teleserial, monolog, san'at.*

**Аннотация.** *В данной статье рассматривается роль и творчество актёра, режиссёра и сценариста Абдухалила Мигнарова в узбекском кино. Анализируются уникальные стремления и поиски артиста в каждом направлении.*

**Ключевые слова:** *кино, режиссёр, сценарий, фильм, оператор, сериал, монолог, искусство.*

**Annotation.** *This article discusses the role and work of actor, director and screenwriter Abdukhalil Mignarov in Uzbek cinema. The unique aspirations and searches of the artist in each direction are analyzed.*

**Keywords:** *cinema, director, screenplay, film, operator, TV series, monologue, art.*

Abduxalil Mignarov aktyor, rejissyor va ssenariychidir. Bu uch birlik ijodkorga faqat ilhom bag'ishlaydi. Ijodkor ishdan bo'sh qoldim deguncha, galdagi rejalarini qog'ozga tushiradi. Qahramonlari bilan yashab, ularni his qiladi. Dialog, monologlar ustida qayta va qayta ishlab to ko'ngli taskin topmaguncha erinmaydi. Abduxalil Mignarov o'ziga yarasha talabchan, mutolani xush ko'radigan, o'ziga xos qarashlarga ega ijodkordir.

Abduxalil Mignarov 1957-yilning 25-aprelida Toshkent shahrida tavallud topgan. Bolaligidan san'atga mehr qo'yib ulg'ayadi. Orzular, kelajak uchun dadil qadam tashlash vaqti yetib kelgach, Abduxalil Mignarov 1978-yili Toshkent teatr va rassomchilik san'ati institutining drama aktyorlik bo'limini muvaffaqiyatli tugatadi. Institutda talabchan ustozlari Iosif Vasilyevich Radundan, aktyorning jon-jahdi bilan mehnat qilishi, "faqat shunchaki rol o'ynash emas", balki yuragi yonib, butun qalbi bilan qahramon hayotida yashashni o'rganadi. Shu bois talabalik davridanoq qaysi rolni o'ynamasin, qalbdan ijro etishga harakat qiladi.

A. Mignarov o'qishni tugallab, Samarqand teatriga ishga yuboriladi. Bu yerda yosh aktyor teatrga tamal toshini qo'ygan ustozlar ijodini kuzatadi, ular bilan maslahatlashadi, o'ziga berilgan har bir rol ustida qunt bilan ishlaydi, yaratayotgan qahramonlarini teran anglashni o'rganadi. "Teatr men uchun ulkan maktab bo'ldi. Ustoz san'atkorlar bilan hamnafas bo'ldim, sahna muqaddas dargoh ekanligini yanada chuqurroq his qildim", – deydi u biz bilan suhbatda.

1981-yildan u o'z faoliyatini Hamza (hozirgi Milliy) teatrdan davom ettiradi. Otaxon teatrga kirib kelar ekan, ustoz san'atkorlar Shukur Burhonov, Ikroma Boltayeva, Xolida Xo'jayeva, Nabi Rahimov kabi san'at darg'alari bilan bir sahnada ijod

qilish baxtiga muyassar bo‘ladi. Buyuk ustozlar nafaslarini his qilib, o‘g‘itlarini olib aktyorlikning ulkan pillapoyasi tomon shahdam qadamlarini davom ettiradi. Ustozlardan olgan saboqlar, ularning yo‘l-yo‘riqlari, nasihatlar, qo‘yinki, barcha yurish-turishlari o‘zgacha maktab edi. U bularni hali hamon shirin entikish bilan eslaydi. Shukur Burhonov sahnada bir og‘iz “hmmmm” deyishi bilan butun zal diqqatini o‘ziga jalb qilardi. Ikroma Boltayevadan sahnada to‘g‘ri yurish, so‘zlashda artikulyatsiyaga e’tibor qilishni o‘rgangan bo‘lsa, Sa’dixon Tabibullayev esa sallani qanday qilib chiroyli o‘rashni erinmay tushuntirib berardi.

Dastlabki rollaridan biri “Parvona” komediyasidagi Murodjon obrazi bo‘ldi. Rejissyor Bahodir Yo‘ldoshev bu rol orqali aktyorning ichki holati, yondashuvi, obrazga munosabati, zehni, salohiyatini charhlashga e’tibor qaratgandi. Ana shundan keyin birin-ketin katta-kichik spektakllarda rollar o‘ynadi, obrazlar yaratdi.

Kinossenariy, hikoyalar yozishga azaldan qiziqqan aktyor, sahnada ijod qilish bilan birga qalam tebratishda ham davom etdi. O‘zbekiston televideniyesining “Ertaklar yaxshilikka yetaklar” bolalar ko‘rsatuvi ijodkorlari bilan hamkorlik qilib, ko‘plab ssenariylar yozdi. Uning ssenariylari ko‘rsatuvni yanada maroqli, tomoshabop chiqishida ahamiyatli bo‘ldi. Bolalar dramaturgiyasiga bo‘lgan qiziqish ortidan bir necha pyesalar yozdi va ular teatr sahnasiga chiqib, jajji tomoshabinlar mehrini qozondi.

Teatrdan olingan saboqlar, dramaturgiyada orttirilgan tajriba, qolversa, aktyorlik tug‘yonlari uni kino olamiga yetakladi. A. Mignarov kinoga kirib kelganida yetarlicha tajribaga ega aktyor, soha sir-asrorlarini puxta o‘zlashtirgan ssenariychi edi.



Uning kino san’atidagi ilk qadamlari 1996-yildan 5-studiyada kinoaktyorlikdan boshlandi. Teatr sahnasidagi ijro bilan ekranda obraz yaratish o‘rtasida ulkan farq bor ekanligini chuqur tushungan aktyor kino va teleobrazlar yaratishda bunga alohida e’tibor qaratdi. Birin-ketin “Shaytanat”, “Opa-singillar”, “Fidoiyalar”, “Osmondagi bolalar”, “Quduq” kabi qator serial va filmlarda turli xarakterli qahramonlarni talqin etdi. Uning obrazlari cho‘rtkesar, mug‘ambir, shijoatli, serg‘ayrat, tajang, matonatli, yangilikka intiluvchan kabi turfa qiyofalardagi personajlar edi.

“Quduq” filmidagi epizodik rovida aktyorning chuqur psixologik talqin bilan qahramon ichki olamini teran yoritganligi his qilinadi. Filmda olis o‘zbek qishlog‘ining o‘ziga xos insonlari turmush tarzi, turli qarashlari, taqdirlari tasvirlangan. Og‘ir

В успешной деятельности призеров фестиваля несомненно влияние МКФ «Ижодий парвоз». Главное в том, что фестиваль оказал поддержку молодым кинематографистам в формировании творческого мышления, а также в укреплении статуса молодежного кино и в расширении молодежной зрительской аудитории.

Эстафету фестиваля «Ижодий парвоз» принял конкурс «Кино за 5 дней», проводимый в Узбекистане в рамках ежегодного международного кинофестиваля «Жемчужина Шёлкового пути». Он был создан для привлечения студентов стран Шёлкового пути и разных киношкол мира, с целью расширения международного сотрудничества, а также создания условий для проявления творчества. Согласно Регламенту, участники конкурса, из разных стран Европы, Азии и Латинской Америки в течение пяти дней посещают главные исторические достопримечательности Узбекистана – Самарканд, Хорезм, Ташкент, Бухару и Фергану, для съемок своих короткометражных фильмов.

Конкурс «Кино за 5 дней» стал отличной возможностью заявить о себе для молодежи, которая сегодня только начинает свой творческий путь. Среди победителей прошедших фестивальных конкурсов студенты и выпускники 19 киношкол

мира, в числе которых и представители Узбекистана – Т. Мурадов, Д. Усманов, Н. Сафарова, Х. Абдурасулова.

Резюмируя отметим, что в целом, фестивальные мероприятия очень полезны, т. к. позволяют более предметно ознакомиться с предоставляемым творческим ресурсом, а молодым кинематографистам – режиссерам, операторам, сценаристам представляется возможность выбрать нужную траекторию для создания своих фильмов.

## ЛИТЕРАТУРА

1. Дарахвелидзе Г. А. «ВГИК. История студенческих фестивалей. 1961–2003». – М.: ВГИК, 2004.
2. Минчук, О. В. «Профессионализм, как ценностная категория студенческой молодежи». // Молодой ученый. – 2016. – № 21 (125).
3. Каталоги МКФ «Ижодий парвоз» 2004, 2006, 2008 годов.
4. <https://tiffest.uz> «Ташкентский международный кинофестиваль TIFFEST». <https://festagent.com/ru/journal/fests4students> «20 кинофестивалей для студентов».

**X.X. Niyazova**  
*O‘zR FA San’atshunoslik instituti*  
*kichik ilmiy xodimi, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha*  
*falsafa doktori (PhD)*

## **O‘ZBEKISTON BADIY KINOSIDA ZAMONDOSH OBRAZINING TRANSFORMATSIYASI**

***Annotatsiya.** Maqolada 1991–2024-yillar oralig‘ida O‘zbekiston badiiy kinosi-da yaratilgan filmlardagi zamondoshlar obrazi transformatsiyasi o‘z aksini topgan. Mavzu doirasida mustaqillik yillaridagi barcha jarayonlar qamrab olinib, yaxlit holda tadqiq etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** ssenariychi, rejissyor, operator, film, zamondosh obrazi, qahramon, janr, kino san’ati.*

***Аннотация.** В статье отражена трансформация образа современников в фильмах, снятых в художественном кино Узбекистана в период с 1991 по 2024 годы. В рамках темы были освещены и изучены все процессы лет Независимости в целом.*

***Ключевые слова:** сценарист, режиссер, оператор, фильм, современный образ, герой, жанр, кинематография.*

***Abstract.** The article reflects the transformation of the image of contemporaries in the films made in the art cinema of Uzbekistan between 1991 and 2024. Within the scope of the topic, all the processes of the years of Independence were covered and studied as a whole.*

***Keywords:** screenwriter, director, cinematographer, film, contemporary image, hero, genre, cinematography.*

1991-yilda O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy kinematografiyada yangi g‘oya va mafkuraga asoslangan filmlar yaratish borasida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi. Milliy madaniy o‘zlikni izlash, yangi qahramonlar qiyofasini gavdalantirish alohida ahamiyat kasb etdi. Mustaqillikkacha zamondosh qahramonlar ijtimoiy ishlab chiqarishda, ijtimoiy nohaqliklar yuz berayotgan vaziyatda o‘zini namoyon etgan bo‘lsa, 1990-yillardan boshlab ular oila fonida aks eta boshlagani muhim xususiyatlardan biri bo‘ldi. Oila nafaqat fon, shu bilan birga, to‘laqonli qahramonning qanday ekanini ifodalovchi vosita, qolaversa, o‘zi mustaqil ravishda oila obrazi sifatida ham gavdalana boshladi.

1991–2000-yillardagi badiiy-ijodiy jarayon keyingi yillarda vujudga kelgan yangi tamoyillar, mavzuviy-janriy izlanishlar va shakliy xilma-xillikning ekranda aks etishida o‘ziga xos takomil bosqichini o‘tadi. Rejissyorlar zamondosh obrazini yaratishda turli izlanish olib borgan bo‘lsalar-da, zamon bilan hamnafas qahramonni gavdalantirish masalasini hal etish oson kechmadi. Filmlarda o‘rta va katta yoshli, ruhan va ma’nan qiynalgan, shu bilan birga, o‘zgarayotgan zamondoshlar obrazi talqin etildi.

Mustaqillikning ilk o‘n yilligida filmlar boshqa yillarga nisbatan kam yaratilgan bo‘lishiga qaramay, ijodkorlarning izlanishlari shu davrga xos tendensiyalarni vujudga keltirdi. Xususan, o‘zbek kinosida yangi davrga moslashayotgan zamondosh obrazi gavalana boshladi. “1991–1996-yillarda badiiy kinoning asosiy konsepsiyasi qahramonlarning ichki dunyosini chuqurroq ochib berishga qaratilgandi” [3].

Umuman olganda, “90-yillar o‘zbek xalqi tarixiga murakkab sinovlar, ezgu intilishlar, hur orzular davri bo‘lib kirdi” [11]. 1991–2000-yillar kino san’atidagi badiiy jarayonlar keyingi izlanishlar uchun muhim takomil bosqichini o‘tadi. Mavzu, janr va uslubiy izlanishlar chegaralari kengaydi.

2001–2010-yillar o‘zbek kino san’ati o‘tgan davrlarga nisbatan, eng avvalo, sermahsulligi bilan ajralib turdi. Milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasi haqida muayyan tasavvurga ega bo‘lib ulgurgan, obrazlar orqali zamonaviy muammolarni ekranga royi-rost olib chiqish kerakligini anglab yetgan rejissyorlar ijodida yangicha yondashuv kuzatildi.

2000-yillardan boshlab tijoriy studiyalarda yaratilgan filmlar soni keskin ortdi. Mustaqillik yillarida taraqqiy etgan tijorat kinosi milliy ekran san’ati uchun o‘ziga xos tajriba maktabi vazifasini o‘tadi. Biroq uning eng muammoli jihati aynan ssenariy masalasi bilan bog‘liq edi. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish davrida tijoriy film ijodkorlari tomoshabinlarni kinozallarga jalb qilish maqsadida sevgi-muhabbat mavzusiga ko‘p bora murojaat etdilar. Shu bois ular yaratgan film qahramonlari, asosan, yoshlar edi. Qolaversa, bunday filmlarning barchasi oila fonida aks ettirildi. Bu, o‘z navbatida, kinozallarda yosh tomoshabinlar ko‘payishiga sabab bo‘ldi.

2000-yillarda davlat kinostudiyasida zamondoshlarni yangicha talqin etish maqsadida izchil izlanishlar olib borildi. Bunday ijodiy yondashuv natijasida oilada ota-bolalar munosabati, xususan, tarbiyada yo‘l qo‘yilgan xatolar, o‘zligini qidirgan, o‘z bilganicha yashashga bo‘lgan intilish, ota-onalar bilan maslahatlashmay qilingan ishning oqibatlari “Kichkina odamlar” (rej. Hotam Fayziyev, 2007), “Chol va nabira” (rej. Rixsivoy Muhammadjonov, 2008) hamda “Suv yoqalab” (rej. Jahongir Qosimov, 2009) filmlaridagi muayyan zamondoshlar obrazi orqali badiiy ifoda etildi. Filmdagi keksalar hayoti davomida halol mehnat qilgan, birovning haqqiga xiyonat qilmagan, oilasiga sadoqatli, muhimi, farzandlari ham ana shunday tarbiyali inson bo‘lishini istagan otalarning umumlashma obrazi hisoblanadi.

Zamondosh obrazini yaratish muammosi o‘zbek badiiy kino san’atining doimiy diqqat markazida bo‘lib kelgan. 90-yillarda ayrim qahramonlar ruhiyatida ikkilanishlar, o‘ziga ishonchsizlik sezilib turgan bo‘lsa, 20 yildan keyin yaratilgan filmlarda qahramonning ichki “men”ida mustaqil fikrlay olish, xatolardan to‘g‘ri xulosa chiqarish, Vatanga muhabbat, to‘g‘ri va halol yashashga intilish, insoniylik, mehnatsevarlik, halollik, mehr-oqibat, muruvvat, yovuz niyatli kuchlarga qarshi kurash xislatlari yaqqol kuzatildi. Dunyoda sodir bo‘layotgan global muammolarning zamondoshlarimiz hayotiga ta’siri real aks ettirildi, odamlar orasidagi illatlar boricha fosh etildi.

2011–2016-yillar oralig‘ida ko‘plab zamondoshlar timsolida umuminsoniy fazilatlar, qalb kechinmalari, ma’naviy-estetik umumlashmalar, kishilarning orzu-umidlari, davlat va jamiyat oldidagi turli muammolar, yechimini kutayotgan, qolaversa, ayni

damda insonlarni qiynayotgan dolzarb masalalar ekranga dadil olib chiqildi. Mustaqillik g'oyalarini tarannum etuvchi, uni e'zozlovchi yangi zamondoshlar obrazi paydo bo'ldi. Ularning oila fonida aks ettirilishi muhim jihatlardan edi. Chunki oila – bu qadriyatlarni davom ettiruvchi jamiyatning bir bo'g'ini.

2011–2016-yillarda kinoijodkorlar zamondosh obrazini yaratish maqsadida ko'proq hayotiy qahramonlarni izlay boshladi, real voqealar bilan chuqurroq tanishdi. Izlanishlar natijasida harbiy-vatanparvarlik ruhidagi “Jasur” (rej. Bahodir Odilov, Najmiddin G'ulomov, 2011), “Matonat” (rej. G'iyos Shermuhammedov, 2013) va “Baron” (rej. Rustam Sa'diyev, 2016) filmlari yaratildi. Mazkur kartinalar orqali turli yovuz niyatli kishilarga qarshi chegara qo'shinlari, bojxonachilar hamda Davlat xavfsizlik xizmati xodimlarining mashaqqatli mehnati, vatanimiz tinchligi yo'lidagi fidokorona xizmati ekranga olib chiqildi. Bu yillarda ishlangan filmlarda inson ruhiy-ma'naviy kamolotida zamonning ta'siri qanchalik katta ekani o'z ifodasini topdi. Shu ma'noda qahramon izlashda kinoijodkorlar hayotiy voqealar bilan ko'proq tanishdilar.

Global mavzularga 2000-yillar o'rtalaridan murojaat etila boshlangan bo'lsa, bundan keyingi yillarda ham bu mavzu kinoijodkorlar e'tiboridan chetda qolmadi, aksincha, bu borada turlicha izlanishlar olib borildi. Rejissyor Hilol Nasimovning “Aldangan ayol” (2011), “Tubanlik” (2012), “Odnoklassniki.ru” (2013), “Gumrohlar” (2014), “Ajaj jodusi” (2015) va Rustam Sa'diyevning “Sotqin” (2015) singari filmlarda biz bilan bir davrda yashayotgan har xil dunyoqarashli kishilar, xususan, kimlarningdir ortidan ergashib, noto'g'ri yo'lni tanlashi oqibatida hayotda adashgan zamondoshlar obrazi paydo bo'ldi. Ularning ekrandagi qismati bugungi kun tomoshabinini bunday yo'lga kirish qanday oqibatlarga olib kelishidan ogoh etdi.

O'zbekistonda jamiyat va ayol, oila va ayol tushunchalari o'rtasidagi munosabatlarning takomillashuvi sababli ekranda yangi filmlar yaratildi. Xususan, 2011–2016-yillarda ham ayollar mavzusida ko'plab kartinalar ishlandi: “9 oy”, “Kechikkan hayot”, “Kelganda kelin-2/Anjanча muhabbat”, “Sarob”, “Baxt uyi”, “Yozsiz yil”, “Parizod”, “Onaginam orzusi”, “Dilor, Dilor... Dil va or”, “Ko'rgim keladi”, “Ma'suma”... Umuuman, ayollar mavzusiga bag'ishlangan yuqoridagi filmlar qahramonlari o'zida kuch topib, har qanday holatda ham qiyinchiliklarni yengib o'tishga intiladi. Bunda yangi mavzularning topilgani, qahramonni yaratishda yangicha uslublar qo'llangani ahamiyatli. Ayniqsa, turli yoshdagi zamondosh ayollarning har xil kasb egasi sifatida ekranda paydo bo'lishi rang-baranglikni ta'minlagan.

Zamondosh obrazini yaratishga yoppasiga kirishilgan bu davrda yangilikka intilgan, insoniylik hislari ustun, prinsiplariga sodiq qahramonlar gavdalangan filmlar soni ancha ortdi. “Umid”, “Qovun”, “Armonli dunyo”, “Vijdon”, “Xonadon egasi”, “Zarb”, “Hayotda” kartinalarida aks etgan obrazlar xarakterida o'z maqsadi sari intilishda qat'iylilik seziladi.

Davlat rahbarining kinematografiya sohasini yuqori darajaga olib chiqishga qaratilgan islohotlari natijasida 2017-yildan boshlab ekranda yangi zamondoshlar obrazi paydo bo'ldi. O'tgan davrga nisbatan kam filmlar yaratilgan bo'lsa-da, ularning g'oyaviy-badiiy jihatiga bo'lgan talab kuchaydi. Globallashuv davrida o'zaro ijtimoiy munosabatlar ishtirokchisi bo'lgan kishilarning xakeri ochib berilgan film-

lar yaratila boshladi. Bunday kartinalarda insonni anglash, tushunish va his qilishga e'tibor qaratildi. Umuman olganda, ekranda "Inson – birinchi o'rinda" degan qarash yuzaga chiqdi.

O'zbekiston badiiy kinosi mavzu jihatidan boyidi. Alohida tarmoq sifatida faoliyat ko'rsatayotgan mahalliy tijoriy kinostudiyalar, shuningdek, qator davlatlar kinoijodkorlari bilan hamkorlik yo'lga qoyildi. Katta ekranga bugungi kun illatlari, jamiyat rivojiga to'siq bo'layotgan qator muammolar dadil olib chiqila boshladi. Ilgari filmlarda bir yoki bir necha zamondoshlar hayotidagi muayyan masalalar talqin etilgan bo'lsa, endilikda butun bir xalq, jamiyat rivojini ortga surayotgan illatlar yoritila boshladi. Jumladan, "Dadam betob" (rej. Zulfiqor Musoqov, 2017) va "Birinchi avgust" (rej. Abduvohid G'aniyev, 2019) filmlarida qahramonlar, asosan, jamiyatda aks ettirilsa-da, ularning bu xatti-harakati bevosita oilalarga ta'sir etayotganini ko'rish mumkin.

Yangi O'zbekiston kinematografida real shaxslar hayot yo'li asosida yaratilgan zamondoshlar obrazining paydo bo'lishi bu davrga xos yangi tendensiya edi. Davlat rahbari topshirig'iga ko'ra, yaqin o'tmish va bugungi kunda chin ma'noda qahramonlik ko'rsatayotgan, qolaversa, aldovlarga ishonib, taqdiri butunlay o'zgarib ketgan zamondoshlar obrazining gavdalanirishi filmlarda hayot haqiqatiga yaqinlashish tamoyilini vujudga keltirdi.

Aynan prototipi mavjud insonlarning zamondosh sifatida tanlanishi bu davrga xos muhim yangilik bo'ldi. Haqiqatan qahramonlik ko'rsatgan insonlar, shu bilan birga, to'g'ri yo'ldan adashib, turli sinovlarga duch kelgan zamondoshlar obrazlarini badiiy talqin etuvchi filmlar soni ortdi. "Tutqunlik" (rej. Rashid Malikov, 2021), "Ayol qismati" (rej. Dilmurod Masaidov, 2022), "101-reys" (rej. Akrom Shaxnazarov, 2022), "Tengiz" (rej. Mansur Vasati, 2022) va "Abdulla Oripov" (rej. Muzaffarxon Erkinov, 2023) filmlari qahramonlari to'qima emas, balki, haqiqatan ham, hayotdan olingani bilan ajralib turadi.

Hamma davrlarda ayollar muammolarining zamondosh obrazi orqali talqin etilishi rejissyorlar ijodiy izlanishining bir bo'lagiga aylangan. Filmlarda avval, asosan, ayol va oila tushunchasiga e'tibor qaratilgan bo'lsa, endilikda ayol-oila-jamiyat munosabatlarini ifodalovchi zamondoshlar obrazi yaratila boshladi. Xususan, 2017–2023-yillarda ishlangan "Rangsiz tushlar" (rej. Ayub Shahobiddinov, 2020), "Isnod" (rej. Rixsivoy Muhammadjonov, Abduvohid G'aniyev, 2017), "Issiq non" (rej. Umid Hamdamov, 2019), "Tengiz" (rej. Mansur Vasati, 2022), "Kim deyay seni?" (rej. Qamara Kamolova, 2022), "Sudya" (rej. Dilmurod Masaidov, 2023) singari filmlarda buni yaqqol ko'rish mumkin.

"Tinchlik ortida" (ss. mual. A.Yo'ldoshev, M.Abduxoliqov, S.Hamroyev, rej. A. Bekturdiyev, 2018), "Qora zarba" (ss. mual. S.Hamroyev, rej. Samiddin Lutfullayev, 2018), "Yolg'on girdobi" (ss. mual. G'.Shermuhammad, A.Yo'ldoshev, E.Hasanova, rej. N.To'laxo'jayev, 2018), "Men terrorchi emasman" (rej. Muhammad Ali Iskandarov, oper. H.Atabayev, 2021), "Baron-2" (rej. Rustam Sa'diyev, 2022) filmlarida jamiyat rivojiga to'siq bo'layotgan turli oqimlarga kirgan, giyohvandlik, terrorchilik kabi illatlarga bilib-bilmay aralashib qolgan kimsalar va ularga qarshi kurashgan vatan posbonlari obrazlari yaratildi.

Bu davrga kelib, hujjatli kinoda obrazning badiiy talqinidan foydalanish holatlari kuzatilgani kabi, badiiy kinoning xronikal kadrlar bilan boyitilishi, real voqealar asosida ishlangan film soʻngida mavzu va qahramonga oid faktologik maʼlumotlar va fotolarning ilova qilinishi, yaratilayotgan film bilan birga, ushbu mavzuning kengaytirilgan mazmunini oʻzida mujassam etgan seriallar ishlash tendensiyasi yuzaga keldi. Mavzuviy-janriy izlanish natijasida yangi qahramonlar obrazi paydo boʻldi.

Film mavzulari eski boʻlsa-da, unga yangicha yondashuv, yangi xulosalar berildi. Biroq filmlar har doim ham yangi shaklda yaratilmagani hali bu borada chuqur izlanishlar olib borish zarurligini koʻrsatadi. Zamondoshlar obrazini yaratishda bolalar uchun moʻljallangan filmlar ishlanmagani hali bu borada qator izlanishlar zarurligini koʻrsatadi. Badiiy kinoda zamondoshlar obrazi ideal qahramonlar boʻlib emas, balki kamchiliklardan xoli boʻlmagan, real hayot bilan bogʻliq, yuksak insoniylik xislatlariga ega oddiy inson sifatida talqin etilayotgani bois milliy kinoda yangi qahramonlar tipologiyasi vujudga keldi.

2017–2023-yillar davomida yaratilgan filmlarda jamiyatdagi mavjud illatlar royi-rost ekranga olib chiqildi. Xususan, bu paytga kelib korrupsiyaga qarshi kurashish muhim masalalardan biriga aylandi. Insonlarning turmush tarzi boricha koʻrsatildi. Muhtojlikdan kirakashlik qilayotgan ayol obrazi paydo boʻldi (“Dadam betob”). Abiturientlar uchun muhim sana boʻlgan 1-avgustdagi “oyin”larni uyushtiruvchi kishilar obrazi Boʻri va uning sheriklari misolida ochib berildi (“Birinchi avgust”).

Abdulla Oripov shaxsi orqali shoir biografiyasi va ijodi badiiy talqin etildi (“Abdulla Oripov”). “Tinchlik ortida” filmida ilk bor harbiy uchuvchi obrazi yaratilgan boʻlsa, “101-reys” kartinasida real voqealar asosida hayotda prototipi bor, chin maʼnoda qahramonlik koʻrsatgan jasoratli uchuvchilar obrazi yuzaga keldi.

Ayollarning turli muammolarini oʻzida mujassam etgan filmlar orqali qamoqda jazo muddatini oʻtagan ayol (“Rangsiz tushlar”), tuzalmas dardga mubtalo ayollar (“Isnod”), oʻz farzandlariga yaxshi tarbiya bera olmagan sobiq muallim, turmush oʻrtogʻi chet elga ketgani uchun roʻzgʻor tashvishi boshiga tushgan tinim bilmas, mehnatkash novvoy ayol, ota-onasi tashlab ketgan oʻksik qalbli qiz obrazlari yaratildi (“Issiq non”); oʻz yaqini tomonidan nogiron boʻlib qolgan boʻlsa-da, jamiyatda oʻz oʻrnini topa olgan tadbirkor-chevar ayol obrazi mukammal yechimini topdi (“Tengiz”); sobiq sanʼatkor ayol obrazi yaratildi (“Kim deyay seni?”); sudya obrazi yangicha talqinda gavdalantirildi (“Sudya”).

Ssenarist obrazi oʻzbek badiiy kinosiga yangi qahramon boʻlib kirdi (“Hayrat”); shifokor obrazi gavdalantirildi (“Bardosh”); yurt tinchligi, osoyishtaligi uchun xizmat qilayotgan jasoratli harbiylar obraziga qayta-qayta murojaat qilindi (“Hayot”, “Tinchlik ortida”). Shuningdek, adashgan zamondoshlar obrazlari yaratildi (“Qora zarba”, “Yolgʻon girdobi”, “Baron-2”, “Men terrorchi emasman”).

Umuman olganda, bugungi kun Oʻzbekiston kinematografida umumiylikdan xususiylik tomon intilish tendensiyasi kuzatilmoqda. Ekranda hayotdagi umumiy emas, asosan, aniq va dolzarb masalalarga eʼtibor qaratilmoqda. Baʼzan hamma ham eʼtibor qilmaydigan muammo-masalalarning asl mohiyati va dolzarbligini kinoijodkorlar turli zamondoshlar obrazi orqali gavdalantirishga intilmoqdalar.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абул-Касымова Х.Н. Рождение узбекского кино. – Ташкент: “Наука”, 1965. – 124 с. илл.
2. Абул-Касымова Х.Н. Кино и художественная культура Узбекистана. – Ташкент: “Фан”, 1991. – 148 с.
3. Абул-Касымова Х.Н. Художественное кино Узбекистана периода Независимости (1991–2004 гг). – Ташкент. – 2005. – М (К). А-17. № 264.
4. Андроникова М.И. От прототипа к образу. – Москва: Наука, 1974. – 200 с.
5. Баскаков В.Е. Экран и время. – Москва: Искусство, 1974. – 289 с.
6. Бергер А.А. Видеть – значит верить. Введение в зрительную коммуникацию,. 2-е издание: Пер. с англ. – М.: Издательский дом “Вильямс”, 2005 – 288 с.: ил. – Парал. тит. англ.
7. Грачев В.В. Образ современника в киноискусстве: критические заметки о драматургии. – Москва: Госкиноиздат, 1951. – 184 с.
8. Ждан В.Н. Специфика кинообраза. – Москва: Искусство, 1965. 174 с.; 12 л. илл.
9. Каримова Н. Игровой кинематограф Узбекистана: истоки. – Ташкент: Издательство журнала “San’at”, 2012. – 120 с.
10. Каримова Н. Игровой кинематограф Узбекистана. – Ташкент: Издательство журнала “San’at”, 2016. – 216 с.
11. Karimova N.G‘. 1960–90-yillar o‘zbek badiiy kinosida yosh qahramon obrazi: Diss. ... nomz. san’atshunos. – Toshkent: 1997. – 110 b.
12. Тешабаев Д. Узбекское кино: традиции, новаторство. – Ташкент: Изд-во лит. и искусства, 1979. – 182 с., 8 л. ил.

## FORMATION OF SHORT FILMS

**Abstract.** *This article is about origination and development of short films in Uzbekistan and it embraces history of Uzbek cinema in a period of XX century. The first shorts that were made in the art of Uzbek cinema are analyzed.*

**Keywords:** *the cinema, short films, director, feature, poetic, visual solution, image, main hero, character, fairy tale.*

**Аннотация.** *Эта статья охватывает истории узбекского кино в период XX века и в нём рассказывается о возникновении и развитии короткометражных фильмов в Узбекистане. В нём анализируются первые короткие метры созданные в искусстве кино Узбекистана.*

**Ключевые слова:** *киноискусство, короткометражный фильм, режиссёр, художественный, поэтический, изобразительное решение, образ, главный герой, характер, сказка.*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada o'zbek kinosining 20-asrdagi tarixi yoritilgan va O'zbekistonda qisqa metrajli filmlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi haqida so'z boradi. Unda O'zbekiston kino san'atida yaratilgan ilk qisqa metrajli filmlar tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *kino san'ati, qisqa metrajli film, rejissyor, badiiy, poetik, vizual dizayn, obraz, bosh qahramon, qahramon, ertak.*

Cinema is one of the few mediums which have managed to successfully depict the true reality of society in general and our lives in particular. As like other art forms, it depicts the multiple realities that one is faced with. It explores one of the most discarded yet eternal truths which every individual experiences and that is isolation. Each individual longs for social ties despite belonging to organized societies; it is what each one of us is ultimately reduced to. [1. P. 1.]

Film matters, among other things, because it has an extraordinary capacity to expand our reality, to deepen our moral sensibility, and to shape our self-understandings, sometimes by moving us closer to cultures, problems, and realities that are distant from those we know well. [2. P. 25.]

Talking about the cinema there is a need to notice that there are two directions: art house and film industry. The most remarkable direction in art house is short film. Short films are a rarified form, which serve to reflect the consciousness of our artists in a purer way than most feature films. With ideas often less diluted or altered by commercial imperatives, short films hold tremendous cultural significance. [3. P. 1.]

At the outset of film being created as an art, all films were short. Indeed, until 1913, all films were 15 daqiqaes long or less. [4. P. xi.] Looking on the history of the cinema it will be obviously that duration of film became longer and longer. And year

by year short films lost his value. Afterward, and into the 1940s, they were added attractions, accompanying the main feature and making for a full evening of entertainment. Nowadays, shorts function mainly as a medium for art filmmakers and as showcases for beginning filmmakers' talent. [5. P. 148.] But day by day it is evidently that shorts have become more and more popular. These direction have found more and audiences among the all ages of people. So, shorts have assumed their worth.

Talking to the history of short films in Uzbekistan we noticed specific way of formation and development. A serious incident was taking place on the world stage in 1939. Many were fighting against the evil forces known as fascism. In particular, Uzbekistan, who was in the former Soviet Union was also subjected to war in 1941. However, in the same year, the first short feature films appeared in the Uzbek cinema. «Brave friends» («Otvajne druzya») by N.G'aniyev and Y.Brunchugin and Z.Sobitov's «Response to the Leader's Call» were created.

N.G'aniyev and E.Bryunchugin's «Brave Friends» short film tells about the agility and courage of two soldiers. A russian actor A. Dolinin features the cook Petr Klimenko, the Uzbek actor Sh.Burkhonov created the image of the driver Kamil Akhmedov. When two friends take lunch for soldiers, they face the descent of the enemy side. They fight and beat the enemy with a heroic courage. The two brothers deliver the lunch to the soldiers not only in time, but also they held the enemy's officer captive. If you watch this movie, it will have a simplicity and illusoryity. But it was captured in the most difficult period of the war in 1941, reflecting the great confidence of the people of their own army and ordinary soldiers. As you watch this movie, you will notice its simplicity and illusoryity. However, it was captured during the most difficult period of the war, in 1941, reflecting a great deal of confidence of its ordinary soldiers and in the nation's army.

The short story of Z.Sobitov's «Response to the Leaders Call» consists of two parts and expresses the heroism of an uzbek woman. The period of that time is clearly described in it. The heroine develops the agriculture of her region by taking up new jobs. For the first time in this film was a woman's heroism. A woman's heroism was shown in this film for the first time.

Later on, there were made more films about the courage of the nation's people and short films were featured into full-length films.

But soon after, in 1952 there was made another short film named «Pakhtaoy» in uzbek cinema. It was a children's film directed by Kamil Yormatov. In this film, the great director was touched children's topic for the first time, showing great fantasy and great enthusiasm. «Pakhtaoy» has created a modern fairy tale in uzbek cinema. The film tells about the «white gold» of uzbeks, explaining its value and usefulness. As Kamil Yormatov starts working on this project he feels the responsibility. He particularly pays attention to the selection of actors for the creation of characters. As he chooses actors for the children's characters, he emphasizes their vitality. That is why, he attracts simple children – Sh.Ismoilov and S.Tagirova for the main characters -Hasan and Pakhtaoy. For the adult images of Garmsel and Bobo-Mehnat, he invites not only great actors,

who are admired by the audience but also actors are respected for their human dignity. Obid Jalilov appears as a Garmsel and Boba-Mehnat is represented by Asad Isamatov.

The Paxtaoy short story is based on the adventures of a boy named Hasan. The film begins with a new fairy tale of the boy has created. In this way, the director managed to create a work of imaginations and the reality.

The epic moment of the movie begins with Garmse's revival from Hasan's painting. Garmsel deceives the child and releases himself, and Hasan in order to draw a cotton burns Paxtaoy, the one he took from Bobo-Mehnat with his hot breath. He makes Hasan small and in order to get more strength he leaves for deserts. At the same time, Paxtaoy turns into a girl and she becomes disappointed that her dress was burned and she can not attend the festivity.

But the boy reassures his promise that Paxtaoy will be returned to Bobo-Mehnat before the sunset. In this way, Hasan and Paxtaoy face several obstacles and have a lot of adventures. As they overcome obstacles, they will be shown to spectators who will be able to survive. The important point of the short story «Paxtaoy» is that the real story was described as a fairy tale. However, young viewers can find a lot of useful things from life in the film. For example, during the film, the younger part of the audience gets acquainted with materials made from cotton. The film has not only a watchful importance but also pedagogical influence.

Talking about the short films trends in Uzbek cinema, it turns out that every filmmaker has taken something from short films. It is clear that short films are not just a creative search for a particular director and that each film maker will make a contribution to the development of this direction. That is the fact that every creator has brought his own view and style to this genre, which is making even a gradual development and making it more comprehensive. In The Film Encyclopedia, Ephraim Katz notes the multiple functions of short film, as both a training and testing ground where new talent and techniques reveal themselves, and as a vehicle for artistic expression and social commentary. [6. P. 1248.]

The short story «Muxlis», by the talented director Ali Hamrayev, also shows how much this direction plays a crucial role in the film-making and it reflects the directors role on the development of short films. The short story «Muhlis» was shot in 1973 and is based on the story of «Muhabbat» by Utkir Khoshimov. The filmmaker wants to portray a man's pure and unanswered love. The hero of the film is a young man called Tirkash, who is in love with an amateur art girl, that he is ready to everything for her. The girl is in love with art, popularity, but she values this brilliant young man. Tirkash decided to go after his love and took his grandfather's blessings. However, will he reach amateurs group or not it will stay a secret.

The director wanted to convey not only the love of a sincere young man, but also his two different lifestyles and the eagerness of people to art. Tirkash lives with the grandfather in the apricot garden. He likes taking care of his grandfather and also taking photographs. The young man is very excited about the art of amateur performers, who make concerts in the village. He is also in love with the Indian singer Dilor. Dilor likes singing on the stage and being in the spotlight. She likes Tirkash not like a human

being, but as a young man who fulfills her wishes. The relationship between them has been exposed by bright scenes by the director. In particular, Dilor asks for a photo camera from Tirkash in the beginning of the event on the stage of the concert. The guy runs towards his house telling him he has forgotten the machine. The young man, who has been waiting for the concert, runs to do what she orders. Tirkash runs long distances to take the girl's photograph. In this episode, Ali Hamroyev increases the effect of the incident by using parallel editing. On the one hand, an exciting event, on the other the young man running served as a revelation of the essence of the film. The young man came up at the end of the event only when Dilor was receiving a bouquet of flowers from spectators and takes her photograph on the stage. He could not listen to his beloved's song. But was happy of taking her picture as she girl wanted. From this situation is shown how strong is the love of the young man, so that he does not demand anything in return.

Speaking about the short story «Muxlis» by Ali Hamroyev, it is important to mention that the actors are correctly chosen by their appearance. As talking about the character Dilor, in revealing her character not only the actresses' appearance, but her skills, and especially her eyes played an important role. The characteristic of the actor, Tirkash, his movement and his sensuality played an important role in opening this character. The fact that the characters of Dilor and Tirkash in the film «Muxlis» were interpreted by Dilorom Kambarova and Abdugani Saidov were the cause of the reliable release of the work. The director focuses not only on the artistic solutions, but also on natural execution. The work begins with a long road. And it ends with the same frame. That is, the director assimilates Tirkash and Dilor's life to the long way to go, which means that people can meet many people and different people on their path. Especially when the film ends when Tirkash is running after Dilor's car, it means that the boy and the girl will continue their way of life.

In Ali Hamroyev's film «Muxlis» is a combination of a funny, poetic, and amazing daily life and high epic flying. Such a mix of poetic elements does not interfere with the integrity of the work, but opens new perspectives of artistic impact to the spectator. [7. C. 228.]

In the 1980s, the creation of short films in Uzbek cinema sharply increased. Short-meters taken from this period constituted a diversity of subjects and genres. In 1983, film director Timur-Malik Yunusov's «Augur from Galatepa» was created at the same time as the Uzbek shortmeters were reaching their peak. Regarding this film, it is necessary to admit that the need and problems faced by ordinary people in their everyday life are expressed in a comic way. The «Augur from Galatepa» addresses the lives of widows. The hero of the film, Mahsum aka's wife died and he became a widower. He was known by the name of saint among people because he could see the future. He was entrusted to introduce a widow Zubayda to a widower from neighbouring village. Mahsum from his guest from Sho'rquduq comes to Zubayda's house to explain the purpose of his visit. But Zubayda says that she agrees to what her son says. The boy looking at Mahsum, says «You came to ask my mother for yourself». The guest leaves out with anger. Mahsum tries really hard to return the guest but he will be unsuccessful. Augur,

mother and her son stay laughing at the situation. When the adults did not succeed, a little boy solves everything.

The script of «Augur from Galatepa» is written by Murad Muhammad Dost, whose dialogues are very close to the national language, simple and also significant. The story was written according to genre and dialogues temp was chosen appropriately. Choosing the genre of your story is probably the most important decision you'll make before writing your script. [8. P. 35.] And the author managed it successfully. In Zubayda's words «It's hard to be a widow. When you complain they say she wants a comfortable life, and when you laugh they say she wants to get married» reveal all the sorrows of widows. In addition, the conversation between Mahsum and the boy is both fun and effective. Mahsum's response to the boy's words «You came to ask my mother for yourself» is «A boy's ears will grow if he lies» and his reprimand to Mahsum was «A person's back will bend if he lies» added not only laughter to the story but a meaning too. After all, the saint will hold up his waist. That is, it is said that the child's statement is not merely an explanation, but rather to expose Mahsum's secret. Everything in the story helps to reveal the character of the personages and their goals.

Timur-Malik Yunusov was able to express a dramatic way of life of people in a funny way in the «Augur from Galatepa». Sometimes the story describes a small child's ability to clarify the matter in situations where it is unlikely that adults cannot solve ordinary work. In this way, the director wants to explain how adults are making their lives more complicated. Even a good example of a saint acknowledged throughout the whole village is that he does not know how to deal with heart problems as a little boy does.

In the impressiveness of this film the performance of actors played an important role. The character of Mahsum aka was interpreted by H.Umarov, the widow – Zubayda, S.Isoyeva, H.Sharipov a widower from neighbor village, and M.Rakhimova played a childhood's image. The heroes of the work are shown naturally and closely by skilled actors.

When the images of the movie «Augur from Galatepa» are analyzed, it will be clear that the essence of the work is related to the image of the main character. The best short films generally make it clear from the start whose story they are telling. Once we as viewers know that, we have a “home-base” within the film, a means for keeping our bearings and for knowing how to gauge the relative importance of anything that happens. [9. P. 2.] Mahsum is a clever, long-sighted person, who knows the future well, because he knows people well. For this reason, people refer to him as an augur. He is not an augur, but merely shared his experience and conclusions that he had seen and experienced in his life. He tries to help people by giving them advice. His character reveals when he tells the truth, correctly expressed things as they are, his responsibility and courage. It can be seen when he asks to get married a woman whom he likes for another person. Although he is against his own heart, he feels responsibility to his work. Also he finds the strength to admit that the boy is a real augur not him. Because it takes courage to band a head in front of a small boy.

As we look at the history path of short meters of Uzbek cinema, it appears that its development history is not the same. Nevertheless, it has its own way of development

and covered various aspects of social life at different times. In 1980s, short films were widely shot in Uzbek cinema.

As we looked above, shorts have become a great exercise and test ground to express the views of creators. This has developed a lot in the new era. One of the experts view on this specifies our point of view: «... What's behind it? Is the effect of modern style or is it really enjoyable? Some interesting and positive aspects of this art are identified by its fans. A short film is not just an animated painting, but the fact that the plot is enriched with colors, heroes and events. Because it is necessary to convey the idea to the viewer within 5 to 20 daqiqaes, which is sometimes a very difficult task. Secondly, the speed, fast changing slots, and the unexpected plot never make the audience feel bored. Moreover, But full-bodied colors serve as an indication of describing the movie's main idea.»

## REFERENCES

1. Ch.Gebacz. Why So Short?: The Changing World of the Short Film Industry and Online Distribution. Dissertation on Bachelor of Business Administration (BBA). – Ohio University, UK, 2015.
2. M.Hjort Questions and answers. Film. Intellect | publishers of original thinking. – Bristol, 2010.
3. S.Raby, quoted in: An exhibition highlighting the cinematography of Simon Raby' (advertising postcard), The Film Archive, Auckland, 2008.
4. P.Cooper and K.Dancyger. Writing the Short Film. – the USA.
5. M.Corey, G. Ochoa. American film institute. – the USA, November 2002.
6. E.Katz. The Film Encyclopedia. – Crowell, 1979.
7. H.Abul-Kasimova, D.Teshabayev, M.Mirzamuhamedova. Cinema of Uzbekistan. – T.: Gafur Gulyam, 1985.
8. K.Iglesias. Writing for emotional impact: advanced dramatic techniques to attract, engage, and fascinate the reader from beginning to end. – Wing Span Press Livermore, California, 2005.
9. Raskin R. Story design in the short fiction film. – North Carolina., 2002.
10. Short films //Internet-museum «Gallerix»// URL: <http://gallerix.ru/lib/korotkometrazhnoe-kino/>

**Muhayyo Muxtorova**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti katta o'qituvchisi,  
San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

## **YANGI DAVR KINOKOMEDIYALARIDA BADIY MAKON VA QAHRAMON MUAMMOSI**

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada zamonaviy kinokomediylarning o'ziga xosliklari, o'zbek kino san'ati taraqqiyotidagi o'rni eng sara filmlar misolida ko'rib chiqilgan. Ulardagi o'ziga xos xarakterlar, filmlarning badiiy va g'oyaviy xususiyatlari, ijodiy komponentlaridagi yutuq va kamchiliklar hamda bugungi kinematografiyamizda tutgan o'rni borasida mulohazalar bildirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *kinematografiya, kinokomediya, janr, rejissyor, aktyor, operator, ssenariychi, xarakter, film.*

**Аннотация.** *В данной статье рассматриваются особенности современных кинокомедий, их роль в развитии узбекского киноискусства на примере лучших фильмов. Комментируются их уникальные характеры, художественные и идейные особенности фильмов, достижения и недостатки творческой составляющей, их роль в современном кинематографе.*

**Ключевые слова:** *кинematография, кинокомедия, жанр, режиссёр, актёр, оператор, сценарист, характер, фильм.*

**Annotation.** *In this article, the peculiarities of modern film comedies, their role in the development of Uzbek film art are considered as examples of the best films. Comments were made on their unique characters, artistic and ideological features of films, achievements and shortcomings of creative components, and their role in today's cinematography.*

**Keywords:** *cinematography, film comedy, comedy, genre, director, actor, cameraman (operator), screenwriter, character, film.*

Zamonaviy o'zbek kinosida komediyalar yaratishga bo'lgan intilish, urinish ko'p bo'ldi. Buning turli sabablari mavjud. Shulardan asosiysi, komediyaning ommabopligi va tomoshobopligidir. Albatta, Mustaqillik davri o'zbek kinosida siyosiy-ijtimoiy o'zgarishlar bilan bir qatorda iqtisodiy evrilishlar ham yuz berdi. "Kinoning yangi poetikasi, yangi davr tomoshabinlari hamda xususiy studiyalar vujudga keldi. Ushbu bosqichning o'ziga xos xususiyati shundaki, filmlardagi milliy o'ziga xoslikni topish borasida turli uslubiyatlarga (mualliflik hamda tomoshaviylikka) asoslangan tamoyillardan foydalanildi"<sup>25</sup>. Bu esa, xususiy kinoning paydo bo'lishiga olib keldi. 2000-yillarga kelib J.Qosimov, T.Qalimbetov, S.Nazarmammedov, R.Sa'diyev, B.Yoqubov, A.G'aniyev, X.Fayziyev, D.To'laganova, Sh.Xamidova, Y.To'ychiyev kabi rejissyorlar komediya janrining ko'plab turlarida suratga olingan filmlarni tomoshabinlarga taqdim eta boshladi.

<sup>25</sup> Karimova N. "O'zbekiston badiiy kinematografining shakllanishi va taraqqiyoti" dissertatsiyasi avtoreferati. 20-bet. (108-b.). T., 2019.

Mustaqillik yillarida komediya janrida bir “mehmon” sifatida ijod qilgan rejissyorlarni ham kuzatish mumkin. Xususan, J.Qosimovning “Dev bilan pakana” (2003), F.Davletshinning “Sevgi marafoni” (2011), Z.Yuldashevaning “Erka kuyov” (2011), N.Salomovaning “HI-FI bolakay” (2011), N.To‘laxo‘jayevning “Visol” (2011), S. Matkarimovning “Hay-hay qizaloq” (2012), A.Uzoqovning “Mening akam bo‘ydoq” (2011), “Endi dadam bo‘ydoq” (2012) kabi ko‘plab filmlarni keltirib o‘tish mumkin. Yana bir jihatga e‘tibor berish kerakki, shunday “mehmon” rejissyorlar orasida bir film bilan ham komediya janrining talablarini o‘zida mujassam qilgan, mavjud muammoni komik xarakterlarda, holatlarda ommaga olib chiqa olgan, mutaxassislar tomonidan ijobiy baholanib, tomoshabinlar ko‘nglidan chuqur o‘rin egallaganlar ham bor.

Zamonaviy davr o‘zbek kinosida voqelik bo‘lgan kinokomediyalardan biri Jahongir Qosimovning “Dev bilan pakana” (2003) komediyasidir. Turlicha muhit va sharoitlarda o‘tib ulg‘aygan Polvon va Zulfiqor taqdir taqozosiga ko‘ra birlashishadi va ko‘plab sarguzashtlarni boshdan kechirishadi. Polvon (Nodir Saydaliyev) qishloqda, bobosining qo‘lida katta bo‘lgan, har qanday ishni bajonudil bajarib ketadigan mehnatkash va oqko‘ngil, shu bilan bir vaqtda o‘ta sodda yigit. U hamisha har narsadan yaxshilik qidiradi, hech kimni ranjitmaslikka urinadi. Birovlarning diliga ozor berishga, shuningdek, o‘zgalar xaqqiga xiyonat qilishga qo‘rqadi. Bunga uning tarbiyasi yo‘l qoymaydi. Uning bilagida kuchi bo‘lishiga qaramasdan mana shu soddaligi ko‘p holatlarda pand beradi. Zulfiqor (Obid Asomov) esa o‘zini “tadbirkor” deb biluvchi chayirgina, pishiq, har qanday davrada so‘zamolligi va hazilkashligi bilan ko‘ngil topadigan, uddaburon obraz. Bu ikkisining birlashishi filmda xuddiki “aql va kuch ittifoqi”ga o‘xshatiladi.

“Dev bilan pakana” filmi satirik komediya bo‘lib, jamiyatdagi mavjud muammolar to‘g‘ridan to‘g‘ri kulgu ostiga olinadi va aynan kulgu orqali ularning oqibatlari ochib beriladi. Jumladan, oddiy mardikorlarning yegan-ichganini ham hisob qiladigan Fotih Jalolovning “prorab” obrazi. U Polvonning pasportini olib qo‘yib, yegan haqqini yetti kishiga hisob qiladi-yu, ammo bajargan ishini bir kishiga hisob qilib, nohaqlik qilish epizodi. Shuningdek Polvonning sumo kurashiga tushish epizodi. Bu epizodda ham korrupsiya va tanish-bilishchilikning sport sohasida ildiz otib borayotganligi kulgili voqealar bilan ekranga olib chiqilgan. Xuddi shu holat Mayorning jiyani kaltak yeganligi uchun Polvonni qamab qo‘yish epizodlarida ham ko‘rinadi. Murodxon aka (Bahodir Yo‘ldoshev) bilan cholning kelib o‘z nevarasining tadbirda g‘olib bo‘lgani uchun minnatdorchilik bildirishi va konvert tashlab ketishi, “Panji kim? Ministrning jiyani” kabi dialog hamda yana ko‘plab epizodlarda yuqorida aytilganidek muammolar, ularning jamiyatda chuqur ildiz otib borayotganligi tanqid ostiga olinadi va tomoshabinlarga yengil kulgu bilan yetkazib beriladi.

Film syujetida oddiylik ko‘zga tashlansa-da, ammo tag ma‘nosi chuqur ekanligi e‘tiborli. Bot-bot tilga olinadigan “Katta odamlar shunday bo‘ladi”, “Katta odamlar bunday yashashmaydi” kabi jumlar aslida to‘g‘ridan to‘g‘ri Polvon obraziga nisbatan aytilayotgandek bo‘lsa-da, biroq asl katta odamlar deb kimlar nazarda tutilayotganligini anglash qiyin emas.

Filmda mardikorlarning og‘ir hayoti birgina epizod bilan ko‘rsatib ketiladi. “O‘zing mardikor bo‘lsang, yana mardikor qizga uylangan bo‘lsang, bolani keragi bormidi-ya”, – deydi yigitlardan biri farzandini ovuta olmay qiynalayotgan ayolni ko‘rib. Bir uyda bir necha o‘nlab kishilarning birga turishi, o‘sha uyning bitta xonasida bir qancha mardikor er-xotinlarning istiqomat qilishi kabi epizodlardan bilish mumkinki, ular alohida uy olib chiqishga imkonsiz.

Zulfiqorning hujjatlarini ko‘rsatish epizodi zohiran kulgili bo‘lsa-da, zamirida katta ma‘no mujassam. Ya‘ni pul bugungi zamonda shunday qudratga egaki, u bilan istalgan kasb egasi, hujjat egasi bo‘lish mumkin, degan fikr ochib berilgan.

O‘z maqsadi yo‘lida har qanday pastkashlikka qo‘l uradigan, o‘zining mashhurlikka erishish ilinjida “kattalar” qo‘lida qo‘g‘irchoq bo‘lishga tayyor bo‘lgan, bu yo‘lda toza qalbli Polvon kabilardan shunchaki bir matoh kabi foydalanadigan kimsalarning qiyofasi Rohatoy ismli qahramon orqali ochib beriladi. Aktrisa Dilnoza Mavlonova ijrosida hoyu-havasga berilgan tarzda ifodalanadi va bunday tabiiy ijro tomoshabinning nafratiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, it urishtirish epizodida esa Polvonning yuragi qanchalik toza ekanligi, buni ayrim odamlar tushunmasa-da, ammo hayvon tushuna olayotganligi, bu bilan esa toza qalb egalari, albatta, o‘z maqsadlariga yetishi kabi g‘oyalar olg‘a suriladi. Zero, film yakunida Polvon mashhur sportchi bo‘lib, o‘z baxtini topadi.

Har qanday kartina muvaffaqiyatida jamoa va aktyorlar ansamblining o‘rni katta bo‘ladi. “Dev bilan pakana” kartinasi ham bundan mustasno emas. Bahodir Yo‘ldoshev (Murodxon aka), Furqat Fayziyev (Hasan aka), Fotih Jalolov (Nurmat), Dilnoza Mavlonova (Rohatoy), Murod Rajabov (Avaz qassob), Zikir Muhammadjonov (Polvonning bobosi), To‘ychi Oripov (tanburchi bolaning bobosi), Maryam Ixtiyorova (Rohatoyning buvisi), Said Muxtorov (kuchuk urishtiruvchi), Seydulla Moldaxanov, Gulchehra Ibrohimbekova, Ulug‘bek Muhammadkarimov, Ravshan Solihov, Bobur Yo‘ldoshev, Muhammadsoli Yusupov, Ulug‘bek Yo‘ldoshev (Jonik), Dilbar Ikromova (Ane) kabi aktyorlarning o‘ziga xos komik ijrolari film muvaffaqiyatiga munosib hissa qo‘shgan.

Shuni ham aytib o‘tish kerakki, filmning ba‘zi o‘rinlarida javobsiz qolgan savollar ham uchraydi. Bu kartinada katta odam kim? San’atkorlarni “changalida tutgan” Murodxon akami? Lavozi midan foydalanib jiyani Panjini mashhur qilishga urinayotgan vazir yordamchisimi? Yoki gavdasi katta, qalbi esa undanam katta bo‘lgan Polvonmi? Bu kabi savollar talaygina...

Shuningdek, Polvonning bobosi taqdiri ham oxiriga yetmay qolgan. Polvon film o‘rtalarida bir bora “bobomni sog‘indim”, deydi ammo, film oxirida sportchi bo‘lib oyoqqa turib olganda ham bobosining taqdiri haqida biror so‘z yuritilmagan. Vaholanki, uni bobosi film boshida “Avvalo o‘zingga yetkazgin, orttirsang bizga ham ilinarsan” kabi so‘zlar bilan Toshkentga kuzatgandi. Demak, Polvonning yordamiga muhtojligi bor edi. Yana shunday epizodlardan biri Polvon mardikorlik qilayotgan joyiga Zulfiqorning topib kelganligi biroz mavhum bo‘lib qolgan. Ular shunchaki bozorda bir ko‘rishgandi xolos, ammo Zulfiqor uni adashmay topib keladi. Bu esa biroz mulohazali. Biroq bu kabi juz‘iy kamchiliklar film aytmoqchi bo‘lgan g‘oyaga to‘siq bo‘lmagan. O‘z o‘rnida rejissyor Jahongir Qosimov oldiga qo‘ygan maqsadini oqlagan.

2000-yillardagi kinokomediyalarda muhabbat mavzusi yetakchilik qildi. Romantik komediya suratga olar ekan, bu janr rejissyordan o‘ta xushyorlikni talab qiladi. Zero, romantika va komediya qorishiq holda har ikki tomonga og‘ib ketmasligi, “oltin o‘rtalik”ni saqlab qolishi lozim.

Yangi davr kinokomediyalari borasida so‘z yuritilar ekan, xulosa o‘rnida aytish mumkinki, 2000–2023-yillar orasida ishlangan kinokomediyalar son jihatidan shu qadar ko‘paydiki, tabiiy ravishda ularning sifati, badiiy darajasidan kelib chiqib tasniflash muhim ahamiyat kasb etdi. Shu nuqtayi nazardan, bu davr komediyalarini shartli ravishda uch turkumga bo‘lish mumkin bo‘ldi:

Birinchi turkum, komediya janrini yangi bosqichga olib chiqqan, mana shu janrda ijod qilib o‘zbek kino sohasi va kinoteatrlarini jonlantirgan ijodkorlar qatori shakllandi. Bularga R.Sa‘diyev, A.G‘aniyev, B.Yoqubov, Y.To‘ychiyev, J.Ahmedov kabi rejissyorlarning filmlari misol bo‘lib, ularda komediya janri biroz melodrama bilan qorishiq tarzda ifoda etiladi. Biroq muammoni hal etish usuli, tomoshabinni jalb etish xususiyati, birinchi planda kulgining turganligi aynan ushbu filmlarning komediya ekanini va bu yangi bosqich ekanini anglatadi. 2000-yillarning boshlarida bo‘shab borayotgan kinoteatrlarga tomoshabinlarni qaytargan va ekranlardan xorij kinoprokatlarini “siqib chiqarib”, milliy mahsulotlar tomoshaviyligini oshirgan asarlar aynan ushbu rejissyorlarning filmlari bo‘ldi. Shuningdek, bu turkum rejissyorlar ijodida komediya yo‘li bilan tarbiyaviylik unsurlari ham oshib bordi va aynan ijod yo‘li bilan moddiy manfaatdorlikka erisha olishdi.

Ikkinchi turkum, H.Fayziyev (“Kichkina odamlar”), J.Qosimov (“Dev bilan pakan”), M.Abzalov (“Ta’ziyadagi toy”), Z.Musoqov (“Novda”) kabi tajribali rejissyorlar komediyaning sifati va badiiy xususiyatini ko‘tarib, uning jiddiy janr ekanini, jamiyat hayoti, undagi muammolarni hal qilishda katta ahamiyat kasb etishini ko‘rsatib berishdi.

Uchinchi turkum, taassufki, komediyaning haqiqiy talablari buzilib kulgi uchun, tomoshabinning didi ortidan quvishga qaratilib ishlangan mahsulotlar. Bu turkumga taalluqli kino “ijodkor”lari ikki yo‘nalishda shakllanishdi. Birinchi yo‘nalish, komediya vositasida asosan moddiy manfaatdorlikni ko‘zlash natijasida vujudga kelgan bo‘lsa, ikkinchi yo‘nalish, globalizatsiya ta’sirida odamlarni o‘zini ko‘rsatishi, mashhur bo‘lish istagidan kelib chiqqan holatdir. Ta’kidlash kerakki, har ikkala yo‘nalish ham aslida nafaqat o‘zbek kinosi, balki jahon kinosida vujudga kelgan edi. Ayniqsa, xorij, xususan, Rossiyadagi KVNchilarning kino olishga o‘tishidek salbiy holat mamlakatimiz kino san’atiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘chib o‘tdi va bu tabiiyki, janr sofligi buzilishiga, badiiy xususiyatlari yo‘qolib, yengil-yelpi kulgili syujetlar bir-biriga yopishtirilgan shakllari ko‘payishiga sabab bo‘ldi. Komediya janrining ekologiyasi buzilishiga olib kelgan bu uchinchi turkumning asosiy “ijodkorlari” J.Poziljonov, J.Shodmonov, S.Shoddiyev, O.Mirzaxolov kabilardir. Natijada “Qizi borning nozi bor” (M.Otajonov, 2005), “Boyvachcha” (J.Poziljonov, 2007), “Asal, yigitda gap bitta bo‘ladi” (T.Maqsudov, M.Otajonov, 2007), “Nortoy” (J.Poziljonov, 2008), “Kichkina xo‘jayin” (J.Shodmonov, 2010), “Shomurod va Durdona” (J.Poziljonov, 2010), “Enagalar” (J.Shodmonov, 2011), “Challari” (J.Poziljonov, 2011), “Shu yetmay turuvdi” (O.Mirzaxolov, 2012),

“Janob Qorovul” (O.Mirzaxolov, 2012), “Hasan ibn Husan” (J.Shodmonov, 2013), “Salom Natasha” (O.Mirzaxolov, 2014), “Ahmadboy Rahmatboy” (J.Sotiboldiyev va S.Xakimov, 2017), “Jangovar qaynona” (D.Umarov, 2019) kabi “film”lar yuzaga keldi. Bunday “rejissyor”larning faoliyati bir qator saviyasiz, kulguli tomoshaga aylangan filmlar safini kengaytirdi xolos.

So‘nggi yillarda komediya janridagi filmlarga rejissyorlarning murojaatlari keskin kamaydi. Suratga olingan sanoqli kinokomediyalar (“Bir kunlik toy” (Sh.Rasulov), “Millioner Jonibek” (Z.Zokirov), “Puling bo‘lsa...” (I.Muhammadibrohimov) kabilar ham voqea bo‘lmadi va afsuski, yuqoridagi tasnifga ko‘ra uchinchi turkumga mansub bo‘lib qoldi. Buning natijasida janr sayozlashib, badiiy did tusha boshladi.

Mavjud muammolarga qaramasdan, o‘zbek kinokomediyaqidagi izlanishlarning ijobiy xususiyatlari ham ko‘zga tashlanadi. O‘zbek kinokomediyaqidaning eng asosiy yutug‘i – u qaysi davrda, qaysi mavzuda bo‘lmasin doimo inson ma’naviyati masalasi yetakchi o‘rinni tutishidadir. Bugungi kun o‘zbek kinokomediyaqidada ma’naviyat, inson ruhiy olami va qadriyatlarining ifodalanishi uning kelajagiga nisbatan umid uyg‘otadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абулкасимова Х., Тешабаев Д., Мирзамухамедова М. Кино Узбекистана. – Ташкент: издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1985. – 286 с.
2. Karimova N. “O‘zbekiston badiiy kinematografining shakllanishi va taraqqiyoti” dissertatsiyasi. T., 2019. – 108 b.
3. Каримова Н. Игровой кинематограф Узбекистана. – Ташкент: издательство журнала “Санъат”, 2016. – 215 с.
4. Karimova N. O‘zbek milliy kinosining yangi ufqlari // San’at. – 2016. – № 2. – 37-41-b.
5. Teshaboyev J. Intilganga tole yor // San’at. – 2014. – № 4. – 40-42-b.
6. Филиппов С. Киноязык и история. Краткая история кинематографа и киноискусства. – М.: клуб “Алма Анима”, 2006. – 208 с.
7. Разлогов К.Э. Мировое кино. История искусства экрана. – М.: Эксмо, 2011. – 688 с.

## **“O‘ZBEK QIZI” FILMI TALQINIDA URUSH MAVZUSINING YORITILISHI**

***Annotatsiya.** Maqolada so‘nggi yillar o‘zbek badiiy kinosida urush mavzusida yaratilayotgan filmlar tahliliga e‘tibor qaratilgan. Xususan, 2023-yil katta ekranlarga chiqqan “O‘zbek qizi” filmining badiiy-g‘oyaviy xususiyatlari, urush mavzusini yoritish nuqtayi nazaridan alohida jihatlari tahlil etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** badiiy kino, tarixiy xotira, urush mavzusi, syujet, qahramon, obraz, front.*

***Аннотация.** Статья посвящена анализу фильмов военной тематики, снятых в узбекском художественном кинематографе за последние годы. В частности, анализируются художественно-идеологические характеристики фильма «Узбекская девушка», вышедшего на большие экраны в 2023 году, особенности с точки зрения освещения темы войны.*

***Ключевые слова:** художественный фильм, историческая память, военная тема, сюжет, герой, образ, фронт.*

***Abstract.** The article is devoted to the analysis of military-themed films shot in Uzbek feature cinema in recent years. In particular, the artistic and ideological characteristics of the film “Uzbek Girl”, released on big screens in 2023, are analyzed, especially from the point of view of covering the topic of war.*

***Key words:** feature film, historical memory, military theme, plot, hero, image, front.*

O‘zbek badiiy kinosida so‘nggi yillar tarixiy xotirani qayta tiklash yo‘lida filmlar suratga olish an‘anasi shakllangani kuzatilmoqda. Xususan, shu mavzuda yaratilgan “Berlin-Oqqo‘rg‘on” (2018), “Ilhaq” (2020), “101” (2020) singari filmlarda urush yillarining turli siyosiy-g‘oyaviy, ijtimoiy-maishiy jihatlari qamrab olindi. Garchi ushbu filmlar urush manzarasini turli rakurslardan ochib bergan bo‘lsa-da, o‘zbek xarakteri, o‘zbek xalqining urush yillaridagi turmushi va qahramonliklarini aks ettirish mazkur filmlarni o‘zaro bog‘lab turuvchi leytmotivga aylandi. Ta’kidlash o‘rinliki, aynan mana shu jihat, ya’ni o‘zbek filmlarida urush mavzusining millat yoki millat vakili taqdiri orqali yoritilishi, urushda o‘zbek xalqining tutgan o‘rni va qo‘shgan hissasiga urg‘u berilishi milliy kinoni boshqa davlat filmlaridan ajratib turuvchi asosiy xususiyat sifatida ko‘rinadi. Joriy yil katta ekranlarga chiqqan “O‘zbek qizi” badiiy filmini ham, avvalo, ushbu mezonlar bo‘yicha baholash maqsadga muvofiq. Filmning “Zebo G‘aniyeva, Muqaddam Ashrapova, Roza Ibragimova, Sharofat Ishanturayeva, Rahima Alimova kabi Ikkinchi jahon urushida ishtirok etib, mardonavor jasorat ko‘rsatgan minglab o‘zbek ayollariga bag‘ishlanadi” degan yozuvlar bilan yakunlanishi mohiyatida ham aslida ana shu ma’no zohir bo‘ladi. Film rejissyori Akbar Bekturdiyevning harbiy mavzuga qiziqishi 2019-yilda suratga olgan “Tinchlik ortida” (2019) filmida namoyon bo‘lgan edi. Aytish mumkinki, mazkur film “O‘zbek qizi”ga kirishishdan oldin rejissyor uchun

o‘ziga xos tajriba maydoni vazifasini o‘tadi. Qolaversa, urush mavzusida film yaratish bo‘yicha ulkan tajribaga ega belorussiyalik kino ijodkorlar bilan hamkorlik olib borilgani ham mavzuni yoritishda imkoniyat bo‘ldi.

Agar mustaqillik yillari Ikkinchi jahon urushi mavzusida yaratilgan dastlabki “Vatan” (2006), “Berlin-Oqqo‘rg‘on” (2018) filmlari original ssenariylar asosida suratga olingan bo‘lsa, keyingi yillarda ishlangan “Ilhaq”, “101” kabi filmlar “Besh jangchining onasi” (muallif Alinazar Egamnazarov), “101” (mualliflar Anvar Irgashev va Yuliya Medvedovskaya) asarlari motivlariga tayandi. Badiiy asarning kino tiliga muvaffaqiyatli ko‘chirilishida asar bosh g‘oyasi, syujet tarmog‘i va qahramonlar talqinining yetakchi omil ekani jahon va milliy kino tajribasidan yaxshi ma‘lum. “O‘zbek qizi” filmi uchun Baxtiyor Abdug‘ofurning shu nomli romani asos bo‘ldi. Biroq filmdan farqli ravishda, asarning g‘oyaviy mazmuni anchayin salmoqli, voqealar ko‘lami ham shunga yarasha kengroq. Asarda urush foni orqali front va front ortida mardonavor kurash olib borgan va Stalin qatag‘onlari qurboniga aylangan minglarcha o‘zbek xotin-qizlarining umumlashma obrazi olib chiqilgan. Asar qahramoni oddiy o‘zbek qizi misolida urush yillaridagi tuzumning asl yuzi ochib berilgan. Film uchun esa asarning, asosan, front qismi tanlab olingan. Bunday yondashuv filmda na faqat asar mazmunini to‘liq qamrab olish imkoniyatini bermagan, balki badiiy asarda urush davrining siyosiy-mafkuraviy, ijtimoiy-maishiy haqiqatlarini yuzaga chiqarish, shunday muhitda o‘zbek ayollari boshiga tushgan sinovlarni ochib berishdek ulkan maqsadlardan chetlanishga olib kelgan. Film, birinchi navbatda, romandagi front qahramonliklarini ko‘rsatishga urg‘u beradi.

Syujet tuzilmasining asosiy qismi, shu bois, front voqealarini qamrab olgan. Dastlab film qahramoni Jamila majburligidan qishlog‘ini tark etadi va tasodifiy hodisa tufayli snayperchi qizlar maktabida tajriba orttiradi, shundan so‘ng birin-ketin fashistlarni qirishni boshlaydi, film so‘nggida esa jangovar topshiriqni muvaffaqiyatli bajarib, halok bo‘ladi. To‘g‘ri, Ikkinchi jahon urushi mavzusi doirasida o‘zbek jangchi ayoli obrazi milliy kino uchun yangi talqin. Chunki bunga qadar urush mavzusidagi o‘zbek badiiy filmlarida ayollar obrazi, asosan, mushtipar ona, sadoqatli yor, urush tufayli jabr chekkan zaifa sifatida olib chiqilgan. Biroq jahon kinosi, ayniqsa, Rossiya filmografiyasida Ikkinchi jahon urushi yillari qahramonlik ko‘rsatgan snayperchi ayollar haqida filmlar talaygina. “Diqqat, Moskvadan gapiramiz” (2005), “Snayper 2: Tungus” (2012), “Snayperlar: Nishondagi muhabbat” (2012), “Nishon ko‘rinyapti” (2013), “Sevastopol uchun jang” (2015) va yana boshqa shu singari filmlarda urush yillaridagi ayol snayperchilar obrazi turli taqdir yo‘llari orqali ko‘rsatilgan. “O‘zbek qizi”da bu kabi filmlarning ijodiy tajribasidan dadil foydalanilgani butun kompozitsion tuzilmada aks etgan. Ayniqsa, Jamilaning snayperchi qizlar maktabidagi tayyorgarlik jarayonlari, qizlar o‘rtasidagi dialoglar va qahramon ruhiy holatini tasvirlovchi epizodlar hamda qahramonning frontdagi kadrlarida ma‘lum klishelar qo‘llanilgani yaqqol seziladi. Garchi filmda front voqealarini epik ko‘lamda yoritish, jang epizodlarini maxsus effektlar bilan jonlantirish borasida katta mehnat qilingani kuzatilsa-da, urush mavzusiga original yondashuv nuqtayi nazaridan filmga yuqori baho berish amrimahol. Shunday bo‘lsa-da, “O‘zbek qizi” filmida urush mavzusini yorituvchi xususiyatlarga to‘xtalish o‘rinli.

Birinchidan, filmda urush davri muhitini aks ettirishga alohida e'tibor qaratilgani kichik detallardan tortib, qahramonlar libosi va yirik dekoratsiyalargacha o'z ifodasini topgan. Filmning dastlabki kadrlari sovet qizil bayrog'i, urush xabarlarini yetkazuvchi ovoz karnaylari, butunittifoq radiosi diktori, SSSR xalq artisti, urush davomida front va front orti xabarchisiga aylangan Yuriy Levitanning o'ktam ovozi, "Hammasi front uchun, hammasi g'alaba uchun" shiori tushirilgan qizil plakat bilan boshlanar ekan, allaqachon urush mavzusi timsollariga aylangan ushbu detallar ilk kadrlardanoq mash'um yillar daragini beradi. Voqealar davomida har bir epizod mazmuni urush anturajini aks ettiruvchi shu kabi detallar bilan boyitilgan.

Ikkinchidan, filmda kino tilidan unumli foydalanilgan bir qancha epizodlarni ko'rish mumkin. Masalan, Jamilaning uydan bosh olib chiqib ketishi va front chizig'iga yetib borishi ammasiga qoldirgan maktubning o'qilishi fonida tasvirlanishi, Jamilaning natsistlarni birin-ketin nishonga olish kadrlari dushmanga nisbatan nafrat sifatida o'qiluvchi monolog orqali yetkazilishi, Jamila partizanlar safiga qo'shilgach, dushmanga qarshi beayov jang olib borgani qon chaplangan yuzi bilan yelkasida ikki-uchta dushman qurolini olib kelib, stol ustiga qoyishi va natsistlarning to'rt dona konserva bankasini topshirishi orqali bildirilishi voqealar mazmunini tasvir vositasida ko'rsatishga xizmat qilgan.

Uchinchidan, urush fojialarini yoritishga urg'u berilishi film mazmuni ko'lamini kengaytirgan. Bu qahramonlar tilidan aytilgan so'zlar (akopdagi starshinaning: "Eh, bu la'nati urush, hammasini teskari qilib tashladi", jang maydoniga ishora qilib, Rahimaning "Bu yer do'zaxning o'zi" deyishi va h.k.), qahramonlar nigohi bilan ko'rilgan dahshatli manzaralar, natsistlar tomonidan amalga oshirilgan shafqatsizliklar va qahramonlar bilan sodir bo'luvchi epizodlar misolida namoyon bo'lgan. Urush tufayli front orti mashaqqatlari ojiza xotin-qizlar va murg'ak bolalar gardaniga tushgani dastlabki kadrlardagi kartoshka terimida aks etadi, e'tibor berilsa, front orti kadrlarida raisdan boshqa birorta erkak ko'rsatilmaydi, bu bilan urush – ayollarni erlaridan, farzandlarni otalaridan ayirgan fojia ekani ma'lum bo'ladi. Snayperchi qizlar ilk bor frontga boranida uylaridan bosh olib ketayotgan odamlarni, kuli ko'kka ko'tarilgan xarobalarni kuzatar ekan, bu orqali urush yetkazgan talafotlar aks etadi. Ayniqsa, hali yonib tugamagan vayronalar ichida bolasini ko'tarib o'tirgan ayol va yonidagi qizchasining yordamga muhtoj mungli boqishi sekinlashtirilgan kadrlar fonida yanada ta'sirli ko'rinadi. Ayovsiz jang kadrlari, qahramonlarning o'limi, sovet askarlariga yordam ko'rsatgan cholning nabirasi ko'z oldida dorga osilishi singari epizodlar ham urush shafqatsizliklarini ochib beradi.

To'rtinchidan, filmda fleshbek<sup>26</sup> uslubining qo'llanilishi qahramon tuyg'ularini ochib berishga, uning emotsional obrazga aylanishiga turtki bo'lgan. Unashtirilgan yigiti haqidagi yorqin xotiralari Jamilaning qiyinchilikka uchragan, murakkab davrlarida ko'rsatilishi esa urush beshafqatliklari va baxtli kunlar o'rtasidagi kontrastlikni hosil qilgan.

"O'zbek qizi" filmida ko'zga tashlanuvchi ushbu xususiyatlar bilan birga, film badiiy-g'oyaviy saviyasiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan tomonlarni ham qayd etish joiz.

---

<sup>26</sup> O'tmish voqealarini ko'rsatuvchi kadrlar

Ta'kidlanganidek, dunyo kinosida urush yillaridagi snayperchi ayollar qismatiga bag'ishlangan filmlar anchagina, endi "O'zbek qizi" ulardan nimasi bilan ajralib turishi kerak edi!? Syujet epizodlari va kadrlarning o'xshashligiga ko'z yumgan holda, filmning harbiy-qahramonlik yo'nalishida ekanligidan kelib chiqilsa, voqealar davomida snayperchi o'zbek qizining qahramonligi timsolida o'zbek xalqining g'alabaga qo'shgan hissasini aks ettirish birlamchi vazifalardan bo'lishi zarur edi. Biroq o'zbek ayollarining umumlashma obrazi deb talqin etilgan Jamila Qodirovani o'zbek qizi sifatida frontda boshqalardan ajratib turuvchi xususiyatlari ko'rinmaydi hisob. Albatta, qahramonga ma'lum xarakter qirralarini singdirishga harakat qilingan, lekin uni aynan o'zbek qizi sifatida ajratib turuvchi epizod yoki kadrlar deyarli uchramaydi. Butun film mobaynida faqat bitta o'rinda – o'quv yurti boshlig'i bilan Jamila o'rtasidagi dialogda o'zbek ayollari jasoratiga urg'u berib ketilgan. "O'zbekistonda dushman bilan olishaman degan qat'iyatli ayollar ko'pmi?" degan savolga Jamila: "Xuddi shunday. Lekin hamma urushga ketib qolsa, kim frontga paxta, meva, non, kiyim-kechak yetkazib beradi. U yerda ham oson emas. U yer ham front, o'rtoq polkovnik" deya javob qaytarishi zamirida o'zbek ayollari e'tirof etiladi. Shu kabi dialoglar yoki boshqa kichik detallar bilan bo'lsa ham o'zbek ayollarining urushdagi hissasiga kengroq to'xtalینگanda filmning badiiy-g'oyaviy qiymati oshgan bo'lar edi. Shu sabab, Jamilani millat vakilidan ko'ra ko'proq baynalminal obrazga aylanib qolgan deyish mumkin. Bosh qahramon talqinidagi bunday yondashuv, oqibatda, o'zbek ayollarining urushdagi o'rni va ahamiyatini ochib berishga imkon bermagan.

Qolaversa, filmda mantiqiy va hayotiy yechim topmagan kadrlar ham ko'zga tashlanadi. Masalan, harbiy kolonnaga dushman havo kuchlari hujum qilgan payti Jamilaning "Karabin Mosina KO-44" (Mosina vintovkasi) quroli bilan natsistlar samolyotini urib tushirishi qahramonlik jihatidan jozibali ko'rinsa-da, Jamilaning qanday qilib bunaqa sifatga ega bo'lib qolgani oldingi kadrlarda asoslantirilmagani bois, o'z o'zidan bahsli savollarni keltirib chiqaradi. To'g'ri, filmning 69-daqiqasida Jamilaning qachonlardir tog'asi bilan ov qilgani bir necha soniyalarda ko'rsatib ketilgan, biroq voqealar rivojlanib ulgurgan va Jamila allaqachon snayperchi bo'lib shakllangan pallada tog'asi bilan bog'liq ushbu kadrlarning kechikib kiritilishi film mazmunini boyitishga, qahramon biografiasini ochishga hissa qo'shmaydi. Agar ushbu kadrlar samalyot urib tushirilgunga qadar ko'rsatilganda film avvalida yuzaga kelgan savollarga javob berilgan va qahramonning xatti-harakatlarini asoslantirgan bo'lar edi. Hayotiylikdan uzoqlashgan yana bir shunday epizodni diviziya artileriyasi rahbarining jang avjiga chiqqan pallada okopda bemalol gavdasini ko'tarib, ochiq joyga chiqishi va dushman snayperi tomonidan o'qqa tutilishi kadrlarida ko'rish mumkin. Harbiy janglarda tajriba orttirib, polkovnik unvonigacha ko'tarilgan bu qahramonning har taraftan o'q yog'ilib turgan vaqtda o'zini bunday tutishi ishonarli emas. Shuningdek, Gromovning snaryaddan omon qolib, voqealarga qayta olib kirilishida ham aniq maqsad sezilmagan. Ko'ngil qo'ygan qizining o'limiga sababchi bo'lgan Jamilaga adovati qolgan Gromovning portlashdan so'ng ekranda qayta ko'rinishi va Jamila bilan o'ta muhim topshiriqni bajarishga birga yuborilishi dastlab intrigali holatni yuzaga keltirgan bo'lsa-da, keyingi epizodlarda

Gromovning shunchaki qo‘lga tushib, qiynoq vaqti o‘lib ketishi uning nima uchun tirik qolgani va qayta olib chiqilganini asoslamaydi.

“Vatan”, “Berlin-Oqqo‘rg‘on”, “Ilhaq”, “101”, “O‘zbek qizi” kabi filmlar mustaqillik davri badiiy kinosida Ikkinchi jahon urushi mavzusini yoritish bo‘yicha tarixiy obyektivlikka intilish, sovet mafkurasini fosh etishga urinish bilan birga, o‘zbek badiiy filmlarida original voqealar va milliy qahramonlarni kashf etishga jiddiy ehtiyoj mavjudligini ko‘rsatmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Трофимов А. В. Визуальные образы Великой Отечественной войны в советском послевоенном кино // Исторический курьер. – Новосибирск, 2020. – № 3 (11). – Стр. 113-124.

2. Воронов А. М. Проблема правдоподобия и правды в советских и российских художественных фильмах, посвящённых Великой Отечественной войне // Вестник Ленинградского государственного университета им. А. С. Пушкина. – Ленинград, 2012. – №3. – Стр. 222-231.

3. Макаров Д. В., Дронов В. А. Динамика образа врага в современных фильмах о Великой Отечественной войне // Власть. – Москва, 2013. – №2. – Стр. 160-163.

4. Ильченко С. Н. Парадоксы интерпретации истории в пространстве экранных коммуникаций (на материале фильмов и сериалов о Великой Отечественной войне) // Гуманитарный вектор. – Чита, 2017. Т. 12. – № 4. – Стр. 207-215.

5. Родионова О. В. Образ ВОВ в кинематографе как отражение культурно-исторической памяти и механизм самоидентификации // Вестник Московского государственного лингвистического университета. – Москва, 2017. – Выпуск 1 (768). – Стр. 146-171.

**Robiya Tursunmetova**  
*san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
katta o'qituvchisi*

## **ZAMONAVIY O'ZBEK KINOSIDA XARAKTER YARATISHDAGI VORISIYLIK**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek kinosida qahramonlar va personajlar xarakterini yaratishda ma'lum bir izchillik kuzatilayotganligi xususida fikr yuritilgan. Ekrandagi qahramonlar shunday xarakter xislat va xususiyatlariga egaligi, ular o'zbek xalqiga xos bo'lgan dunyoqarash, ma'naviy olam, milliy ongni o'zida jamlagan va milliy xarakterga egaligi tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:** kino san'ati, zamonaviy o'zbek kinosi, film, xarakter, milliy xarakter, personaj, vorisiylik masalasi, milliy ong, ma'naviy olam, dunyoqarash.*

***Аннотация.** В данной статье рассматривается тот факт, что в современном узбекском кино наблюдается определенная последовательность в создании характера героев и персонажей. Анализируется, что персонажи экрана обладают такими характеристиками и особенностями, что они воплощают типичные для узбекского народа мировоззрение, духовный мир и национальное сознание, имеют национальный характер.*

***Ключевые слова:** киноискусство, современное узбекское кино, фильм, характер, национальный характер, персонаж, вопрос преемственности, национальное сознание, духовный мир, мировоззрение.*

***Annotation.** This article examines the fact that in modern Uzbek cinema there is a certain consistency in creating the character of heroes and characters. It is analyzed that the characters on the screen have such characteristics and features that they embody the worldview, spiritual world and national consciousness typical of the Uzbek people, and have a national character.*

***Keywords:** cinematography, modern Uzbek cinema, film, character, national character, personage, issue of continuity, national consciousness, spiritual world, worldview.*

Zamonaviy texnologiyalar, internet va sun'iy intellekt taraqqiyoti tomoshabinning kino san'atidan ma'lum darajada uzoqlashishiga olib kelmoqda. Badiiy barkamol filmlar, zamondosh xarakterini yaratish butun dunyoda dolzarb masala bo'lib bormoqda hamda tomoshabin e'tiborini tortuvchi va ekran asari hayotiyiligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri bo'lib qolmoqda. Bugungi kino san'atiga innovatsion texnologiyalar jadal kirib kelayotgan jarayonda kinoasarlarni badiiy yuksak saviyasini oshirish, buning uchun tabiiy, ishonarli, yuksak ma'naviy fazilatlariga ega xarakterlarni ifodalashga e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston kino san'atida qahramon xakteri qiyofasining talqiniga ideal shaxs emas, kamchiliklardan xoli bo'lmagan oddiy inson sifatida yondashish,

zamondosh obrazida esa oqibatsizlik, bemehrlik, vijdotsizlikka duch kelgani tufayli qalban yolg'iz qolgan, biroq turli illatlarga qarshi ma'nan kurashishga tayyor inson siymosini ifodalashga e'tibor qaratilmoqda. Mazkur jarayonda milliy kinokartinalarda talqin etilayotgan xarakterlar umuminsoniy g'oyalarni tarannum etishi, global fikrlash va xatti-harakat qilish qobiliyatiga egaligi, shu jihatdan xorijiy mutaxassislar va tomo-shabinlarni o'ziga jalb eta olishi nuqtayi nazaridan oqsashlar kuzatilyapti. "Biz O'zbekiston nomini butun dunyoga tarannum etmoqchi ekanmiz, bu ishni birinchi navbatda kino san'ati yordamida amalga oshirishimiz kerak. Aynan kino san'ati orqali jahon ekranlarini zabt etishimiz, shu yo'l bilan dunyo ahlining diqqat-e'tiborini qozonishimiz mumkin"<sup>27</sup>. Bu borada zamonaviy o'zbek kinosida suratga olinayotgan tarixiy va zamonaviy filmlarda xarakter yaratish yuzasidan vujudga kelayotgan muammolarni tadqiq va tahlil etish, ularning ilmiy asoslangan yechimini ko'rsatish dolzarb ahamiyatga ega.

Misol tariqasida tarixiy shaxslar siymosini yaratishga bo'lgan ilk urinishlardan biri bo'lgan "Buyuk Amir Temur" (ssenariy mualliflari A.Oripov, B.Ahmedov, B.Sodiqov, rejissyorlar I.Ergashev, B.Sodiqov, 1998) filmi oladigan bo'lsak, asarda Amir Temurning 18 dan 34 yoshgacha bo'lgan navqironlik davri o'z aksini topgan. Bu davr oralig'ida inson hayotning past-u balandliklarini teranroq anglay boshlaydi, asl tuyg'ular va qadriyatlarni ulug'lash tushunchasi shakllanadi, atrofdagi insonlar bilan qanday munosabat qilishni o'rganadi, jamiyatda o'z o'rnini topishga intiladi, kelajagi uchun poydevor yasaydi. Filmda ham Temurning asta-sekin katta sahnaga chiqishi, yetuk aql-u zakovati bilan xalq orasida mehr va hurmat qozonishi, yaqin insonlari-yu dushmanlari bilan munosabatlari va nihoyat, qudratli saltanat barpo etishi kabi asosiy voqeliklar namoyon bo'lgan. Unda ulug' ajdodimizning avvaliga biroz tajribasiz, insonlarning o'zaro turfa xil munosabatlarini mushohada qilib, o'zi uchun xulosalar chiqarayotgan navqiron yigitdan chuqur mulohazali, umuminsoniy fikr-g'oyalarni suvrati-yu siyratida namoyon etgan adolatli hukmdorga aylanish jarayoni falsafiy-psixologik yondashuv bilan yoritilgan. Mazkur jarayonda Temurning mamlakatdagi yovlarga qarshi ayovsiz munosabati, po'latdek mustahkam irodasi, insonparvarlik qarashlari o'z aksini topgan. Bu ayniqsa, Temur va Ilyosxo'ja o'rtasidagi munosabatda yaqqolroq namoyon bo'lgan. Tarixga "Loy jangi" degan nom bilan kirgan Temur va Ilyosxo'ja o'rtasidagi muhoraba, mazkur urushni keltirib chiqargan sabablarga film ijodkorlari kengroq yondashishga intilganlar.

B.Muhammadkarimov qiyofasida Amir Temurga xos savlat, viqor, qat'iyat yetarli darajada aks etmagani tufayli mazkur tarixiy shaxs obrazi ekranda to'laqonli gavdalandi, deb xulosa chiqarish qiyin. Bunga rejissyorlar tomonidan aktyorga konkret vazifa berilmagani sabab bo'lgan. B.Muhammadkarimov ko'p kadrlarda o'z rolini instinktiv ravishda ijro etayotgandek tasavvur uyg'onadi. Shu sababli Amir Temur obrazini ekranda gavdalantirish bo'yicha ijodiy izlanishlarni davom ettirish lozim.

O'zbekiston zamonaviy kino san'atida poetik kino, xususan, xalq og'zaki ijodi asosidagi filmlar alohida o'rin egallaydi. Ular orasida o'zbek xalqining yuksak ideali bo'lgan qahramon obrazi gavdalangan, qadim-qadimdan avloddan avlodga ko'chib ke-

---

<sup>27</sup> Mirziyoyev Sh.M. Prezident milliy kino san'ati va kinoindustriyani rivojlantirish bo'yicha yig'ilish o'tkazdi // Xalq so'zi. – Toshkent: 2017, 30-dekabr.

layotgan, ayniqsa baxshilarning repertuarida tengsiz asar hisoblangan “Alpomish” dostoni asosida 2000-yilda katta ekranga chiqqan badiiy film mustaqillik davrida folklor asarlarning ekrandagi talqini borasidagi izlanishlarni yuzaga chiqardi. Rejissyor X.Fayziyev tomonidan suratga olingan mazkur film (ssenariy muallifi U.Azim) “Alpomish” dostonidagi o‘ziga xos ruhiyatni to‘laligicha namoyon etdi. “Yangi tarixiy shart-sharoitda “Alpomish” filmining yaratilishi nihoyatda haqqoniydir. Xalqning o‘zi yaratgan va og‘izdan og‘izga o‘tib bizgacha yetib kelgan bu qahramonni kino vositalari orqali yana xalqning o‘ziga qaytarildi”<sup>28</sup>. Mazkur film milliy o‘zlikni anglash, xalq orasidagi yuksak ma’naviyatli ajdodlar siymosini ekranda gavdalantirish, qadimiy an’ana hamda odatlarni tiklash, xalq og‘zaki ijodi namunalarini targ‘ib qilish orqali barkamol avlod vakillarini voyaga yetkazish kabi maqsadlarni qamrab oldi.

Qahramonona-poetik yo‘nalishdagi “Elparvar” (rejissyor A.G‘aniyev, ssenariy mualliflari A.A‘zamov, Y.To‘ychiyev, 2019) kinokartinasini ham ajralib turadi. A.A‘zamovning qissasi asosidagi ushbu filmda XII asr oxiri – XIII asr boshlarida Markaziy Osiyo hududiga Chingizxon istilosi hamda ajdodlarimizning mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi kurashi bilan bog‘liq voqealar aks etgan. Filmning bosh qahramoni, o‘z qishlog‘ini qutqarish uchun dushmanga qarshi kurashgan o‘spirin kamonchi yigit – Muqbil kinokartina davomida ilmga tashna yosh o‘g‘londan yovga qarshi beomon kurashuvchi shaxs sifatida shakllanib, ham ma‘nan, ham jismonan takomilga yetib borishi tasvirlangan. Filmning umumiy atmosferasida ertaknamo, hikoyatomuz ruhiyat hukmron. Uning final qismida Jaloliddin Manguberdi obrazining paydo bo‘lishi esa film ruhiyatiga tarixiy haqiqat nafasini olib kirgan. “Elparvar” filmi tomoshabin ongu qalbiga vatanparvarlik, insonparvarlik, fidoiylilik, mardlik, qat‘iyatlilik, e‘tiqodlilik singari yuksak tuyg‘ularni singdira olishi bilan qadrlidi.

2019-yili zaminimizdan chiqqan ulug‘ alloma, yetuk muhaddis va faqih Abu Iso Muhammad ibn at-Termiziy siymosi gavdalangan film katta ekranlarga chiqdi. “Abu Iso Muhammad ibn at-Termiziy” filmida hadisshunos olim yashagan IX asr voqealari ekranda aks etdi. Ta’kidlash joizki, uzoq tarixiy davr muhitini ifoda etishdek murakkab vazifani rejissyor A.Mignorov filmdagi lokatsiyalar, liboslar, rekvizit jihozlari orqali birmuncha amalga oshirishga muvaffaq bo‘ldi. Mazkur filmni hujjatli-badiiy kinoasar sifatida qayd etish mumkin. Unda rejissyor ayrim syujet voqealarini sharhlash, bosh qahramonning ichki ruhiyatini ifodalash va hayotidagi muhim pallalarni bayon etishda mualliflik matnidani o‘rinli foydalangan. Abu Iso Muhammad ibn at-Termiziy hazratlari ko‘p yillik izlanishlari, hadis ilmiga qo‘shgan ulkan hissasi bilan nafaqat zaminimizda, balki islom dini keng tarqalgan va taraqqiy etgan ko‘plab mamlakatlarda qadrlanadi, e‘zozlanadi, hurmat etiladi. Mazkur kinokartina uni ham olim, ham shaxs sifatida anglashga xizmat qilgan.

Yaqin o‘tmishni tushunishda “Voiz” (Y.Roziqov, 1998-y.) filmi sezilarli voqea bo‘ldi. “Voiz” tarixiy mavzuni yoritishga yangicha yo‘nalish kiritib, uning janr-uslubiy diapazonini kengaytirdi. Film voqealari nihoyatda murakkab davr bo‘lgan 1917–1937-yillarda kechadi. Bosh qahramon Iskandarning oddiy aravakashlikdan inqilob va sho‘rolar

---

<sup>28</sup> Xaytmatova S., Abulqosimova X. O‘zbekiston san’ati tarixidan: mustaqillik davridagi o‘zbek kinosi. – Toshkent: 2008. – B. 7-8.

hukumatining voizi-targ‘ibotchisigacha bosib o‘tgan yo‘li evolyusiyasi, uning fikrlari va his-tuyg‘ulari dramasi asosiy dramaturgik tirgak bo‘lib, boshqa barcha voqealar uning atrofida birlashadi. “Voiz” singari o‘zbek filmlari shunday yangi bir g‘oyaviy pozitsiyani belgilab berdiki, keyinchalik o‘zbek xalqining o‘tgan 70 yillik hayoti haqidagi filmlar aynan shu pozitsiyaga asoslanib yaratildi. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushi hamda sobiq sovet tuzumining xunrezliklari aks etgan badiiy filmlarga e‘tibor kuchaydi.

Ekranda namoyon bo‘lgan yorqin xarakterlardan biri rejissyor Y.Roziqov tomonidan suratga olingan “Erkak” badiiy filmidagi Jamshid obrazi bo‘lib, u qat‘iy xarakterli qahramon sifatida ekranda gavdalandi. Bu oddiy, sodda o‘smir bola hikoyasi film ijodkorlari tomonidan mohirona ochib berilgan. Asar bosh qahramoni – o‘smir yigit Jamshid. Undagi yaqinlariga g‘amxo‘rlik, javobgarlik hissi, fikrlashi va xatti-harakatlaridagi jiddiylik hali yosh bo‘lishiga qaramay, erkak degan nomga munosib ekanligini anglatadi. U pul topish uchun ishlashga ketgan akasining oilasiga o‘zini javobgar hisoblaydi.

Mustaqillik davri O‘zbekiston kino san’atida badiiy-estetik jihatdan yuksak saviya bilan yondashilgan badiiy filmlar mavjud. Ular orasida rejissyor Q.Kamolova tomonidan 2005-yili suratga olingan “Yo‘l bo‘lsin” filmi alohida qayd etish mumkin. U poetik kinoning yuksak an‘analarini o‘zida namoyon etdi. Film g‘oyaviy-tematik jihatdan zalvorliligi, falsafiy-psixologik ruhiyati, boy vizual madaniyati va tasviriy vositalari bilan ajralib turadi. Unda rejissyorning yurtimizga maftunligi, go‘zal urf-odatlariga mehri ufurib turadi. Filmdagi ramziylik nafaqat uning badiiy-tasviriy yechimida, balki xarakterlarda ham yaqqol ifodasini topgan. Filmda aktrisa Z.Nizomiddinova ijrosidagi bosh qahramon Muhabbat obrazi Alloh tomonidan in‘om etilgan sevgi-muhabbat tuyg‘usi timsoli bo‘lib, u A.Rametov qahramoni tomonidan xo‘rlanadi, yerga uriladi, aldanadi, u tufayli qiyinchiliklarga duch keladi, biroq uni baribir boyniga aziz “munchoq” qilib taqadigan inson topiladi hamda Muhabbatning qadrini yuksaltiradi, uni ayol sifatida ulug‘laydi. Ana shu inson timsolini M.Abdulxairov ekranda gavdalantirdi. Aktyor ijroda falsafiy-psixologik xarakterni namoyon eta oldi. Bu obraz ko‘ngli yarimligi, mehr-muhabbatga muhtoj va tashnaligi bilan tomoshabinlar e‘tiborini o‘ziga tortadi.

Poetik kino an‘analari asosidagi, postanovkachi rejissyor A.Shahobiddinov hamda ssenariy muallifi Y.To‘ychiyev hamkorligida suratga olingan “O‘tov” (2007-y.) filmi yangi davr o‘zbek kinosida alohida o‘rin egallaydi. “O‘tov” badiiy filmi oila tushunchasi, ota va farzand o‘rtasidagi munosabatlarni o‘zida mujassam etadigan qadimiy qadriyatlar jamiyat, tuzum, tashqi omillar ta’siri oqibatida yemirilishi mumkinligi haqidagi haqiqatni falsafiy umumlashmalar orqali bayon etdi. Uni faqatgina asl tuyg‘ular, mustahkam e‘tiqod, ezgu fazilatlar qayta tiklay olishga qodirligi filmdagi chuqur psixologik yo‘sinda ifodalangan xarakterlar yordamida anglaniladi.

1990–2000-yillar jamiyatimizda katta o‘zgarishlar bo‘lib, bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri kirib keldi. Bu davr o‘ziga xos yutuq va kamchiliklarni qamrab oldi. Davrning og‘riqli muammolaridan biri migratsiya bo‘ldi. “XX asrning 90-yillari va XXI asrning boshlarida ayrim vatandoshlarimizning xorijga, chunonchi, AQSHga ko‘chib borib, o‘sha yerda yashashlariga sabab bo‘lgan omillarni bir xil, deb bo‘lmaydi. Ammo ularning aksar qismi ma’naviy qadriyatlarga nisbatan hurmat tuyg‘usi zaiflashgan,

mol-dunyo tashvishi bilan yashayotgan kishilar, desak xato bo‘lmas. Erkin A‘zamning dramatik qissasi asosida yaratilgan “Jannat qaydadir” filmida ana shu ikkinchi guruhga mansub kishilar va ularning ma‘naviy inqirozlari tasvir etilgan”<sup>29</sup>. Jo‘raqul (A.Rafiqov) obrazi 2000-yillar kinosining yorqin xarakterlaridan biri. Jo‘raqul haqiqiy vatanparvar, zaminini sevadigan, o‘z tug‘ilib o‘sgan qishlog‘ini va hamqishloqlarini qadrlaydigan inson sifatida gavdalanadi.

Yangi ming yillikda O‘zbekiston kino san‘atiga kirib kelib, o‘z o‘rnini topib borayotgan yosh ijodkorlar hayotning turli ziddiyatlari, taqdirning shafqatsiz oyinlari tufayli behol, besaranjom, bemor holga kelgan inson qismati, oy-qarashlari, orzu-intilishlarini ekranda ifodalash, mehr-oqibat, hurmat va izzat tushunchalari tobora yo‘qolayotgani haqida so‘zlash kabi g‘oyaviy-tematik asosni o‘zida mujassam etgan izlanishlarni amalga oshirmoqdalar. Ana shunday ijodiy izlanishlardan biri ssenariy muallifi va rejissyor U.Hamdammovning “Issiq non” (2018-y.) kinokartinasidir. Issiq non tafti ona hamda boshqa yaqinlarning qalbi va mehriga qiyos etiladi. Mazkur filmdagi barcha xarakterlar ana shu issiq non taftiga tashna insonlar ekanligi anglanadi. Qaynoq taft haroratidan bahramand bo‘lmagan qalblar tobora sovib borishi haqidagi haqiqat kinokartina qaror topadi. Shuning uchun filmdagi asosiy xarakterlar Buvi, Ona, Nevara o‘rtasidagi bir-birini bog‘lab turadigan haroratli munosabatlar ipi uzilgan.

Jamiyatdagi ijtimoiy muammolar aks etgan, kishilarning ma‘naviy olamidagi o‘zgarishlar, tanazzullar ifodalangan filmlar zamonaviy o‘zbek badiiy kinosida ko‘plab yaratildi. Insonlar orasidagi muammolar, moddiy qiziqishlar ta‘sirida tuban ketishlar ochiqcha ko‘rsatilgan, ba‘zan aytish mumkinmasdek ko‘ringan holatlar badiiy tarzda talqin etilgan filmlar ham yuzga keldi. Xuddi shunday badiiy filmlardan biri rejissyor J.Qosimovning “Dev bilan pakana” (2003-y.) filmidir. Ijtimoiy filmlarning asosiy xususiyatlaridan bo‘lmish badiiy obrazlar orqali muammolarni ifodalash holati ushbu kino asarda juda kuchli aks etdi. Yangilanayotgan jamiyat oqimida vujudga kelgan tovlamachilik, qalloblik, yengil daromad qilish ishtiyoqi, shou-biznes sanoatidagi uddaburonlik, tadbirkorlik singari yangi formatsiyani tashkil qiluvchi unsurlar ichida Polvon va Zulfiqor xarakterlari ajralib turadi, shuningdek, ular kelajakka umid hamda optimizm bilan qaraydigan shaxslardir.

2008-yilda R.Muhammadjonov tomonidan yaratilgan “Chol va nabira” filmi o‘tkir psixologik vaziyatlar, dramatik holatlarga boyligi bilan e‘tiborni o‘ziga tortadi. Ssenariynavis R.Muhammadjonovning birinchi rejissyorlik ishlaridan bo‘lgan ushbu film bir qarashda maishiy masalalarni o‘zida ifoda etgandek ko‘rinadi. Biroq maishiy muammolar zamirida ijodkor ijtimoiy fikrlarni aytishga intiladi. Film boylikka ruju qoygan otaning oilasini tashlab shaharda o‘zga oila qurib ketishi va qishloqdagi farzandlarini tirik yetim qilishi, kasalmand onaning na oila moddiy ta‘minotiga, na farzandlar tarbiyasiga kuchi yetmayotgani turli yoshdagi bolalarning taqdiri nima kechadi, degan savolni ko‘ndalang qoyadi va bunga javob bosh qahramon G‘anisher hayotidagi bunday ziddiyatlar ortidan kattalarga xos ong-tafakkur shakllanishida ifodalanadi.

---

<sup>29</sup> Karimov N. Milliy g‘oya va o‘zbek badiiy kinosining ayrim masalalari. Kino telekommunikasiya tabiati va tarkibi. – Toshkent, 2010. – B. 91–92.

Zamonaviy davrda milliy kino san'ati ijodkorlari ota va farzandlar o'rtasidagi an'anaviy munosabatlar, o'zaro hurmat tushunchasi tezkor rivojlanayotgan bugungi zamonda tobora qadrsizlanib, oqibatsizlik, bemehrlik, axloqsizlik kabi illatlar avj olib borayotgani haqida o'z filmlarida bong ura boshladi. Rejissyor J.Qosimovning "Suv yoqalab" badiiy filmi ana shunday kinokartinalardan sanaladi. Unda inson qadri haqida g'amgin notalarda kuylanadi. Bosh qahramon Bolta Mardonning armonlari tufayli chekkan qalb azoblari, yaqinlarining oqibatsizligi ortidan yuzaga kelgan nadomatlar, yoshi o'tganda hayotning haqiqati-yu umrning asl ma'nosini anglashga ulgurmagani sababli paydo bo'lgan sarosimalari ana shu g'amgin notalarning yuqori tonda yangra-shiga sabab bo'ldi.

Mustaqillik davrida O'zbekiston kino san'atida xarakter yaratish bo'yicha vorisiylik mavjudligi aniqlandi. Mavzu nuqtayi nazaridan bir qator filmlar tahlil qilinib, "Amir Temur", "Alpomish", "Abu Iso Muhammad ibn at-Termiziy", "Abdullajon", "Voiz", "Erkak", "Yo'l bo'lsin", "Chashma", "Dev bilan pakana", "O'tov", "Jannat qaydadir", "Issiq non" bu filmlarning bosh qahramonlari obrazi, ularning xarakteri o'rganilib, bir fikrga kelindi. Zamonaviy o'zbek kinosida xarakter talqinida o'ziga xos bir vorisiylik masalasi yuzaga keldi. Bu masala xarakter talqinida yaqqol ko'rinib turibdi. Personajlarning xarakterlari o'ziga xos individual jihatlar bilan taqdirlangan bo'lsa-da, ularni yaxlit bir naturaning butunligi, bir-birini to'ldirish va davom ettirish, yuqori ma'naviy qadriyatlar va umuminsoniy fazilatlar egasi ekanligi, o'zbek millatining original vakillari sifatida shu filmlarda yaratildi. Bu vorisiylik tadqiq etilgan davr kesimiga ayniqsa taalluqli. Bu davr kino san'ati shunday qahramonlarga muhtoj edi, bu mustaqillikka erishgan davr talabi bo'ldi. Bunday zabardast qahramonlar zamonaviy o'zbek kinosini saralangan xarakterlari bo'lib qoldi. Amir Temur, Alpomish, Termiziy, Bozorboy, Iskandar, Jamshid, Meliboy, Orzubibi, Dev, Ubaydulloh, Jo'raqul, Zulfiya singari qahramonlar tarixiy yoki zamonaviy bo'lishiga qaramay, o'zbek xalqining ma'naviy kuchi.

## FOYDALANIGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Prezident milliy kino san'ati va kinoindustriyani rivojlantirish bo'yicha yig'ilish o'tkazdi // Xalq so'zi. – Toshkent, 2017, 30-dekabr.
2. Xaytmatova S., Abulqosimova X. O'zbekiston san'ati tarixidan: mustaqillik davridagi o'zbek kinosi. – Toshkent, 2008. – B. 7-8.
3. Karimov N. Milliy g'oya va o'zbek badiiy kinosining ayrim masalalar. Kino telekommunikatsiya tabiati va tarkibi. – Toshkent, 2010. B. 91-92.

## **AKTYOR IJODIDA XARAKTER VA XARAKTERLILIK UYG'UNLIGI**

**Annotatsiya.** *Ushbu ilmiy maqolada mustaqillik yillarida o'zbek milliy akademik drama teatrida dramatik va zamonaviy mavzudagi milliy va Yevropa dramaturglari qalamiga mansub sahnalashtirilgan spektakllar tahlil qilinadi. Unda ilmiy ishlar, darsliklar, monografiyalar, o'quv qo'llanmalar hamda ilmiy maqolalarda keltirilgan ma'lumotlarga tayanib, spektakllar ilmiy-nazariy asosda tahlil etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *xarakter, xarakterlilik, pyesa, drama, spektakl, obraz, janr, aktyor, rejissyor.*

**Аннотация.** *В данной научной статье в годы независимости анализируются пьесы, поставленные отечественными и европейскими драматургами на драматические и современные темы в Узбекском национальном академическом драматическом театре. На основе научных трудов, учебников, монографий, учебных пособий и научных статей анализируются выступления на научно-теоретической основе.*

**Ключевые слова:** *персонаж, характеристика, пьеса, драма, спектакль, образ, жанр, актёр, режиссёр.*

**Abstract.** *In this scientific article, plays staged by domestic and European playwrights on dramatic and modern themes in the Uzbek National Academic Drama Theater are analyzed in the years of independence. Based on scientific works, textbooks, monographs, teaching aids and scientific articles, performances are analyzed on a scientific and theoretical basis.*

**Keywords:** *character, characteristic, play, drama, performance, image, genre, actor, director.*

Xarakter va xarakterlilik masalasida milliylikka e'tibor berish aktyorlar ijodida yangi qirralarni ochilishiga turtki bo'ladi. Bu borada so'z yuritganimizda O'zbek milliy akademik drama teatri aktrisasi Dilbar Ikromova yaratgan rollarini yodga olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Aktrisa rejissyor Bahodir Yo'ldoshev tomonidan sahnalashtirilgan "Kelinlar qo'zg'oloni" spektaklida Nigora obrazini sahnaga olib chiqib, shu paytgacha ma'lum bo'lmagan ijodiy qirralarini ochadi. Shuningdek, E.Xushvaqto'vning "Qirmizi olma", "Chimildiq", "Qalliq o'yin" hamda N.Abbosxonning "O'zbekcha raqs" spektakllarida o'zbek ayolining tipik vakillarini, millat qadri va sha'ni uchun o'zini kamarbasta deb bilgan kayvoni momo obrazlarini yaratib, tomoshabinlar e'tirofiga sazovor bo'ldi.

Norvegiyalik adib D.Sulstad sahnaviy xarakter yaratish borasida shunday deydi: "Sahna san'ati mohiyatini o'zaro mustahkam bog'langan uchta unsur tashkil qiladi. Bular – voqealar muhiti, xarakterlar va ularning harakati... Agar biror unsur e'tibor-

siz qoldirilsa, badiiy yaxlitlik paydo bo‘lmaydi. Agar voqealar muhiti paydo bo‘lmasa, xarakterlar ma’naviy mohiyatini yo‘qotadi, natijada aktyorlar harakati mantiqsizday ko‘rinib, ta’sir kuchi susayadi”. [1. B. 375.]

Xarakter va xarakterlilik uyg‘unligida yaratilgan sahnaviy obrazning ahamiyati – uning jonliligi, badiiy yaxlitligi va hayotiyligidadir. Dilbar Ikromovanning deyarli barcha rollarida ona dunyosi, ichki kechinmalari bosh mavzuga aylangan. Bu obrazlar xarakter jihatidan bir-birini zarracha takrorlamaydi, ularning har birini o‘z dunyosi, o‘z jilosi bor. D.Ikromova har bir rolini qalbdan his qilib shu rollarida yashaydi. Shuning uchun uning ijodi serqirra va o‘ziga xos obrazlarga boy.

Xususan, aktrisaning – “O‘zbekcha raqs” spektaklidagi “Ona” obrazini olaylik. Dilbar Ikromova bu personaj xakteri, kechinmalarini boyitib, voqealar rivojida undagi o‘shib, o‘zgarib borishni teran ifodalagan. O‘zbek ayoliga xos – mehnatkashlik, halollik, bag‘rikenglik, mehmondo‘stlik, sabr, matonat kabi qator insoniy fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan Ona obrazi aktrisa ijrosida takrorlanmas milliy qiyofa darajasiga ko‘tarilgan.

Harbiy xizmatdan qaytgan o‘g‘li, o‘zbek millatiga mansub bo‘lmagan qizni, o‘zi bilan uyiga olib keladi. Qumri chevar – ona, ne-ne orzu-umidlarda yolg‘iz o‘g‘lini xizmatdan qaytishini kutadi, o‘g‘liga kelin izlash, uylantirish borasidagi orzu-havaslari, oilasining sha’ni, obro‘si bir lahzada ko‘z oldidan o‘tadi. Endi uning orzulari – armonga aylanadi. Maryam g‘ayridin bo‘lishiga qaramasdan, uni kelin sifatida qabul qiladi. Yosh kelinchakka qaynona nafaqat oilaviy, balki hayotiy saboqlardan ham ta’lim beradi. Sahnada kechayotgan voqealar jarayonida ruscha tarbiya topgan, o‘zbekona urf-odatlar tugul, o‘zbek tilini ham umuman tushunmaydigan qizni qayta tarbiyalab, o‘ziga xos o‘zbek ayolini yaratadi. Spektakl yakunida Qumri chevar, idrokli shogirdi, kelini Mariyaga o‘z hunarini hamda oila boshqaruvini topshiradi. Mukammal o‘zbek ayoliga aylangan Mariyadan, qaynonasining ko‘ngli to‘ladi. Natijada, azaliy udumlar va milliy qadriyatlarni yuksak baholagan Qumri chevarning orzu-umidlari uning oilasi, nabiralari hayotida davom etadi. Ushbu badiiy yaxlit spektakl uzoq umr ko‘rishida ham aktyorlar ijrosida yetuk xarakterlar aks etgani bilan bog‘liq bo‘ldi.

D.Ikromova “Qirmizi olma” spektaklida – turmushning og‘ir-yengilini boshidan o‘tkazgan, hayotiy tajribasi asosida insonlarni bir ko‘rishda qandayligini ko‘zidan bilib oladigan ayol obrazini gavdalanitirgan. “Qalliq o‘yin” spektaklida milliy urf-odatlarni o‘zi uchun qadriyat deb bilgan, ikki yoshning boshini qovushtirish niyatida bo‘lgan onaxon obrazini ijro etadi.

“Chimildiq” spektaklidagi momo obrazida esa – taqdiri mushkul, mashaqqatli umr kechirib kelayotgan, yuragi to‘la dard bo‘lsada, kulishga o‘zida kuch topa oladigan, irodasi mustahkam, atrofidagi insonlarga yaxshilik ulashuvchi momo obrazida gavdalanaadi. Bu spektaklda – Momo sahnada atigi uch-to‘rt bor ko‘rinadi. Uning sahnadagi nutqi ham ko‘p emas. Ammo dramaturg aytmoqchi bo‘lgan – “Oila muqaddas qo‘rg‘on, uni osongina buzib bo‘lmaydi”, degan g‘oyasini aynan mana shu sahnada ko‘p ko‘rinmaydigan qahramon tilidan ochib bergan. Aynan momoning bu dunyoda hamma narsa jufti bilan yaraladi, juftidan ayrilgan qush ham bir kundan ortiq yashay olmaganini, yosh kelinchakka tushuntirishi orqali bir oilani asrab qoladi.

D.Ikromova ijro etgan rollari personajning bir holatdan ikkinchi holatga tabiiy o'tishi bilan ajralib turadi. U yaratgan badiiy yaxlit obrazlarning ahamiyati – sadoqat, vafu va oila oldidagi burchini ado etadigan onalar timsoli yorqin ranglarda namoyon qilinganidadir.

O'zbek Milliy akademik drama teatri sahnasida o'zining rang-barang rollari bilan teatr ixlosmandlari qalbidan chuqur joy egallagan Tohir Saidov yaratgan obrazlarda xarakter va xarakterlilik uyg'unligi yaqqol ko'zga tashlanadi. U yaratgan Gamlet obrazi – zakovatli, o'ziga bo'lgan ishonchi kuchli, ziyrakligi bilan ajralib turadigan shahzoda. Shuningdek, uning fe'l-atvoridagi haqiqat uchun kurashuvchanlik, odamiylik va insonparvarlik ustuvor. "Gamlet – T.Saidov gap-so'z, muomala usullarida odatiy romantik ohangdorlik-ko'tarinkilik o'rnida bugungi kun nafasiga xos asabiy taranglikni, sabrsizlik va shiddatni, adolatni tiklash uchun zo'r berishni, alamli izlanishlarni sezish mumkin. Bu hislat T.Saidov Gamletining zamondoshiga ancha yaqin va tushunarli bo'lishiga xizmat qilgan", deydi spektakl rejissyori T.Azizov [2.B.28.].

Aktyorning yana bir personaji chet el dramaturgi A.Kassanoning "Daraxtlar tik turib jon beradi" spektaklidagi Mourisyo obrazidir. Tohir Saidov ijrosidagi Mourisyo obrazi Gamletdan farqli ravishda, atrof-muhit ta'sirida muttahaimga aylangan, bobosining tarsakisi uchun uydan ketib qolgan noqobil merosxo'rdir.

Buvi va bobo farzandidan yolg'iz yodgor bo'lgani uchun yeru ko'kka ishonmay o'stirgan nabira to'qlikka sho'xlik qilib, tamoman izdan chiqqan. Bag'ritosh, hudbinga aylangan. Ulg'ayib, yomonlarga qo'shilib, o'z yo'lini yo'qotgan. Oqibatda hech kimga keraksiz bo'lib qolgan. Tohir Saidov Maurisyo rolida so'zlash ohangi ustida alohida ishlagan. Spektakl so'ngida Maurisyo o'zgalarga faqat yaxshilik qilinsagina yaxshilik qaytishini, ezgulik yo'lini tanlasagina o'zgalalar oldida xurmat e'tiborga sazovor bo'lishi mumkinligini tushunadi.

Aktyor o'ziga topshirilgan rol ustida ishlar ekan, personaj maqsadi, rol mazmuni, uning xarakterini chuqur o'rganadi. Sahnaviy xarakter yaratishning o'ziga xos tamoyillarini aniqlash uchun, o'zbek teatr san'atida dong'i ketgan aktyorlar ijrosidagi xarakter talqini o'rganish va ularni ilmiy tahlil qilish zarurat ekanligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Bu borada, M.Umarov shunday deydi "Sahnaviy xarakter yaratish: aktyorning yangi imkoniyatlarini ochadigan; ijodiy faoliyatida "portlash" sodir qiladigan; izlanishlarida keskin burilish yasaydigan; teatr san'atidagi eng yorqin voqelikdir" [3. B. 264.].

O'zbekiston davlat drama teatri aktrisasi Aziza Begmatova o'zining xarakterga boy rollari, mahorati bilan tomoshabinlar qalbidan o'rin oldi. Uning "Paranji sirlari" spektaklida yaratgan Guljon obrazi san'atkorni sahna san'atining to'riga ko'targan, desak mubolag'a bo'lmaydi. U ustamonlik bilan qiz-juvonlarni tuzoqqa tushiradi, lekin ba'zan o'z qilmishlaridan oz bo'lsa-da aziyat chekadi. Ba'zan bu qilmishlari o'ziga bog'liq emasligini ro'kach qilib, taskin topgan bo'ladi. Guljon, ko'z ostiga olgan juvon uyiga sadaqa so'rab kirib kelishi, tomoshabinda bir tilanchi-gadoy ekan-da, degan taassurotni uyg'otadi. Lekin, niqobini yechib asl holini namoyon qilganida tomoshabinlarga – qiz-juvonlarni aldash uchun faqir qiyofada kelgani oshkor bo'ladi. U aslida nihoyatda tadbirkor, hiyla-xiyonat bobida qilni qirq yoradigan, faqat og'u, qahr va

makr kabi manfur omillardan foydalanadigan firibgar ekanganligi spektakl davomida ma'lum bo'ladi. Uning Mastura satang bilan bo'lgan sahnasida xarakteri yaqqol ko'zga tashlanadi Aziza Begmatovaning "Paranji sirlari" spektaklidagi Guljon obrazi ijrosi va uning talqini xarakter va xarakterlilik uyg'unligidagi badiiy yaxlitlikka yorqin misol bo'la oladi.

"Xarakterlarning g'oyat mukammallashgan ko'rinishining, ya'ni, xarakterga xos xususiyatlarini butun to'laligi bilan aks ettiruvchi individuallashtirilgan shaxs obrazi deb ataladi. Xarakter yaratish oson ish emas, ayniqsa milliy xarakterlar yaratish o'ta mushkul masala" [4. B. 88.]. Aziza Begmatovaning uzoq yillik ijodi mobaynida yarq etib ko'zga ko'ringan obrazi "Checha" spektaklidagi Checha roli bo'ldi. Checha – kelinoyi, yanga, momo va shunga o'xshash bir qancha ma'nolarni anglatuvchi shevaga xos so'zdir. Yaqin qarindoshlik ma'nosini ifodalovchi bu so'zning zamirida olam-olam siru sinoatlar, hayotiy mashaqqatlar, zahmatlar va albatta alohida mas'uliyat yotadi. Aslida "Checha" dramasi A.Begmatova hayoti asosiga qurilgan. Tug'ruqxonada chaqaloqlarning almashinib qolishi keyinchalik fosh bo'lib, haqiqiy ota-onasining izlab kelishi, o'rtadagi Zohidovlar hamda Jumadulla xonadonidagilar o'rtasidagi mojaro tomoshabinida "endi nima bo'larkan?" degan savol tug'diradi.

Bunda bosh rol ijrochisi A.Begmatova Surxondaryo vohasiga xos bo'lgan udumlar, an'analar, urf-odatlar, va qadriyatlarni mohirona tarzda tomoshabinga yetkazib bergan. Spektakl qahramoni Checha obrazi orqali voha ayollarining – soddaligi, kamtarligi, kiyinish madaniyati, yurish-turishi, so'zlashdagi o'ziga xos jihatlarini ko'rishimiz mumkin. "Obraz va xarakter turli tushuncha. Xarakter mukammallashgan, turli xususiyatlari aniq ko'rinib turgan, individuallashtirilgan obrazdir. Har qanday obraz xarakter bo'la olmaydi. Ammo, har qanday xarakter obraz bo'la oladi" [4. B. 88.]. Shu jihatdan Aziza Begmatova ijro etgan Checha roli obraz darajasiga ko'tarilgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, unda milliylikka asoslangan xarakter va xarakterlilik uyg'unlashib, voha ayollarining o'ziga xos jihatlariga hurmat uyg'otadi.

Gulchehra Ibrohimbekovaning "Sen quyoshni uyg'otasan" spektaklidagi ijrosi tomoshabinlarda bu drama aktrisa uchun maxsus yozilgan degan tasavvurni hosil qiladi. Asar voqealari tomoshabinlarni kuchli hayajonga soladi, ba'zan kuldirib, ba'zan o'yga toldirib, asar so'ngida esa mushohadaga chorlaydi. Aktrisa "Uch kunlik dunyo" spektaklida – Ro'zvon aya rolini ichki portlash, haqqoniylik va chiroyli topilmalar bilan boyitgan holda talqin etadi va o'zbek ayollariga xos – andisha, ibo, hayo, or-nomus, erga itoat kabi o'ta nozik tuyg'ularni uddaburonlik bilan namoyish etadi. Talqin qilish qudratiga ega bo'lish uchun ijodkor o'z ijro uslubiga, mustaqil ijod qiladigan, personaj xarakterini anglab yetadigan, har bir qahramoni orqali yangi gap ayta oluvchi san'atkor darajasiga ko'tarilishi lozim. Shunday fazilatlariga ega aktrisa – yorqin sahnaviy xarakterlar yaratib, o'z mahorati orqali qahramonlar ichki tuyg'ularini ta'sirchan hamda ishonarli tarzda ifodalab, muxlislariga ega bo'lib kelmoqda. "Xarakter – inson maylida nimaningdir bo'rtibroq namoyon bo'lishi, nimanidir afzal deb bilishi yoki yoqtirmasligidir. Asardagi qahramon nimanidir ma'qullashi yoki yoqtirmasligi aniq ifodalanmasa, uning nutqida xarakteri gavdalanmaydi" [5. B. 160.], deydi M.Umarov.

Teatr san'atida obraz yaratish jarayoniga xarakter va xarakterlilik jihatlari uyg'unlashishi asos bo'lar ekan, bu alohida ilmiy masala sifatida qaralishi lozim. Chunki sahnaviy obrazning vazifasi ijtimoiy hayotni badiiy shaklda kelajak avlodga yetkazib berishdir. Buning uchun ijodiy jamoalar tomoshabinlar oldidagi ma'suliyatini his qilmog'i zarur. Chunki, bugun yaratilayotgan ijod namunalarining barchasi ham obraz darajasiga ko'tarilmayapti. Faqatgina xarakter va xarakterlilikni o'zida mujassamlashtirgan badiiy yaxlit spektakllar bugungi kun sinovidan o'tib, tarix sahifalarida qoladi. Chunki Stanislavskiyning "Xarakter va xarakterlilik" haqidagi tavsiyalari hamon aktyorlarning sahnaviy obraz yaratishida asos bo'lib kelmoqda. Rol xarakterini o'zlashtirgan aktyor, endi unga personajning – kostyumi, grimi, plastikasi, qadami, kasbiga oid ko'nikmalarini, so'zlashish jihatini, ya'ni gavdasida ifodalanadigan va tomoshabinga namoyon bo'ladigan jihatlarni qo'shsagina – jonli, o'ziga xos tipajga – obrazga aylanadi" [6. B. 224.].

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, zamonaviy o'zbek teatri sahnaviy xarakter yaratish jarayonida shtamlardan holi bo'lishi uchun, avvalo, dramaturgiyani chuqur anglashi, badiiy jihatdan yaxlit xarakterlilikka e'tibor berishi zarur. Aktyorlar esa takroriy xarakterlarda qotib qolmasdan, mudom yangilik kashf etish, "qolip"larni sindirishga intilishi lozim. Zero, bugun xarakter va xarakterlilik uyg'unligi teatr aktyori uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sulstad D. Norveg nasri – Ovro'pa modernizmi // Jahon adabiyoti. –T.: Ma'naviyat, 2010.
2. Azizov T. Mening rejissyorlik ishlarim. –T.: Akademyashr, 2010.
3. Umarov M., Yuldashev T. Rejissorlik va aktyorlik san'ati asoslari. – T.: Konsalt, 2016.
4. Xoliqulova G. Sahna asarlaridagi qahramon xarakterini talqin qilishda zamonaviy kommunikativ texnologiyalardan foydalanish uslubiyati. –T.: Fan va texnologiya, 2015.
5. Umarov M. Sahnaviy xarakter yaratish masalalari. –T.: Jahon adabiyoti, 2014.
6. Stanislavskiy K.S. Aktyorning o'z ustida ishlashi. T-3. – M.: Iskustvo, 1955.

## **O‘ZBEKISTON ZAMONAVIY BADIY TELEVIDENIYESIDA TELESERIALNING O‘RINI**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy davrda badiiy televideniyeining media landshaftida tutgan o‘rni hamda uning bugungi reytingini yaxshilashda teleserial formatining ahamiyati nazariy asosda tahlil etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** badiiy televideniye, dramaturgiya, rejissura, teleserial, texnika, veb-serial, xususiy telekanallar tarmog‘i, transformatsiya, mavzu, janr, internet platforma, reklama, tendensiya.*

***Аннотация:** В данной статье на теоретической основе анализируется роль арт-телевидения в медиаландшафте в современную эпоху и значение формата телесериала в повышении его текущего рейтинга.*

***Ключевые слова:** художественное телевидение, драматургия, режиссура, сериал, техника, веб-сериал, сет частных телеканалов, трансформация, тема, жанр, интернет-платформа, реклама, тренд.*

***Abstract.** In this article, the role of art television in the media landscape in the modern era and the importance of the TV series format in improving its current rating are analyzed on a theoretical basis.*

***Keywords:** feature television, dramaturgy, directing, TV series, technique, web series, private TV channel network, transformation, theme, genre, internet platform, advertisement, trend.*

O‘zbekistonning zamonaviy badiiy televideniyesida milliy teleseriallar yetakchi o‘rin tutmoqda. Bugungi kunda mamlakatimiz televideniyesida kechayotgan ijodiy jarayonlarni milliy teleseriallar orqali qisman tahlil qilish mumkin. Milliy teleseriallarning o‘rni, ahamiyati tobora kuchaymoqda. Hozirgi kunda yirik davlat telekanallari va nodavlat telekanallarda ko‘p sonli teleseriallar suratga olinib, namoyish qilinmoqda. Jahon miqyosida va o‘zaro (davlat telekanallari, xususiy telekanallar va veb-seriallar) kuchli raqobat maydoni yuzaga kelgan.

**Natijalar va munozara.** Teleseriallar jahonga xalq va mamlakat haqida umumiy tasavvur uyg‘otish kuchiga ega. Yuqorida ta’kidlanganidek, ko‘p sonli milliy teleseriallarning suratga olinish boshlagani Yangi O‘zbekiston davri televideniyesining eng muhim tendensiyalardan biridir. Jahon televizion serial sanoati tajribasidan kelib chiqqan holda son albatta sifatga ta’sir ko‘rsatishi kutilmoqda.

Bugunga qadar O‘zbekistonda teleseriallar yaratish borasida tajribalar o‘tkazildi va ko‘plab milliy seriallar suratga olindi. Bu televizion san’at formatini rivojlantirish va yangi bosqichga olib chiqish uchun bir qancha urinishlarni ko‘rish mumkin. Yosh avlodning e’tiborini milliy teleseriallarga qaratish, tomoshabinlarni jalb eta oladigan milliy mahsulotlar taqdim etish maqsadga muvofiq. Shu sababdan so‘nggi yillarda mil-

liy seriallar suratga olinishi uchun davlat rahbari Sh.Mirziyoyev tomonidan katta imkoniyatlar yaratila boshladi. Endilikda seriallar yaratish borasidagi tajribalarni oshirish, yangi yo‘nalishlar yaratish va ularning reytingini ko‘tarish maqsadida turli xil tajribalar olib borilmoqda.

Haqiqatan ham son oshishi albatta sifatga ta‘sir ko‘rsatishi jahon tajribasida ko‘p marta kuzatilgan. Masalan, Lotin Amerikasi davlatlari va Turkiya serial sanoatini misol qilib olinsa, katta masshtabdagi seriallar yaratish jarayoni turli-tuman format va janrlardagi seriallar soni oshib borishi hamda yuqori sifatli san‘at asarlari yaratilishiga sabab bo‘ldi. Oxir oqibat ular mediada muqim o‘ringa ega bo‘lib, butun dunyo uchun tushunarli bo‘lgan o‘ziga xos “audiovizual til” yaratishga muvassar bo‘ldi.

O‘zbek milliy teleseriallarini rivojlanish bosqichiga ko‘tarish maqsadida yangi seriallar uzluksiz ravishda suratga olindi. Shu jumladan “O‘zbektelefilm” ijodkorlari tomonidan birin-ketin turli mavzudagi “Dugonajonlar” (ssen. M.Hamroyeva, N.Azim, S.O‘ktam, rej. M.Hamroyeva, 20 qism, 35 daq., 2017), “Nazira” (ssen. F.Nizomov, J.Qosimov, rej. J.Qosimov, 6 qism, 44 daq., 2017), “Ezgulik hududi” (ssen. E.Hasanova, N.Eshonqul, rej. M.Erkinov, 10 qism, 35 daq., 2017), “Halovat ko‘chasi” (ssen. T.Malik, Z.Soliyeva, rej. J.Qosimov, 6 qism, 44 daq., 2017), “Yillar armoni” (ssen. Z. Begimqulova, rej. A.Ibrohimov, 20 qism, 38 daq., 2018), “Chegaradagi qishloq” (ssen. N.Eshonqul, M.Davlatilloh, rej. E.Mo‘minov, 30 qism, 39 daq., 2019) kabi seriallar tomoshabinlar hukmiga havola qilindi.

“MY5” (2014), “Milliy” (2016), “Sevimli” (2017), “Zo‘r TV” (2017) xususiy telekanallari o‘z faoliyatini boshlagach, 2017-yillardan boshlab teleseriallar suratga olish jarayonlari sezilarli darajada o‘sdı. Xususiy telekanallar buyurtmasiga binoan ko‘p sonli teleseriallarning suratga olinishining o‘ziga xos bir nechta sabablari mavjud:

Birinchiidan, xususiy telekanallar efir vaqtini o‘z original media mahsulotlari bilan to‘ldirishga urinishlari va ularning ichida eng samarali hamda ekran vaqtining katta qismini egallaydigani – bu teleserial formati ekanligi;

Ikkinchiidan, butun jahon va O‘zbekiston televideniyesida teletomoshabinlarning katta qismi hissasi aynan teleseriallarga to‘g‘ri kelishi;

Uchinchiidan, “TV Markaz” va “NTT” kanallari faoliyatini to‘xtatganidan keyin xususiy teleseriallarning kam sonli ishlab chiqarilganligi.

Xususiy telekanallar faoliyatining boshlanish davrida material yetishmovchiligidan yuqori reytingga ega bo‘lgan xorijiy teleseriallar bilan efir vaqtini to‘ldira boshladilar. 2016–2017-yillarda turk seriallari efirga qaytdı va tez fursatda telekanallar efir vaqtining katta qismini egalladi. Bu samarali usul tez orada teletomoshabin e‘tiborini yangi xususiy telekanallarga jalb etdi. Asosiy e‘tibor turk teleseriallariga qaratilib, ularning janr va mavzudagi xilma-xilligi, qiziqarliligi, dramaturgiya va rejissuraning pishiqligi, aktyorlar ijrosining yuqoriligi, leytmotivi bilan tomoshabin e‘tiborini jalb etgan “Ichkarida” (“Izerde”, ssen. T.Karaoglu, E.Kurtulan, rej. U.Bayraktar, 2016–2017), “Chuqur” (“Çukur”, ssen. G.Horzum, D.Serim, rej. S.O‘zturk, O‘.Sevimli, 2017-2021), “Gullar iztirobi” (“Güllerin Savaşı”, ssen. M.Gul, S.Yanik, rej. M.Girgin, E.Kabakushak, B.Erdjetin, 2014-2016), “Gulpari” (“Gülperi”, ssen. S.Ergenekon, D.Bogatur, D.Bolak, J.Go‘rgech, M.Gul, E.Janpolat, rej. J.Kardji, Sh.Sonmez, M.Balekoglu, Y.Alp Akay-

din, 2018), “Muhtasham yuz yil” (“Muhteşem Yüzyil”, ssen. M.Okay, Y.Shahin, rej. Y.Taylan, D.Taylan, M.Baykal, Y.Alp Akaydin, 2011–2014), “Ertugrul” (“Dirilis: Ertugrul”, ssen. M.Bozdog, A.Engin, A.Zeynep P.Bozdog, H.Aksu Engin, A.Emre Oduncu, M. Burak Dogu, A.Turgut, rej. M.Gunay, A.Ozkan, X.Arslan, 2014–2019), “Qora niyat” (“Yasak Elma”, ssen. M.Jivelek, Z.Gur, rej. N.Yeshilyurt, E. Erdek Kocholu, M.O‘zturk, 2018–2023), “So‘yla Qora dengiz” (“Sen Anlat Karadeniz”, ssen. E.Birgyoren, J.Gulech, S.Chalisir, rej. Y.Omer Sinav, V.Chelik, O.Sinav, E.Kabakushak, M.Onbul, 2018–2019), “Zuleyha” (“Bir Zamanlar Zukurova”, ssen. D.Chiray, S.Ersoz, A.Tunch, rej. E.Karabiyik Gunaydin, M.Sarachoglu, F.Teber, 2018–2022) kabi teleseriallar telekanallar reytingi ko‘tarilishiga xizmat qildi.

Davlat va xususi telekanallar o‘rtasida eng yuqori reytingli turk teleseriallari namoyishi borasida raqobat vujudga keldi. O‘zMTRKning “Kinoteatr” telekanalida “Jasur va Go‘zal”, “Filinta Mustafa”, “Zolim Istanbul”, “Pul va gul ishq” kabi turk teleseriallari taqdim etildi. Televideniya davlat kanallariga ham ta‘sir qildi. Bu esa tezlik bilan ko‘p sonli milliy teleseriallar yaratish va praym taym vaqtini milliy teleseriallar bilan to‘ldirish masalasini o‘rtaga qo‘ydi.

Shuni ham ta‘kidlab o‘tish lozimki, O‘zbekiston televideniyesi faqatgina yuqori reytingga ega bo‘lgan xorijiy teleseriallarni translyatsiya qilish bilan chegaralanib qolgani yo‘q. Zamonaviy davrda “O‘zbektelefilm” DUK tomonidan teleserial ishlab chiqarish jarayoni yanada jadallashdi. Birin-ketin “Zurriyot” (ssen. N.Nazrullayev, rej. E.Mo‘minov, 2016), “Halovat ko‘chasi” (ssen. T.Malik, Z.Soliyeva, rej. D.Mirxodiyev, 2017), “Ezgulik hududi” (ssen. E.Hasanova, N.Eshonqul, rej. M.Erkinov, 2017), “Tugun” (“Jinoyat ochilishi tayin”, ssen. S.Sirojiddinov, rej. A.Ibragimov, 2016), “Inson manzaralari” (ssen. R.Mamarizayev, F.To‘laganov, S.Sattorov, rej. M.Otajonov), “Zurriyot” (ssen. N.Nazrullayev, rej. E.Mo‘minov, 2016), “Meros yohud zurriyot 2” (ssen. N.Eshonqul, rej. E.Mo‘minov, 2018), “Yillar armoni” (“Sinovli yo‘llar”, ssen. Z.Begimqulova, rej. A.Ibrohimov, 2018), “Balog‘at pallasi” (2017), “Chegaradagi qishloq” (ssen. N.Eshonqul, M.Davlatilloh, rej. E.Mo‘minov, 2019), “Yosh oila” (ssen. N.Eshonqul, I.Shomurodov, M.Buronov, I.Hojimurodova, M.Muhammaddiyorova, rej. M.Mo‘minov, 2019), “Farishta” (ssen. M.Toshpo‘latov, N.Abbosxon, rej. X.Hasanov, 2019), “Izquvar” (ssen. J.Isroilov, B.Kushmonov, rej. A.Ibragimov, 2020), “Muhabbat liboslari” (ssen. N.Usanboyeva, S.Rajabova, rej. H.Abdullayev, 2019), “Malak” (rej. X.Hasanov, ssen. N.Usanboyeva, H.Ro‘zmatova, 2021), “Ustoz” (ssen. N.Eshonqul, M.Muhamadaminova, rej. E.Mo‘minov, 2021), “Daraxtlar qo‘shig‘i” (ssen. M.Hamroyeva, S.Murodova, rej. M.Hamroyeva, 2021), “Uch bahor” (ssen. M.Muhammaddiyorova, rej. M.Mamirov, 2021) “Dilozor” (ssen. M.Usmonova, rej. A.Mardonov, O.Ibragimov, 2022), “Jinoyat jazosiz qolmaydi” (ssen. N.Jumayeva, rej. A.Ibrohimov, 2021) teleseriallari mana shu davr mobaynida suratga olindi. Ushbu seriallarda milliy kolorit saqlangan bo‘lib, ssenariylar anchayin rivojlanganligini sezish mumkin.

Milliy teleseriallarning sekinlik bilan bo‘lsada rivojlanib borayotganini “O‘zbektelefilm” DUK tomonidan ishlab chiqarilgan teleseriallar xalqaro miqyosda yutuqlarga erishganidan bilish mumkin. O‘tgan yillar davomida “Saodat”, “O‘gay ona”, “Zurriyot”, “Dugonajonlar”, “Mehmonxona”, “Meros”, “Tugun”, “Farishta”, “Ezgulik hudu-

di”, “Yosh oila”, “Yillar armoni”, “Muhabbat liboslari”, “Chegaradagi qishloq” teleseriallar maxsus diplom va turli mukofot nominatsiyalarini olib kelgan. Xususan, milliy teleseriallar 2017-yil Koreya davlati Seul shahrida, Yaponiya davlati Tokio shahrida, 2018–2019-yillarda Xitoy Xalq Respublikasi Pekin shahrida bo‘lib o‘tgan kinofestivallarda ishtirok etdi. 2018-yil Qozog‘iston Respublikasi Olmaota shahrida, Xitoy Xalq Respublikasi Shinjon shahrida bo‘lib o‘tgan “Xalqaro teleserial va teledasturlar ko‘rgazmasi”da, Bolgariya davlatida bo‘lib o‘tgan “Slavyan ertagi” VII xalqaro kinotelefestivalida hamda Moldova davlati “TEFI – Hamdo‘stlik-2019” festivalida ham ishtirok etdi. Ushbu festivallarda “Saodat” teleseriali ijodkorlari eng yaxshi rejissyorlik ishi, eng yaxshi ssenariy muallifligi, eng yaxshi operatorlik ishi bo‘yicha taqdirlanishdi. Yuqorida sanab o‘tilgan festivallardagi ishtirok orqali qo‘shni davlatlar bilan ijodiy aloqalar tiklana boshladi. Masalan, “Saodat”, “O‘gay ona” teleseriallari Qozog‘istonning KTK kanali orqali efiirga uzatildi.

Shu o‘rinda Osiyo-Tinch okeani mintaqasi Bosh Assambleyasi AVU mukofoti-2020 tanlovining televideniya yo‘nalishi teleseriallar nominatsiyasi bo‘yicha “Chegaradagi qishloq” teleseriali final bosqichiga yo‘llanma olganini ham e‘tirof etish zarur. Milliy teleseriallarning salmog‘i oshib borishi va turli xalqaro festivallarda yutuqlarini qo‘lga kiritishi kelajakdagi erishiladigan ulkan natijalarning debochasi deb sanash mumkin. Bu davrda “Avtotest” (2017), “Nazira” (Art-Creator) (2017), “Ezgulik hududi” (2017), “Oppoq orzular” (2018), “Yuraklar jangi” Star Fox (2018), “Bir kami to‘lmagan dunyo” (2019), “Jurnalist” (2019), “Qadam” (2019) kabi teleseriallar ham tomoshabinlar e‘tiborini jalb etdi.

2019-yilga qadar faqatgina “O‘zbektelefilm” DUK teleserial formatida asarlar suratga olish vazifasini bajargan bo‘lsa, endilikda “O‘zbekkino” milliy agentligi turli tashkilotlar va xususiy studiyalar bilan hamkorlikda teleseriallar suratga olinishiga hissa qo‘sha boshladi. Xususan, “O‘zbekkino” milliy agentligi ko‘magida, Yoshlar ishlari agentligi, O‘zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, “MY5”, “Fan entertainment” hamkorlikda suratga olingan “Qodirxon” (g‘oya muallifi M.Nurmatov, ssenariy M.Ali, postanovkachi rej. N.Abdurasulxon, rej. M.Ali) milliy teleseriali birinchi serial ontologiya bo‘ldi. Ushbu teleserial 5 mavsumdan tashkil topgan bo‘lib, har bir mavsum quyidagicha nomlanadi: 1-mavsum “Qodirxon. Paradoks”, 2-mavsum “Qodirxon. Baxt shakli”, 3-mavsum “Abadiyat qonuni”, 4-mavsum “Sa-doqat”, 5-mavsum “Birinchi muhabbat”. “Qodirxon” shu vaqtgacha suratga olingan teleseriallar ichida xronometraji eng uzun asar bo‘ldi.

Xususiy telekanallar buyurtmasiga asosan suratga olinayotgan milliy seriallar mavzusi sayozlashib, voqealar oralig‘ining cho‘zilish ketishi, ortiqcha voqealar chiziqlar va qahramonlar qo‘shilishi kuzatilmoqda. Mavzu va syujetning o‘xshashligi, aktyorlar jamoasining bir xilligi teleseriallarni bir-biridan ajratishni qiyinlashtirib yuborayotgani milliy teleseriallarda orginallik yo‘qolayotganini anglatadi.

2020-yilga kelib o‘zbek milliy teleseriallari auditoriyasini kengaytirish maqsadida 2010-yilda qo‘llanilgan amaliyot qisman takrorlandi. Mass-media fondi raisi K.Al-lamjonov xususiy telekanallarni milliy seriallar buyurtmasini ko‘paytirishga chaqirdi. Teleseriallarning omma ongiga ta‘siri kuchli ekani e‘tirof etilib, milliy telekanallarda

xorij seriallarining hissasi ko‘pligi ideologik suverenitetimizni yo‘qotib qo‘yish” [3] xavfini vujudga keltirishi mumkinligi ta’kidlandi. Bu muammoning yechimi sifatida “Bir kam dunyo”, “Ko‘ngil ko‘chalari”, “Shaytanat”, “Domla”, “Charxpalak” kabi badiiyati pishiq ko‘plab milliy seriallar ishlab chiqarish va ularning sifatini sekin-asta oshirib borish masalalari muhokama qilindi.

Xulosa. Davlat buyurtmasi asosida suratga olingan teleseriallarda davlat bosh siyosati aks etgan g‘oyalar asosiy o‘rinda turadi. Xususiyl tarmoqlar tomonidan suratga olingan seriallarda jamiyatda tabu darajasiga yetgan mavzular ko‘tariladi, uzoq davrlar mobaynida yopiq eshiklar ortida qolgan g‘oyalar anchayin erkin tarzda ifoda etiladi. Davlat kanallarida suratga olinayotgan seriallarning soni tabiiyki, xususiyl tarmoqlarning mahsulotlaridan anchayin kam. Reklama masalasida xususiyl telekanallar va studiyalar davlat kanallaridan ilg‘or faoliyat olib boradilar. Xususiyl tarmoqlarda janr va mavzu jihatdan rang-baranglikka intilish davlat telekanallaridan ancha yuqori. Xususiyl kanallar 2017-yillardan beri yirik kompaniya va firmalar bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatgani uchun mablag‘ masalasida davlat telekanallaridan kamroq muammoga duch kelishmoqda. Aynan 2017-yillardan teleseriallarda homiylik masalasining yaxshilanishi va rivojlanishi shu yili bugungi kunda eng yuqori reytingga ega bo‘lgan xususiyl telekanallar MY5, Milliy, Sevimli va Zo‘r TV kanallarining ochilishi bilan bevosita bog‘liq.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Зайцева С. Жанр телевизионного сериала как культурный текст. дис. ... канд. филос. наук : 24.00.01 / – М., 2001. – 152 с.
2. Норманская А. Ценностные аспекты текстов современной массовой культуры: на материале массовой ЛИТЕРАТУРА и телевизионных сериалов. Автореф. дис. канд. культ. Симферополь, 2017. 36 с.
3. Allamjonov xorij seriallari ko‘payib ketgani haqida. <https://kun.uz/news/2020/10/28/bu-ketishda-ideologik-suverenitetimizni-yoqotib-qoyishimiz-hech-gap-emas-allamjonov-xorij-seriallari-kopayib-ketgani-haqida> 28.10.2020
4. <https://lex.uz/docs/-5374440>

## IQTIDORLI TALABA-YOSHLARNI ILMIY-IJODIY ISHLARGA YO'NALTIRISHDA AKTYORLIK SAN'ATI TA'LIMOTINING AHAMIYATI

**Annotatsiya.** *San'at arboblari talantni rivojlantirish borasidagi maktabning ahamiyatli ekanligini tan olganlar, buning uchun kurashganlar, aktyorlik san'ati ta'limoti va texnikasi ustida tinimsiz ishlaganlar. Maqola aktyorlarni maktab bo'yicha ishlash uslubiyatini yanada rivojlantirishda aktyorlik mahorati ta'limotidagi barcha unsurlarga ahamiyat berish zarurligi haqida.*

**Kalit so'zi:** *aktyor, rejissyor, kechinma, taqlid, san'at, rol, ijro, timsol, tomoshabin, aktyorlik mahorati, g'oya, ijodkor, xatti-harakat, janr.*

**Аннотация.** *Мастера искусства осознавали значение школы для развития таланта, боролись за него, неустанно работали над преподаванием и техникой актёрского мастерства. Эта статья о необходимости придания значения всем элементам обучения актерскому мастерству и в дальнейшем развитии метода работы в актерской школе.*

**Ключевое слово:** *актёр, режиссёр, переживание, представление, искусство, роль, исполнение, образ, зритель, мастерство актёра, идея, творес, действие, жанр.*

**Annotation.** *Masters of the art realized the importance of school for the development of talent, fought for it, and worked tirelessly on teaching and acting techniques. This article is about the need to give importance to all elements of acting training and to further develop the method of working in an acting school.*

**Keyword:** *actor, director, hero, excitement, imitation, art, role, spectator, conception, creator, acting skills, executive, image, action, genre.*

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limning bosh vazifasi – chuqur fundamental bilim va amaliy sharoitlarga yaxshi tayyorlangan ko'pqirrali mutaxassislarni shakllantirishdir. Shu munosabat bilan san'at va madaniyat institutining ham oliy maqsadi yurtimizga yosh, malakali, tajriba, bilim va ko'nikmaga ega kadrlar yetishtirib berishdan iborat. San'at va madaniyat sohasida shakllanadigan ijodkor mutaxassislar badiiy ijodning asosiy qonuniyatiga, ya'ni hayotni anglash va tasvirlashga amal qiladi. Chunki hayotni bilmay turib, ijod qilib bo'lmaydi. Hayotni anglash ikki tomonlama olib boriladi. Binobarin, anglash, avvalo, aniq fakt (dalil)larni his qilishdan boshlanadi. Bu bizning nigohimizga bog'liq, jonli xayollarimiz orqali ko'rinadi. Bu narsa kuzatuvlarimiz orqali boyib, ko'payib boradi. Bunda o'z bilimimiz kamlik qilsa, ustozlar tajribasidan, shuningdek har xil manbalardan: badiiy-tasviriy, tarixiy, hayotiy va h.k.dan foydalanamiz. Dalil (fakt)larni to'plash jarayoniga voqelikni ichki fikrlash, jarayonlarni tahlil qilish, tajribalarni umumlashtirish qo'shiladi. Ana shu ikkala jarayonning umumlashmasi orqali anglash omili ro'yobga chiqadi. Bu birlamchi bosqich bo'lsa, ikkinchi muhim

bosqich – aktyorlarning ijodiy fikrlash omilidir. Bu ikki bosqich orqali badiiy obrazning shakliy ifodasi paydo bo‘ladi. Demak u, ijodkorning ongida paydo bo‘ladi (fantaziya, tasavvur orqali), keyin esa uning ijodi mahsuliga aylanadi. Hayotni va hayotiy voqelik mohiyatini badiiy haqiqat mezonida ko‘rsatish, insonlar uchun va ularga hissiyot orqali ta’sir etish – haqiqiy san’at asarining vazifasidir. Ma’lumki, san’at katta mehnat, qobiliyat bilan mahoratning uyg‘unlashuvidan tug‘iladi. Mahorat esa, muayyan san’at va maktabi orqali yo‘g‘riladiki, u maktab bir necha davr tajribasi va an’alarining birikkan hosili bo‘ladi. Maktabimiz barcha davr san’at arboblarning dunyoqarashlari, ilmiy salohiyatlari orqali shakllanadi. Ular qobiliyat (talant)ni rivojlantirish bo‘yicha nazariy va amaliy ta’limotni ishlab chiqqanlar. Bu esa, o‘z navbatida, aktyorlik san’atining rivojlanishi va taraqqiyotiga, aktyorlik san’ati texnikasining qayta-qayta shakllanishiga olib keldi. Sohamiz vakillarining ijodi jamoaning yaxlitligi natijasida vujudga keladi. Asar, ssenariy ustida ishlaganda bir maqsad, bir uslub, bir metod, bir sistemada ishlanmasa, oliy maqsadga erishib bo‘lmaydi va yaxlitlikka putur yetadi. Ana shu sababli ham metodning birxilligi ijodiy guruhning ansambl yaratishining asosiy sharti bo‘lib, badiiy yaxlitlik garovidir. Talant – iqtidor barcha san’at turlarida muvaffaqiyatli ijod qilishning shartlaridan biri. Qachonki uning dunyoqarashi kengayib haqiqiy san’atga oshno bo‘lib, madaniyatga, ma’naviy boylikka erishsagina, qobiliyat o‘z imkoniyatlarini ko‘rsata oladi. Shuni tushunmoq joizki, dunyoqarash bilan san’atdagi ijodni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Badiiy haqiqatga yo‘g‘rilgan san’at g‘oyaviy yetuklik va mahorat uyg‘unligini talab qiladi. Malakali mahorat qimmatli g‘oyalar negizida tug‘iladi va rivojlanadi.

San’atda rol ijro etayotgan aktyor o‘zi aks ettirayotgan qahramonning ichki hissiy xotirasini avval o‘zida paydo qilishi, so‘ngra o‘sha qahramon qiyofasini namoyish etishi talab qilinadi. Oddiy inson qiyofasini gavdalantirishning o‘zi hali san’at emas, vaholanki qahramon g‘ayrioddiy vaziyatlarda, g‘ayrioddiy xatti-harakatlar o‘ylab topishi kerak. Ya’ni aktyor yumshoq plastik shaklda bo‘lishi kerak. Shunda xalq yuragi bilan birga urishi, to‘lqinlantirishi, ehtirolarni kuchaytirishi mumkin.

O‘zbek san’ati ravnaqida turli uslubdagi buyuk ijodkor arboblarning bu borada xizmati katta, ularning barisi buyuk iste’dod egalari. Ijodkor arboblarning o‘zbek san’atini shakliy va janriy yechimda rivojlantirib, umrboqiy asarlar yaratishga muvaffaq bo‘lganlar.

Zamonaviy aktyorlik mahorati fanida ikki uslub mavjud bo‘lib, bular: kechinma va taqlid san’atidir. Bu uslublar tarkib topgandan beri bahsli va munozarali bo‘lib kelgan. O‘zbek san’atida aktyorlik mahorati maktabini yaratgan buyuk darg‘alar fikricha, kechinma san’ati aktyori har bir rol ijrosi jarayonida voqelikni hissiy ravishda yurakdan kechiradi. Kechinma san’ati aktyordan obraz hayotida yashashni talab qiladi. Talaba ham qilayotgan ishida berilib, jon-jahdi bilan yashashni, his qilishni, o‘sha hissiyotida kechinmani egallashi kerak. Taqlidiy san’at aktyori rolni repetitsiya jarayonida yoki umuman rol ustida ishlash jarayonida e’tiborini tashqi qiyofaga qaratadi. So‘ngra xotirada qolgan tafsilotlarni mexanik ravishda takrorlaydi. Bunda u ish quroli sifatida faqat tanasidan foydalanadi. Uning qalbi ishtirok etmaydi. Oxir-oqibat obraz yaratishda asosiy omil yetishmaydi. Faraz qiling, aktyor ijodiy jarayonda aziyat chekyapti, pushay-

mon bo'lyapti. Buni qalban his qilmay, faqat ko'rinishda aks ettiradigan bo'lsa, unga tomoshabin ishonmaydi. U yurakdan his qilsa va hissiyotidagi ro'y bergan voqelikni yuzaga chiqarsagina aktyorning holati tushunarli bo'ladi. Albatta, aktyor har bir spektaklda o'ziga inson zarbasini rostakamiga bermaydi. U taqlid unsurlaridan foydalanadi. Demak, aktyorlik mahorati usullaridan o'z o'rnida foydalanish kerak. Shu bois aktyorlik mahoratining eng muhim elementi – xatti-harakat ekanligini e'tirof etish lozim. Aktyor keng fikrlay olishi kerak. Shundagina yaratgan obrazining atrof-muhitga munosabati aniq ifodalanadi. Munosabat orqali hayotdagi voqea hodisalarga o'zining odil, san'atkorona bahosini beradi. Shu bilan birga u zamondan bir qadam oldinga chiqib oladi va o'z tarafdorlarini ortidan ergashtiradi. Aktyorlarga ana shu g'oyani singdirish kerak. Bu jarayon ularni keng fikrlashga undaydi.

Aktyorlik mahorati ta'limoti ustozlar tomonidan asoslab berilgan. Ta'limot o'zbek san'ati tarixida katta o'zgarishlar yasadi. Bu ta'limot zamirida psixo-fizik (ruhiy-jismoniy) qonuniyatlar yotadi. Bu qonuniyatlarni o'zbek san'ati o'zida mujassamlashtiradi. San'atimiz asoschilari ana shu ta'limot asosida o'zbek san'atini shakllantirganlar. Shu bois bu ta'limotini sinchkovlik bilan o'rganish va undan oqilona foydalanish shart. Ana shundagina mantiqan to'g'ri mukammallikka erishish mumkin. Aks holda teskari natijaga erishiladi. Bu ta'limotning mohiyati– aktyor obraz yaratayotganda hayotni haqqoniy aks ettirishidadir. Ssenariy va asarlarining boshidan oxirigacha haqiqat mezonini asos bo'lib turishi kerak. Shu bois aktyorlar soxta haqiqat bilan hayotiy haqiqatni bir-biridan farqlay olishi shart.

Aktyordagi tarovat (joziba, iqtidor, yoqimtoylik) uning ikkiyoqlama o'tkir qurolidir. Aktyor undan foydalana bilishi shart. Aktyor o'zini timsol – obrazda sevmay, o'zida obrazni sevishi kerak. Ijodkor o'zini ko'rsatish uchun emas, yaratayotgan timsol – obrazini ocha bilishi maqsadga muvofiqdir. Shu bois aktyor mashg'ulotlarda o'zini bilimdon ko'rsatmay, qilayotgan ishining mohiyatini ocha bilishi va o'z tafakkuridan o'tkazib boshqalarga singdira olishi kerak.

Aktyor timsol yaratishdagi hissiyotini namoyon qilishda xarakterlilik – buyuk ishdir. Shunday qilib, aktyor hissiyotini namoyish qilishida o'zi xarakter topa bilishi kerak. Xaraktersiz rol umuman bo'lmaydi. Hissiyotni namoyon etish tamoyili asosida aktyor rolning berilgan sharoitiga o'zini qo'yadi. O'z imkoniyatidan kelib chiqqan holda rol ustida ishlaydi. Aktyorlik san'ati ta'limotining “o'zidan kelib chiqib” degan iborasining asl mohiyati obrazga kirib borishi uchun yaqin yo'l ekanligiga dalildir. Aktyor ijodida o'z ichki hissiyotini saqlab turishi shart. Uning “men”i doimo ishchi holatda bo'lishi shart. U har doim “bu – men” degan naqlni ushlab turmog'i, o'zining xatti-harakati, hissiyoti, fikri, gavdasi, ovozida unga berilgan obrazni yaratishi lozim. Ana shu qonuniyatdan kelib chiqib, obraz yaratishdagi hissiyotini amaliyotda qo'llashi kerak.

Aktyorning ta'lim-tarbiyasida qo'yidagi tamoyillar asosiy ta'limot hisoblanadi:

1. Hayotiylik tamoyili;
2. San'atda g'oyaviy fikrning “eng oliy maqsad” orqali amalga oshirilish tamoyili;
3. Aktyor maqsad sari intilish jarayonida sezgi va hissiyotlarni qo'zg'atuvchi yagona kuch xatti-harakat ekanligi to'g'risidagi tamoyil;
4. Aktyorning tabiiy tarzda paydo bo'ladigan ijod tamoyili;

5. Siymo qiyofasiga kirishish chogʻida aktyor oʻzligini yoʻqotmay, ijodiy yondashuv tamoyili.

Bu tamoyillar hozirgi zamon asarlarini yaratishda eng manzur va maqbul poydevordir.

Sanʼatning shakli va turlari xilma-xil va rang-barang. Mavzuning qandayligi, janri, uslubidan qatʼi nazar rang-baranglik sanʼat talablariga zid kelmaydi. U badiiy haqiqat asosida oʻzi aks ettirayotgan voqelik mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda ham barcha sanʼat asarlarini tahlil qilsak, ularning shakli, uslubi, janri har xil boʻlsa ham, faoliyat poydevorida, oʻzbek sanʼati maktabining asoschilari, ulugʻ sanʼatkor-ustozlarimiz taʼlimotlari tashkil etadi. Bu boradagi yangi izlanishlar, individual yondashuvlar, ijodiy talqinlar mazkur taʼlimotni yanada boyitadi va uning maqsadi, vazifasi uchun xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Mahmudov J. – Sanʼat fidoyilari. – Toshkent, 2011.
2. Mahmudov J. Aktyorlik mahorati. – Toshkent, 2012.

## **AKTYOR TARBIYASIDA PEDAGOGNING ROLI**

**Annotatsiya.** *Talaba va pedagog ikkovi bir xil maqsadni ko'zlayotganliklarini his qilishlari, o'zlarining ta'lim-tarbiyalari faqatgina pedagogning qo'lida emas, balki o'zlariga ham bog'liq ekanliklarini tushunishlari kerak. Maqsadning birligi hissi hech qachon pedagog va talaba orasida tafovutning yoki ishonchsizlikning kelib chiqishiga yo'l qo'ymaydi.*

**Kalit so'zlar:** *Aktyor, obraz, kino, estrada, kompozitsiya, sahna, voqelik, baxolash, kuylovchi aktyor, rejissyor, dirijyor, partitura, pedagog-rejissyor, nota, ritm, temp, dinamika, sahnaviy hatti-harakat, voqiylik, dramaturg, baletmeyster, pedagog, muallif, bastakor, repetitsiy.*

**Аннотация.** *Ученик и учитель должны чувствовать, что у них одна цель, понимать, что их воспитание находится не только в руках учителя, но и в них самих. Чувство единства цели никогда не позволит возникнуть разногласиям или недоверию между учителем и учеником.*

**Ключевые слова:** *актер, образ, фильм, эстрада, композиция, сцена, реальность, оценка, актер, режиссер, дирижер, партитура, педагог-постановщик, нота, ритм, темп, динамика, сценическое движение, драматург, балетмейстер, педагог, автор, композитор, репетиция.*

**Annotation.** *The student and the teacher need to feel that they have the same goal, that their education is not only in the hands of the teacher, but also in themselves. A sense of unity of purpose will never allow differences or mistrust to arise between teacher and student.*

**Keywords:** *actor, image, film, pop, composition, stage, reality, evaluation, director, conductor, score, teacher-director, note, rhythm, tempo, dynamics, stage movement, reality, playwright, choreographer, teacher, author, composer, rehearsal.*

Mamlakatimizda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim tizimida inchunkin san'at sohasida ham jiddiy o'zgarishlarni boshlab berdi. Jumladan, oliy ta'limni yanada rivojlantirish borasida bir qator keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Yangi ta'lim yo'nalishlari, turli kasb va fanlar rivojini ta'minlash maqsadida magistratura mutaxassisliklari joriy qilindi. Doimiy bandlikni saqlab qolish va xodimlarning malakasini oshirish uchun sirtqi va kechki ta'lim yo'nalishlari tiklandi, xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda bir qator ta'lim muassasalari tashkil topdi. Eng muhimi, o'quv rejalari tubdan yanglandi. Qolaversa, imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatdagi faolligini oshirish borasida ham ijobiy natijalar ko'zga tashlanmoqda.

Jumladan, "Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, shu jumladan, imkoniyati cheklangan shaxslarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, ular uchun infratuzilmaga oid sharoitlarni yaxshilash" zarurligini hayotning o'zi taqozo etmoqda.<sup>30</sup>

---

<sup>30</sup> O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni //Xalq so'zi.-2019. oktyabr.

“Biz bugungi kunda ta’lim – tarbiya sohasidan boshlab, matbuot, televideniye, internet va boshqa ommaviy axborot vositalari, teatr, kino, adabiyot, musiqa, rassomlik va haykaltaroshlik san’atigacha, bir so‘z bilan aytganda, insonning qalbi va tafakkuriga bevosita ta’sir o‘tkazadigan barcha sohalardagi faoliyatimizni xalqning ma’naviy ehtiyojlari, zamon talablari asosida yanada kuchaytirishimiz, yangi bosqichga ko‘tarishimiz zarur”, – deb ta’kidlagan edi birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov.<sup>31</sup>

Bugungi kun ta’lim sohasida faoliyat olib borayotgan pedagoglarning asosiy vazifasiga aylangan – yosh mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish, ularning ijodiy imkoniyatlari va iqtidorini yanada to‘laroq namoyon qilishlari uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratish, to‘laqonli ravishda respublikamiz badiiy oliygohlariga ham tegishlidir.

Bugungi teatr san’ati ta’limi jamiyatimizning ma’naviy, estetik, g‘oyaviy talablaridan orqada qolmasligi shart. Kelajakda sahna ustalari bo‘ladigan kuylovchi aktyorlarni tayyorlashga bo‘lgan talablar O‘zbekiston san’ati oldida turgan masalalar bilan mos ravishda olib borilmoqda.

Ijodiy mutaxassisliklarni egallayotgan yoshlarning ta’limini rivojlantirish va mukammallashtirish talablari O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti pedagoglari oldiga, talabalarning tayyorgarlik darajasini oshirish masalasini qo‘yadi. To‘laqonli ta’limga ega bo‘lgan, g‘oyaviy kamol topgan mutaxassislarni tayyorlash – davlatimiz tomonidan biz pedagoglarga qo‘yilgan asosiy talabdir.

Bu masalarga e’tibor bergan holda, pedagog va talaba orasidagi o‘zaro munosabat masalasiga to‘xtalib o‘tish lozim.

Kamol topgan yosh avlodni tarbiyalash uchun talabada javobgarlik va o‘z kuchlariga ishonch hislarini uyg‘otish shart. Buning uchun esa birinchi kundanoq o‘ziga nisbatan ustozining samimiy, diqqat-e’tiborli, ishonchga asoslangan munosabatini sezishi kerak. O‘z oldiga qo‘ygan ijodiy maqsadlariga pedagogining o‘ta ma’suliyat bilan yondashayotganini his qilishi lozim. Hurmat va ishonch – bu ustozlarimizdan bizgacha yetib kelgan teatr pedagogikasining asosiy tamoyillaridir.

Ijodiy ustaxonaga yangi g‘oya, topilmalar asosida biror-bir ijodiy ishni tayyorlab kelgan, ko‘zlari quvonch ila to‘la bo‘lgan talabaga, yuzida qo‘rquv va titroqni olib kiruschi pedagog dars bermasligi kerak.

O‘zaro hurmat va bir-biriga bo‘lgan ishonch hech qachon pedagog va talabani konflikt vaziyatga olib kelmaydi.

Bizning pedagogik amaliyotimizda bunday sodda tushunchalarning unutilishi, ularning prinsipial ahamiyatiga yetarli darajada baho bermaslikdan kelib chiqadi.

Ko‘pchilik vaqtda pedagog o‘z mavqeyini o‘rnatish uchun buyruqlardan, talabaga qo‘rquv hissini singdirishdan, uning erkini bo‘ysundirishdan boshlaydi. Bu orqali ba’zi bir natijalarga erishish mumkin: tashqi tartib, darsdagi sukut, vazifalarning aniq bajarilishi. Ammo eng asosiysi yo‘qotiladi – talaba mustaqil fikrlashni, ijodiy individuallikni yo‘qotadi. Uning rivojlanish darajasi o‘quvchilik va xo‘p deyishdan nariga o‘tmaydi.

Bizga esa o‘ziga ishongan, oyog‘ida mustahkam turgan, o‘zi mustaqil ravishda teatr san’atini rivojlantira va mukammallashtira oladigan mutaxassislar kerak. Yoshlar

<sup>31</sup> Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.

ta'lim olishga kelganlarida «hamma narsa qo'limdan keladi» deb o'ylashadi. O'ziga ishonch, kelajakka ishonch ularda barq urib turadi.

Agar ta'limning oxirida bu hislar sayozlashib, kelajakka bo'lgan ishonch esa «qulayroq ishga joylashish» hissi doirasida toraysa, bu pedagog va talaba orasidagi munosabatlarning noto'g'ri qurilganligidan dalolat beradi. Chunki talaba qo'ruvga, ustoziga orqa qilishga, «hech narsa qo'limdan kelmaydi» deb o'ylashga ko'nikma hosil qilgan. Undagi «hamma narsa qo'limdan keladi» hissi har qadamda sinib, chil-chil bo'lgan.

Agarda talaba birinchi qadamlaridanoq pedagog tomonidan o'ziga nisbatan, fikrlariga, ijodiy izlanishlariga bo'lgan hurmatni, o'ziga shaxs sifatida bo'lgan munosabatni sezsa, u holda u o'ziga, o'z kuchiga bo'lgan ishonchni yo'qotmaydi.

Pedagogik faoliyatimni endi boshlagan vaqtda yuz bergan bir voqea hech esimdan chiqmaydi va bu ustozlardan saboq bo'lgan. K.Rahmanov asari, A.Toremuratova musiqasi «O'lim jazosi» musiqali spektaklining bosh repetitsiyasi ketayotgan edi. Atabay rolini ijro etayotgan talaba asosiy ariyasining ijrosida qo'pol xatoga yo'l qo'ydi. U qilayotgan xatti-harakatlari ma'nosini, maqsadini yo'qotib qo'ydi. Bu hodisadan qattiq iztirobga tushgan dirijyor O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, professor G'.To'laganov edilar. Ustoz bosiqlik bilan shunday mohirona yo'l to'tdiki, u hayajonlanayotgan talabaga nafosat va katta pedagogik me'yor bilan murojaat etib, talabani tinchlantirdi. Talaba o'z xatosini tushunib, uni boshqa qaytarmadi. Spektakl muvaffaqiyatli topshirildi. Demak, bu yerda pedagogning sabrliligi, tajribasi va muomalasi qo'l keldi.

“Sahna xatti-harakati ma'noli, mantiqiy va ketma-ket bo'lishi kerak” degan edi K.S.Stanislavskiy. Shuning uchun ham pedagogning asosiy vazifasi – bu talabani to'g'ri maqsadga yo'naltirishdan iborat<sup>32</sup>.

Har birimiz o'z tajribamiz, pedagogik uslubimizni ko'rib chiqib, talabalar bilan etik munosabatlarimiz to'g'ri qurilganmi yoki yo'qmi hal qilishimiz kerak. Talaba va pedagog ikkovi bir xil maqsadni ko'zlayotganlarini talabalar tushinishlari kerak. Maqsadning birligi hissi hech qachon pedagog va talaba orasida tafovut yoki ishonchsizlikning kelib chiqishiga yo'l qo'ymaydi.

Agar pedagog talabani ma'lum bir maqsad bilan qiziqтира olsa, keyingi rivojlanish yo'lini belgilay olsa, kundalik olib borilayotgan ishlarni kelajak yutuqlari bilan bog'lay olsa, albatta ijodiy ishonchga erishish mumkin.

Bundan tashqari, talabalarining bir-biriga bo'lgan etik munosabatlari ham tarbiyaviy jarayonning muhim tomonlaridan biridir. Agar javobgarlik hissi, har bir rolni va spektaklni chuqur bilish kurs hayotining mazmuniga aylansa, ular repetitsiyaga kech qolish yoki umuman kelmaslikka yo'l qo'ymaydilar. Chunki spektaklni sahnalashtirish kollektiv jarayon bo'lib, biron-bir talabaning kech qolishi kursning ma'naviy qiyofasiga ta'sir etadi.

Alohida pedagogning talabalarga bo'lgan munosabatlariga ham to'xtalib o'tish kerak. Bu munosabat qanday bo'ladi? Hamma talabaga bir xil, bir tekis munosabatmi, talaba shogirdlari orasida ustozning “yoqimtoyi” (lyubimchik) yo'qmi? Bir qarashda ustoz talabani yaxshi ko'rishi kerak deyish mumkin. Menimcha, pedagogning befarqligini shogird ajratish deb tushunish mumkin. Pedagogikada esa bunday hisning bo'lishi

<sup>32</sup> Stanislavskiy K.S. Tanlangan asarlar. 2-jild. –Moskva, 1954.

mumkin emas. Bunday befarqlik talaba bilan ustoz o'rtasidagi o'zaro ishonchga to'sqinlik qiladi. Talabalar o'z ustozlarining otashin qalb egasi ekanligiga, hamma bilimlarini teng, kuchini, hayotini yoshlarni tarbiyalash uchun bag'ishlashiga ishonmaydilar. Ishonishmaydimi, demak, tushunishmaydi ham.

Agar talabalar ustozning mehri, ularning ish faoliyatlari sifatiga, his qilayotgan javobgarlik hissiyotlariga, o'zlarini qanday tutishlariga qarab taqsimlanishini sezishsa, bu mehrni qozonish uchun harakat qilishadi.

Hurmat, ishonch, talabchanlik yuqori samaradorlikni beradi, agar pedagog va talabalar orasidagi munosabatlar ochiqlikka va to'g'riso'zlikka asoslansa. Ko'pincha biz iqtidorli talabaning ishini maqtashdan qo'rqamiz (o'ziga yuqori baho berib yubormasin deb) va yomon bahoni talabani xafa qilib qo'yamalik uchun yumshoqroq ko'rsatamiz. Ikkala holda ham bu yomon natijalarga olib keladi. Ba'zi bir alohida talabaga nisbatan "pedagogik usul"ni qo'llashimiz natijasida qolgan talabalarning ishonchini yo'qotamiz. Bunday holat talabalarning pedagogning kelajakdagi gap-so'zi va baholarining obyektivligiga bo'lgan ishonchni yo'qotadi. Misol tariqasida quyidagi holatni keltirish mumkin: talabalarning ijodiy ishlari to'g'risidagi kafedra yakunlarini o'qib bera turib, yomon baholangan talabalar to'g'risidagi fikrlarni biroz yumshatib, yaxshi baholangan talabalar to'g'risidagi kafedraning fikrlarini biroz kamaytirib aytdim. Bu menga to'g'ridek tuyuldi. Ammo bir necha kundan keyin talabalar asl baho va fikrlarni eshitishdi. Talabalar ishonchiga qaytadan erishish uchun menga juda ko'p vaqt va kuch sarflashga to'g'ri keldi.

Pedagogik usullar to'g'riso'zlikka, ochiqlikka, bir-biriga hurmatga, tanqidga to'g'ri yondashishga asoslangan bo'lishi kerak.

Aktyorning butun ijodiy hayoti uning ishlarini tanqidchilar tomonidan baholanishiga bog'liqdir. Aktyor talabalik yillaridanoq faqat o'zinigina emas, balki butun spektaklning tanqidini ham to'g'ri qabul qilishga o'rganishi kerak. Shuning uchun talabalar tayyorlagan birinchi ijodiy ishlarining namoyishidanoq tanqid va o'z-o'zini tanqid qilishni to'g'ri qabul qilishlari kerak. O'rtoqlarining tanqidini to'g'ri tushunishni o'rganishlari kerak. Garchi bu tanqid achchiq haqiqat bo'lsa ham. Tanqiddan o'ziga kerakli asosiy fikrlarni ajratib olishni va tanqidga har xil so'zlar bilan emas, balki o'z ijodiy ishlari bilan javob qaytarishga o'rganishlari kerak.

Teatr amaliyotida qo'llaniladigan o'rganilgan mashqlar, etyudlar, repetitsiyalarni qaytadan tahlil qilish – talabalar tomonidan tanqidiy analizni egallashlari uchun to'g'ri yo'ldir. Talabalarni faqat birovlarini emas, o'z-o'zini tanqid qilishga ham o'rgatish kerak. O'z ijodiy ishini tahlil qilib, kamchilik va yutuqlarni analiz qilishga, ishni davom ettirish uchun to'g'ri yo'lni belgilashga o'rgatish kerak. Pedagogning kuzatuv ostida talabaning o'z-o'zini tanqid qilishi – ichki va tashqi texnikasini mukammallashtirishga, o'z ustida ishlashga, qattiq mehnat yordamida kamchiliklarini bartaraf etishga olib keladi.

Bizning yelkamizga yuklangan vazifa juda murakkabdir. Biz inson bilan ishlaymiz. Insonda ijodiy va insoniy fazilatlar – yutuqlarga katta e'tibor va kamchiliklar bilan kurashish yordamida tarbiyalanishi kerak. Shuning uchun ham pedagog talabaning faqatgina xatti-harakati va ijodiyotinigina emas, balki butun hayotini ham nazorat osti-

ga oladi. Darslar sog‘lom, tinch, xushfe‘llik vaziyatlarida o‘tilishi kerak. Ammo yaratilgan bunday vaziyatlar talabalarda mehnatga yengil yondashish, o‘z imkoniyatlarini yuqori baholab yuborishiga olib kelmasligi kerak. Pedagogning sezgirligi va mohirligi natijasida talabaning oliygohdagi birinchi kunlaridan boshlab, unga nafaqat o‘quv yillarida, balki kelajakdagi ijodiy hayotida katta javobgarlik hissi singdirilsa, bunday vaziyat yuzaga kelmaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma‘naviyat, 2008.
2. Stanislavskiy K.S. Tanlangan asarlar. 2-jild. – Moskva, 1954.
3. Станиславский К.С., Немирович-Данченко Вл. Об искусстве актёра-певца. – М.: Искусство, 1973.

## MONTAJ – BADIY VOSITA SIFATIDA

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada montajning qonun-qoidalari, ekran san'atida badiiylik, film ritmini yaratishdagi ahamiyati to'g'risida fikr yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** g'oya, kino, televideniye, syomka, kadr, montaj, ritm, yaxlit film.*

***Annotation:** this article discusses the rules of montage, artistry in screen art, and its importance in creating film rhythm.*

***Keywords:** idea, film, television, shooting, episode, editing, rhythm, the whole film.*

***Аннотация.** В статье рассматриваются правила монтажа, художественность экранного искусства и его значение в создании ритма фильма.*

***Ключевые слова:** идея, фильм, телевидение, съёмка, кадр, монтаж, ритм, весь фильм.*

Zamonaviy tomoshabin juda yaxshi biladiki, film uch marta yaraladi. Dastlab film g'oyasi o'ylab topiladi va qog'ozga ssenariy yoki ssenariy rejasi shaklida yoziladi. Ikkinchi marta film tasvirga olish maydonida qayta yaraladi. Uchinchi marta montaj stolidan dunyo yuzini ko'radi. Muallifning g'oyasi hamma bosqichlardan o'tib, sayqallanib, montaj jarayonida yakunlanadi. [1.153.]

Inson xayoloti juda boy. Mullifning xayolidagi g'oyani ekranga olib chiqish uchun bir necha bosqichlardan o'tadi. Barcha bosqichlarda montajni rejalashtirgan holda ish yuritish zarur. Ssenariy yozish jarayonida film qanday tasvirga olinishi, montajda g'oyani amalga oshirish imkoni mavjudligini e'tiborga olish juda muhim. Tasvirga olish jarayonida esa rejissyor va tasvirchi montaj qonun-qoidalarini yaxshi bilgan holda ish tutishi zarur. Mashhur san'atshunos Pol Rota "Montaj montaj qilayotgan xonaning devorlari bilan cheklanmaydi. U kino yaralishining barcha bosqichlarida bo'lishi kerak: ssenariyda, tasvirchi ishida, suratga olinayotgan materialning talqinida, tasvir va tovush uyg'unligida aniq shaklda ishtirok etishi shart" deb yozgan edi." [2.58.] Ta'kidlanganidek, g'oya paydo bo'lishi borabbarida montaj jarayoni xususida muayyan tasavvurlar tug'ilishi kerak. Tasvirga olish jarayonida esa, tasvirga olish nuqtasi, kinokamera rakursi, kadr planlari, yorug'lik, rang o'zgarishlarini inobatga olgan holda film montajini rejalashtirish zarur bo'ladi. Aks holda shuncha qilgan mehnatingiz, sarflagan mablag'ingiz havoga sovrilishi mumkin. Avval boshdan montaji rejalashtirilmagan film muvaffaqiyatli chiqishi amrimahol.

Ekran san'atida u badiiy filmmi, teleko'rsatuv yoki reklama roliklari bo'ladimi, ko'zlangan maqsadga erishish uchun detal, yirik, o'rta, o'rta 2, umumiy va uzoq planlardan umumli foydalangan holda, tasvirga olish kerak. Tasvirga olishda oldindan rejalashtirgan, kamerani to'g'ri tasvirga olish nuqtasiga o'rnatgan va rakursni aniq topib syomka qilgan tasvirchigina, ma'no-mazmunli kadrlarni suratga oladi. Harakatli tasvirlarni tabiiy va ifodali tarzda syomka qilishi kerak. Bu montajning tushunarli, so'z bo'layotgan voqealar qiziqarli va badiiy jihatdan boyitishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Mahoratli tasvirchilarning kadrlarini montajda, faqat bir-biri bilan birlashtib qo'yib ham mazmunli asarlar yaratish mumkin. Taniqli rejissyor L. Kuleshov "montajli tasvirga olishni o'rganing!" degan". [3.103]

Montaj ekran san'atining asosiy tasviriy, badiiy ifoda vositalaridan biri sanaladi. Ayniqsa, fantastik janrdagi filmda xayoliy olamni, o'zgacha ko'rinishlar va nodatiy tabiat-u jonzotlarni yaratishda montajning qonun-qoidalari va zamonaviy kino hamda video texnologiyalar imkoniyatlaridan xabardor bo'lish kerak. Bir qarashda montaj alohida kadrlarni birlashtirish jarayonidek tuyulishi mumkin. Bu dastlabki, hatto noo'rin tasavvur. Montaj jarayoni tasviriy va badiiy xususiyatlarga ega bo'lib, badiiy obraz va film ritmini yaratishda yetakchi o'rin tutadi.

Montaj tufayli badiiy shakl, tasviriy vosita va ovoz birlashib, tomoshabinbop vizual asar yaratiladi. Montaj filmda bo'layotgan voqealarni bir-biriga bog'laydi va voqealar rivojini ta'minlaydi. Kadrlarning mantiqiy va uzviy tartibini ta'minlab, syujet ta'sirchanligini oshiradi, harakat va teporitm rivojlanishiga hissa qo'shadi. "Montaj qilish rejissyorning suratga olingan materialga munosabatini ko'rsatadi, tomoshabinga esa voqeani yaxshiroq anglash, mushohada etishga yordam beradi". [4.28.]

Montajning asosiy vazifasi tasvir va ovozning barcha tarkibiy qismlarini birlashtirishdir. Montaj voqea, kadr va planlarning ketma-ketligi, yorug'lik, rang, harakat, nigoh, ovoz, musiqa, shovqin va epizodlarni bir-biri bilan bog'lab, vizual vositalarni boyitib, tomoshabin diqqatini asosiy nuqtaga qaratib, film g'oyasi va qahramon tuyg'ulari orqali estetik va emotsional his-tuyg'ular taqdim etadi. Muallifning g'oyasini, aniq ko'rinadigan badiiy tasvirlarni zamon va makon, vizual vositalar, kadr, epizod va filmning plastik yechimlari ekranda ishonarli tasviriy illyuziyasini yaratib, tomoshabinga havola qilinadi.

Tasvirning plastik yechimi ko'plab qismlardan tashkil topgan: to'g'ri tanlangan tasvirga olish nuqtasi va planlar, puxta o'ylab topilgan yorug'lik, rang yechimi va mukammal kompozitsiya. Bundan tashqari, ushbu badiiy vositalar jamlanib yagona uslubni hosil qiladi hamda film ritmi va qahramonning ruhiy holatini yaratadi. Montaj – bu film, teleko'rsatuv yoki multimedia dasturlarining yakuniy bosqichidir. Agar-da tayyorgarlik va tasvirga olish davrida montajni rejalashtirib tasvirga olinsa, kadr va ovozlarni birlashtirish natijasida badiiy yetuk ekran asari yaratiladi. "O'z g'oyasini aniq ko'ra bilgan, keyin tasvirga olish guruhi bilan ishlay boshlagan, natijada aniq maqsadga erishganlarni kino rejissyor deb atash mumkin", deydi yigirmanchi asrning taniqli rejissyorlaridan biri A. Tarkovskiy". [5.13]

Montajning ketma-ket, parallel va assotsiativ turlari mavjud. *Ketma-ket montaj* deyilganda voqealarning bir-biriga uzviy bog'lanishi tushuniladi. Natijada, voqea va film g'oyasi tomoshabinga tushunarli bo'ladi. *Parallel montaj* turli joydagi va har xil vaqtda sodir bo'lgan voqealarning bir vaqtda ko'rsatilishini nazarda tutadi. Bu montajning sodir bo'layotgan voqealarni taqqoslash imkoni voqealar rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Assotsiativ montaj turli xil vizual obrazlarni birin-ketin joylashtirib, ularni qiyoslashga xizmat qiladi. Bu muallifning o'xshatishi, qahramonni taqqoslash orqali yangi ma'no yaratish va ekranda ko'rsatib bo'lmaydigan narsalarni ko'rsatish uslubidir. Unda sodir bo'layotgan voqeaga o'xshash vaziyat taqqoslanadi. Misol uchun, janjal qilayotgan odam, keyin kadrda hurayotgan itning tasviri bilan solishtirilishi mumkin. Bu ek-

randa qahramonning ichki kechinmalarini kuchaytirib, voqeaga mos holatni ko'rsatib beradi. Tomoshabinga qisqa tasvirlar orqali osongina yetkaziladi.

Bundan tashqari, montajning amal qilish kerak bo'lgan tamoyillari mavjud. Ular: Ekran san'ati harakat bilan jonlanadi va tabiiy ko'rsatadi. Kameraning yoki qahramonning harakati film g'oyasi va mizansahna maqsadini ochib berishi kerak. Maqsadsiz harakat bema'nilikdir. Harakat filmni suratga olishning har onida uchraydi. To'g'ri qilingan harakat, maqsadga yetishning qisqa yo'lidir. Montaj jarayonida ham to'g'ri qilingan harakat filmning ma'no-mazmunini boyitib, tomoshabinga tushunarli va qiziqarli bo'lishiga xizmat qiladi. Harakatning uch turi mavjud: to'g'ri tasvirga olish nuqtasiga harakat, aksning harakati va ichki harakat.

Tasvirga olish nuqtasini to'g'ri tanlash juda muhim. Rejissyor va tasvirchi tomoshabinga nafaqat sahnada nima bo'layotganini ko'rsatadi, balki qahramon o'ng yoki chap tomonda joylashishi ham aniq ko'rinishi lozim. Tasvirga olish nuqtasi noto'g'ri tanlansa, qahramonning qaysi tarafda turgani, voqea qayerda bo'layotgani va makon tushunarsiz bo'lib qoladi. Tomoshabinni chalg'itib, filmga badiiy jihatdan putur yetadi.

Aktyorlarni muloqot paytida tasvirga olish jarayonida 360° dan 180° ni tanlash kerak. 360°, ya'ni hamma tomondan syomka qilinsa, aktyorlarning qaysi biri qayerda turgani noma'lum bo'lib qoladi. 180° tanlansa ekranda o'ng tomondagisi o'ngda, chap tomondagisi chapda bo'ladi. Tasvirchi 360° ning o'ng yoki chap tarafini tanlashi, xayolan ikki qismga bo'lishi kerak, shundan bir tomonini tasvirga olish uchun tanlashi shart. Faqat o'z tanlagan tomonida syomka qilishi kerak, ikkinchi tomoniga o'tishi mumkin emas. Shundagina ekranda har kim o'z o'rnida ko'rinadi. Ekran ijodkorlari bu uslubni "muloqot chizig'i" (ось общения) deb nomlashgan. Tabiiyki, harakatli kadrlarda bu qoida buziladi. Kamera harakatida "muloqot chizig'i" kesib o'tiladi. Buni ko'rib turgan tomoshabin uchun bu tushunarli holat. Bu uslubni ekran ijodkorlari "vosmyorka" deb nomlashadi. Bundan tashqari, qahramonlarning ko'z nigohiga ham jiddiy e'tibor qaratish kerak. Bu jihatga e'tibor qilmasangiz, montaj jarayonida qahramon bir kadrda o'ngga, ikkinchi kadrda chapga qarab qoladi. Oqibatda qahramonimizning nimaga va qayerga qarayotgani tushunarsiz bo'ladi. Sport musobaqalarida ham xuddi shu qoidalarni qo'llashimiz kerak. Aks holda biznikilar qayerda-yu, raqib qayerda tushunib bo'lmay qoladi. Tasvirga olish jarayonida bu qoidalarni hamisha yodda tutish shart.

Tonal montaj alohida kadrlarning yorug'lik tonalligi bo'yicha, yorug'likdan qorong'ulikkacha kamaytirish yoki aksincha, oshirish tamoyiliga asoslanadi. Har bir bo'layotgan voqeada bir xil yorug'lik tonini saqlash maqsadga muvofiq. Tonal montaj his-tuyg'uga asoslangan bo'lib, yuqori kayfiyat yoki ma'yus muhitni yaratadi.

Intellektual montaj – bu aqliy intellektual "topishmoq" bo'lib, uning yechimi ma'naviyatli va zukko tomoshabinlarga zavq bag'ishlaydi. Mantiq, sezgi, aql va bilim ko'pchilik hollarda badiiy kashfiyotlarga olib keladi. Montaj nafaqat kadrlarni birlashtirish, balki birinchi va ikkinchi kadrlarni ko'rsatib, uchinchi kadrni ko'rsatmasdan ham ma'no paydo qilib, maqsadga erishish mumkin bo'lgan amaliyot.

Ko'p qatlamli tasvirlar montaji deyilganda kompyuter dasturlari yordamida bir nechta tasvirlarni kompozitsion ravishda joylashtirib, yaxlit kadr hosil qilinishi anglashiladi. Tasvirga olish jarayonida tasvirchi bu montaj yordamida bir nechta kadrlarni birlashtirishni nazarda tutadi.

Bugungi kunda ekran ijodkorlari klassik uslubda – alohida kadrlarni birashtirib va kadr ichidagi montajdan (внутрикадровый) unumli foydalangan holda ijod qilmoqdalar.

Kadr ichidagi montaj – bu kameraning uzoq vaqt harakati davomida kadrning statikasi va harakati, aktyorning turli xil holatlarini detal, yirik, o‘rta va umumiy planlarda tasvirga olish jarayonidir. Suratga olish paytida bir kadrning o‘zida sodir bo‘layotgan voqea mazmuniga mos ravishda jarayon va harakatlar bir-biriga bog‘lanadi. Bunda filmning mazmuni rivojlanib, kadr ichidagi plan va tasvirlar doimiy o‘zgarib turadi. Har bir epizod murakkab kadr ichidagi mizansahna bilan to‘ldirilib, yaxlit fikrga aylantiriladi. Tasvirchi tasvirga olish nuqtasini o‘zgartirib, oldindan rejalashtirilgan holda harakatlanadi, navbatma-navbat aktyorlar, manzara yoki detallarni tasvirga oladi. Kadr ichidagi montaj murakkab badiiy jarayondir, bunda vaqtni va joyini aniq belgilash orqali samaradorlikka erishish mumkin. Ushbu montaj turida har bir kadr katta tayyorgarlik talab qiladi, puxta mashqlar va ijodiy guruhning yaxlit harakati muhim o‘rin tutadi. Kadr ichidagi montaj rejissyor, aktyor va operatorning yuksak mahoratini ko‘rsatadi. Kadr ichidagi montaj – dinamik kompozitsiyaning ajoyib namunasidir. Unda tasvirchi film g‘oyasi va voqeani to‘liq xis qilib harakat qilishi shart. Tasvirchi syomka jarayonida o‘zi va qahramoni harakatni qayerda va qanday boshlab, qanday yakunlashini aniq bilishi lozim. Shundagina kadr ichidagi montajni amalga oshira oladi.

Montaj bir necha yuzlab va minglab kadrlar yig‘indisidan iborat. Kadrlarni tanlab va ma’lum qoidalarga muvofiq bir-biriga bog‘lagan taqdirdagina yaxlit filmga aylanadi. Asosiy e’tibor kadrlarning ketma-ketligi, planlarning bir-biriga mosligi, kadrda kadrda o‘tishi silliq kechishi kerak. Bu film badiiy sifatini oshirib, tomoshabin yaxlit asar g‘oyasi, qahramonlar tuyg‘ularini his qilishi va estetik zavq olishini ta’minlaydi. Shuni ta’kidlash kerakki, filmning ma’no va mazmuniga ko‘ra, kadrlar ketma-ketligi psixologik jihatdan o‘zini oqlashi lozim. Kadrlar ketma-ketligi mantiqan o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lishi zarur. Har bir kadr o‘zidan oldingi kadrda boshlanadi yoki yangi syujetni boshlaydi.

*Tasvirga olish yo‘nalishi bo‘yicha.* Tomoshabin voqea qayerda va qaysi makonda bo‘layotganini yo‘qotib qo‘ymasligi kerak. Ekrandagi qahramon har doim aniq makonda bo‘lishi kerak. Fondagi kichik bir detal ham tomoshabinga kim qaysi tomonda turganini anglashga katta yordam beradi.

*Planlarning hajmi bo‘yicha.* Planlarning o‘zgarishi bir-biridan farq qilishi kerak, kadrda kadrda o‘tish silliq va farqli bo‘lishi lozim. Kadrlarning almashinishi yengil va kamera joyi o‘zgargani kabi qabul qilinishi kerak. Bundan tashqari, kadr o‘zgarishida uchdan bir qismiga yaqinlashish yoki uzoqlashish muhim bo‘ladiki, shunda kadr silliq o‘tadi, sakrash va chalg‘ishlar bo‘lmaydi.

*Harakat yo‘nalishi bo‘yicha.* Agar birinchi kadrda odam chapdan o‘ngga harakat qilayotgan bo‘lsa, keyingi kadrda ham chapdan o‘ngga harakatni davom ettirib, bir xil yo‘nalishda bo‘lishi kerak. Xuddi o‘ng qo‘limizning bosh barmog‘i har doim o‘ngda, chap qo‘limizning bosh barmog‘i hamma vaqt chapda bo‘lgani kabi. Bu qoidani tasvirga olish jarayonida esda tutish juda muhim.

*Insonning nigohi bo‘yicha montaj.* Suhbatlashayotgan ikki kishi bir-biriga qaragan bo‘lishi kerak. Hatto turli joylarda telefon orqali gaplashayotgan odamlar ham

bir-biriga qarashi kerak. Aks holda kadrda tashqaridagi boshqa birov bilan gaplashayotganday taassurot uygʻotadi.

*Obektlarning harakat fazasi boʻyicha.* Barcha uzluksiz harakat bilan ketma-ket suratga olinadigan kadrlar davriy fazasiga amal qilib tasvirga olinadi va harakat davomiyligi tasavvuri hosil qilinadi. Masalan, suv ichishga qoʻlini uzatayotgan inson tasvirida keyingi kadr ham qoʻl harakati kelgan joyidan davom etishi kerak. Xuddi hayotdagi kabi harakat uzviyligi boʻlishi zarur. Shundagina kadrlar bir-biriga qoʻshilganida silliq va mukammal oʻtadi.

*Harakat tezligiga koʻra.* Aktyor barcha kadrlarda bir xil tezlikda yurishi, kamera harakati hamma vaqt bir xil tempni saqlashi zarur. Panoramali tasvirga olinsa, harakatning bir xil tempda tutib turish juda muhim.

*Yorugʻlik boʻyicha montaj.* Ushbu qoidada yorugʻlik turi, uslubi va yorugʻlik tushish burchaklari bir xil boʻlishi kerak. Bunda aktyor va uning fonini yoritilishiga eʼtibor qaratish kerak. Agar aktyor umumiy planda oʻng tomondan yoritilgan boʻlsa, yirik planda ham oʻng tomondan yoritilishi kerak. Bir kadr quyoshli kunda, ikkinchisi bulutli ob-havoda tasvirga olingan boʻlsa, montaj jarayonida bir-biriga toʻgʻri kelmaydi. Montaj sifati kamayadi, badiiylikka putur yetadi. Kadrda ikki xil yoritish tomoshabinni chalgʻitib, voqea qaysi paytda boʻlayotgani nomaʼlum boʻlib qoladi.

*Rang va ton boʻyicha montaj.* Film davomida rangning toʻyinganligi darajasi va ton bir xil boʻlishi kerak. Shundagina kadrlar bir-biriga mos keladi. Misol uchun, qahramon birinchi kadrda boshqa rangdagi fonda, keyingi kadrda boshqa rangda tasvirga olinsa, yoki rangning toʻyinganligi har xil boʻlsa, tomoshabinning eʼtiborini chalgʻitib, voqea qayerda va nima boʻlayotgani tushunarsiz boʻlib qoladi.

*Kadr kompozitsiyasi boʻyicha montaj.* Bundan maqsad tomoshabin diqqatini ekranning maʼlum qismiga qaratish va shu joyda tutib turishdan iborat. Unda chiziqlar, shakllar, yorugʻlik va ranglar orqali kadr markazi hosil qilinadi. Birinchi kadr kompozitsion tuzilishi, keyingi kadr kompozitsion tuzilishi bilan oʻzaro hamoxang boʻlishi lozim. Aks holda, maʼkon noaniq, voqea tushunarsiz boʻlib qoladi.

*Kadrning optik tasviri boʻyicha montaj.* Ikki inson suhbatini birinchi kadrda uzoq fokusli obyektiv, ikkinchisi keng burchakli obyektiv bilan tasvirga olinsa, kadrlar koʻrinishi bir-biridan keskin farq qiladi. Turli xil linzalar bilan olingan suhbat ham montajda bir-biriga mos kelmaydi. Shuning uchun bir xil obyektiv va bir xil diafragmada, bir xil masofadan suhbatlashayotgan ikki kishini syomka qilish kerak.

*Kadrda detalning mavjudligi.* Maʼlumki, detal bilan boshlanib, detal bilan tugaydigan panoramalar boshqa har qanday kadrlar bilan osongina montaj qilinadi.

*Tasviriy uslub boʻyicha montaj.* Tasvirchi oldingi kadrda uslubni keyingi kadrda qoʻllamasligi kerak. Misol uchun, harakatdagi kadr nayeza, otyeza, panoramada statik tasvir yoki detal bilan ajratiladi.

*Maxsus effekt bilan montaj.* Film montajida voqea, kadr kompozitsiyasi va planlariga mos tushadigan effektlarni qoʻllash maqsadga muvofiq. Kadr va voqea joylarining almashinuvida shu kadrda mos boʻlmagan effektning ishlatilish tomoshabin eʼtiborini chalgʻitadi.

*Perebivkalarining mavjudligi.* Agar ikkita kadr bir-biri bilan montajda qoʻpol koʻrinsa, unda ikkita kadr oʻrtasiga uchinchi, bogʻlovchi kadr kiritiladi. Bular neytral

kadrlar bo‘lib, detal, manzara, shahar, ko‘cha va tasodifiy hodisalardan iborat bo‘lgan perebivkalaridir.

*Dubllarning mavjudligi.* Bitta kadrning bir nechta dubli bo‘lsa, montaj jarayonida tanlash imkoniyati kengayadi.

*Suhbatdoshlarga nisbatan montaj.* Ekranida gaplashayotgan odamlarning kadrlari navbatma-navbat ko‘rsatiladi: kim gapiryapti, kim ko‘rsatilmogda. Kadrda so‘zlovchining ovozi eshitilib, ekranida uni diqqat bilan tinglayotgan insonni ko‘rsatish mumkin. Tasvir va ovoz montaj jarayonida birlashib, shu muhitni ochib berishga xizmat qiladi.

*Musiqaga nisbatan montaj.* Montajning ritmi ekranidagi musiqaga bog‘liq. Ekranidagi musiqaning ritmi, musiqaning zarbi bilan kadrlar hamohang almashadi. Musiqaning kayfiyatini uyg‘otib, muallifning voqealarga hissiy munosabatini yaratadi. Ekranida sodir bo‘layotgan voqeaning dramatik mazmuni to‘ldirib, qahramonning his-tuyg‘ularini ochib berishga xizmat qiladi.

*Shovqinga nisbatan montaj.* Montaj jarayonida shovqin, ovoz manbai bilan hamoxangligi ta‘minlanishi kerak. Ekranidagi shovqinlar obraz yaratadi. Kayfiyatni aniqlab, dramaturgik holatni oshiradi. Qahramon ichki kechinmalarini ifodalab, hatto tasvirdan ham kuchliroq ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

*Idrok bilan montaj.* Birinchi kadr mazmunan ikkinchisi bilan, ikkinchisi esa uchinchisi bilan mazmun jihatdan o‘zaro bog‘lanishi kerak. Keyingi kadrlar ham shu tariqa davom qiladi. Bu qoida montajning asosi bo‘lib “Kuleshov effekti” deb nomlanadi. Agar sanab o‘tilgan qoidalarga rioya qilinsa, montaj juda mukammal bo‘lib, badiiy jihatdan yetuk san‘at asari yaraladi.

“Montaj ritmi – kadrlarning turli darajadagi davomiyligi, harakatning xarakter va intensivligi ko‘rsatkichidir.

1) Montaj ritmi – kadrlar davomiylig vaqti turli xil darajalarini ko‘rsatadi. Kadrlarning namoyish vaqti (metraj).

2) Montaj ritmi kadrda joylar (makon) almashinuvi; almashinuvlar intensivligini (planlar, joylar) ko‘rsatadi.

3) Montaj ritmi boshqa kadrda nisbatan kadr harakatidagi xarakter va obraz turlari darajasini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, filmda biz montaj ritmini aniqlaymiz. Bunda montajdagi harakat uchta yo‘nalishini topib, vaqt, joy va harakat xakteri bo‘yicha almashinuvni aniqlab olamiz”. [6.20]

Har bir san‘at turida, uni tartibga solib va yaxlitlikni ta‘minlovchi ritmlar mavjud. Tasvir ritmi syomka jarayonida tasvirchi tomonidan yaratiladi. Montaj jarayonida esa film ritmi yaratiladi. Ritmni harakat bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Harakat kadr ichidagi ko‘rinishlar harakati bo‘lsa, ritm montaj jarayonidagi ketma-ket joylashtirilgan kadrlarning uzun va qisqaligidir. Ritm tufayli filmning shakli, uslubi, kadrlar orasidagi masofa tartibga solinib, ritmik kompozitsiya shakllanadi. Ritm tomoshabinga bir vaqtning o‘zida kadrning haqiqiy uzunligi va dramatik mazmunini ochib beradi, voqelikning uzviy davomiyligini ta‘minlaydi. Rejissyor epizoddagi ruhiy xolatga qarab, kadr davomiyligini belgilaydi. Kadr davomiyligi voqea ma‘no mazmunini tomoshabin tushunadigan darajada bo‘lishi kerak. “Parchalarni yig‘ish tartibi – montaj qilish hara-

katni rivojlantirish ritmini belgilaydi, ya'ni mantiqiy va izchil taqdimotga qo'shimcha ravishda tahrirlashni taqazo etadi. Shuningdek, uning ritmini aniq belgilaydi, rejissyor voqeaga o'z munosabatini ekranda ko'rsatadi". [7.20] Rejissyorlar ritm bilan film ruhini ochib berishga xarakat qiladilar. Kadrlar uzun qo'yilsa ritm sekinlashadi, qisqa kadrlar qo'yilsa ritm tezlashadi. Shu tariqa ruhiy holatni kuchaytiradi yoki aksincha kamaytiradi. Qisqa planlar, kadrlarni juda tez almashtirish, tomoshabin diqqatini oshirib, asabiylashtiradi, film dinamikasini kuchaytiradi. Kadrlarni tez almashtirish fojiali, jangari filmlarda qo'l keladi. Filmدا qisqa kadrlar harakat tezligi, shiddat, zo'ravonlik, janjal, keskin to'qnashuv, qotillik, qo'rquv, shafqatsizlik kabi holatlarni ko'rsatishda qo'llaniladi. Kadrlarni uzaytirish esa ritmni pasaytirib, tinch va osuda vaziyatlar paydo qiliadi. Ekran ijodkorlari qisqa va uzoq kadrlarni uzviy bog'lab, filmning ruhiy holati va ritmni yaratadilar. Kadrdagi harakat, montaj ritmining kuchayishi va kamayishida muhim rol o'ynaydi. Kadr kompozitsiyasi, tasvirning plastik yechimi, musiqa va ovoz ritm yaratishda muhim ekanligini unutmaslik kerak. Filmning ssenariysidagi syujet kompozitsiyasi, tasvirga olish jarayonidagi kadr kompozitsiyasi, rang kompozitsiyasi, ovoz va musiqa kompozitsiyasi elementlari jamlanib, montaj jarayonida filmning umumiy kompozitsiyasi yaratiladi. Natijada, yaxlit san'at asari yuzaga keladi.

Ijod jarayonida dramaturg, rejissyor, tasvirchi, rassom, aktyor va ovoz rejissyori o'z asarini yaratadilar. Bularning barchasini montaj yaxlit bir asarga aylantiradi. Montaj film g'oyasini tomoshabinga yetkazib beruvchi asosiy vositalardan sanaladi. "S.M. Eyzenshteyn "montaj – filmning yaxlitligi, uning g'oyasi" deyishdan charchamagan". [8.40] Darhaqiqat, montajda film g'oyasi tug'ilishidan, yakunlanishiga qadar bo'lgan jarayon nazarda tutiladi. Shundagina film g'oyasi, rejissyor, tasvirchi, chiroq ustasi, aktyorlar guruhi, ovoz rejissyori, montaj ustasining mahorati jamlanib, badiiy jihatdan yetuk va yaxlit san'at asariga paydo bo'ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Симаков В.Д. Хочу снимать кино! 3-е изд. – М., 2015. – 312 с.
2. Кузьминский Л.Т. Зелёный объектив. Пособие для экологов, снимающих фильмы. – М. 2005. – 76 с.
3. Соколов А.Г. Монтаж. Телевидение, видео, кино. – М., 2005. – 244 с.
4. Кулешов Л. В. Кадр и монтаж. кн. 1. – М.: Искусство. 1961. – 88 с.
5. Познин В.Ф. Основы монтажа изображения. – Сп-Б. 2004.
6. Тимошенко С.А. Искусство кино и монтаж. – Л.: Academia, 1926. – 76 с.
7. Кулешов Л. В. Кадр и монтаж. кн. 1. – М.: Искусство. 1961. – 88 с.
8. Xusanov Sh.T. Montaj. – Toshkent: Aloqachi, 2018. – 196 b.
9. Мартен М. Язык кино. – М.: Искусство, 1959. – 132 с.
10. Медынский С.Е. Компонуем кинокадр. – М.: Искусство, 1992. – 239 с.
11. Мёрч У. Искусство монтажа. Путь фильма от первого кадра до кинотеатра. – М.: Эксмо, 2020. – 224 с.
12. Nasirova A. Kino-videomontaj asoslari. – Toshkent, 2007.

## EKRANDAGI VAQT

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada har bir san’at asarining darajasi vaqt doirasidagi inson bilan o‘lchanishi lozimligi, tendensiyalar o‘zgaruvchanligi, dunyoqarashlar evriluvchanligi, hissiyotlar esa tuslanuvchanligi haqida so‘z boradi.*

***Kalit so‘zlar:** san’at, kino, daraja, sifat, inson, texnika.*

***Аннотация.** В этой статье говорится о том, что уровень каждого произведения искусства должен измеряться человеком во времени, о изменчивости тенденций, о привлекательности мировоззрений и о вспылчивости эмоций.*

***Ключевые слова:** искусство, кино, уровень, качество, человек, техника.*

***Annotation.** This article discusses how the level of each work of art should be measured with a person in a time frame, trends are variable, worldviews are evrillability, and emotions are tuslangibility.*

***Keywords:** art, cinema, level, quality, man, technique.*

2007-yil Qozog‘iston Respublikasining Olmata shahrida bo‘lib o‘tgan “YEVRAZIYA” xalqaro kinofestivalining “Markaziy Osiyo kinosi” blokiga konkursant sifatida ishtirok etish menga nasib etdi. U yerda Mohsen Mahmalbafning master-klassiga borish, maestroni o‘z ko‘zim bilan ko‘rishga qaror qildim. Qisqa qilib aytganda u o‘z chiqishining oxirida bir savolni o‘rtaga tashladi.

- Qani aytinglar-chi, – dedi u, – kinoni yigirma yil oldin olish qiyinmidi yoki hozirmi?

Zal birvarakayiga: albatta oldin, deb javob berdi. Men bu fikrga, tabiiyki, qo‘shildim, illo, burunlari, kino olish uchun inson oldin birinchi navbatda oliygohga kirishi, besh yil o‘qishi, so‘ng studiyaga kelib, xoh chiroqchi, xoh assistent, xoh ikkinchi rejissyor sifatida biron yil ishlab, ming chig‘iriqdan o‘tishi va axiyri kimdir uning kino olishga kuchi yetadi degan verdiktni berganidan so‘nggina, u kameraga yaqinlasha olishi mumkin edi.

Chindan ham kino – qimmat san’at. Hozir-chi? Hozirgi davrda zerikkan kishi qo‘shirnoq ichida “kino” olishi mumkin.

Surat birinchi bo‘lib plyonkadan videoga, videodan esa raqamga ko‘chganidan so‘ng, butun boshli “proyavka” degan kimyoviy jarayonordan g‘oyib bo‘ldi. Kino-ning, majoziy qilib aytganda, “Kimyo”si yo‘qoldi.

Hozirgi zamonda esa kamera bilan ekran orasidagi masofa juda qiska. Texnik nuqtayi nazardan natijaga erishish juda ham oson. Shu sabab bugungi kunda Youtube, Instagram, Facebook va TicTok “yulduz”lari ko‘p.

Xullas, o‘rda-qirda ming turfa gap va munozaradanso‘ng Mohsen o‘zining nuqtayi nazarini ayon qildi.

– Menimcha, – dedi u, – kino olish hozir qiyin, illo burunlari rejissyorning kameraga yetib borishi juda qiyin bo‘lgan, majoziy aytganda, bu yo‘lda tabiiy tanlov ish-

lagan. Bu degani, kino olish uchun rejissyor albatta teran fikrlay olishi shart bo'lgan, chunki davlatning shuncha pulni ko'kka sovurish niyati bo'lmagan.

Kinoni burunlari, xullas – kuchlilar olgan.

Hozir esa ijodkorning kuchi uning texnikasida emas, chunki bugungi kunda texnika hammada, har yerda bor.

Qolaversa, prodyuserning shuncha pulni ko'kka sovurish niyati yo'q. Shu sababdan, prodyuser aksentni hamisha birinchi navbatda texnikaga, texnologik tomoshabozlikka tikadi.

– Bugungi kunda ijodkorning kuchi, – deydi Mohsen, – uning javobgarligida.

Xullasi kalom bu fikr, to'g'risini aytsam, bu kunga qadar mening postulatlarimdan biri kabi.

Mening nazdimda, kimki, ya'ni ijodkor, qachonki o'z ishida xoh texnika, xoh texnologiyani yo'sin emas, balki yutuq yoki daraja sifatida ro'kach qildimi – bilingki, uning javobgarligi – faqat o'zining nafsoniyati.

Har bir ijodkor hamisha gapirgan gapi, qo'ygan kadri, o'ynagan roli, o'qigan she'rining matni va fikri uchun javobgar, illo texnika, texnologiya hammada va har yerda bor – birgina javobgarlik darajasi har xil.

Pul, byudjet bo'lsa texnika, texnologiya topiladi, ammo san'at, afsuski, har doim ham emas.

Shunday ekan, boshidan kelishib olaylik, men gapirmoqchi (hech bo'lmaganda mushohada qilmoqchi) bo'lgan mavzuning birgina o'lchovi – daraja.

Qani, ayting-chi, dunyodagi jamiki kino san'ati durdona filmlarining birlamchi mezoni nima?

A – Byudjet

B – Texnika

D – Texnologiya

Keling, bir nechta film misolida bu vaziyatni ko'rib chiqaylik.

1) Charlz Chaplinning 1931-yilda olingan “Ogni bolshogo goroda” filmi.

Byudjet: 1,5 million dollar

Format: Plyonka 35 mm/oq-qora.

Ovozsiz film

Yutuqlar: xususan, Oskar – yo'q.

2) Andrey Tarkovskiyning 1974-yilda olingan “Zerkalo” filmi.

Byudjet: 622 ming rubl

Format: Plyonka 35 mm / Rangli

Ovoz: Mono

Yutuqlar: xususan, Oskar – yo'q

3) Satyadjit Rayning 1955 yilda olingan “Pesn dorog” filmi.

Byudjet: Dollar ekvivalentida 30 ming 500.

Format: Plenka 35 mm/oq-kora

Ovoz: Mono

Yutuqlar: xususan Oskar – yo'q

4) Jeyms Kameronning 2022-yilda olingan “Avatar: Put vodi” filmi.

Byudjet: 350-460 million dollar.

Prokat jamlamasi: 2 milliard 320 million dollar

Format: Raqamli 3D texnologiya/ DCP

Ovoz: 5:1

Yutuqlar: Oskar/ eng yaxshi vizual effekt

5) Kristofer Nolanning 2023-yilda olingan “Oppengeymer” filmi.

Byudjet: 100 million dollar

Format: Plyonka : 65 mm va 65 mm IMAX /kombinatsiya qilingan

Ovoz: 5:1

Yutuqlar: Oskar/ 13 ta nominatsiya/ 7 ta yutuq

Bir qarashda faktlar ochiq-oydin. Byudjet jihatidan ham, texnika, texnologiya va samara jihatidan ham Nolan va Kameronning filmlari eng yuqori darajaga ega. Ammo bu yaxshimi, yomonmi, ularning hech biri insoniyatning kino tarixidagi durdona asarlar javonidan o‘rin olgan filmning yaratuvchisi emas.

Bu ishni bu beshovlon ichida faqatgina Chaplin, Tarkovskiy va Satyadjit uddalay olishgan.

Shunday bo‘lsa ham Tarkovskiyning filmi qolgan ikki filmga qaraganda texnik va texnologik jihatdan yetukroq ko‘rinadi, illo u ham rangli, ham ovozli.

Chaplinning filmi esa, byudjeti jihatidan Tarkovskiy va Rayning filmlaridan-da, ustunroq tuyuladi. Lekin shu bilan birga, uning byudjeti “Avatar”ga nisbatan cho‘ycha, “Avatar”ning texnologik darajasiga nisbatan no‘noq, “Oppengeymer”ning texnik mezonida esa umuman ip esholmaydi.

Lekin na “Avatar” va na “Oppengeymer” Chaplinning “Ogni bolshogo goroda”, Tarkovskiyning “Zerkalo” va Satyadjit Rayning “Pesn dorog” filmlari kabi, oddiygina kadr orqali erishgan badiiylikka, bir so‘z bilan aytganda abadiyatga, kino san‘atining asl mohiyatiga, inson ruhiy holatining, uning imkoniyatlari cheksizligining mezoniga aylana olgan emas. Vaholanki, san‘atda nafaqat ijodkor va tomoshabin, balki fikr va eng asosiysi vaqt bor.

Mening tushunishimcha, har bir san‘at asarining darajasi vaqt doirasidagi inson bilan o‘lchanishi lozim, illo tendensiyalar o‘zgaruvchi, dunyoqarashlar evrilguchi, hissiyotlar esa tuslanguchidir.

Shunday ekan,

Bir: Yuqori byudjetli loyiha – faqat imkoniyat, boshqa hech narsa.

Ikki: Yuqori texnologik loyiha – faqat yo‘sin, yoki usul, boshqa hech narsa.

Uch: Muallifning g‘oyasi – texnologiya emas, texnika emas – bu uning insonlik darajasi.

Rejissyorning asar g‘oyasiga munosabati esa, bu kasb emas, balki rejissyorning inson sifatida tanlovi, uning prinsipi, vijdoni va dunyoqarashining badiiy ko‘rinishi.

Mening nazdimda kino bu nafaqat pul, texnika va texnologiya, bu inson tafakkuri erisha olishi mumkin bo‘lgan abadiyatning pul, texnika va texnologiya orqali amalga oshirilgan badiiy yechimi, ya‘ni ekrandagi chegarasizlik aksi – INSON.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Баталов А. Судьба и ремесло (овладение искусством режиссуры актеров и камеры). – М.: Искусство, 1984. – 255 с.
2. Махамметов М., Нуриддинов И. – Учебное пособие. –Ташкент, 2015. – 60 с.
3. Митта А. Кино между раем и адом. – М.: АСТ, 2021. – 496 с.

## **МУЗЫКАЛЬНЫЕ ВИДЕОКЛИПЫ – КАК ПЛАТФОРМА ДЛЯ ВОПЛОЩЕНИЯ ИДЕЙ И ТВОРЧЕСТВА МОЛОДЫХ КИНООПЕРАТОРОВ**

***Аннотация.** В данной статье, исходя из принципов взаимодействия художественного творчества с работой оператора в узбекских видеоклипах, навыков, научных и технических возможностей, объективно проанализировано роль и значение созданных в нашей республике музыкальных клипов в нашей отечественного эстрадного искусства на научной основе и выявлены причины возникших в связи с этим недостатков и дана предложениями и замечаниями.*

***Ключевые слова:** искусство, кино, режиссура, художественность, образность, мастерство, художник-оператор, эффект, ракурс, светочет, композиция.*

***Abstract.** In this article, based on the principles of the interaction of artistic creativity with the work of the cameraman in Uzbek music videos, skills, scientific and technical possibilities, I will objectively analyze the role and importance of the music videos created in our republic in our national pop art on a scientific basis, determine the causes of the shortcomings that have arisen in this regard, and share our suggestions and comments. is to throw.*

***Keywords:** art, cinema, directing, artistry, imagery, skill, Art Directors, cameraman, rakurs, kompozision, effect.*

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘zbek videokliplaridagi operator faoliyati bilan badiiy ijodning o‘zaro aloqadorligi tamoyillari, mahorati, ilmiy-texnik imkoniyatlari-dan kelib chiqib, respublikamizda yaratilgan kliplarning mamlakatimiz estradamizdagi o‘rni va ahamiyati xolisona yoritilgan. ilmiy asosda tahlil qilinib, ushbu kamchiliklar bilan bog‘liq yuzaga kelgan sabablar taklif va mulohazalar bilan berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** san‘at, kino, rejissyorlik, artistlik, tasvir, mahorat, operator, effekt, istiqbol, ochiq rang, kompozitsiya.*

Хотелось бы раскрыть тему молодых кинооператоров на примере музыкальных видеоклипов и их становления как специалистов. В сегодняшнем мире, когда все сферы жизни развиваются с огромной скоростью, музыкальные клипы становятся важной альтернативой и поддержкой для молодых кинооператоров.

История музыкальных видеоклипов началась в 1960-х годах с появлением телевидения как основного средства массовой информации. Пионерами этого жанра стали такие группы, как The Beatles и The Rolling Stones, которые снимали короткие фильмы для своих песен. В 1980-х годах, с появлением канала MTV, музыкальные клипы стали неотъемлемой частью музыкальной индустрии. Виде-

оклипы Майкла Джексона, такие как «Thriller» и «Bad», установили новые стандарты в производстве клипов и стали культурными феноменами.

Музыкальные клипы играют значительную роль в карьере кинооператоров. Это не только возможность продемонстрировать свое мастерство и креативность, но и шанс наладить контакты в индустрии, получить признание и перейти к более крупным проектам, таким как полнометражные фильмы и сериалы. Для многих операторов, работа над клипами стала трамплином в большой кинематограф.

Клип – это еще одна возможность молодому специалисту заявить о себе. Яркий пример этому – востребованный клипмейкер Б. Юлдашев, который начинал свой творческий путь с клипов, и впоследствии снял художественный полнометражный фильм «Шима». Этот фильм получил премию за лучшую операторскую работу на 29-м Московском кинофестивале.

Также в процессе создания клипов можно увидеть работу именитых кинооператоров. Игорь Клебанов, например, работал с группой «Тату» над клипом «Нас не догонят». Этот клип и по сей день остается креативным и ярким примером успешного союза режиссера и оператора. Максим Осадчий, помимо работы в кино, оставил значимый след в индустрии музыкальных клипов, сотрудничая с такими известными артистами, как Филипп Киркоров, Леонид Агутин, Дмитрий Маликов и многими другими поп-звездами.

Дополнительно стоит упомянуть таких операторов, как Анатолий Мукасей, который работал над клипами Аллы Пугачевой, и Владислав Опельянц, снимавший клипы для Земфиры и Би-2. Эти примеры показывают, что опыт в создании музыкальных клипов может стать важным этапом в карьере кинооператора.

Съемка музыкальных клипов требует особого подхода и знания технических аспектов. Это включает в себя работу с освещением, использование различных камер и объективов, а также постобработку видео. Клипмейкеры часто используют специальные эффекты, компьютерную графику и анимацию, чтобы создать уникальное визуальное впечатление. Важно также умение работать в ограниченные сроки и бюджет, что требует высокой степени профессионализма и креативности.

Например, использование дронов и стабилизаторов позволяет создавать динамичные и плавные кадры, что особенно важно для музыкальных клипов с активными сценами. Программы для цветокоррекции и визуальных эффектов, такие как Adobe After Effects и DaVinci Resolve, дают возможность создавать впечатляющие визуальные эффекты и улучшать качество изображения.

Музыкальные клипы оказывают значительное влияние на культуру и общество. Они не только отражают текущие тенденции и вкусы, но и формируют их. Многие клипы становятся символами эпох, создают новые модные тренды и влияют на общественные настроения. Например, клипы Майкла Джексона, такие как «Thriller» и «Bad», стали не просто музыкальными произведениями, а культурными феноменами, изменившими представление о том, каким может быть музыкальное видео.

Клипы также играют важную роль в социальной и политической жизни. Они могут поднимать важные темы и привлекать внимание к актуальным проблемам.

Таким образом, музыкальные видеоклипы являются важной платформой для воплощения идей и творчества молодых кинооператоров. Они предоставляют уникальные возможности для профессионального роста, технического совершенствования и культурного влияния. Для многих операторов, работа над клипами стала значимым этапом в их карьере, открывая двери к новым проектам и достижениям.

## ЛИТЕРАТУРА

1. Бурлаков М. Создание видеоклипов. – СПб., 2003. – 120 с.
2. Вартанов А.С. Актуальные проблемы телевизионного творчества. На телевизионных подмостках: Учебное пособие. – М.: КДУ; Высшая школа, 2003. – 320 с.
3. Волынец М.М. Основы композиции кадра: Учебное пособие. – М.: ИПК, 2002. – 100 с.
4. Дворко Н.И. Профессия режиссер мультимедиа. – СПб.: СПбГУП, 2004. – 160 с.
5. Розенталь А. Создание кино и видеофильмов как увлекательный бизнес. – М.: Издательство ТРИУМФ; г. Жуковский: Издательство ЭРА, 2000. – 352 с.
6. Советкина Э.В. Музыкальные видеоклипы: вчера, сегодня, завтра. – Йошкар-Ола, 2005. – 96 с.
7. Советкина Э.В. Эстетика музыкальных видеоклипов. – М.: Триада, Лтд, 2005. – 92 с.

## **DAVR SOLNOMASINING HUJJATLI KINODAGI AKSI**

***Annotatsiya.** Maqolada hujjatli kinoning davr solnomachisi sifatidagi o'rni va roli borasida so'z ketadi. Hujjatli filmlar spetsifikasi, undagi janrlar xususiyati va mazkur turning yetakchi vositalari to'g'risida mushohada yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** hujjatli film, rejissura, ekran, muharrir, rejissyor.*

***Аннотация.** В статье говорится о месте и роли документального кино как летописца эпохи. Рассмотрены особенности документального кино, характеристики жанров и ведущие инструменты этого типа.*

***Ключевые слова:** документальный фильм, режиссура, экран, монтажер, режиссёр.*

***Annotation.** The article talks about the place and role of the documentary film as a chronicler of the era. The specifications of documentaries, the characteristics of genres and the leading tools of this type are observed.*

***Keywords:** documentary, directing, screen, editor, director.*

Kino san'ati XIX asrning so'nggi yillarida paydo bo'lib, o'tgan davr mobaynida imkoniyatlarini namoyon eta oldi. Aslida hujjatli filmlar aka-uka Lyumelarning birinchi ijod namunasidan boshlangan. Poyezdning kelishi va zavoddan ishchilarning chiqishi tasviri dastlabki hujjatli filmlar namunasi sanaladi.

Endilikda hujjatli film dunyo kinosan'atidan mustahkam o'rin egallasa-da, uni tomoshabin kinoteatrga borib, chipta sotib olib ko'rmaydi. Aksariyat hollarda televideniye orqali namoyish etilishi bilan kifoyalanadi. Lekin shunga qaramay hujjatli kinoning vazifasi ulkan. U davr solnomasini yaratadi. Vaqt, shaxs, zamon, voqelik haqida tasavvurga ega bo'lish maqsadida kishilar har bir davrda yaratilgan ijtimoiy-siyosiy yoki maishiy mavzudagi hujjatli filmlarga murojaat qilishi tabiiy. Hujjatli kinoga qiziq voqea, madaniy hayot yangiliklari, ilmiy kashfiyot hamda taniqli kishilarning hayotiy faoliyati va ijodi mavzu bo'lishi mumkin. Film ijodkorlari mavzuni yoritish orqali jiddiy falsafiy mushohadalari umumlashmasini ilgari surishi bilan ham e'tiborli.

Hujjatli kino bu murakkab janr bo'lib, uni tayyorlash va ishlab chiqarish uzoq vaqt talab etadi. Hayotiy va hujjatli materiallar to'planib, shu asosida ssenariy yoziladi. Hujjatli kino janrlari ham kinoning boshqa turlari singari rejissyorning g'oyasidan boshlanadi. Lekin rejissyor tanlagan g'oyani ochishda muammoning yechimiga qanday shakl tanlab, qaysi jihatlariga e'tibor qaratishini ijodkor tanlagan janr orqali bilish mumkin. Hujjatli kinoda ham o'ziga xos janrlar mavjud. Kinoxronika, turli mavzularga oid manzarali film, suhbat, monolog, tadqiqot film, intervyu, sharhlovchi va biografik filmlar hujjatli kino janrlarini tashkil etadi. Hujjatli kinoning har bir janrida real muhit, voqelik va inson ishtirok etadi. Buning uchun rejissyor ko'p materialni o'rganishi, ko'zdan

kechirishi kerak. Shuningdek u ssenariy muallifi operator, rassom va ovoz rejissyori bilan birgalikda maslakdosh sifatida ijodiy jarayon ichida bo'ladi. G'oyani muvaffaqiyatli yetkazish ko'p jihatdan kasbining mohir ustalarining sa'y-harakati va syomka maydonida bir maqsad ostida birlashishiga bog'liq. Hujjatli kinoda masala mohiyatiga chuqurroq kirish hamda g'oyani ochishga xizmat qilishda mutaxassis yoki voqeaning ishtirokchisi, guvohi bo'lgan kishilardan intervyu olinadi.

Kinoning bu turida tarixiy shaxslar va ayni damda bugungi kunda jamiyatning qaysidir jabhasida samarali faoliyat olib borayotgan kishilar va dunyoda sodir bo'layotgan voqea-hodisalar aynan aks ettiriladi. Ularni operator faktlar asosida kadrga muhrlaydi, tarixga aylantiradi. Hujjatli filmlar yordamida tarixiy shaxslarning jonli siymosini ko'ramiz. Cho'lpon, Usmon Nosir, Abdulla Avloniy, Fitrat, Abdulla Qodiriy singari tarix sahifasiga nomlari bitilib qolgan olim va fozillarning siymolari shular jumlasidandir.

Hujjatli film tuzilishi jihatdan ko'pqirrali bo'ladi: tasvirga olish, sahnalashtirilish, reportajli usullaridan foydalaniladi. Film mazmuniga qarab interyer va eksteryerda tasvirga olinishi mumkin, unda arxiv videolarga va foto materiallaridan ham keng foydalanish mumkin. Hujjatli kinoning asosiy vazifasi tarix solnomasini yaratishdir. Shu bois unda real shaxs hayoti va ijodi yoki bo'lib, o'tgan voqea tafsiloti yotadi. Uni boricha ortiqcha bo'yoqsiz tasvirlash hujjatli kinoning asosiy vazifasi sanaladi. Hujjatli kinoda rejissyor mavzu va qahramonni tanlaydi. Operator hayotiy lavhalarni ahtaradi. Montajchi esa kerakli kadrlarni bir syujet tizimi bo'ylab yig'adi. Bunda faqat film g'oyasi uchun xizmat qiluvchi muhim kadrlar asosiy omil hisoblanadi.

O'zbekiston madaniy va ijtimoiy hayotida kino san'ati, xususan hujjatli kinoning o'rni va ahamiyati nihoyatda katta. Bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh avlod ongida kino san'atining estetik va badiiy tarbiyadagi o'rnini mustahkamlash borasida ham hujjatli kino muhim ahamiyatga ega. Shuningdek hujjatli kino san'atida o'ziga xos mahorat maktabi mavjudligi bu boradagi izlanishlar mas'uliyatini kuchaytiradi. Hamonki hujjatli kino davr solnomachisi ekan, bugungi kunlarimiz shukuhi, olib borilayotgan islohotlar samarasi, ulkan bunyodkorliklar yaratilajak filmlarda o'z aksini topmog'i lozim. Bu borada mamlakatimiz kino ijodkorlari oldiga qo'yilgan vazifa nihoyatda murakkab va o'ta sharafidir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Басов В. Режиссёр на ТВ. –М.: Искусство, 1978.
2. Немирович-Данченко В.И. Из прошлого. –М.: Академия, 1936.
3. Клер Р. “Кино вчера, кино сегодня”. – М.: Прогресс, 1981.
4. Kasimova, N. Expressing peculiar views in Uzbek short films in the XXI century. Collequem-journal, – Warszawa, – 2018, N4. P. 4-6

**Шохрат Аманмурадов**  
доцент, Государственный институт  
искусств и культуры Узбекистана

## ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ ЗВУКОРЕЖИССУРЫ

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются современные технологии, применяемые в обучении звукорежиссуре и их значимость в повышении качества образования и подготовки специалистов в данной области. Автор статьи рассматривает следующие аспекты: использование профессионального программного обеспечения, онлайн-ресурсы и вебинары, сетевые платформы для обмена знаниями, интерактивные учебные студии и оборудование, технологии распознавания голоса и искусственного интеллекта.*

***Ключевые слова:** звукорежиссура, искусственный интеллект, онлайн-ресурсы, вебинары, сетевые платформы.*

***Summary:** This article examines the modern technologies used in teaching sound engineering and their significance in improving the quality of education and training of specialists in this field. The author of the article considers the following aspects: the use of professional software, online resources and webinars, network platforms for knowledge sharing, interactive teaching studios and equipment, voice recognition technologies and artificial intelligence.*

***Keywords:** sound engineering, artificial intelligence, online resources, webinars, network platforms.*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada tovush texnikasini o'rgatishda qo'llaniladigan zamonaviy texnologiyalar va ularning ta'lim sifatini oshirish va ushbu soha mutaxassislarini tayyorlashdagi ahamiyati haqida so'z boradi. Maqola muallifi quyidagi jihatlarini ko'rib chiqadi: professional dasturiy ta'minotdan foydalanish, onlayn resurslar va vebinarlar, bilim almashish uchun tarmoq platformalari, interaktiv o'quv studiyalari va uskunalari, ovozni aniqlash va sun'iy intellekt texnologiyalari.*

***Kalit so'zlar:** ovoz muhandisligi, sun'iy intellekt, onlayn resurslar, vebinarlar, tarmoq platformalari.*

Звукорежиссура является одной из наиболее динамично развивающихся областей в сфере аудиовизуальных искусств. Стремительное развитие цифровых технологий оказывает значительное влияние на все аспекты звукового производства – от записи и обработки до распространения и воспроизведения аудиоматериалов. Эти инновации не только трансформируют профессиональную деятельность звукорежиссеров, но и предъявляют новые требования к их подготовке в системе высшего образования.

Рассмотрим несколько современных технологических аспектов, которые широко используются в учебном процессе преподавания звукорежиссуры:

Использование профессиональных программ для обработки и записи звука является неотъемлемой частью обучения звукорежиссуре. Программы, такие как Pro Tools, Ableton Live, Logic Pro, Reaper, Cubase, Nuendo и другие, предоставляют студентам возможность овладеть современными инструментами индустрии и развивать свои творческие и технические навыки. Pro Tools широко используется в профессиональной звукозаписи и звукорежиссуре. Студенты могут изучать основы многодорожечной записи, микширования, использования плагинов и создания высококачественных аудиопроектов. Ableton Live популярен среди музыкантов и звукорежиссеров, особенно в области электронной музыки. Logic Pro обладает обширным набором инструментов и эффектов, что делает его мощным инструментом для создания музыки и звукового дизайна. Reaper предоставляет доступное и гибкое решение для звукозаписи и микширования. Обучение этой программе дает студентам опыт работы с профессиональным DAW (Digital Audio Workstation). Cubase широко применяется в звукозаписи и создании музыки. Применение этих профессиональных программ в обучении позволяет студентам совершенствовать свои навыки в звукорежиссуре, а также готовиться к работе в индустрии, где использование такого программного обеспечения является стандартом.

Использование онлайн-ресурсов и вебинаров в обучении звукорежиссуре имеет значительные преимущества, обогащая образовательный процесс и предоставляя студентам доступ к опыту и знаниям профессионалов из разных уголков мира. Онлайн-ресурсы и вебинары позволяют студентам получать образование от ведущих специалистов в области звукорежиссуры независимо от их местоположения. Онлайн-ресурсы обеспечивают студентов актуальной информацией о последних достижениях в области звукорежиссуры, новых технологиях и методах работы. Вебинары, встречи и онлайн-семинары позволяют студентам взаимодействовать с профессионалами звукозаписи и звукорежиссуры, задавать вопросы, получать советы и делиться своим опытом. Онлайн-ресурсы предоставляют доступ к дополнительным обучающим материалам, таким как видеоуроки, статьи, курсы и презентации, что расширяет образовательные возможности. Вебинары могут включать в себя практические задания и проекты, которые помогают студентам применять свои знания на практике и развивать практические навыки.

With the development of digital technologies and synchronization of sound with the image, the dubbing process has become even more precise and detailed. The use of advanced sound engineering technologies, such as more complex sound mixing algorithms and spatial audio, makes dubbing not only a tool for conveying dialogues but also emotions, making the characters more alive. This is particularly evident in animated films, where every sound creates a unique character.

In modern Uzbek cinema, technological innovations in the field of dubbing are being integrated. Current trends in sound engineering continue to expand the boundaries of artistic expression. The role of sound is becoming more active and interactive in visual storytelling. Virtual reality and 3D sound technologies create unique opportunities for the viewer to immerse themselves in the film's atmosphere. Experiments with sensory perceptions, such as tactile and aromatic effects, open up new horizons for viewer experience.

The use of modern sound technologies, such as Dolby Atmos, allows you to create spatial sound effects, expanding the viewer's experience and giving depth to the sound. Uzbek dubbing studios interact with global trends. This allows the use of advanced technologies and methods, enriching Uzbek dubbing with new ideas and approaches. Thus, the technical development in the field of sound engineering significantly influenced the formation of the art of dubbing. Modern technologies not only create more accurate and high-quality audio recordings, but also open up new horizons for creativity and innovation in the field of dubbing.

## REFERENCES

1. OVOZ REJISSORLIGIDA DUBLYAJ VA OVOZLASHTIRISH SAN'ATINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI D.I.Mirsaidova – Oriental Art and Culture, 2023.
2. O'zbek dublyaj san'ati. – Toshkent, 2023.

## **KINO SAN'ATIDA OVOZNING O'RNI VA AHAMIYATI**

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada kinoda ovozning o'rni hamda bugungi kundagi ahamiyati haqida so'z boradi. Bu borada jahon tajribasida keng qo'llanilayotgan ovozlarning ijobiy ta'siri haqida mutaxassislarning fikr va mulohazalari e'tiborda tutilgan. Maqolada zamonaviy innovatsion ovoz yozish texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha dunyo mamlakatlari tajribasidan o'rnak oluvchi jihatlar mushohada qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *kino, jahon, musiqiy kompozitsiya, sifat, yuqori, texnologiya, san'at, zamonaviy, o'tmish, samaradorlik, vizual, madaniyat, ovoz, operator, mahorat.*

**Аннотация.** *В данной статье рассматривается роль звука в кино и его значение сегодня. В связи с этим учитываются мнения и комментарии экспертов о положительном влиянии голосов, широко используемые в мировом опыте. В статье рассматриваются примеры опыта стран мира по использованию современных инновационных технологий звукозаписи.*

**Ключевые слова:** *кино, мир, музыкальная композиция, качество, высокое, технология, искусство, современность, прошлое, спектакль, визуальное, культура, звук, оператор, мастерство.*

**Annotation.** *This article discusses the role of sound in cinema and its importance today. In this regard, the opinions and comments of experts about the positive effects of voices widely used in the world experience are taken into account. In the article, the examples of the experience of the countries of the world regarding the use of modern innovative sound recording technologies are observed.*

**Keywords:** *cinema, world, musical composition, quality, high, technology, art, modern, past, performance, visual, culture, sound, operator, skill.*

Mamlakatimizda bugungi kunda boshqa jabhalarda bo'lgani kabi kino sohasida ham jahonshumul o'zgarishlar yuz bermoqda. Yangi O'zbekistonni rivojlantirish uchun siyosiy islohotlar izchil davom ettirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2021-yil 7-apreldagi "Kino san'ati va sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6202-son Farmoni va «Kino san'ati va sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi PQ-6202-son Qarorlari fikrimizning yorqin isbotidir.

Yuqoridagi farmon va qarorlardan shularni anglashimiz mumkinki, milliy kinomiz dovrug'ini yanada oshirish va jahon sahnalarini egallash borasida yetarli shart-sharoit mavjud. Mavjud muammolar esa ijodiy xarakterda. Bugungi kunda suratga olinayotgan filmlarga xos yetakchi muammolardan biri ularda ovoz vositasidan to'laqonli foydalana bilmaslikdir. Albatta, kino san'ati tomoshabinni ovoz effektlari bilan ham jalb qilishi lozim.

Bugungi kunda ovozsiz kino san'atini tasavvur etib bo'lmaydi. Ovoz – bu film orqali tomoshabin ma'naviy bilimlarini yuksaltirishga xizmat qiluvchi vositadir. Ovoz va shovqinlar to'g'ri tanlanmasa tomoshabin film mazmun-mohiyatini yetarlicha ang-

lamay qoladi. Shunday ekan, har bir filmda ovoz vositalari va effektlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada badiiy filmlarda ovoz rejissyorlari mahoratining aks etishi, ovoz vositalari va effektlaridan foydalanish borasidagi izlanishlar jahon kino san'ati tajribasida qo'llanilgan usullar misolida o'rganildi. Qiyosiy tahlil, taqqoslash, solishtir-ma, retrospektiv metodlar bu borada o'z ahamiyatini ko'rsatdi.

Odatda ko'pchilik kino tomosha qilayotgan chog'ida asosiy e'tiborini videoqatorlar-ga va maxsus effektlarga qaratadi, lekin kinoda ovozning ahamiyati ham kattaligi haqi-da kam o'ylaydi. Ovozsiz kino davri nihoyasiga yetgach, ko'rayotgan kinomateriallarni qabul qilishda ovoz kartinaning muhim qismlaridan biriga aylandi. Darhaqiqat, musiqiy kompozitsiya yoki oddiy ovozni yaratish eng qiyin va haqiqiy ijodiy jarayon hisoblanadi. Har qanday kino yoki serialga ovoz berishda o'z ishining ustalari bo'lgan butun boshli jamoa ish olib boradi. Bular kino kompozitorlari, ovoz rejissyorlari, dublyaj aktyorlari va unchalik ham ommaviy sanalmagan mutaxassislar – ovoz operatorlari va ovoz bezakchi-lari jamoasi hisoblanadi. Ularni shovqin beruvchilar yoki foli-artistlar, deb ham atashadi.

Kinoda ovozning o'rni va ahamiyati borasida so'z ketarkan, ovoz rejissyorligi-ning murakkab olamiga to'xtab o'tish joiz. Tashqaridan qaraganda, filmda hammasi, deylik yomg'ir yog'ishi ham, shamol guvillashi ham tabiiydek tuyuladi. O'z-o'zidan savol tug'iladi. Masalan, nima uchun yomg'ir ovozi to'g'ridan to'g'ri yomg'ir yog'a-yotganda ko'chadan, deylik suratga olish maydonidan yozib olinmaydi? Gap shundaki, yomg'ir tovushini suratga olish maydonida yozib olishga haddan ortiq ko'p begona tovushlar halaqit beradi. Aktyorlar ovozi, ishlayotgan texnikalarning shovqini, xullas barcha begona ovozlari bir-biriga shunchalik qorishib ketadiki, natijada yomg'ir ovozi-ning o'zi umuman eshitilmay qoladi.

Bunday vaziyatlar boshqa ko'plab tovushlar bilan ham yuz berishi mumkin: qa-damlar, qurol-yarog'larning jaranglashi, barglarning shitirlashi va shunchaki istalgan harakat. Filmda bularning barchasi tovush yasovchilarning studiya sharoitida yaratgan ijodlari bo'ladi. Aynan shu sababli, dunyoga mashhur filmlar yaratilishida har doim ovozning haqiqiyligini ta'minlashga javob beruvchi mutaxassis bo'ladi.

Ovozli kinoning paydo bo'lishi sohaga yangi mutaxassisliklarni olib kirdi. Ushbu sohada katta muvaffaqiyatga erishganlarning biri ovozli kino asoschilaridan Jek Foli hi-soblanadi. Jekning xizmatlariga chuqur hurmat yuzasidan ushbu kasb hozirda foli-artist deb ataladi. U karerasini ovozsiz filmlarda ovoz rejissyorlikdan boshlagan, so'ngra ovozli kinoga jadal sur'atlarda o'tish ishini boshlab berdi. Filmlarda ovoz effektini beruvchi tex-nikalarning ko'pchiligini Jek Foli ixtiro qilgan bo'lib, ulardan hozir ham muvaffaqiyatli ravishda foydalanib kelinmoqda. Foli XX asrning o'rtalarida ko'plab filmlarni suratga olish jarayonida ishtirok etdi, ularning orasida eng mashhuri Stenli Kubrikning «Spartak» filmi sanaladi. Ushbu filmda qurol-aslahalarning jaranglashini, qo'shinlarning saf yuri-shini o'sha odamlarning o'zi yaratmagan, Foli, kalitlar bog'larni shiqillatib turgan.

Kino yaratilishida ovozning ahamiyati har bir detalda alohida seziladi. Kino yara-tuvchilar avval boshdanoq suratga olish maydonchasida yozilgan ovoz qandaydir xira va jozibasiz ekanligini tushinib yetishsa, unga mos ovoz yaratish ustida bosh qotiradi-lar. Mutaxassislarning fikricha, haqiqiy ovozlari ham rejissyor kutganidek chiqmaydi. Misol keltiradigan bo'lsak, amalda qilich qinidan chiqarilganda, haqiqatan ham xira tiralayotgandek, ovoz chiqaradi. Bundan holat qurolning qinidan chiqayotgandagi ja-ranglashi yoki zarba bo'lganda yuz beradi.

Hozirgi paytda kino sanoatining rivojlanishi va sifatli fonoteka taraqqiyoti sababli filmlarga jonli ovoz berish kamayib bormoqda. Bugungi kino sanoati vakillari kinofondlarda saqlanayotgan tayyor ovozlardan foydalanishyapti.

Shu o'rinda savol tug'iladi – ovozlarni ham saqlab boriladimi? Mamlakatimiz va xorij kino tashkilotlarda minglab ovozlarni saqlanadigan omborxonalar mavjud bo'lib, ulardan bugungi kunda unumli foydalanilmoqda. Kinoni ovozlashtirishda, tabiiyki, jahon kinofondlaridagi tayyor tovushlardan foydalanish oson, undan hamma kino yaratuvchilari foydalana oladi. Barcha foydalanilgan tovushlar shovqin yaratuvchilari tomonidan allaqachon yaratilgan va bir filmdan ikkinchi filmga ko'chib yuradi. Masalan, afsonaviy "Terminator 2" filmidagi otilgan o'q ovozi "Oxirzamon" filmida ham ishlatilgan. Bugungi kunda eng ommaviy ovoz "Vilgelm hayqirig'i" dagi ovozdir. Ushbu ovozdan bungacha naq 216 ta filmda foydalanilgan. 1931-yilda namoyish etilgan «Frankenshteyn» kinosidagi momoqaldiraq tovushidan 1980-yillargacha foydalanilar edi. Bu ayniqsa, multfilmlar va seriallarga tegishli bo'lib, ularda umuman haqiqiy ovoz bo'lmas, tovush yasovchilarni yollash harajatini esa kartina byudjeti ko'tara olmasdi.

Mashhur ovoz rejissyorlarining ta'kidlashicha, tayyor tovush shu jihati bilan qulayki, ulardan o'rinda foydalanish ham oson. Masalan, "Frankenshteyn"dagi o'sha guldurash ovozi ko'plab aralashgan ovozlarning asosi bo'lib xizmat qildi, ularning orasida eng mashhuri sifatida «Yulduzlar yo'li» dagi samoviy kemani tezlashtirgich effekti hamda "Yulduzlararo jang" kinosidagi X-Wing qiruvchi samolyotining lazer zambaragi ovozi bo'ldi. 1932-yilda suratga olingan "Tarzan" filmidagi hayqiriq ham juda mashhur. Uning modifikatsiyasi keyingi o'n yillikda ko'plab filmlarda qo'llanildi.

Shu o'rinda kichik bir mulohaza kinotashkilot arxivida tayyor ovoz bo'lmasa, unda nima qilish kerak, degan haqli savol tug'iladi. Bunga misol sifatida quyidagilarni keltiramiz. «Uzoklar hukmdori» suratga olinganda Balrogning o'kirishini hech kim avvaldan yozib qoldirmagan – bunday holatlar ko'plab topiladi. Shu bois kartinaning shovqin yasovchilari biroz "ijod" qilishga va o'kirishni o'zlari yasashga to'g'ri kelganligini o'sha kinoning rejissyorlari va tashkilotlari ommaviy axborot vositalari orqali bot-bot ta'kidlashgan. Ma'lum bo'lishicha, o'sha ovozni qayta yaratish uchun shlakoblok olingan va taxta pol ustida turli tezlikda ishqalay boshlangan. Keyin esa, olingan tovush ozroq qayta ishlanib, natijada Balrogning hayqirig'i "durdonalar"ga aylandi.

Shunga o'xshash yo'llar bilan inson qulog'iga odat bo'lib qolgan ovozlarni ham yaratishgani fikrimizning isbotidir. Yana misollarga yuzlanadigan bo'lsak, yilqilar uyurining tuyoq tovushlarini haqiqiy sharoitda yaratish juda murakkab ish. Shu sababli, bir qop oddiy kartoshka olinadi va deydik, bo'sh karton qutiga to'kiladi. Yana ozroq kompyuterda ishlov berilsa, qarabsizki, ajoyib tuyoqlar tovushi hosil qilinadi.

Shu o'rinda xorijlik mashhur rejissyor Glen Kayzerning ovoz dizayni bo'yicha fikrlari bilan o'rtoqlashsak. U o'zining qisqa metrajli filmi suratga olayotganda, salbiy qahramon mashina ruliga o'tiradi, lekin dvigatelni o't oldira olmaydi. Kayzer kerakli ovozni kinofonlardan uzoq qidiradi, lekin ma'qul keladigan hech narsa topa olmaydi. Shu bois u mashinani o't oldirish jarayonidagi takrorlanmas tovushni 20 marta qayta yozdi. Shundan keyin tayyor yozuvlarni aralastirdi va qirqib, kerakli tovushni topgan.

Bu jarayonlar haqidagi hujjatli ma'lumotlarga to'xtaladigan bo'lsak jumladan, «Yulduzlararo jang» kinosida yorug'lik tarqatayotgan qilichlarning tovushi mutlaqo tasodifan topilgan. Bir kuni kartinaning ovoz rejissyori Ben Byortt qo'lida mikrofon

bilan shunchaki televizor yonidan o‘tadi. Unga shu ovoz yoqib qoladi. Xullas, kerakli ovozning yarmi shu tovushdan olinadi, qolgan yarmiga esa ishlab turgan proektorning tovushi qo‘shiladi. «Terminator»ning ikkinchi qismidagi T-1000 kiborgining suyuq metal ovozini yozib olishda kulgili holat yuz bergan. Bu yerda hech qanday kompyuter effekti yo‘q – shunchaki mikrofon yupqa rezina sharga o‘ralib suli bo‘tqasiga botirilgan.

Umuman olganda kinoda ovoz vositalarini yaratish mashaqqatli, zalvorli ishdur. Ba’zida bu borada ovoz rejissyorlarining omadi kelib qoladi. Bu o‘rinda yana o‘sha mashhur «Yulduzlararo jang»dagi blasterning otilish tovushini yodga olish mumkin. Bu ovoz bolg‘ani tarang tortilgan metall kabelga urish orqali olingan. «Yulduzlararo yo‘l» serialidagi foton torpedalarning tovushi ham shu usul bilan yozilgan. Bunday misollar yuzlab, minglab topiladi. Birgina misol, yonayotgan olov tovushi supurgini lattaga ishqalash yo‘li bilan yaratilgan yoki mushtlashuvda bo‘yinning sinishi ovozini chiqarishda shunchaki, karam qo‘l bilan ezilgan.

Qo‘rqinchli filmlardagi odamni seskantiradigan, keskin musiqalarni topish va yaratish o‘ta qiyin, katta mahorat talab qiladi. Bunday ovozlarni yaratishda chastotalar keskin pasaytirilib keyin balandlatiladi, noodatiy garmonika va haddan ortiq shovqin, bularning bari qo‘rqinchli kinolarga ovoz yozishning o‘ziga xos tomonlarini ko‘rsatib beradi. Bunday tovushlarni yozish uchun “Voterfon” singari maxsus asboblari kerak bo‘ladi. Mazkur voterfondan «Meni qo‘yib yubor» va «Poltergeist» filmlarida keng foydalanilgan. Shu o‘rinda Voterfon haqida qisqa ma’lumot berib o‘tishni joiz deb bildik. “Voterfon bu – atrofida joylashtirilgan turli uzunlikdagi bronza sterjenli rezonator kosacha bo‘lib, unda ovoz tayoqcha yoki metal simni to‘qqillatish yo‘li bilan yoziladi”.

Fikr va mulohazalarimizga yakun yasar ekanmiz, kino san’atida ovozning o‘rni beqiyos ekanligini ta’kidlaymiz. Chunki ovoz yaratish, ovoz yozib olish haqiqiy ijod. Buni chinakam ijodkor uddalaydi. Binobarin bu ishda kashf qilinadigan hech narsa qolmadi, deyish ham mutlaqo noo‘rindir. Hali kinoda ovozlashirishning o‘ziga xos jozibasi va sir-sinoatlari to‘laligicha kashf qilinmadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bugungi kunda o‘zbek kinosida faoliyat yuritayotgan ovoz rejissyorlari ham kino san’ati yuksak taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasidan unumli foydalanmog‘i sohada yangi o‘zgarishlarga yuz tutishga zamin bo‘ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. «Kino san’ati va sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi PQ-6202-son Qarori. //Xalq so‘zi gazetasi, 2021-yil 8-aprel.
2. Дворко Н., Динов В., Шугал С., Основы звукорежиссуры. – СПб., 2006.
3. Меерзон Б. Акустические основы звукорежиссуры. – М., 2004.
4. Peter Kirn. Real World Digital Audio. Peachpit Press. 2016.
5. RakhimdjanoV O. The Role And Importance of Using the Experience of Foreign Modern Cinematographers in the Development of Uzbek Cinematography// Open Access Repository, 2022.

## **BUYUK MA'RIFATPARVAR IS'HOQXON IBRAT**

***Annotatsiya.** Maqolada jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri Is'hoqxon Ibratning hayoti va ilmiy-ma'naviy merosiga bag'ishlangan badiiy film xususida fikr yuritilgan. Shuningdek, Ibratning serqirra ijodkor, islohotchi, milliy uyg'ornish davri asoschilaridan biri sifatidagi faoliyati ochib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** kino, davr, tarix, milliy meros, ijod.*

***Аннотация.** В статье рассматривается художественный фильм, посвященный жизни, научному и духовному наследию Исхаqxона Ибрата, одного из крупнейших представителей джадидского движения. Также раскрывается деятельность Ибрата как плодовитого творца, реформатора, одного из основоположников эпохи национального возрождения.*

***Ключевые слова:** кино, период, история, национальный достояние, творчество.*

***Annotation:** The article discusses the feature film dedicated to the life and scientific and spiritual heritage of Ishaqxon Ibrat, one of the major representatives of the Jadidist movement. Also, Ibrat's work as a prolific creator, reformer, and one of the founders of the national renaissance period is revealed.*

***Keywords:** cinema, period, history, national heritage, creativity*

Ma'rifatparvarlik va jadidchilik o'zbek adabiyotining rivojida muhim o'rin tutadi. Kino san'ati ham adabiyotning bir bo'lagi bo'lib, undan ozuqa oladi, chunki kinoning haqiqiy asosi va poydevori dramaturgiya bo'lsa, adabiyotning eng yuqori turi shu sohadir. O'zbek kinoijodkorlari so'nggi yillar milliy kinematografiyamizda tarixiy janrdagi to'liq metrajli badiiy filmlar yaratishga katta e'tibor qaratmoqda. «Islomxo'ja», «Elparvar», «Qo'qon shamoli», «Avloniy», «Ilhaq» va nihoyat «Ibrat» filmi.

Postanovkachi rejissyor Jahongir Qosimovning «Ibrat» tarixiy badiiy filmi shoir, tarjimon, adabiyotshunos, yetuk tilshunos olim Is'hoqxon Ibratning hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan.

Mazkur filmning eng katta yutug'idan biri shuki, unda haqiqatan Ibrat yashagan XIX oxiri XX asr boshlaridagi davr atmosferasi yaratilgan. Ayniqsa, bosh qahramon sayohat qilgan Arabiston, Iskandariya va boshqa mamlakatlardagi atrof-muhit chiroyli tasvirlangan.

«Ibrat» filmi bugun yurtboshimiz olg'a surgan kitobxonlik, ma'rifatparvarlik va mutolaa madaniyatini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, bosh qahramonning «Bugun kitob yoqayotgan millat ertaga odamlarini ham yoqadi» qabilidagi so'zlari ta'sirli chiqqan va dramaturgik tarafdin asar mohiyatiga xizmat qilgan.

Alohida e'tirof etish kerakki, 2021-yilda «Ibrat» tarixiy-badiiy filmi Avstraliyada o'tkazilgan «Xalqaro musulmon kinosi» festivalida «Eng yaxshi to'liq metrajli badiiy film» nominatsiyasi bo'yicha mukofotlandi. Ushbu filmni Qozon jamoatchiligiga film-

da bosh rolni ijro etgan aktyor, Rossiyada xizmat ko'rsatgan artist, VGIK o'qituvchisi Farhod Mahmudov taqdim etdi.

Filmda betakror iste'dod sohibi, ko'plab Sharq va G'arb tillarini yaxshi biladigan, mamlakatimizdagi ilk matbaachilardan biri Is'hoqxon Ibratning ma'rifatparvarligi, istiqlol kurashchisi sifatidagi o'rniga alohida urg'u berilgan. Is'hoqxon Ibrat istiqlol yo'li qo'zg'olonlardan, qon to'kishdan o'tishini istamaydi. U turli mazhablar va siyosiy uyushmalarni rad etib, bundan xalq juda ko'p jabr ko'rishini da'vo qiladi. U shaxsiy manfaatlarni o'ylash, shuningdek, shoshqaloq qarorlar oxir-oqibatda xalqni vayronkor urushlar sari yetaklashi haqida hammani ogohlantiradi. Shu bilan birga, u ta'lim orqali erkinlikka erishish g'oyasini ilgari suradi. Filmda bu jarayon keng aks ettirilgan.

“Ibrat” filmi suratga olish ishlari Misr, Turkiya, O'zbekistonda bo'lib o'tgan. Bosh rol ijrochisi Farhod Mahmudov suratga olish jarayonlari haqida quyidagilarni so'zlab bergan edi “Biz tarixning hayratlanarli burilishlarini boshidan kechirgan inson hayotini, sodir bo'lgan voqealarni qanday qabul qilganini tushunishga harakat qildik. Ibrat yuksak iste'dod sohibi bo'lgan, ko'plab tillarda gaplashgan. Albatta, biz uning barcha sifatlarini bitta filmga sig'dira olmadik. Film ikki soatdan ko'proq davom etadi, shuning uchun ba'zi voqealar sig'madi, olib tashlashga majbur bo'ldik. Ibratning hayoti va faoliyatidagi asosiy bosqichlarni qoldirdik”. Film Is'hoqxon to'ra Ibratning o'rnak bo'lgulik ibratli yo'lini ko'rsata olgani bilan e'tiborli bo'ldi. Zero, filmning ulkan tarbiyaviy ahamiyati ham ana shunda.

Xo'sh, Is'hoqxon Ibrat aslida kim bo'lgan va qanday ishlari bilan tariximizda iz qoldirgan? O'zbek adabiyoti va madaniyati tarixida milliy uyg'onish davrining komil arbobi sifatida muhim o'rin tutgan Is'hoqxon To'ra Junaydullaxon to'ra o'g'li Ibrat qomusiy olimlarga xos serqirra salohiyat sohibi edi. Uning ilm va ijoddagi faoliyatini umumlashtirgan holda muxtasar qilib, atoqli ma'rifatparvar va taraqqiyparvar, deb ta'riflash mumkin. Shoir, pedagog, tilshunos, tarixchi, matbaachi, noshir, publitsist, naqqosh, xattot, rassom, bog'bon... Ibratga xos ana shu sanab o'tilganlarning har biri alohida ilmiy tadqiqot talab qiladigan mavzu ekanini endi-endi bilayotgan bo'lsak, ajab emas.

Is'hoqxon Ibrat 1862-yilda Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanida tug'ilgan. Otasi Junaydulla to'ra Sunnatilla to'ra o'g'li o'z davrining ziyolisi edi. Xodim taxallusi bilan she'rlar yozgan. Onasi Huribibi zamonasining o'qimishli ayollaridan biri bo'lib, qishloq qizlarini o'qitgan. Nazmda durustgina qalami bo'lgan. Bobosi ham shoir bo'lib, Afsus taxallusi bilan elga tanilgan.

Is'hoqxon savodni onasi Huribibi yordamida chiqaradi. 1878–1886-yillarda Qo'qondagi Muhammad Siddiq Tunqator madrasasida tahsil oladi. Bu yerda arab, fors tillarini o'rganadi. Madrasani tamomlab, To'raqo'rg'onga qaytgan Ibrat xalq farzandlarini ilmi, ma'rifatli qilishdek ezgu maqsadda 1886-yilda yangi usulda maktab ochib, muallimlik qila boshlaydi. Maktabda dunyoviy ilmlarni o'qitishga alohida e'tibor beradi. Tor tushunchali ayrim “mulla”larning ig'vosi bilan ma'murlar bu maktabni yopib qo'yadi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda, jumladan, Farg'ona vodiysida yangi ijtimoiy tafakkur shakllana boshlagan edi. Ilg'or ziyolilar xalqni zulmatdan chiqarish,

ongini yoritish, taraqqiyotga, milliy uygʻonishga daʼvat etish borasida faol ish olib bordilar, butun faoliyati va ijodini shunga qaratdilar. Ibrat mana shu maʼrifatparvar va taraqqiyparvar ziyolilar guruhining oldingi saflarida edi. Oʻz adabiy-ijodiy va amaliy faoliyatini asosan shu maqsadga yoʻnaltirdi. Oʻz sheʼrlarida xalqni ilm-maʼrifatni egalashga, xorijiy tillarni oʻrganishga chaqirdi, milliy uygʻonishni targʻib qildi.

1887-yilda Ibrat onasi bilan uzoq chet el sayohatiga oʻtlanib, Turkiya, Eron, Misr va Arabiston boʻylab ilmiy-ijodiy safarda boʻladi, haj ibodatini bajaradi. Volidasi Huri-bibi Jidda shahrida vafot etadi. Uni tuproqqa topshirgach, Ibrat Yevropa mamlakatlariga yoʻl oladi. Bolgariya, Gretsiya, Italiyada boʻladi. Soʻngra Hindistonga oʻtib, Bombay va Kalkutta shaharlarida bir muddat istiqomat qiladi. Musofirchilikda unga yoshlikda oʻrgangan husnixat va naqqoshlik sanʼati kor keladi. Oʻsha yoʻqlarda u arab va fors tillaridan olgan bilimni mustahkamlaydi. Ingliz, hind va urdu tillarini oʻrganadi. U rus tilini ham puxta bilgan hamda Sankt-Peterburg, Moskva shaharlariga bir necha marta borgan.

Nihoyat, Afgʻoniston va Qoshgʻarda ham boʻlgan Ibrat 1895-yilda Toʻraqoʻrgʻonga qaytadi. U Yevropa yangiliklari, madaniyati va ilm-fan yutuqlaridan oʻz xalqi ham bahramand boʻlishini istaydi. Bularni yurtiga olib kirishga, joriy etishga harakat qiladi. Ayniqsa, maktab-maorif sohasiga katta eʼtibor qaratadi. 1907-yilda Toʻraqoʻrgʻonda yangi sharoit va yangi uslubda ish olib boradigan maktab tashkil qiladi. Taʼlim-tarbiya sohasida jadidchilik qarashlarini qattiq turib himoya qiladi. Taʼlim berishda “usuli savtiya”ni qoʻllashning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqadi. Maktab uchun oʻz uyidan xona ajratadi. Uni yangicha oʻquv jihozlari – parta, stol, stul, xattaxtalar bilan jihozlaydi. Oʻqish-oʻqitish ishlarini oʻzi tuzgan dasturga muvofiq olib boradi. Oʻquv dasturiga dunyoviy ilmlar, boshqa tillarni oʻrganishni kiritadi. Zarur darsliklarni oʻzi yaratadi. Chunonchi, “Sanʼati Ibrat qalami Mirrajab Bandiy” (1908) kitobini savod chiqarishga va husnixat namunalarini oʻrganishga bagʻishlagan. Maktab xarajatlari va bolalarni oʻqitgani uchun u ota-onalardan hech qanday haq olmaydi. Bundan tashqari, Isʼhoqxon Ibrat qishloq aholisi uchun “Kutubxonai Isʼhoqiya”ni tashkil qiladi, 1919-yilda Namanganda xotin-qizlar maktabini ochadi. 1920-yildan boshlab Toʻraqoʻrgʻonda savodsizlikni tugatish ishlariga boshchilik qiladi.

Isʼhoqxon Ibratni boshqa maʼrifatparvar zamondoshlaridan ajratib turadigan fazilat – bu fan-texnika yangiliklarini oʻlkamizga olib kirish yoʻlidagi fidoyiligidir. U xorijiy safarlardan grammafon, musiqiy quti, kinoapparat, fotoapparat keltiradi. Oʻz uyida kinofilmlar koʻrsatishni tashkil qiladi, suratxona ochadi.

1908-yilda Orenburgdan toshbosma anjomlari sotib olib, koʻp mashaqqatlar bilan avval Qoʻqongacha poyezdda, keyin Qoʻqondan Toʻraqoʻrgʻonga tuyalarda keltiradi. Shu yilning oʻzida “Matbaai Isʼhoqiya” nomi bilan bosmaxona tashkil etadi. Namangan matbaachiligiga asos boʻlgan bosmaxona oʻtgan asrning 60-yillarigacha faoliyat koʻrsatgan. Bu yerda oʻtgan davr mobaynida bir qator ilmiy-maʼrifiy kitob va risolalar, milliy gazetalar chop etilgan, ularni tarqatish uchun Fargʻona vodiysi boʻylab oʻnlab kitob doʻkonlari faoliyat yuritgan.

Darhaqiqat, Ibrat domla yaratgan bogʻ nafaqat shunchaki daraxtlar bilan toʻldirib tashlangan maydon, balki mukammal loyiha, ilmiy yondashuvlar asosida yaratilgan

tom ma'nodagi muhandislik inshooti bo'lgan. Ibrat uch tanob otameros yeriga xorijdan keltirilgan noyob manzarali daraxt va gul ko'chatlarini tur va tabiatiga qarab shunday aniq hisob-kitob asosida joylashtirganki, buni hozirgacha saqlanib qolgan bog' tarhida ko'rish va uning sohibkor bog'bon, nozikta'b gulchi va bugungi kun tushunchasi bilan aytganda, mohir landshaft dizayneri bo'lganiga ishonch hosil qilish mumkin. Ko'pchilik bahra olgan bu bog' "Gulbog'", "Is'hoqiya bog'i" nomlari bilan mashhur bo'lgan.

Bobomiz yaratgan "Lug'ati sitta al-sina" ("Olti tilli lug'at")ni tilshunoslik tarixida shu kungacha bo'lmagan noyob ilmiy tadqiqot, desa mubolag'a bo'lmaydi. Zero, ikki, uch tillik lug'atlar keng tarqalgani holda, olti tillik lug'at hozirgacha yaratilmagani shunday xulosa qilishga asos beradi.

Shuningdek, Ibrat domla serqirra ijodkor sifatida "Jome' ul-xutut" ("Xatlar majmuyi"), "Tarixi Farg'ona", "Tarixi madaniyat", "Mezon uz-zamon" («Zamon tarozusi»), "San'ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy" kabi tilshunoslikka oid o'ndan ortiq ilmiy-tarixiy hamda ma'rifiy asarlar yaratgan. U kishining qalamiga mansub yuzlab xalqchil she'rlar milliy adabiyotimizni boyitishga hissa bo'lib qo'shilgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston Ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvidagi ma'ruzasi// Xalq so'zi. – 2017-yil, 4 avgust.

2. Ibrat, Siddiqiy-Ajziy, So'fizoda. Tanlangan asarlar. –T.: Ma'naviyat, 1999.

3. O'zbekiston Markaziy Davlat arxivi, 1009-fond, 115-yig'majild, 15–16-varaqlar.

4. Is'hoqhon to'ra Ibrat. «Mezon uz-zamon». –T.: Ma'naviyat, 2005.

5. Is'hoqhon Ibrat. Tarixi madaniyat, O'z FA SHI qo'lyozmalar fondi, inv. № 11616.

6. Is'hoqhon to'ra Ibrat. Istiqlol qahramonlari. Tanlangan asarlar. –T.: Ma'naviyat, 2005.

## **MA'NAVIY BARKAMOLLIK VA SAN'AT**

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyotida san'atning o'rni, uning barcha turlari, xususan kino san'atida adabiyotning o'rni, kinoda badiiy obrazning ezgulik sari chorlay olishi, insonni yashashga bo'lgan ishonchini oshirishi, shu bilan birga qalbi, shuuri, ruhiyatiga ijobiy ta'sir etib, uning estetik didini shakllantirishi, ma'naviy dunyosini boyitishi va dunyoqarashini o'zgartirish qudratiga ega ekanligi ta'kidlanadi.*

**Kalit so'zlar:** *kino, adabiyot, san'at, axloq, ilm, bilim, til, ma'naviyat, madaniyat.*

**Аннотация.** *в данной статье рассматривается роль искусства в развитии Узбекистана, всех его видов, особенности роли литературы в искусстве кино, способность художественного образа в кино поощрять добро, повышать уверенность человека в живя и в то же время положительно воздействуя на его сердце, сознание и психику, формируя его эстетический вкус, подчеркивается, что он способен обогатить духовный мир человека и изменить его мировоззрение.*

**Ключевые слова:** *кино, литература, искусство, мораль, наука, знание, язык, духовность, культура.*

**Annotation:** *in this article, the role of art in the development of Uzbekistan, all its types, especially the role of literature in the art of cinema, the ability of the artistic image in the cinema to encourage goodness, to increase a person's confidence in living, and at the same time to positively affect his heart, consciousness, and psyche, to form his aesthetic taste, it is emphasized that it has the power to enrich one's spiritual world and change one's outlook.*

**Keywords:** *cinema, literature, art, morality, science, knowledge, language, spirituality, culture.*

Bugungi kunda tez suratlarda rivojlanib borayotgan dunyo madaniyati barchani hayratga solmoqda. Fan va texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanib barcha sohalar bir-birini inkor etmagan holda yuksaklik sari yuz tutib bormoqda. Soha vakillari tomonidan ixtiro qilinayotgan olamshumul kashfiyotlar esa, kishilarni o'z imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanish asosini yaratmoqda.

XXI asrni "Intellektual yoshlar asri" deb nomlanishi ham bejiz emas. Ertangi kun egalari bo'lgan yoshlarni har tomonlama bilimli va salohiyatli, tanlagan kasbining mohir ustasi bo'lishi uchun yurtimizda barcha sharoitlar yaratilgan. Shunday ekan, yoshlarning to'g'ri tarbiya topishida, millatimiz va vatanimizga sadoqat ruhida ulg'ayishida, yurtimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shadigan fidoyi insonlar bo'lib tarbiyalanishida adabiyot hamda san'atning o'rni beqiyosdir. Ushbu sohalar kishi ruhiyati bilan uzviy aloqador bo'lib, insonni komillik sari chorlaydi, olam va odam haqida taassurotga ega

bo‘lish hamda fikrlashga undaydi. Ayniqsa san‘at dunyosi har-bir kishida yashashga bo‘lgan hayotiy tajribani shakllantiradi.

Ma‘lumki, san‘atning barcha turi mehr-muhabbat sari intilish va insoniy fazilatlarni o‘rgatishga xizmat qiladi hamda ezgulik sari chorlaydi. Har bir san‘at turi insonni yashashga bo‘lgan ishonchini oshirish shu bilan birga qalbi, shuuri, ruhiyatiga ijobiy ta‘sir etib, uning estetik didini shakllantirish, ma‘naviy dunyosini boyitish, dunyoqarashini o‘zgartirish qudratiga egadir. Biz har kuni guvoh bo‘ladigan voqealar yoki ba‘zan e‘tiborimizdan chetda qolayotgan, oqibat, insoniylik, ezgulik kabi tushunchalarning aks etishi san‘atning asosiy tamoyillaridan biridir.

“Xalqning ma‘naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O‘zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma‘naviyat insonga havodek, suvdek zarur. Vatan va jahon madaniyatining, adabiyot va san‘atning yutuqlari har bir oilaga yetib borishi uchun oilaning moddiy ta‘minlanganligidan qat‘i nazar qulay sharoitlar yaratish talab etiladi. Ijodiy xodimlarning ma‘naviy kuchiga erkinlik berish ham katta ahamiyatga egadir”<sup>35</sup>. Birinchi Prezidentimizning ushbu fikrlaridan kelib chiqib, shuni alohida takidlash joizki, san‘at halqning e‘tibori va qalbini tez rom eta oladi. Mana shunday qulayliklarni hisobga olgan holda milliy kinematografiyamiz orqali adabiyot va san‘at asarlarida dolzarb va kuchli g‘oyalarni singdira olsak barkamol avlod tarbiyasida bir qancha yutuqlarga erishgan bo‘lamiz. Ana shunda tomoshibinlarga taqdim etilayotgan asarlar xalqimizni, ayniqsa bugungi kun yoshlarini vatanga muhabbat va sadoqat ruhida voyaga yetishida, ular ongida milliy mafkura asoslarini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Kino olamida adabiyot va san‘at o‘ziga xos o‘ringa ega. San‘atlar ichida kino san‘ati o‘zining keng qamrovliligi bilan boshqa sohalardan ajralib turadi. Kino, teatr, tasviriy san‘at, haykaltaroshlik, raqs, musiqa, umuman olganda bulardan biri bo‘lmasa boshqasi doimo kishi bilan hamrohdir. Bugungi kunda yurtimizda shu kabi san‘at turlarini yanada rivojlantirishni ko‘zda tutgan holda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qator farmonlar joriy qilindi. “Keyingi yillarda mamlakatimizda xalqimizning ma‘naviy-ma‘rifiy saviyasini yuksaltirish, madaniyat va san‘at muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, soha vakillarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston ijodkorlarini qo‘llab-quvvatlash «Ilhom» jamoat fondi, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida Madaniyat va san‘atni rivojlantirish jamg‘armasi, O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi, O‘zbekiston davlat filarmoniyasi, O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutining Farg‘ona mintaqaviy filiali tashkil etildi. O‘zbek mumtoz va folklor san‘atining noyob namunalarini, o‘ziga xos ijro maktablari va an‘analarini asrab-avaylash va rivojlantirish tizimi yaratildi. O‘zbek milliy maqom san‘ati markazi va muzeyi tashkil etildi. Har ikki yilda bir marta Xalqaro maqom san‘ati anjumani hamda Xalqaro baxshichilik san‘ati festivalining o‘tkazilishi noyob merosimiz nufuzini jahon miqyosida oshirish yo‘lida muhim amaliy qadam bo‘ldi”<sup>36</sup>.

<sup>35</sup> I.A.Karimov. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O‘zbekiston, 2000. – 242-b.

<sup>36</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2020-yil 26-maydagi PF-6000-sonli Farmonida keltirilishicha so‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, O‘zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ‘ib etish, xalq og‘zaki ijodiyoti va havaskorlik san’atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta’minlash, madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son qarori bilan O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha «yo‘l xaritasi» tasdiqlandi<sup>37</sup>.

**Kino, adabiyot, san’at va axloq.** Bularning o‘zaro aloqadorligi ularning bosh mavzui inson bilan belgilanadi. Kinoda adabiyot va san’at insonni uning maqsad manfaatlari, fikr mulohazalari, his tuyg‘ulari, ichki kechinmalari nuqtayi nazardan aks ettirsa, axloq inson ijtimoiy aloqalari va munosabatlarining mag‘ziga singib ketgan. Har qanday jamiyatda axloq-odobga aloqador bo‘lmagan biror voqea-hodisa yo‘q. Odamlarning o‘zaro munosabatlari va muomalalari axloqning bevosita obyekti bo‘lib xizmat qiladi.

Axloqiy muammolar majmuyi badiiy asar mazmunining tarkibiy qismidir. Ayniqsa, badiiy adabiyot, teatr, kino, tasviriy san’at asarlarida muammolar tuguni, to‘qnashuvi, qahramonlar fe‘l-atvori va xatti-harakatlari, tasvirlanayotgan obyektning muallif ko‘zi bilan baholanishi bularning hammasi axloqiylik bilan sug‘orilgandir. San’at asarlari axloqiy negizga ega bo‘lmasa, o‘zining insonparvarlik xususiyatini yo‘qotishi muqarrar. San’atda axloqiy qoida va me‘yorlar estetik jihatdan qayta ishlab chiqiladi: go‘zal va xunuk, ulug‘vor va pastkash, fojiali va kulgili kabi estetik tushunchalar sifatida idrok etiladi.

Adabiyot va san’at axloqiy orzu va qadriyatlarni ramziy namoyish etish bilan chegaralanib qolmaydi. U o‘zining haqqoniyligi, voqea-hodisalar mohiyatini chuqur ochishi, mazmun va shakl mutanosibligi jihatlaridan ibrat qilib ko‘rsatish orqali axloqiy poklikka, rahm-shafqatga, dardkashlikka, axloqiy kamolotga, ya’ni insoniy fazilatlar shakllanishiga xizmat qiladi.

Ilm faqat inson aqliga murojaat qilsa, haqiqiy san’at asari insonning ham aqli, ham tuyg‘ularini junbishga keltiradi. Shu sababdan san’atning ilmdan qamrovi kengroqdir. San’atkor faylasuf singari voqelikni ilmiy izohlashga urinmaydi, balki uning muayyan talqinini yaratib, uni o‘zgalarga beixtiyor yuqtirish yo‘lidan boradi. San’atning ta’sir kuchi undagi timsoliy tafakkur qudratidandir<sup>38</sup>.

Darhaqiqat, san’at va adabiyot voqelikni yaxlit uyg‘unlikda idrok etib, insonga ham ibrat, ham aql-tafakkur, ham tuyg‘u, his-hayajon vositasida ta’sir etishga urinadi. Buning uchun turli ramzlar, timsollar, belgilar, ishora va o‘xshatishlardan foydalanadi. Agar ilm tilini mutaxassislargina tushunsa, badiiy ijod mahsuli bo‘lmish san’at asarlari

<sup>37</sup> 2019-2020-yillarda O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”. <https://lex.uz/docs/4084926#4089489>

<sup>38</sup> Imomnazarov M., Eshmuhamedova M. Milliy ma’naviyatimiz asoslari. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyoti, 2001. – 403-b.

ko‘pchilikka tegishlidir. Har bir san‘atkor hayotga ijodiy yondasha bilishi shartligi ham ana shunda.

Bugungi kunga kelib, globallashuv va integratsiya jarayonlari jadal sur‘atlar bilan barcha soha va tarmoqlarga singib borayotganligi san‘atning boshqa ijtimoiy ong turlari bilan aloqadorligini kuchaytiradi, san‘at turlari integratsiyalashuviga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Aynan shunday holatlardan kelib chiqqan holda san‘atning har bir millat uchun o‘ziga xos ko‘rinishini, ya‘ni milliyligini saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ta‘lim-tarbiya tizimida esa san‘at va adabiyot hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Adabiyot va san‘at jamiyat hayotida, g‘oyaviy kurashda hamma vaqt muhim ahamiyat kasb etgan va shunday bo‘lib qolaveradi. San‘at – bu faqat ijro mahorati emas, balki tarbiyaviy xodisadir. U ijtimoiy haqqoniylikni in‘ikos etadi, unga g‘oyaviy baho beradi, kishilarni u yoki bu tarzda his etishga o‘rgatadi, fakt va hodisalarni to‘g‘ri baholashga yo‘llanma beradi.

Kino, adabiyot va san‘atga doimo qo‘yiladigan talab – dunyo xalqlariga davrimizning insonparvar g‘oyalarini go‘zal tarzda yetkazishdir. Kinoda san‘at va adabiyot orqali xalqlar va alohida shaxslar hayoti jamiyatning ilgarilovchi kuchlar ta‘sirida qanday bo‘lishi kerakligi to‘g‘risida fikr yuritiladi, umid qilinadi va pirovard natijada shunga harakat uyg‘onadi.

San‘at axloqiy qadriyatlarga tayangan xolda xalqning haqqoniy orzu-umidlarini ifodalaydi va bu san‘atning hal qiluvchi omilidir. Mamlakatimizda shaxsni har tomonlama, garmonik kamolotga yetkazish uchun barcha chora-tadbirlar ishga solinmokda.

Mutafakkirlarimizning ilmiy merosida va boshqa manbalarda qadrlangan, o‘zbekona axloq, odob tarbiyasiga asos qilib olingan ma‘naviy fazilatlar haqida ko‘plab ma‘lumotlar bor. Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining «Boburnoma» asarida o‘zbeklarga xos bo‘lgan ko‘plab axloqiy sifatlarni tasvirlaydi. Bular – halollik va imonlilik, birovning haqqiga xiyonat qilmaslik, farzandlarga, ota-onaga mehr, pokiza, e‘tiqod, diniy qadriyatlar, savodxonlik, saxovatlilik, odillik, ilmni qadrlash, saxiylik, san‘atni sevish va boshqalardir.

Xerman Vamberi Oltin O‘rdadagi o‘zbeklarning o‘ziga xos tarbiyasini, ularning oqko‘ngil va mardligi, san‘at va adabiyotni jon dilidan sevishi, oilaviy munosabatlardagi pokligi, andisha bilan mulohaza qilishi, ota-onaga bo‘lgan e‘tiqodning kuchliligi, bola tarbiyasidagi halollik va adolatliligi, mug‘ambirlikni bilmasligi va dinga e‘tiqodi kuchli bo‘lib, bu jihatdan anadoliyalik turklarga o‘xshashligini bayon qilgan<sup>39</sup>.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o‘zining “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch” asarida ulug‘ bobokalonimiz Alisher Navoiyga shunday ta‘rif beradilar: “Agar bu ulug‘ zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir”<sup>40</sup>. Bu bebaho ta‘rifu tavsiflar bejizga emas. Alisher Navoiy bobomiz deydilarki: “ahli surat”larga shoh bo‘lguncha, ma‘ni ahli yig‘inida gado bo‘lmoqliging yuz karra afzaldir”. Shoirning fikricha, «ahli ma‘ni» kishilar ma‘naviy-axloqiy jihatdan yetuk shaxslardir. Alisher Navoiy asarlarining qahramonlari Iskandar, Farhod, Shopur, Bahrom, Shirin, Layli, Majnun, Mohin-

<sup>39</sup> Vamberi X. Buxoro yoxud Movaraunnaxr tarixi. – T., 1990. 114–128-b.

<sup>40</sup> Karimov I. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008. – 47-6.

bonu va boshqalar axloqli, fazilatli, komil inson, ma'naviy yetuk insonlardir. Alisher Navoiy o'z davrida komil insonlarni «ahli ma'ni» deb bilgan. «Ahli ma'ni» – bu fikrli odamlardir. Fikrsiz kishining ongida ma'ni chuqurligi bo'lmaydi. Fikrlash-haqiqatni anglash, borliq to'g'risida mustaqil mushohada yuritish demakdir. «Ahli ma'ni»lik tufayli axloqiy ong rivojlanadi, odam va olam taqdiriga vijdon bilan qarash qobiliyati shakllanadi. «Ahli ma'ni» kishilar guruhiga oqil va dono, kamtar va olijanob, haqiqatparvar va fidoiylarni ko'rsatish mumkin. Shunday fazilatlarga ega bo'lgan kishilarning tafakkur qilishi kengdir. Chunki, ularda aql oddiy so'z va tushunchalardan emas, diyonat, adolat, insof, iymon, ishq, dard tuhfalari kamol topgan bo'ladi<sup>41</sup>.

Sharq mutafakkirlarining fozil inson, komil inson haqidagi fikrlari, axloq-odob haqidagi g'oyalari bugun hamjamiyat ma'naviyatini yuksaltirishda qimmatli dastur bo'lib qolayotir. Modomiki shunday ekan, yoshlarni ma'naviy, axloqiy, intellektual va jismoniy nuqtayi nazaridan yetuklik darajasiga ko'tarilishini ko'zda tutadigan buyuk mutafakkirlarimiz ma'naviy merosidan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda – T.: O'zbekiston, 2000.
2. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008.
3. O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son qarori.
4. 2019–2020-yillarda O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha “yo'l xaritasi”. <https://lex.uz/docs/4084926#4089489>
5. Imomnazarov M., Eshmuhamedova M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyoti, 2001.
6. Vamberi X. Buxoro yoxud Movaraunnahr tarixi. – T., 1990.
7. Oripova M. Alisher Navoiy ma'naviy merosida komil inson tushunchasi talqini. <http://buxoromoi.uz>

---

<sup>41</sup> Oripova M. Alisher Navoiy ma'naviy merosida komil inson tushunchasi talqini. <http://buxoromoi.uz/index.php/kafedralar/ijtimoiy-iqtisodiy-fanlar/43-alisher-navoiy-ma-naviy-merosida-komil-inson-tushunchasi-talqini>

## **O'ZBEK KINO SAN'ATI BADIY ESTETIKASI SHAKLLANISHIDA YORUG'LIKNING O'RNI**

**Annotatsiya.** *Maqolada o'zbek kino san'ati badiiy estetikasida yorug'likning o'rni haqida so'z boradi. Yorug'likning film tasviriy yechimi, obrazliligi, badiiy shaklini yaratishdagi beqiyos ahamiyati tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *yorug'lik, yoritish, badiiy film, kinooperator, rassom, kadr, kompozitsiya*

**Annotation.** *The article talks about the role of light in the artistic aesthetics of Uzbek cinema. The incomparable importance of light in creating a visual solution, imagery, and artistic form of the film is analyzed.*

**Keywords:** *light, illuminating, feature film, cinematographer, artist, frame, composition*

**Аннотация.** *В статье говорится о роли света в художественной эстетике узбекского кино. Анализируется ни с чем не сравнимое значение света в создании визуального решения, образности, художественной формы фильма.*

**Ключевые слова:** *свет, освещение, художественный фильм, оператор, художник, кадр, композиция*

“O'tgan asrning elliginchi yillari oxiri va oltmishinchi yillari boshlari badiiy filmlar ishlab chiqarishning bosqichma-bosqich ko'payishi, ularning janrlari va uslubiy doiralarning kengayib borishi, zamonaviy mavzularga yanada jadalroq tarzda murojaat qilish hodisalari bilan tavsiflanadi”. [1] 1920–1940-yillar kino kadr yoritilishida soya va nur yordamida jarayon kechuvidagi ziddiyatlarga urg'u berilgan bo'lsa, 1960–1980-yillarga kelib yorug'likka bu vazifalar yuklanmadi. Yorug'likdan asosan ramziy muhitni ifodalashda keng qo'llanildi. Bu davr tasviriy qatlamida epizod subyektini tashqi ochiqlikda emas, balki ichki sirliligiga e'tibor qaratildi. Endilikda yuqori kalitli yorug'lik na faqat ijobiylik va ko'tarinkilik, balki salbiylikni ham ifoda eta boshladi. Quyi kalit esa, salbiyliknigina emas, osudalik, xotirjamlik kayfiyatini ham yaratish imkoniyatini berdi. Ekranlarda sun'iy dabdaba muhitining o'rniga insonni o'rab turgan oddiy, hayotiy detallar; ommaning tashqi ko'rinishidan ko'ra, yakka shaxsning ichki dunyosi, kechinmalaridagi savollarga javoblar izlana boshlandi. Ma'lum reja asosida jihozlangan hayotiy manzaralar (xonadon chirog'i, ko'cha va xiyobon) asosiy yoritish manbalariga aylandi. Ekranlarda rangning paydo bo'lishi, rangli plyonka atrofidagi barcha texnologik jarayonlar, naturada elektr manbalari bilan ta'minlash, yoritish asboblari sifatining oshishi tasvirda kundalik hayotga yaqin muhitni paydo qilish imkoniyatini yaratdi.

1960-yillarda komediya o‘zbek badiiy kinosining etakchi janri sifatida yangi davrni boshlab berdi. “Mahallada duv-duv gap” (rej. Sh.Abbosov, 1960), “Sinchalak” (rej. L.Fayziyev, 1961), “Yor-yor” (rej. A.Hamroyev, 1964) kabi ko‘ngilochar filmlarda yorqinlik, yengillik muhiti ustun bo‘lib, film ishlab chiqishdagi texnologiya ham bunga mos edi. Ovozsiz davrda urf bo‘lgan ort tomondan yo‘naltiriladigan kontur yorug‘lik bo‘lmasa-da, ijrochilarning o‘zi va atrofi jilvador, yaltiroq yorug‘lik bilan yoritila boshlandi. Bu jarayonni oq-qora rangli filmlarda kuzatish mumkin. Yuqoridagi filmlarda salbiy qahramonlar bo‘lsa ham, keskin tafovutli yorug‘likda yoritilmagan.

O‘tgan asrning 60-yillaridagi kinokadr formatlari avvalgilariga nisbatan kengroq bo‘ldi. G‘arbda televideniyeqa raqobatchi sifatida yuzaga kelgan keng formatli kinematograf sobiq Ittifoq kinosanoatida “hikoya qilish”ning yangi vositasiga aylandi. Bu davr filmlarida inson erki va huquqi, uning ichki olami aks etib, shaxs jamiyatning tarkibiy qismi, degan qarashlar ko‘rina boshladi. Italiya kinosidagi “neorealizm” oqimi, fransuz kinosidagi “yangi to‘lqin”ning badiiy-estetik xususiyatlari jahon kino san‘atiga, shu jumladan, yurtimizga ham kirib kelib, yosh ijodkorlar faoliyatida sezilarli darajada kuzatildi. Bunda imperik uslub shundan iborat ediki, qulay va mavjud asbob-uskunalar bilan imkon qadar tezroq tasvirga tushirish, film tabiiy, zamonaviy ko‘rinish va jonli ovozga ega bo‘lishi uchun ishlab chiqarishdagi prodyuser nazorati va mumtoz uslubdan voz kechish, kerak edi. Bu uslub an‘anaviy, tijorat kinosi ishlab chiqarishdan ko‘ra hujjatli va televideniye uslubida suratga olish texnikasiga ko‘proq o‘xshab ketar edi. [2]

Ijodkorlarning mavzuni yoritishdagi, aktyorlar bilan ishlashdagi talablari an‘anaviy uslubdan yangi shakllarga o‘tdi. Texnologiyalar rivoji, xususan, keng ekranli, keng formatli kinokadrlar filmlar yaratilishida tamomila yangicha yondashuvni keltirib chiqardi.

Yoritish asboblari hamda yuqori sezuvchan plyonka turlarining ko‘payishi natijasida rejalashtirilgan epizodni kunning qat‘iy belgilangan vaqtida emas, balki qulay vaqtda tasvirga tushirish imkoniyati paydo bo‘ldi. Keng ekranli, keng formatli namoyishlar operatorlarga yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish vazifasini qo‘ydi. Kadr makonining ikki barobar ortgani yoritish masalalarida ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Hotam Fayziyev iborasi bilan aytganda: “s – keskin dinamikali format bo‘lib, operatorga yorug‘lik vositasida kadr kompozitsiyasi ichki xolatini jadallashtirishga ko‘maklashadi”. [3]

Kadr kompozitsiyasining kengligi sokinlik va tartibni ifodalaydi. Shu sababli yorug‘lik vositasida jadallikni paydo qilish vazifasi murakkablashadi. Bu formatdagi barcha kadrlarning ichki dinamikasi, ritmini operator kadr ichidagi obyektlarni harakatli joylashtirish bilan hal qila oladi.

Kinokadrlarni bunday uslubda tasvirga tushirish avvalo uzun fokusli, o‘zgaruvchan fokusli obyektivlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Ichki montajli kadrlar bir plan bilan boshlanib, bir necha o‘n metr uzunroq planlar bilan amalga oshirila boshladi. Bunday uzunlikdagi planlarda kadr kompozitsiya elementlarini tashkillashtirish bilan birga, ularni yoritish masalasini ham hal qilish kerak edi. Bu borada “Laylak keldi, yoz bo‘ldi” (rej. A. Hamroyev, 1966) filmi misol bo‘la oladi. Bu kartinada Malika turmush

o‘rtog‘idan uning hayotidan ketishga izn so‘ragan paytidagi erining g‘azabga kelish epizodi bor. Kamera erning yirik ko‘rinishidan harakatga kelib, xonadan chiqib ketgungacha bo‘lgan jarayonni “kuzatadi”. Kamera jahl bilan yopilgan eshik oldida biroz turib, vaziyatga aralasha olmagan onasi tarafga buriladi. Epizod bir ko‘rinish (plan) da tasvirga tushirilgan bo‘lsa-da er, ayol, devor, eshik hamda ona o‘tirgan yer besh xil kontrastdagi yorug‘lik bilan yoritilgan.

Filmlar vizual ifodasi tarkibida “yirik ko‘rinish”dek tomoshabin bilan muloqot qiluvchi kuchli vosita mavjud emas. Yirik ko‘rinish asosan ovozsiz filmlar davrida ijodkorlar tomonidan tomoshabinga ta’sir o‘tkazuvchi vosita bo‘lgan. Yirik ko‘rinish kadr kompozitsiyasi, unga yuklangan vazifadan kelib chiqib, tanlangan obyektiv xususiyatini hisobga olgan holda tasvirga tushiriladi. Tomoshabin yirik plandagi obrazni tomosha qilishi bilan ular o‘rtasida turli emotsional muloqot boshlanadi. Bu plan tomoshabinda kuchli hissiy taassurot, muhim xabar – agar inson qiyofasi bo‘lsa, uning yuz ifodalarini eng nozik va o‘rta umumiy planlarda namoyish etib bo‘lmaydigan jihatlarini ko‘rsatadi.

Rejissyor Shuhrat Abbosov shunday deydi “Men bilan ishlagan operator aktyorning psixologik holatini ochib berish uchun juda ko‘p chiroq qo‘yardi. Lekin, to qo‘ygan chirog‘i o‘zi talab qiladigan qoidaga mos kelmaguncha, operatorlik ishini yaxshi qilib ko‘rsatguncha, vijdoni va san‘at oldidagi burchini bajarmasa hech kimni tinch qo‘ymasdi. Cho‘zib, sudrab 2–3 soatlab naturada aktyorlarning yirik planiga chiroq qo‘yardi. Katta-katta diglarni qo‘yib aktyorlarni qiynaverardi. Bir tomondan, u bilan ishlaganlar azob chekardi. Ikkinchi tomondan, ekranda natijasini ko‘rib, hayratlanardilar. Operator haqiqiy iste’dod, tasviriy san’atni yaxshi tushunadigan, sohasini puxta egallagan katta san’atkor bo‘lishi kerak”. [4]

Yirik ko‘rinishni o‘ziga xos tasvirga olgan operator Aleksandr Pann pavilyonda yoritishni umumiy ko‘rinishdan boshlashini unda assistent bo‘lgan Hasan Fayziyev alohida ta’kidlagan edi: “Umumiy ko‘rinishga yo‘naltirilgan yorug‘lik mukammal bajarilsa, garchi u ko‘p vaqt talab qilsa ham, yirik ko‘rinishni tasvirga tushirish jarayonida aktyor chiroqlarning yorqin nuri va jihozlarning issiq taftidan qiynalmaydi”. [5] Mutaxassislar fikridan ko‘rinib turibdiki, har bir ijodkorning o‘z ishlash uslubi bor. Yirik ko‘rinishni to‘g‘ridan to‘g‘ri yoritishdan tashqari bu ko‘rinishdagi ko‘z, kipriklar va burun osti soya, ajinlar, yuz terisi rangi, yuz pardozi kabi nazoratda ushlab turadigan talablar mavjud.

Shu o‘rinda, texnik jihatlar bilan badiiy obraz yaratish borasidagi yirik mutaxassislar fikrini keltirib o‘tish o‘rinli. Xususan, Aleksandr Astryuk o‘zining “Yangi avangard tug‘ilishida kamera uslubi” manifestida bo‘lg‘usi yo‘nalishning umumiy ko‘rinishi haqidagi ba’zi fikrlarni keltiradi. Fransuz “Yangi to‘lqini” asoschilaridan bo‘lgan Fransua Tryuffo yuqoridagi fikrni rivojlantirib, “Kino tasviriy san’at hamda roman kabi o‘zini namoyon qilishning yangi bosqichidir. Bu shunday holatki, ijodkor qarashlari qanchalar abstrakt ko‘rinishda bo‘lmasin, zamonaviy roman yoki essedagi kabi to‘liq namoyon eta oladi. Shuning uchun men bu yangi davrni kamera uslubi deb atayman. Kinokamera har qachongidan ham faol. U voqeani muhrlovchi emas, balki o‘zi hikoya

shaklini bayon qiladi (yaratadi). Biz endi kuzatuvchi emas, voqeani ma'lum shaklda paydo qiluvchiga aylanayapmiz. Yorug'lik, rang, optika, harakatlanish, bu bizning ifoda vositamiz", – deydi. [6]

Bu yo'nalish tarafdorlari kino sanoatining an'anaviy usullari – katta ijodiy guruh, serharajat texnik vositalar, chiroqchi "gaffer"lar xizmatidan voz kechib, son jihatidan katta bo'lmagan tasvirga tushirish guruhi bilan filmlar yarata boshladilar. Ko'plab kinoshunos va kinotanqidchilar bu davrda yaratilgan filmlar uslubini "poetik" yoki bo'lmasa, "tasviriy ifodaviy", deya ta'riflashadi. Bu davr filmlarida g'oya va tushunchalardan qat'i nazar, film ijodkorlari adabiyotga xos xususiyatlarga, filmning dramatik tuzilishiga katta ahamiyat qaratishar edi. Ko'rilayotgan davr ijodkorlari esa, tasviriy san'atga yaqinlashish, filmning tasviriy yechimiga e'tibor qaratishga intildilar.

V.Mixalkovich "tasviriy uslub" tushunchasini quyidagicha sharhlaydi "Tasviriy uslub"da kadrning barcha tafsilotlari, detallari to'liq sayqallanishi bilan u hayotiy mazmun va ma'noga ega bo'ladi. Bunda epizoddagi ma'lum detallar va tafsilotlar qahramon faoliyatining tarkibiga singdirib yuboriladiki, u bir qarashda ko'zga tashlanmaydi. Garchi oldindan rejalashtirilgan bo'lsa-da, tasvirdagi ramziylik va detallar odatiy jarayondagi bir holatdek taassurot uyg'otishi mumkin. Bu, go'yo, rassomning avvaldan o'ylab qo'ygan muhim detalni umumiy kartinaga ko'z ilg'amas darajada singdirib yuborishidek holatdir". [7] Tadqiqotchilar "tasviriy kinematografda" tasvir va undagi aktyorlar joylashgan muhit katta ma'noga ega ekanligini ta'kidlashadi. [8]

O'zbek badiiy kinosida ham hissiy holat namoyon bo'lgan qator filmlar tasvirga tushirilgan. "Sening izlaring" (rejissyor R.Botirov, operator M.Maslennikov, 1963-y.), "Uchrashuv" (rejissyor E. Eshmuhammedov, operator D.Fatxulin, 1963-y.), "Surayyo" (rejissyor U.Nazarov, operator H.Fayziyev, 1965-y.), "Muhtalo" (rejissyor Z.Sobitov, operator L.Traviskiy, 1965-y.), "Qalbingda quyosh" (rejissyor Sh.Abbosov, operatorlar M.Penson, L.Yeftimovskiy, 1965-y.), "Laylak keldi, yoz bo'ldi" (rejissyor A. Hamroyev, operator D.Fatxulin, 1966-y.), "Nafosat" (rejissyor E.Ishmuhammedov, operator D.Fatxulin, 1966 y.), "Dilorom" (rejissyor A. Hamroyev, operator H.Fayziyev, 1968-y.), "Yigit va qiz" (rejissyor U.Nazarov, operator L.Traviskiy, 1968-y.), "Sevishganlar" (rejissyor E. Eshmuhammedov, operator G.Tutunov, 1969-y.), "Seni kutamiz, yigit" (rejissyor R.Botirov, operator L.Yeftimovskiy, 1971-y.) kabi filmlarning barchasi oq-qora tasvirli plyonkalarda yaratilgan. Bu filmlarda holatlar va ichki kechinmalar talqini tasviriy ifoda vositalari hamda yoritish uslublaridan samarali foydalangan holda amalga oshirilgan.

Xulosa qilib aytganda, kino avvalo audiovizual san'at. Film operatorining mahorati yorug'likdan tasviriy ifoda vositasi sifatida samarali foydalana olishida namoyon bo'ladi. Zero, yorug'lik har qanday badiiy film vizual ifodasining muhim tarkibiy qismidir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimova N. O‘zbekiston kino san’ati. – Turkiya: Mega basim. 2022. 92-b.
2. A history of the French new wave cinema / Richard Neupert. Copyright © 2002, 2007. 18-бет.
3. “Dilxiroj” Kinoekspeditsiya. Boysun. 2001-y. Erkin suhbat.
4. Ergasheva.G. O‘DSI. “Ustoz Xotam Fayziyev – O‘zbek kinosi chirog‘i”. 2011.y.
5. X.Fayziyev. Erkin suhbat. Fotochilar uyi. Toshkent. 2016.y
6. L’Ekran” jurnali. 1948-y №3.
7. Михалкович В. “Стиль кинематографа и стиль фильма”. // Искусство кино. 1978. №1.С.
8. Ивашова Н. “Проблемы изобразительной стилистики в советском кино 60-80-х годов”. – М., 1989.

## HUJJATLI KINO REJISSURASIDA USLUB VA TALQIN MASALALARI (NELYA ATAULLAYEVA IJODI MISOLIDA)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek hujjatli kino san'atida rejissyorning uslubiy o'ziga xosligi haqida fikr yuritiladi. Unda aktrisa va o'zbek kinosidagi ilk hujjatli filmlar rejissyori Nelya Ataullayevaning ijodiy uslubi yaratilgan filmlar misolida tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** harakter, rekonstruktsiya, postanovka, xronikal kadr, multiplikatsiya

**Аннотация.** В данной статье рассматривается стилистическое своеобразие режиссера в узбекском документальном киноискусстве. В нем проанализирован творческий стиль актрисы и режиссера первых документальных фильмов узбекского кино Нели Атауллаевой на примере созданных фильмов.

**Ключевые слова:** персонаж, реконструкция, постановка, хронический кадр, мультипликация

**Abstract.** This article examines the stylistic uniqueness of the director in Uzbek documentary cinema. It analyzes the creative style of actress and director Neli Ataullayeva, who was involved in the production of the first documentary films in Uzbek cinema, using her films as examples.

**Keywords:** character, reconstruction, staging, chronic frame, animation

Bir asrlik taraqqiyot pillapoyasini ortda qoldirgan o'zbek milliy kino san'ati, bugun jahon kino ijodkorlari e'tibori va e'tirofiga sazovor bo'lgan. Badiiy film, ilmiy-ommabop, hujjatli va multiplikatsion kino turlari bo'yicha ko'p yillik an'ana va mahorat maktabining mavjudligi buning poydevoridir.

Birgina hujjatli kino olamiga nazar tashlanadigan bo'lsa, mustaqillik davridan to hozirgi kunga qadar mingga yaqin filmlar yaratilgan. Ular turli mavzu va shaklda bo'lib, O'zbekistonning ichki va tashqi xaritasini tomoshabin tasavvurida gavdalantiradi. Bu xaritaning to'g'ri va aniq tasvirlanishi, haqqoniy mazmun-mohiyatni ifodalash asosidir.

Hujjatli filmda hayot haqiqati material bo'lib xizmat qiladi. Hayotiy tasvirlar jamlanib, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy sohalardagi yangiliklari, muammo va yutuqlari, tabiat, atrof-muhit bilan bog'liq jarayonlari yoki ma'lum shaxs faoliyati aniq ko'rsatilib, tanlangan obyekt boricha ta'riflanadi. Bu jihatdan u o'ziga xos solnoma, kelajak avlod uchun tarixiy manba bo'lib xizmat qiladi. Odatda multiplikatsion, badiiy filmni ko'rib ham muayyan davr muhiti, insonlari haqida taassurot uyg'onadi. Biroq, obyektivlik, ishonchlilik, aniqlikka tayanuvchi hujjatli film beradigan tasavvurning ahamiyati yuqori.

Hujjatli kino sohasiga tamal toshini qo'ygan, mamlakat tarixidagi muhim ijtimoiy davrlarni o'z hayotiy filmlarida ro'yi-rost va yuksak mahorat bilan aks ettirgan ulkan rejissyorlardan biri Nelya Ataullayevadir.

Hujjatli kinodagi birinchi va yagona ayol rejissyor Nelya Ataullayeva haqida kinoshunos B.Hasanovning “Kino” jurnalida chop etilgan maqolasi va “Kino muzeyi”da saqlanib kelinayotgan sanoqli fotolar ma’lumot beradi xolos. B.Hasanov hujjatli kino haqidagi dissertatsiyasida rejissyor ishlariga qisqacha to’xtalgan “60-yillarning boshlarida o’zbek kinematografiyasi ancha boyidi, unda rejissyorlar safini N.Ataullayeva, R.Sharifjonova, A.Yakubov, N.Rahimboyev, operatorlar – T. Nodirov, T.Bobojonov, A. Karimov, D.Salimov to’ldirdi” [1.15].

O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan artist, SSSR Kinematograflar uyushmasi a’zosi, ko’plab hujjatli filmlar rejissyori Nelya Ataullayeva 1931-yilda Toshkentda tug’ilgan. 1953-yilda Toshkent teatr va rassomlik institutining aktyorlik fakultetini tamomlagan. U “Yangi yer”, “Uchrashuv”, “Amirlikning yemirilishi”, “Sevishganlar” filmlarida rollar o’ynagan. 1956-yilda VGIKning rejissyorlik bo’limiga o’qishga kirib, 1962-yilda tamomlagan. So’ngra “O’zkinoxronik” studiyasiga ishga kelgan. Bu dargohda u yigirmaga yaqin hujjatli filmlar yaratgan.

O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan artist, O’zbekiston Davlat mukofoti laureati Ali Hamroyev rejissyorni xotirlab, shunday deydi: “Nelyani bolaligimdan bilaman. Onam “O’zbekfilm”da muharrir bo’lib ishlagani uchun mening kunim ham kinostudiyada o’tardi. O’smirlik chog’imda Nelyani ko’proq Yulduz Rizayeva bilan ko’rardim. Yosh go’zal Nelya Ataullayevaning ishlash jarayonni zavq bilan kuzatardim. U suratga olish maydoniga chiqqanida hamma narsa porlab turardi. Nazarimda, u o’zidan nafis yog’du taratgandek bo’lard. Bu sohibjamol insonning yaratgan filmlari ham o’zidek go’zal edi”. [2.3]

Nelya Ataullayeva ijodida ayollar mavzusi alohida o’rin tutadi. Uning ilk hujjatli filmi ham “Dugonalar” deb nomlanib, turli kasbdagi qahramon qizlar haqida hikoya qiladi. Ushbu hujjatli film shoira Zulfiya, olim Irina Raykova, tibbiyot fanlari doktori Zulfiya Umidova, birinchi o’zbek mashinist ayoli Bashorat Mirboboyeva hayoti va faoliyatini aks ettirgan.

Keyinchalik rejissyor psixologik portret janriga chuqur kirib borib, qator filmlar suratga oldi. Bular orasida “Nukuslik muallim”, “Toshkentda bir qiz yashaydi” kabi asarlar o’zining badiiy qiymati bilan alohida o’rin tutadi.

O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan artist, Davlat mukofoti laureati, kinorejissyor Qamara Kamalova shunday eslaydi “Nelya mendan bir necha yosh katta. U institutga kelganida rejissyor A.Amo-Beknazarovning “Yangi yer” badiiy filmida Hafiza, Tofiq Tog’izodaning “Uchrashuv” filmida bosh qahramon Lala, L.Fayziyevning “Amirlikning yemirilishi” filmida Oygul kabi bir qator rollarda suratga tushgan va o’ziga xos tajribaga ega bo’lgan aktrisa edi. O’shanda o’zbek kinosiga yosh rejissyorlarning yangi avlodi kirib kelgandi. Ular orasida Ali Xamrayev, Elyor Ishmuhamedov, Eduard Xachaturov ham bor edi. “O’zbekfilm” kinostudiyasida yiliga uch-to’rtta film chiqarilar, hali katta badiiy filmida ayol kishi mustaqil asar olmagan davrlar va buni tasavvur qilish qiyin edi” [1.4].

Hujjatli filmlar suratga olish o’sha paytda, ayniqsa, ayol kishi uchun juda qiyin edi. Nelya Ataullayeva issiq-sovuq kunlar, noqulay yashash sharoitli joylar, UAZ avtomashinalarida yo’l yurishlar, doimiy safarlar, suvsiz mehmonxonalardan qo’rqmadi. U

bularning barchasini o‘z holicha qabul qildi. Hamisha qiziqarli kadrlar qidirar va topardi. Shu maqsadda qurilish kraniga chiqish, o‘tib bo‘lmaydigan jarliklarga tushishdan hayiqmadi. U har doim g‘ayrioddiy narsalarni suratga olishga, kadrغا poetik yechim topishga muvaffaq bo‘ldi.

1971-yili rejissyor tomonidan “В сердце Ташкента” filmi suratga olindi. Ushbu film Toshkent shahrining yangi qurilish inshootlariga bag‘ishlangan. Shunday madaniy maskanlardan biri bu – “Lenin muzeyi” edi. Muzeyni O‘zbekiston SSSR rahbari Sharof Rashidov tantanali ravishda ochib bergan. Tashrif buyurgan barcha yosh-u qari birinchi bo‘lib muzeyning katta qismini egallab turgan haykalga duch keladi. Filmدا haykalni yasayotgan xalq rassomi, haykaltarosh Nikoloy Tomskiy, shuningdek, xalq ustasi Mahmud Usmonovning milliylik ufurib turgan devoriy naqshlarni ishlash jarayoni bevosita suratga olingan. Qo‘qon milliy o‘ymakorligi ustasi, xalq rassomi Qodirjon Haydarovning o‘z san‘atini muzeyda qanday amalga oshirgani jarayonda ko‘rsatilgan.

1973-yil suratga olingan “Узбекистан 1924-1930 г.” deb nomlangan filmida yurtimizda ilk Buxoro kompartiyasining tashkil topishi, siyosiy jarayonlar arxiv fotolar bilan montaj yordamida mohirona aks ettirilgan. Filmда arxiv kadrlar ishlatilib, 1927-yil 15-iyunda birinchi marotaba o‘zbek ayoli Moskvaga borishi, paranji tashlash jarayonlari, davlatda ayollarning ijtimoiy va siyosiy faoliyatga kirib kelishi kabi kadrlar ko‘rsatiladi.

Film ikki qismdan iborat. Birinchi qismda o‘sha davrning eng faol ayollardan bo‘lgan Tojixon Shodiyeva va uning yangi sharq afsonasi sifatida Moskvaga borib orden bilan taqdirlanishi tasvirlangan. Hamza sahnalashtirgan spektakllar va uning din peshvolari tomonidan turli qarshiliklarga uchrashi kadrlarda ifoda etilib, o‘sha davr muhitini naqadar ayanchli ekanligini o‘zida aks ettirgan. Shuningdek, ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar, yangi temir yo‘llar, zavod va fabrikalar, qurilishlar, qo‘riq yerni o‘zlashtirish kabi bunyodkorlik ishlari ko‘rsatilgan. Filmning ssenariy muallifi M.Qayumov, operator N. Ismailov, rejissyor N.Ataullayeva, muharir X.Jo‘rayev bo‘lib, kadr ortidagi matnni S.Bakov o‘qigan.

N. Ataullayeva tomonidan suratga olingan yana bir hujjatli filmi “Bobur” deb nomlangan. Film Bobur hayoti va ijodiga bag‘ishlab chizilgan miniatyura asarlar asosida tasvirga olingan. Unda shoh va shoir hayoti, faoliyati kadr ortidagi muallif so‘zi orqali sharhlab borilgan. Boburning ilk taxtga kelishidan tortib to yurtidan ketishigacha bo‘lgan faoliyati milliy musiqa fonida aks etadi. Uning Hindistonga yurishi va shohlik davridagi shoirlik jarayoni milliy hind musiqa asboblari ostida ifodalanadi.

Nelya Ataullayevaning muvaffaqiyatli filmlaridan yana biri “G‘afur G‘ulom” deb nomlanadi. Ushbu filmда arxiv suratlari bilan birga, shoir faoliyatini aks ettirgan videotasmalardan foydalanilgan. Filmning birinchi qismda shoirning ijodi, uning ayniqsa urush yillarida yozilgan otashin she‘rlari haqida so‘z boradi. She‘rlar o‘qilganda o‘sha davr kayfiyati, urush dahshatini aks ettiruvchi musiqalar qo‘llanilib, yuksak ta’sirchanlikka erishilgan. Filmning ikkinchi qismida ijodkorning oilasi aks etadi. Uning turmush o‘rtog‘i, farzandlari, adabiy jarayonlar foto va arxiv kadrlarida namoyon bo‘ladi.

“Hujjatli kino ijodkori hayot bilan hamnafas. U davr yilnomasini yaratadi, shu bois har bir kadrda o‘sha yillar yuragi urishi his etiladi. O‘zbekistonda hujjatli kinoning

birinchi ayol rejissyori Nelya Ataulloyeva qisqa, ammo yorqin hayotini murakkab janr – kinoxronikaga bag‘ishlagan ulkan yurak sohibasi edi” [3.5]. Mamlakatimiz hujjatli kinosining bugungi yutuqlari zamirida ham ana shunday ulug‘ ijodkorlar yaratgan ba-diiy meros muhim o‘rin egallaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Хасанов А. Узбекское документальное кино (1925-1966) (исторический очерк). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата искусствоведения. –Ташкент: Фан. УзССР.1967. –15 с.
2. Письма о Ташкента. «Неля Атауллова влюблённая в жизнь». – Т.: 18.05.2013.
3. Письма о Ташкента. Мастура Исакова. «Неля Атауллова влюблённая в жизнь». – Т.:18.05.2013.
4. Abulqosimova X., Haymatova S. Film tomoshabin uchun yaratiladi (*Hujjatli kino haqida o‘ylar*) // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasi, 2007, 4-son.
5. Hasanov B. Mustaqillik davridagi hujjatli kino. /O‘zbekiston hujjatli kinosi: Mustaqillik davri. 1991–2007-yillar. Tuzuvchi S.Haymatova. – Т.: “Art Fleks”, 2008. – 5-bet.

## **ANIMATSIYA INDUSTRIYASI SHAKLLANISHIDA REJISSYOR-ANIMATORNING O'RNI**

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada rejissyor-animator kadrlarni tayyorlashda zamonaviy metodlarni o'rganish, mavjud kamchiliklarni aniqlash hamda amaliyotga tatbiq qilish masalasi yoritilgan. Jumladan, jahon animatsiya tarixida rejissyor-animator kasbi shakllanish bosqichlari, Butunrossiya kinematografiya instituti "Animatsiya va multimedia" fakulteti o'quv dasturlari tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *animatsiya, rejissyor, ssenariy, badiiy g'oya, yaxlitlik, multimedia, san'at, aktyor, simbolizm, kompyuter grafikasi, kompozitsiya.*

**Abstract.** *This article covers the issue of learning modern methods of training director- animator personnel, identifying existing shortcomings and applying them to practice. In particular, the stages of formation of the director- animator profession in the history of world animation, the curriculum of the All-Russian Institute of Cinematography «Animation and Multimedia» faculty are analyzed.*

**Keywords:** *animation, director, screenplay, artistic idea, unity, multimedia, art, actor, symbolism, computer graphics, composition.*

**Аннотация.** *В данной статье рассматривается вопрос изучения современных методов подготовки режиссёрско-анимационного персонала, выявления имеющихся недостатков и применения их на практике. В частности, анализируются этапы становления профессии режиссера-аниматора в истории мировой анимации, учебная программа факультета «Анимация и мультимедиа» Всероссийского института кинематографии.*

**Ключевые слова:** *анимация, режиссёр, сценарий, художественная идея, единство, мультимедиа, искусство, актёр, символика, компьютерная графика, композиция.*

Bugungi kunda tomoshabin qalbida Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat va meh-r-oqibat tuyg'ulari aks etgan milliy animatsion filmlarni yaratishda rejissyor-animator mutaxassislarini o'rni beqiyosdir. Animatsiya san'atining kelib chiqishi va shakllanish yo'li hamda yangi uslublarning paydo bo'lishida ijodiy jamoani yagona badiiy g'oya-ga birlashtirib turuvchi rejissyor-animatorning roli ahamiyatlidir. Milliy qahramon yaratish uchun rejissyor kino hamda teatr rejissyorlari kabi keng qamrovli bilim-ga ega bo'lishi talab qilinadi. Lekin kino va teatrdan farqli ravishda animatsiya bir necha bora murakkab san'at turi sifatida ta'kidlanadi. Sababi unda rejissyor-animator sehrli olam-ni yaratish bilan birgalikda, ushbu olamga tomoshabinlarni ishontira olishi, turli his tuyg'ularni to'qima qahramonlar orqali qay darajada yetkazishi singari murakkab vazifalarni amalga oshirishi talab etiladi. Shuningdek, rejissyor-animator o'zbek adabiyoti,

tarixi, milliy qadriyatlarini qay darajada ko'rsata olishi milliy animatsion film muvaffaqiyatini belgilaydi.

Animatsiya rejissyorligi kasbi turli ijodiy yondashuvlar asosida shakllandi. Animatsiya atamasi "jonlantirish" ma'nosini beradi. Buyuk rus rejissyor-animatori, pedagog F.Hitruk "Animator – bu aktyordir" deb ta'kidlaydi. Bugungi kunga kelib esa to'qima obrazlar orqali tomoshabinlarni bir necha soat ushlab turish tobora murakkab vazifaga aylanib bormoqda. Uzoq yillar mobaynida rassomlar tasvirni harakatga keltirishga turli yo'llar bilan urinishgan. Ushbu izlanishlarning muvaffaqiyatli natijasi ilk bor Emil Reynoning Optik teatrda namoyon bo'ldi. Emil fransuz rassomi va ixtirochisi bo'lib, animatsiyaning dastlabki kashfiyotchilaridan biri sifatida tanilgan. U 1892-yilda animatsiyaning ilk namunasi bo'lgan "optik teatr" (Theatre Optique) premyerasini namoyish qildi. Emil Reyno "Pulka va qishloq odamlari", "Auto o'yin-kulgi" kabi bir nechta qisqa metrajli multiplikatsion filmlar yaratdi. Davr uchun olamshumul kashfiyot hisoblangan multimlikatsiya muxlislari ortib Reyno ulkan mashhurlikka erishdi.

**Maxsus effekt.** Bir necha yillardan so'ng esa aka-uka Lyumyelar "kinokamera" ekranda harakatlanuvchi tasvirlarni yozib olish va ko'rsatish uchun birinchi qurilmada tasvirga olingan filmni namoyish etdilar. Birinchi ommaviy kino namoyishi 1895-yil 28-dekabrda Parijda bo'lib o'tdi. Ular kundalik hayotning turli jihatlarini, shuningdek "Ishchilarning fabrikadan chiqishi" (1895), "Poyezdning stansiyaga kelishi" (1896) va boshqa ko'plab qisqa filmlarni suratga olishdi. Kinoning paydo bo'lishi animatsiya san'atini rivojlanishida katta burilish yasadi. Ushbu hodisa Jorj Melies fransuz rejissyori nomi bilan bog'liq. Melies o'z filmlarida maxsus effektlardan faol foydalangan birinchi kinorejissyorlardan hisoblanadi. U sehrli va fantastik sahnalarni yaratish uchun transformatsiyalar, kamerani to'xtatish, superpozitsiya va boshqa ko'plab usullarni ishlab chiqdi va qo'lladi. Uning eng mashhur filmlaridan biri "Oyga sayohat" (1902) bo'lib, u butun dunyo bo'ylab xitga aylandi. Melies Parijdagi "Robert-yui teatri" kinoteatrining egasi bo'lib, u yerda nafaqat o'z filmlarini namoyish etdi, balki kino sanoatidagi texnik yangiliklar bilan tajribalar o'tkazgan. Jorj Melies kinematografiya hamda animatsiyaning san'at va texnologiya sifatida rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi, uning ishi ko'plab keyingi rejissyorlar, shu jumladan zamonaviy maxsus effektlar va fantastik filmlar yaratuvchilari uchun ilhom manbayi bo'ldi.

Stop moushn. James Stuart Blackton amerikalik rassom, karikaturachi, stop moushn animatsiya texnologiyasi dastlabki kinorejissyorlardan biri bo'lgan. U o'z faoliyatini rassom va karikaturachi sifatida boshlagan, turli nashrlar uchun ishlagan. 1906-yilda birinchi animatsion filmi "Chekishning Gumoristik bosqichi"ni yaratdi. Ushbu film stop-moushn texnikasidan foydalangan holda yaratilgan va birinchi muvaffaqiyatli animatsion loyiha bo'ldi. Stuart Blackton, shuningdek, kombinatsion filmlar yaratdi va turli xil maxsus effektlar bilan tajriba o'tkazdi. U jonli animatsiya va aralash animatsiyadan foydalanish kabi bir qator yangi texnikalarni birinchilardan bo'lib qo'llagan. Uning ishi animatsiya va umuman kinematografiyaning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. U animatorda ijodiy fikrlash va jozibali sahnalar yaratish ustida ishladi. Shunday qilib, animatsiya nafaqat texnik uslub balki, texnika hamda ijodkor qobiliyatining birlashtira olgan yangi san'at turi ekanligini ko'rsatdi. Stuart Blackton animatsiya

va kinematografiya tarixidagi eng muhim shaxslardan biri bo‘lib, uning tajribalari kino sanoatidagi ko‘plab zamonaviy texnika va janrlarga asos solgan.

**Animatsion xarakter.** Animatsiya texnik imkoniyatlarni ochgan bo‘lsa-da vaqtlar o‘tib tomoshaga artistlik kayfiyat yetishmasligi sezilarli darajada oshdi. Fransuz rassomi va animatori Emile Cohl o‘zining ilk namoyishlarida qahramonga bugungi kungacha qo‘llaniladigan aynan animatsion xarakterni kashf qildi. Shu davrgacha rasmlarni “ko‘paytirish” orqali film yaratilgan bo‘lsa, endilikda qahramonlarni “jonlantirish”ga katta e‘tibor qaratildi. Shunday qilib animatografiya tarixida “animatsiya” (jonlantirish) atamasi kirib keldi. Emile Cohl birinchi animatorlardan biri hisoblanadi. 1908-yilda ilk “Musiqiy mavzular fantaziyasi” (Fantasmagorie) nomli birinchi animatsion filmni yaratdi. Rejissyor-animator turli xil animatsiya texnikasi bilan tajriba o‘tkazdi, shu jumladan uning asarlari ko‘pincha ekspressiv uslub va abstrakt elementlar bilan ajralib turdi.

Mualliflik animatsiyasi. Vinsor Makkay (Winsor McCay) amerikalik rassom, karikaturachi, animator, shuningdek, animatsiya va komikslar sohasida kashshof bo‘lgan. Uning jahon san’ati va kinosiga qo‘shgan hissasi komikslarida bo‘ldi. Uning “Little Nemo in Slumberland” seriyasi mashhur bo‘lib, murakkab chizmalar va fantastik syujetlardan iborat. Ushbu komiks 1905-yildan 1914-yilgacha va yana 1924-yildan 1926-yilgacha nashr etilishda davom etdi. U, shuningdek, dastlabki animator bo‘lib, dunyodagi birinchi to‘liq metrajli animatsion film – “Moviy rassom”ni (1914) yaratdi, unda kadrma-kadr chizishning murakkab texnikasidan foydalangan. Ushbu film animatsiya tarixida inqilobiy hisoblanadi. Makkey o‘zining harakatlanuvchi tasvirlar va istiqboldan foydalanish mahorati bilan mashhur. Uning ishi animatsiya effektlari va murakkab syujetlarning yorqinligini namoyish etib, uni o‘z davrining yetakchi innovatorlaridan biriga aylantirdi. Makkayning komikslar va animatsiya olamiga qo‘shgan hissasi keyingi o‘n yilliklarda ushbu janrlarning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Uning texnik yutuqlari va ijodiy uslubi ko‘plab animatorlar va rassomlarni ilhomlantirdi. Vinsor Makkay animatsiya va komikslar tarixidagi eng muhim va nufuzli shaxslardan biri bo‘lib, uning ishi butun dunyo bo‘ylab odamlarni ilhomlantirishda va zavqlantirishda davom etmoqda.

Ushbu an’anani davom ettirgan animatorlar ijodini o‘rganuvchi rus kinoshunos olimasi N.Krivulya Rossiya animatsiyasi asoschilari fikrini tahlil qilar ekan, tomoshabinlar nafaqat film janri yoki multfilm qahramonlari, balki muayyan muallifning individual, ya’ni rejissyorlik uslubini ham farqlay boshlaganini ta’kidlagan.[1, 37] Namuna darajasidagi multfilmlar yaratgan taniqli rus mualliflari orasida Yuriy Norshteyn va Aleksandr Petrov tomonidan yaratilgan “Tumandagi tipratikan”, “Chol va dengiz” kabi filmlar rus animatsiya olamiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

**Eksperimental animatsiya.** Kanadalik animator Norman McLaren, rejissyor va eksperimental animatsiyaning kashfiyotchisi edi. Uning jahon kinematografiyasi va animatsiyasiga qo‘shgan hissasi juda katta bo‘lib ijodi animatsiya san’atining rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Norman McLaren turli xil animatsiya texnikasi va film texnologiya ustidagi tajribalari bilan tanilgan. U tez-tez nostandart yondashuvlardan foydalangan, masalan, to‘g‘ridan to‘g‘ri plyonkaga rasm chizish (kameronasiz animatsiya), animatsiyani musiqa va ovoz effektlari bilan birlashtirish. Uning asosiy asarlaridan

biri “Jangovar fil” (1941). McLarenning ushbu qisqa metrajli filmi musiqa va tovush bilan sinxronlashtirilgan innovatsion animatsiya texnikasini o‘z ichiga olgani bilan mashhur bo‘ldi. “Osmon” (1958) filmi animatsiyani musiqiy simfoniya bilan sinxronlashtirgan abstrakt va eksperimental usullarni o‘z ichiga oladi. “Piano mexanik” (1960) filmida McLaren musiqiy notalar pianino mexanik klavishlariga aylanayotgandek taassurot qoldirish uchun stop-moushn animatsiyasidan foydalangan.

**Chizma animatsiya.** Walt Disney animatsiya, kino va ko‘ngilochar olamdagi afsonaviy shaxs. Uning ismi nafaqat muvaffaqiyatli biznesi, balki jahon madaniyatida ta’riflab bo‘lmaydigan iz qoldirgan ijodkorligi bilan eslanadi. Uning dastlabki yillari rasm chizish va animatsiyaga bo‘lgan muhabbati bilan bog‘liq bo‘lib, bu uning uzoq va muvaffaqiyatli karyerasining boshlanishi edi. 1923-yilda Walt Disney ukasi Roy Disney bilan birgalikda Walt Disney Productions (hozirgi The Walt Disney Company) kompaniyasiga asos soladi. Ular jonli aktyorlarni animatsiya bilan birlashtirgan “Alisa mo‘jizalar mamlakatida”, “Daraxtlar va gullar” deb nomlangan bir qator animatsion qisqa metrajli filmlar bilan ish boshlaydi. [2, 53] Disney keyinchalik Mikki Maus, Pluton va Donald Duk kabi mashhur personajlarni yaratishga o‘tdi. Disney, shuningdek, o‘zining innovatsiyalarga bo‘lgan istagi bilan ham mashhur edi. U tarixdagi birinchi “Oppog‘oy va yetti mittivoy” (1937) nomli to‘liq metrajli animatsion filmni yaratdi.

**Qo‘g‘irchoq animatsiyasi.** Vladislav Aleksandrovich Starevich rus va fransuz rejissyor-animatori o‘zining innovatsion stop-moushn animatsion filmlari bilan mashhur. U XX asrning boshlarida plastilin va boshqa materiallardan foydalangan holda qisqa metrajli filmlar yaratib, texnika bilan tajriba o‘tkaza boshladi. Uning eng mashhur asarlaridan biri “Morozko” (1924 yil) filmi bo‘lib, bu birinchi to‘liq metrajli qo‘g‘irchoq animatsion filmidir. Starevich stop-moushn animatsiyasida ko‘plab yangiliklarni amalga oshirdi, uning asarlari dunyoda animatsiyaning rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Uning texnik yutuqlari va ijodkorligi ko‘plab keyingi animatorlar va rejissyorlarni ilhomlantirdi.

Bugungi kunda dunyoda rejissyor-animatorlarni tayyorlovchi o‘quv dargohlari mavjud bo‘lib, ulardan Butunrossiya kinematografiya institutida “Animatsiya va multimediya” fakulteti mavjud. Unda kino rejissyorligi, teatr rejissyorligi singari animatsion film rejissyori yo‘nalishida mutaxassislar tayyorlanib keladi. Rejissyor-animatorlik yo‘nalishiga hujjat topshirgan abituriyentlar uch bosqichda imtihon qilinadi. Ariza beruvchi adabiy parcha yoki kichik asarni tahlil qilishi, innovatsion fikrlashi, ijodkorlik va boy tasavvurni mukammal tahlil qilish qobiliyatini namoyish etdishi orqali saralanadi. Rejissyor talqini asosida asarning g‘oyasi va konsepsiyasini chizmalarda yoki rangda vizual tarzda gavdalantirgan, syujetni aniq belgilab beradigan o‘ziga xos vizual uslubga ega syujetlar yarata olish qobiliyati aniqlanadi. U original ijodiy fikrlash, estetik did, g‘ayrioddiy tasavvur va rassomning individual uslubini namoyish etishi lozim. Qahramonlar shaxsiyati, yuz ifodalari, imo-ishoralari, xarakteri, o‘zaro va atrof-muhit bilan munosabati shakllanganligi baholanadi. Shu bilan birgalikda, abituriyent dizayn, massa, shakl, odamlar va hayvonlarning nisbatlari, kompyuter grafikasi va dasturlar haqida xabardorligini ko‘rsatishi talab qilinadi.

Hozirda yurtimizda sanoqli rejissyor-animatorlar faoliyat yuritib kelmoqda. Yosh mutaxassis kadrlarni tayyorlashda “San’atda animatsiyaviy va multimediyaviy loyihalar” yo‘nalishi talabalariga “Animatsiya rejissurasi”, “Animatsion film dramaturgiyasi”, “Aktyorlik mahorati”, “Animatsiya amaliyoti”, “Tasviriy effektlar va postprodaksh”, “Kinokompozitsiya” singari qator fanlar o‘tib kelinmoqda. O‘quv jarayonlarini yanada takomillashtirish maqsadida talabalarni chet el tajribasi bilan tanishtirish yuqori samara beradi.

Animatsiya taraqqiyotini belgilashda uning tarixini o‘rganish yangi tajribalar o‘tkazishga zamin yaratadi. XIX asr oxiridagi animatsiya kamtarona boshlanib, zamonaviy hamda yuqori san’at darajasiga ko‘tarildi, tomoshabin mehrini qozondi. Bugungi media olamning biz ko‘rib turgan standartlarida texnika va badiiy g‘oyani birlashtira olgan buyuk rejissyor-animatorlarning o‘rni beqiyosdir. Shundan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek animatsiya san’ati taraqqiyotida zamonaviy qarashga ega professional rejissyor-animatorlarni tarbiyalash orqali milliy ruhdagi animatsion filmlarni yaratish mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Анимация как феномен культуры: Материалы второй междунар. науч.-практ. конф., 26-28 апреля 2006 года. Сост. и науч. ред. Н.Г. Кривуля. – М.: ВГИК, 2006. – 230 с
2. Галеев Б.М. Новые технологии в культуре и искусстве. Казань, 1995.
3. Suzanne Buchan. Animated Worlds. British Library Cataloguing in Publication Data. Flaxman, 2000, p. 367.

## **O‘ZBEKISTON TELEVIDENIYESIDA KINO SAN’ATIGA OID KO‘RSATUVLAR**

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada bugungi kunda televideniyeining jamiyat kishilari ma’naviy olamidagi ajralmas o‘rni haqida so‘z boradi. Zero, endilikda yosh-u qari borki, ekran san’ati bilan har kun yuzlashadi. Bu esa soha vakillari oldidagi yuksak mas’uliyat qo‘yadi. Maqolada mamlakat ijtimoiy hayotida televideniyeining o‘rni, ahamiyati, vazifalari borasida mushohada yuritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *kino, televideniye, ko‘rsatuv, ilm, bilim, ma’naviyat, madaniyat, ma’rifat, adabiyot, dramaturgiya, teatr.*

**Аннотация.** *В данной статье говорится о незаменимой роли телевидения в духовном мире современного человека. В конце концов, есть молодые и пожилые люди, которые каждый день сталкиваются с экранным искусством. Это накладывает высокую ответственность на представителей отрасли. В статье рассматриваются роль, значение и задачи телевидения в общественной жизни страны.*

**Ключевые слова:** *кино, телевидение, шоу, наука, знание, духовность, культура, просвещение, литература, драматургия, театр.*

**Annotation.** *This article talks about the irreplaceable role of television in the spiritual world of modern man. After all, there are young and old people who encounter screen art every day. This imposes a high responsibility on representatives of the industry. The article examines the role, significance and tasks of television in the public life of the country.*

**Keywords:** *cinema, television, show, science, knowledge, spirituality, culture, education, literature, drama, theater.*

“Ma’naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo‘q joyda hech qachon baxt-saodat bo‘lmaydi” [1], degan edi O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov. Ma’naviyatning yetakchi targ‘ibotchilaridan biri – bu televideniye. Chunki u bevosita tomoshabinlarga ta’sir ko‘rsatadi. Ekranida yuz berayotgan voqealar bilan tomoshabin o‘rtasida ma’naviy ko‘prik vazifasini o‘tagan holda, ikki tomonlama ta’sir kuchi orqali tomoshabinga ruhiy ozuqa beradi.

Hukumatimiz televideniyeini rivojlantirish to‘g‘risida bir qancha qarorlar qabul qilmoqda. Mustaqillik yillarida dramaturglarimiz misli ko‘rilmagan ijodiy erkinlikka erishdilar. Turli mavzuda, turli janrda xalqimiz hayotining turli tarixiy davrlari haqida asarlar yaratildi. Bu davrda qadim an’ana va urf-odatlar hamda qadriyatlar xalqimizga qaytarilganini inobatga olsak, dramaturglarimiz tarixiy mavzuga ko‘proq murojaat etganliklari kuzatiladi. Albatta, tarixiy dramaturgiyada ham voqealar uzoq yoki yaqin

o‘tmishda kechsa-da, o‘z mohiyatiga ko‘ra, ayniqsa, qahramonlarning kurashi, muammolari bilan zamonga hamohang bo‘lishi kerak. Yosh avlodni milliy g‘urur, milliy qadriyatlarimizni e‘zozlash ruhida tarbiyalashda ularning o‘rni beqiyosdir.

Bugungi kunda televideniye jamiyatimiz kishilarining ma‘naviy olamidan ajralmas o‘rin egallagan. Televideniye turli filmlar namoyishi bilan ekran qarshisiga tomoshabinni jalb qiladi. Tomoshabinlarga tortiq etilayotgan har qanday filmda mavzu va g‘oya yetakchi o‘rinda turadi. Filmida bu ikki tushunchaning beka-u ko‘st, tugal bo‘lishida dramaturgning o‘rni va ahamiyati kattadir. Shu boisdan, bugungi kunda kinodramaturgiya sohasiga alohida ahamiyat qaratib kelinmoqda. Biroq, zamonaviy o‘zbek kinodramaturgiyasining mukammal namunalarini kam uchratamiz. Nazarimda, mazkur soha san‘atshunoslar tomonidan tadqiq etilishi maqsadga muvofiq. Mustaqillik davri kinodramaturgiyasi yaxlit bir ilmiy tadqiqot ishi sifatida o‘rganilmaganligini hisobga olganda mavzuning naqadar dolzarbligini anglash mumkin.

Hukumatimiz tomonidan istiqloqlning ilk davrlaridanoq kino san‘ati taraqqiyotiga davlat siyosati darajasida e‘tibor qaratildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikas Prezidentining 1996-yil 29-apreldagi Farmoniga asosan “O‘zbekkino” davlat aksionerlik kompaniyasi, 2004-yil 16-martda “Kinematografiya sohasida boshqarishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni va 17-martda Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekkino Milliy agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori e‘lon qilindi.

2021-yil 7-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kino san‘ati va sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6202-son Farmoni, “Kinematografiya sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish hamda soha vakillarining ijodiy faoliyati uchun munosib sharoit yaratish to‘g‘risida”gi qarori kabilar soha taraqqiyotiga yangi yo‘l ochib berishi bilan ahamiyatli bo‘ldi.

Mustaqillik yillarida ma‘naviy sohadagi yangilanishlar televizion efirlarda shakllangan ko‘rsatuvlar setkasi doirasida namoyon bo‘ldi. Mamlakat hududida bir kechakunduzda 9 soat ko‘rsatuv dasturlarini uzatadigan birinchi davlat kanali vujudga keldi. Telefirning kattagina qismi badiiy filmlar, teatr spektakllari, ijtimoiy-siyosiy ko‘rsatuvlar, hujjatli filmlar, telefilmlar va telespektakllar namoyishi uchun ajratildi. Madaniyat va badiiy ijod sohasi keng targ‘ib qilindi, teatr va kino san‘ati asarlari namoyish qilindi. San‘at arboblari, namoyandalari haqida televizion portretlar yaratilib, efirga uzatila boshlandi.

1996-yildan boshlab “Yoshlar” telekanali, “Ma‘naviyat” tahririyati tuzildi, madaniyat, ma‘rifat va san‘at sohasiga oid ko‘rsatuvlar turkumi ko‘paytirildi. Bugungi kunga kelib esa, kino va teatr san‘atini yoritishga o‘z hissasini qo‘shib kelayotgan “Yoshlar”, “Toshkent”, “Ma‘naviyat va ma‘rifat”, “Kinoteatr” va “O‘zbekiston tarixi” telekanallari ishlab turibdi.

Jumladan, “Yoshlar” telekanali orqali namoyish etilgan Lola Zunnunova boshlovchiligidagi “Kinomaniya” ko‘rsatuvi kino muxlislari e‘tiborini o‘ziga qaratdi. Ushbu ko‘rsatuv orqali tomoshabin kino san‘ati tarixi, zamonaviy badiiy jarayonlari, mashhur kino aktyorlari hayoti, yangi premyeralar haqida ma‘lumotlarga ega bo‘ldi. Boshlovchi

Lola Zunnunova ko‘rsatuvning har bir yangi sonida o‘zgacha imidj va ko‘rinishda namoyon bo‘lar edi.

“Toshkent” telekanalining muharriri Nargiza Hidoyatova rejissyorligidagi “Kinoranda” ko‘rsatuvida esa nomiga mos va xos bo‘lgan holda, har bir filmning chuqur tahliliga to‘xtalib o‘tiladi. Ushbu ko‘rsatuv orqali ham tomoshabin, o‘zbek va jahon filmlarining tarixi hamda zamonaviy holati bilan tanishib bordilar. Ayniqsa, bu ko‘rsatuvda Hindiston filmlariga alohida to‘xtalib, hind aktyorlari hayoti va ijodi haqida batafsil ma’lumotlar berib borilgan.

“Kinoteatr” kanalining “O‘zimizning kino” nomli ko‘rsatuvida esa yuqoridagilardan farqli o‘laroq, tomoshabinbop filmlar namoyishi bo‘lib, undan so‘ng film ijodkorlari, mutaxassislar bilan bir qatorda muxlislar muhokama qilishi yo‘lga qo‘yilgan.

Milliy kino targ‘ibotida televideniye alohida o‘rin tutadi. Biz yuqorida nomini tilga olgan ko‘rsatuv filmlarni targ‘ib qilishi bilan birga tomoshabinlar didini tarbiyalaydi. Zero unda mutaxassislarning keng ishtiroki yo‘lga qo‘yilgani kishilarda badiiy asar mohiyatini anglash, uning zamirida turgan fikrlarni tushunib yetish kabi tomosha madaniyati vositalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Tomosha madaniyati oshgan, didi baland muxlislar esa sayoz mazmundagi, past saviyadagi filmlarni qabul qilmaydi. Bundan xulosa qilish mumkinki, televideniye o‘z ko‘rsatuvlari bilan kinoni nafaqat targ‘ib qiladi, balki uning tomoshabinini tarbiyalaydi. Shu ma’noda hozirgi kunda kino san’atiga bag‘ishlangan ko‘rsatuvlar targ‘ibotning o‘zi bilan cheklanib qolmasdan, balki tashviqot, tahlil xarakterida bo‘lmog‘i nihoyatda muhim.

Televideniye – millionlar minbari. Bu minbardan aytilayotgan har qanday so‘z o‘z zalvori va qudratiga ega. Kino san’atiga bag‘ishlangan ko‘rsatuvlar yaratishda ham televideniye o‘zining ana shu azaliy vazifasiga sodiq bo‘lmog‘i lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xaytmatova S., Tursunmetova R. Kinoshunoslik: kino san’ati tahlili va tanqidi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2020.
2. Muxamedov M., Fayziyeva F., Ablyayeva V. Televideniye asoslari. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2008.
3. Rahmatullayeva I. Televideniye va radioda boshlovchi mahorati. – Toshkent: “Mumtoz so‘z”, 2022.
4. Rahmatullayeva I. O‘zbekiston televideniyesi: yoshlar ko‘rsatuvlari tarixi. – Toshkent: “Mumtoz so‘z”, 2022.
5. O‘tayev O‘. Televideniye – davr ko‘zgusi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2005.
6. Xadjayev A., Hayitov Sh. Radio va televideniye. – Toshkent: “Ijod-press”, 2022.

## **ZAMONAVIY BADIY KINODA REJISSURA MASALASI**

*Agar biz ajdodlarimiz xotirasini ulug'lamoqchi, shu asosda o'zbek nomini, O'zbekiston nomini butun dunyoga tarannum etmoqchi ekanmiz, shu ishni birinchi navbatda kino san'ati orqali amalga oshirishimiz kerak. Aynan kino san'ati orqali jahon ekranlarini zabt etishimiz, shu yo'l bilan dunyo ahlining diqqat-e'tiborini qozonishimiz mumkin.*

**Sh. M. Mirziyoyev**

**Annotatsiya.** *Ushbu ilmiy maqolada kinorejissuraning sohadagi va bugungi kunda yosh ijodkorlar tarbiyasida tutgan o'rni beqiyos ekanligi qayd etiladi. Shuningdek, bu borada erishayotgan yutuqlar va kelgusida amalga oshirish zarur bo'lgan muammolar xususida to'xtalib o'tiladi.*

**Kalit so'zlar:** *kino, kinorejissura, mavzu, ijod, tarbiya, tendensiya, g'oya, ta'lim.*

**Аннотация.** *В данной научной статье отмечается, что роль кинорежиссуры в индустрии и в воспитании молодых артистов сегодня бесподобна. Также будет обсужден прогресс, достигнутый в этом направлении, и проблемы, которые необходимо реализовать в будущем.*

**Ключевые слова:** *кино, кинорежиссура, тема, творчество, образование, тенденция, идея, образование.*

**Annotation.** *In this scientific article, it is noted that the role of film directing in the industry and in the education of young artists today is incomparable. Also, the progress achieved in this regard and the problems that need to be implemented in the future will be discussed.*

**Keywords:** *cinema, film directorship, theme, creativity, education, tendency, idea, education.*

Kinoning boshqa san'at turlaridan farqi uning sintez san'at ekani bilan izohlanadi. Ko'plab san'at turlarini birlashtirib, yaxlit asar yaratishda rejissyorning xizmati katta. Rejissyor ssenariy muallifi, operator, bastakor, rassom, grimyor, ovoz operatori, libos, chiroq va montaj ustalari singari film ijodkorlari yordamida aktyorni kino qahramoniga aylantiradi.

Rejissyorlik qiziqarli kasb bo'lish barobarida murakkabdir. Istagan odam rejissyorlikni havas qilishi mumkin, ammo uni kasb qilish ancha mushkul. Rejissyor bo'lish uchun inson har tomonlama shakllangan bo'lishi zarur. Buning uchun rejissyor aktyorlik, tashkilotchilik, kuzatuvchanlik, eng muhimi, yangilik yarata olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Rejissyorning asosiy quroli aktyor, o'qi esa operatoridir. "O'qlangan qurol"ni mo'ljalga ola bilish rejissyordan yuksak mahorat talab etadi.

Yangi film yaratish istagidagi rejissyor ishni ssenariy tanlashdan boshlaydi. Mavzu va g'oyaviy jihatdan puxta, badiiy estetik umumlashmalar asosida yozilgan posta-

novka uchun asar – kinossenariy tanlashda rejissyor tomoshabin auditoriyasini: kimlar, necha yoshli tomoshabinlar uchun film olmoqchi ekanini aniqlab olishi zarur. Mukammal badiiy asosga ega ssenariy tanlash, asar qahramonlari tabiatiga monand aktyorlar ansamblini yig‘a bilish, filmning g‘oyaviy-badiiy qimmatini belgilovchi mezonni aniqlash va uni asarga singdirish rejissyorning asosiy vazifasidir.

Rejissyor o‘z imkoniyatidan kelib chiqib kinossenariy tanlaydi. Bunda u filmning janri, shakli, qolaversa, o‘z dunyoqarashini hisobga oladi. Ba‘zi rejissyorlar drama, ba‘zilari esa komediya janrida o‘ziga xos film yaratish qobiliyatiga ega. Bu mezonni film ishlashdan oldin hal qilish lozim.

Film yaratish jarayonida aktyor rejissyor ko‘rsatmasiga ko‘ra boladek tez chalg‘ib, butun borlig‘ini berib rol ijro eta olsagina aktyor bo‘ladi. Aktyor uchun asosiysi yo‘l-ni bilib, rolda yashashni, kerak bo‘lsa inprovizatsiya qilishni bilish muhim. Bu haqda san‘at arbobi, professor Shuhrat Abbosov talabalarga shunday degandi “Aktyor doimo rejissyor yaratgan narsani tasavvur qilishi, ko‘ra olishi va o‘sha narsaga intilishi kerak”.

Rejissyorning muvaffaqiyati – oldiga qo‘ygan maqsadini tomoshabinga yetkaza olishidadir. Agar tomoshabin film qahramonini yaxshi ko‘rmasa, undan o‘ziga o‘xshash jihatlarni topmasa, kinoning yashab ketishi qiyin masala. Ijodkorning iqtidori roli orqali film maqsadini ochib berishi va tomoshabin yuragiga kira olishida namoyon bo‘ladi.

Tarixdan ma‘lumki, rejissyorlar kinossenariy tanqisligi bois o‘zlari ssenariy yozib, ekranlashtirganlar. Masalan, jahon kinosida Charli Chaplin, rus kinosida Aleksandr Dovjenko, Grigoriy Kozinsev, Mixail Romm, Aleksandr Zarxi, o‘zbek kinosida Nabi G‘aniyev, Komil Yormatov, Shuhrat Abbosov, Hoji Ahmar, Uchqun Nazarov singari rejissyorlar kinodramaturgiya sohasida ham ijod qilishgan<sup>42</sup>. Ayrim rejissyorlar yozish usuli ma‘qul tushgan kinodramaturg bilan doimiy ravishda hamkorlik qiladi. E.Ishmuhammedov O.Agishev bilan, K.Yormatov M.Melkumov bilan birgalikda ijod qilgan bo‘lsa, hozirda Y.To‘ychiyev A.Shahobiddinov, M.M.Do‘st J.Qosimov hamda M.Erkinov, J.Ahmedovlarni misol qilishimiz mumkin.

Xalqimiz qayta-qayta ko‘rib, zerikmaydigan, har ko‘rganida o‘ziga nimadir oladigan “Tohir va Zuhra”, “Toshkent – non shahri”, “Sen yetim emassan”, “Mahallada duv-duv gap”, “Yor-yor”, “Maftuningman”, “Temir xotin”, “Vatan”, “O‘tov” singari filmlarda kino san‘ati “oltin me‘yor”iga amal qilinganini ko‘rish mumkin. Bu filmlar mavzu jihatdan hamma davrga mos tushadi. Ushbu film ijodkorlari kino yangi san‘at turi bo‘lishiga qaramay, tinimsiz harakat, izlanish natijasida boqiy ekran asarlari yaratdilar.

Qizig‘i shundaki, Sh.Abbosov “Mahallada duv-duv gap” filmini 25 yoshda, Latif Fayziyev esa 23 yoshida Hamzaning “Boy ila xizmatchi” spektakli asosida o‘zining ilk badiiy filmini suratga olgan. Bugungi kunda 25 yoshli rejissyor Sh. Abbosov darajasida film yaratish qobiliyatiga ega deb aytish mushkul. Vaholanki, texnika rivojlangan, odamlarning dunyoqarashi kengaygan, film yaratish imkoniyati yuksalgan.

So‘nggi yillarda kinorejissyorlik bo‘limini tamomlagan yoshlar o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha boshqa davlatlarda malaka oshirib qaytmoqdalar. Jumladan, O‘zbekiston Davlat san‘at institutining sobiq talabalari S.Ismoilova Italiyada, Niyara Repnikova Germaniyada, Ruslan Saliyev Rossiyada o‘z sohasi bo‘yicha qo‘shimcha ilm olgani,

<sup>42</sup> Aliyev M. Kino asoslari. –T.: “O‘qituvchi”, 1993. – 29-bet.

X.Yunusov, Y.To‘ychiyev, A.Shahobiddinovlar Moskvada Oliy rejissyorlik, ssenariy-navislik hamda animatsion film rejissyorligi bo‘limlarini bitirib, o‘z sohalarida tinimsiz ijod qilayotganliklarini quvonch bilan tilga olish mumkin.

Hozirgi kunda kino sohasida ko‘plab yoshlar faoliyat yuritmoqda. Bugungi kunda o‘zbek kino san‘ati uchun eng muhim muammo nima? Yosh rejissyor kadrlarning yetishmasligimi yoki ssenariynavislarningmi? Bu savolga u yoki bu deya, bir-biridan ajratib javob berib bo‘lmaydi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, kino sintez san‘at turi hisoblanadi. Ssenariy bo‘lmasa kino yaratilmaydi va aksincha, ssenariy bo‘la turib, rejissyor bo‘lmasa, bu asar hech qachon tasmaga muhrlanmaydi. Bundan tashqari, filmning tasviriy-ifodaviy, mavzuviy-g‘oyaviy jihatdan yetukligi, qolaversa, ta‘sirchanligini oshirishda operator, rassom, kompozitor, ovoz rejissyori, grimyor, libos va chiroq ustalarining hissasi katta. Agar professional mahoratga ega ijodkorlar guruhi jamlanib, birgalikda film yaratishga kirishilsa, bu asar albatta o‘z tomoshabinini topadi.

Filmning muvaffaqiyatli chiqishi bevosita ijodiy guruhga bog‘liq. Bunda eng muhim vazifa rejissyor zimmasiga tushadi. Agar u aktyorga qahramon tabiatidagi asosan qaysi jihatlariga urg‘u berish kerakligi, xatti-harakatlarining mazmun-mohiyatini to‘liq tushuntirib bersa, aktyor bu rolni maromiga yetkazib o‘ynaydi. Xuddi shunday, kompozitor qahramon tabiatiga mos, qolaversa, ichki kechinmalarini aks ettiruvchi kuy-qo‘shiqlar yaratadi. Libos ustalari qahramonning qaysi davr insoni ekani, kelib chiqishi, kasbi, yoshi, millati, irqi, dini, jinsi, filmdagi vazifasiga ko‘ra kiyim tanlaydi va tikadi. Grimyorlar qahramonlarning tabiati, qaysi zamon yoki makonda yashashi, millati va shunga o‘xshash mezonlarni inobatga olgan holda aktyorni o‘z holatidan boshqa inson – filmdagi qahramon qiyofasida gavalantiradi. Operator esa film qahramonining ichki-kechinmalari, o‘y-xayollari, orzu-intilishlari, tabiati, manzara, jism va hokazolarni yirik, o‘rta hamda umumiy planlarda, turli rakurslarda tasmaga muhrlaydi. Ovoz rejissyorlari filmning kompozitsion qurilishiga qarab musiqa tanlaydi, qahramonlar ovozinin baland-pastligini, musiqalarning yangrash darajasini meyorlashtiradi. Ovoz berish jarayoni ham kino san‘atida muhim ahamiyatga ega. Bunda rejissyor qahramonning yoshi, jinsi, tabiati, ham ichki, ham tashqi qiyofasidan kelib chiqib, unga monand inson ovozini tanlaydi. Yana bir muhim jihati ekran asarining tomoshaviyligini belgilashda montaj muhim ahamiyatga ega. Shu bois montaj kino san‘atidagi eng nozik jarayon hisoblanadi. Ba‘zan yaxshi kadrlar bo‘la turib ulardan unumli foydalanmaslik holatlari kuzatiladi. Montaj ustasi dubllarning eng sarasini tanlab, voqealar ketma-ketligini kompozitsion qurilish asosida bexato yig‘a olishi shart.

Film yaratish uchun ko‘plab ijodkorlar bosh qotiradi, vaqt va pul sarflanadi. Ammo bu “harajat”lar har doim ham o‘zini oqlamaydi. Filmning san‘at talabi darajasida chiqishi uchun yuqorida sanalgan hech bir jihatni nazardan chetda qoldirmaslik, muhimi, o‘ziga xos usul yarata olish lozim.

Har bir millatning o‘ziga yarasha madaniyati va urf-odatlarini bo‘ladi. Kino ildizi milliy madaniyatdan suv ichadi. O‘zbek badiiy filmlari o‘tmish, bugungi kun va kelajakdan xabar berib turadi. Shu bois film hech qachon yengil-yelpi tasmaga muhrlanmasligi lozim. U xalq ma‘naviyatidan xabar berib turar ekan, muallif va rejissyor, operator va aktyorga yuksak ma‘suliyat yuklanadi. Kino paydo bo‘lgandan to bugungi

kungacha uning asl ustalari, jonkuyar-fidoylari kinoni san'at darajasigacha ko'tarishga harakat qilishdi va bunga erishishdi.

Bugungi kunda kino sohasida ijod qilayotgan yoshlar va ular yaratayotgan filmlar son jihatdan o'sib bormoqda. Yosh kinorejissyorlar yaratayotgan filmlarning sifat darajasi turlicha bo'lib, aksariyat kinorejissyorlar filmlarida professional mahorat yetishmasligi seziladi. Bu muammolar ko'pincha filmning tasviriy olamida ko'zga tashlanadi. Ushbu muammoning oldini olishda institutda talabalarning yetarli malaka oshirishlari uchun texnika bazasini boyitish, operatorlarni nafaqat video, balki plyonka bilan ishlashi uchun imkoniyat yaratish darkor deb o'ylaymiz.

Rejissyor filmni montaj qilish uchun professional texnik jihozlardan foydalaniishiga to'g'ri keladi. Rejissyorlik bo'limi talabalari institut rahbariyati tomonidan professional montaj asbob-uskunalar bilan ta'minlab berilsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Hozirgi kunlarda milliy kinomiz oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri – bu milliy kinodramaturglar, rejissyorlar va operatorlarning zamonaviy talab darajasida tarbiyalash, o'quv jarayonini zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlantirib eng yangi texnologiyalar asosida o'quv protsessini olib borish kerak.

Bizningcha, o'zbek kinosini yana bir qadam oldinga siljishi uchun ustoz rejissyorlar Shuhrat Abbosov, Ravil Botirov, Yo'ldosh A'zamov, Zulfiqor Musoqov, Qamara Kamolova, Jahongir Qosimov, Jahongir Ahmedov singari san'at fidoylari ijod andozasidan foydalanishga to'g'ri keladi. Chunki ularning har bir filmi yosh avlodga muhim maktab vazifasini o'taydi. Ushbu rejissyorlar filmning muvaffaqiyatli chiqishi uchun har tomonlama bosh qotirishadi. Mavzu tanlashdan boshlangan ish ushbu ekran asarini tomoshabin qanday qabul qilishigacha muhokamadan o'tkaziladi.

O'zbek badiiy kinosining hozirgi bosqichini o'tish davridagi ijod deyish mumkin. Shu bois ayrim hollarda kamchiliklarga duch kelamiz. Quvonarlisi, kino san'atiga asta-sekin yosh rejissyorlar kirib kelmoqda. Ular ushbu san'at turidagi mavjud muammolarga qaramay izlanishda davom etmoqda.

Xulosa qilib aytganda sohani yanada rivojlantirish uchun professional kinorejissyorlar va soha mutaxassislari, shu jumladan, ssenariynavislar bilan turli xil davra suhbatlari, master-klasslar tashkil etish bu yo'ldagi amaliy chora-tadbirlar sirasiga kiradi. Bunday ijodiy uchrashuvlar yosh rejissyorlar mahoratini oshirishga xizmat qilib, rejissuradagi mavjud xato-kamchiliklarni birgalikda ko'rib chiqish va shu orqali tajriba almashish imkoniyatini beradi. Ma'lumki, rag'bat ijodkorni ruhlantirishi barobarida yangi ijodiy izlanishlar sari yetaklaydi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, kino san'atini rivojlantirish va kamol toptirishda festivallarning o'rni bo'lakcha. Negaki, aynan festivallar, ko'rik-tanlovlar, ya'ni "Prologue" singari Respublika yosh kinoijodkorlar qisqa metrajli filmlar festivali orqali yangidan yangi iste'dodlarni aniqlash imkoniga ega bo'lib, kreativ g'oyalar, o'ziga xos fikrlar talqinini ko'rish mumkin. Biroq, bu masalaga ham jiddiy yondashish maqsadga muvofiq bo'ladi. Negaki, raqobat bo'lsagina, sifat ham oshadi. Axir, talab va taklif aspekti bir-biriga bog'liq faktorlar hisoblanadi.

Yosh kinorejissyorlarimizni qanchalik to'g'ri hamda munosib qilib tarbiyalash yurtimiz istiqbolini ta'minlash, estetik didni shakllantirishga zamin yaratadi. Holbuki,

milliy kinematografiya taraqqiyoti bevosita va bilvosita rejissuraning o‘rniga bog‘lik ekan, eng avvalo, shu soha samaradorligini ta’minlashga e’tibor qaratish asosiy shartlardan bo‘lib qolishi zarur.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. 2017. 4-avgust // Xalq so‘zi.
2. Aliyev M. Kino asoslari.–T.: “O‘qituvchi”, 1993. – 29-bet.
3. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashr., 2000.
4. Abulqosimova X. Kinoteledramaturgiya asoslari. – T.: O‘zDSMI, 2009.
5. Umarova G. Rejissyor aktyorni sevishi kerak // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasi, 2010, 3-son.

## **BUGUNGI KUN O'ZBEK KINOSINING MUAMMOLARI**

**Annotatsiya.** *Maqolada bugungi kunda suratga olinayotgan filmlarning yutuq va muammolari haqida so'z yuritilgan. Qolaversa, sohaga nomutaxassislarning kirib kelishi va tor doiradagi filmlarni suratga olishi haqida to'xtalib o'tganmiz.*

**Kalit so'zlar:** *kino, badiiy, falsafiy, estetik, g'oya, syujet, montaj.*

**Аннотация.** *В статье говорится о достижениях и проблемах снимаемых сегодня фильмов. Кроме того, мы коснулись прихода в индустрию непрофессионалов и съемки узких фильмов.*

**Ключевые слова:** *кино, художественное, философское, эстетическое, идея, сюжет, монтаж.*

**Annotation.** *The article talks about the achievements and problems of films being made today. In addition, we touched on the arrival of non-professionals in the industry and the shooting of narrow films.*

**Keywords:** *Cinema, artistic, philosophical, aesthetic, idea, plot, montage.*

Inson ongiga ma'lum g'oyani singdirishda kino san'atining o'rni va imkoniyatlari beqiyosdir. Teatr, tasviriy san'at, musiqa, adabiyot unsurlarini o'zida mujassam etgan ekran san'ati bir tomondan – jamiyatda kechayotgan jarayonlarga badiiy, falsafiy, estetik umumlashmalar nuqtayi nazaridan yondashsa, ikkinchi tomondan – unga xos bo'lgan ommaviylik bu umumlashmalarni katta-katta auditoriyalarga maroqli va ta'sirchan shakl-shamoyilda yetkazib berish imkonini yaratadi. Bu yo'nalish boshqa san'at turlariga nisbatan ancha yosh bo'lishiga qaramay, milliardlab tomoshabiniga ega. Ta'bir joiz bo'lsa, kinoni dunyodagi eng sevimli san'at turi, deyish mumkin.

Bugungi kunda o'zbek kino san'atimiz jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Kino boshqa san'at turlariga nisbatan yosh bo'lishiga qaramay jahon va milliy kinematografiya "oltin fondi"da saqlanib kelayotgan filmlar shu sohaga kerak bo'lgan barcha qonuniyatlardan unumli foydalangani bilan ham katta e'tirof qozonishgan. Masalan, "Maftuningman", "Mahallada duv-duv gap", "O'tkan kunlar", "Sen yetim emassan", "Toshkent – non shahri", "Kelinlar qo'zg'oloni" va boshqa ko'plab tarix zarvaraqlariga yozib qo'yiladigan kartinalarni sanab o'tish mumkin. Bundan tashqari, bu sohaga o'zining salmoqli hissasini qo'shgan va o'z ijod mahsuli bilan millionlab tomoshabinlarning yuragidan iliq joy olgan kino ustalari Yo'ldosh A'zamov, Ali Xamrayev, Shuhrat Abbosov, Xotam Fayziyev, Elyor Eshmuhammedov va boshqa ko'plab ijodkorlar o'zining dolzarbligi va keng avditoriyaga manzur bo'ladigan ishlari bilan juda katta shuhrat qozonishgan.

Har bir sohada bo‘lgani kabi kino san’atida ham muommolar uchrab turadi. Chunki, ba’zi bir suratga olinayotgan kinofilmlar namoishida tomoshabinga ma’naviy ozuqa berish emas, aksincha, salbiy oqibatlariga olib kelish holatlari ham ko‘zga tashlanmoqda. Ekran asari yaratishda sanoatning ustuvor maqsadga aylanib borayotganligi ham ayon. Bir kino olishdan oldin uning mazmun-mohiyatiga emas, foydasining qay daraja yuqori bo‘lishi e’tiborga olinadi, tabiiyki, bunday holda filmlarimizning saviyasi pasayib ketishiga olib keladi.

Soha mutaxassislari tomonidan sur’atga olinayotgan ba’zi bir filmlarlar bir xil maishiy mavzu atrofida o‘ralashib qolgan. Masalan, kambag‘al bolaning boy qizini sevib qolishi yoki aksi bo‘ladi. Ular bir-birlarini yoqtiradilar va oxir-oqibatda turli to‘siqlar yuzaga kelib, maqsadlariga yetishadi, ba’zilari bundan mustasno. Yana bir siyqasi chiqqan qaynona-kelin munosabatlari. Bu kabi maishiy mavzular atrofida o‘ralashib qolgan. Albatta, taklifni talab belgilaydi, lekin “kino ustalari” filmlarning badiiy hamda mantiqiy saviyasini oshirishga ko‘proq e’tibor qaratsalar maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Oxirgi paytlarda bunday ma’no-mazmuni nuqtayi nazaridan juda ham sayoz kinofilmlarning soni ortib borayotganligining sababini tanqidchilar izlamoqdalar.

Nega endi zamon shiddat bilan rivojlanib borayotganda yoki boshqa sohalar yuqoriga qarab harakat qilayotganda biz, nega sohani orqaga tortishimiz kerak. Ayb ssenariychidami, operatordami yoki rejissyorlardami kabi savollar mohiyati o‘rganilmoqda. Muallif: “Men unday yozgandim, rejissyor bunday ishlabdi”, – deydi, rejissyorlar esa: “Bizga yaxshi asarlar kerak, lekin ularni yozadigan qalami o‘tkir shaxslarning o‘zi yo‘q”, – deb o‘zlarini oqlashga urinadi. Bu o‘rtada aktyorlar esa biz rejissyor ko‘rsatmasini bajaramiz deb o‘zlarini oqlashadi. Haqiqatan ham yaratilayotgan ba’zi bir toifadagi kinofilmlar borki, tomoshabinning ensasini qotirishga majbur qiladi. Sababi bir oqim doirasida maishiy mavzu atrofida o‘ralashib qolmoqdalar.

Mustaqillik sharofati bilan kino san’atiga juda ko‘plab imkoniyatlar yaratildi. Nega endi biz bu imkoniyatlardan unumli foydalanmay navbatdagi va saviyasi past “Tundan tongacha”, “Janob hoddogchi”, “Uring, jonim, uring”, “Biz sevgi yo‘lidamiz” kabi filmlar qurshovida qolishimiz kerak. Misol uchun, “Uring, jonim, uring” filmi maishiy mavzuda. Bu filmni nomlanishining o‘zi ham o‘zbek mintalitetiga to‘g‘ri kelmaydigan, qolaversa soha mutaxassislari va tomoshabinlarning g‘ashini keltiradigan nom. Biz o‘zbek tomoshabinlarining saviyamiz shu darajaga tushib qoldimi? Yo‘q, aslo unday emas, ba’zi bir qo‘shirnoq ichidagi rejissyorlarimiz shunaqa deb o‘ylamoqda va shu holatga olib kelmoqda.

Bugungi kunda tomoshabinlarni nega mutasaddi tashkilotlar bu holatni parda ortidan jim kuzatishmoqda, degan savol qiynamoqda. Biz qachongacha chet el kinosiga mahliyo bo‘lib farzandlarimizga Klara, Jumong, Ishani, Kosem yoki shunga o‘xshash ismlar qo‘yib yuramiz. Nega endi biz ham jahon sahnalari ekraniga chiqadigan filmlar sur’atga olmasligimiz kerak. Qachon boshqa xalqlar bizning boy tariximizni kartinala-

rimiz orqali tomosha qilib farzandlariga Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zaxiriddin Muhammad Bobur va boshqa ko‘plab tarixda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan shaxslarning ismini qo‘yishmaydi. Buning uchun soha egalari ishlariga tahliliy-tanqidiy yondashmas ekan, ertaga bu sohada maxsus tahsil olmaganlar hamyonbop filmlar yaratib, tomoshabinlarga namoyish etaveradilar.

Yaratilayotgan filmlar soni ko‘paygani quvonarli hol. Ammo, kino olamida beparvolik, e‘tiborsizlik tomoshabin ma‘naviyati va madaniyati yo‘qolishiga olib kelayotgani achinarli xol emasmi? Yaqinda bir taniqli rejissyor bilan davra suhbatini bo‘lib o‘tdi unda hamma ishtirokchilar o‘zlarini qiziqtirgan savollar bilan murojaat qilishdi. Shunda bir qatnashchi “nega bugungi kunda olinayotgan ba‘zi bir filmlarimizning saviyasi past darajada” deb savol bilan murojaat qilganida. Biz ishongan, qolaversa, o‘zbek kinosi darag‘alaridan bo‘lgan mashhur rejissyorimizdan biri hech ikkilanmay aybni tomoshabinlarga ag‘darib qo‘ydi. Nima ekan “Tomoshabinlarning saviyasi pasayib estetik didi yo‘q” emish. Shu erda bir savol tug‘iladi! Tomoshabinlarning saviyasini tushirayotgan kinolarimizni kimlar sur‘atga olmoqda ba‘zi bir o‘zini Kurasava, Kameron yoki Bondarchuk sanayotgan rejissyorlarimiz emasmi? Nega endi biz o‘zimiz saviyasi past tarbiyaviy jihati yo‘q filmlarni sur‘atga olib aybni tomoshabinga ag‘darishimiz kerak. Bunday tor doiradagi filmlarimizni sur‘atga olmasak tomoshabin bizni majburlab shunaqa yengil-yelpi kartinalar olishga majburlay olmaydi-ku? Yuqorida aytganimizdek yana birinchi o‘ringa moddiyatni ko‘tarilishidir.

Shunday ekan, filmlarni tomoshabinga havola etish bugungi kun uchun qanday ahamiyatli ekanini, ularning yoshlar ongiga ta‘siri borasidagi fikrlar, ayniqsa, tahlil jarayoni dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Biroq, nima yaxshi, nima yomonligini tomoshabinning o‘zi hal qiladi, degan fikr ham bor. Inson immuniteti har doim ham kasallikka qarshi kurashaverishi natijasida zaiflashib virusga taslim bo‘lishi tibbiyotda kuzatilgan. Yosh tomoshabinlar saviyasini, ma‘naviyatini va madaniyatini rivojlantirishga kinoshunoslar, san‘atshunoslar, shuningdek, tajribali kinorejissyorlar, dramaturglar o‘z hissasini qo‘shmasa, saviya jihatidan past filmlar tomoshabin immunitetini, ya‘niki, ma‘naviyatini zaiflashtiradi. Bu jarayonga qarshi kurash esa kichik bir e‘tibordan, ya‘ni har bir ilmiy o‘rganilishidan boshlanadi. Demak, film tahlilini yo‘lga qo‘yish kino san‘atining eng dolzarb ilmiy masalasi bo‘lib qolmoqda. Ekran san‘ati esa inson qalbiga, ongiga singuvchi ma‘naviy kuchdir. Bu kuch ta‘siri tufayli insoniyat hayotdan zavqlanib, ertangi kunga ishonib yashashga intiladi. Kinorejissyorning zimmasiga yuklatilgan vazifa mas‘uliyatli bo‘lib, bu mutaxassislik egalari o‘z ijodiga juda mas‘uliyatli bo‘lmasa “Xontaxta” filmlarning soni ortib boraveradi.

Xulosa qilib aytganda, filmning muvaffaqiyatli o‘tishi, ya‘ni tomoshabinlar tomonidan iliq kutib olinishi, kinorejissyor uchun nihoyatda ahamiyatga ega bo‘lgan holatdir. Chunki shu muvaffaqiyat evaziga rejissyorda o‘ziga ishonch paydo bo‘lib, bundan ham yaxshi tomoshabinlarga ijobiy o‘rnak bo‘ladigan va ma‘naviy ozuqa beradigan, film-

lar olishiga katta turtki bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, yangi filmlarni bunyod qilishga zamin yaratadi. Buning uchun har bir sohaning o‘z mutaxassislari ishiga mas’uliyatli yondashsagina biz sur‘atga olayotgan filmlar hech ikkilanmay butun dunyo xalqlariga ham manzur bo‘ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Нехорошев Л.Н. Драматургия фильма. – М.: Искусство, 1971. – С. 200.
2. Sulstonov I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O‘qituvchi, 1980. – B.174.
3. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. – T.: Adabiyot va san’at, 2000. – B. 26
4. Mitta A. Kinoda rejissura va dramaturgiya. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – B. 85.
5. Abulqosimova X. Kino san’ati asoslari. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009. – B.23.

## **KINO SAN'ATI TARG'IBOTIDA POSTERLARNING AHAMIYATI**

***Annotatsiya.** Quyidagi maqolada kino sanoatining rivojlanishida posterlar va ularni tayyorlash masalasi haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, kino olamida posterlar tushunchasi va uning asosiy xususiyatlari, mazmun-mohiyati haqida fikr-mulohaza bildirib o'tilgan.*


***Kalit so'zlar:** kino, sanoat, poster, mutaxassis, kadr, rejissyor, aktyor, ssenariy.*

***Аннотация.** В данной статье говорится о проблеме плакатов и их подготовки в развитии киноиндустрии. Также были высказаны мнения о понятии плаката в мире кино, его основных особенностях и сути содержания.*

***Ключевые слова:** кино, индустрия, плакат, специалисты, кадр, режиссер, актер, сценарий.*

***Abstract:** The following article talks about the issue of posters and their preparation in the development of our film industry. Also, opinions were expressed about the concept of posters in the world of cinema, its main features, and the essence of the content.*

***Keywords:** cinema, industry, poster, specialist, frame, director, actor, script.*



Bugun dunyoda barcha sohalar singari kino sanoati ham tobora rivoj topib, takomillashib bormoqda. Xususan, malakatimizda kino san'atini rivojlantirish borasida ko'plab samarali ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 7-aprelda [1] «Kino san'ati va sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi PF-6202-son qarori imzolandi. Unda milliy kinematografiyani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi. Kinematografiya sohasida tahsil olayotgan talabalarni qo'llab quvvatlash maqsadida davlat stependiyasi hamda milliy kinematografiya sohasida samarali faoliyat ko'rsatayotgan ijodkorlar va mutaxassislarni rag'batlantirish maqsadida «Kinematografiya fidokori» ko'krak nishoni tasis etilishi ham yurtimizda soha va soha mutaxassislari bo'lgan etiborni ko'rsatib beradi.

Kino sanoati haqida gapirar ekanmiz bu ikki tushunchaga to'xtalmaslikning iloji yo'q. Bunda birinchi o'rinda kinoni yaratish va asosiy g'oya ustida ishlash bo'lsa, ikkinchi o'rinda kino posterlarini yaratish jarayoni hisoblanadi. Posterlar to'g'risida so'z yuritar ekanmiz avvalo bu tushunchaga oydinlik kiritish maqsadga muvofiqdir.

“Poster” ingliz tilidan olingan bo‘lib, plakat (nemischa), e‘lon, afisha degan ma‘nolarni anglatadi. Tashviqot, reklama, informatsiya va o‘quv-ta‘lim maqsadlariga xizmat qiluvchi, qisqa matnli ilovaga asoslangan tasviriy san‘at asaridir. Posterlar XIX asrning ikkinchi yarmida G‘arbiy Yevropada paydo bo‘lgan. Bungacha katta hajmdagi tashviqiy gravyura ba‘zan plakat deb atalgan. Posterlar ijtimoiy-siyosiy hayot, xalq xo‘jaligi, madaniy vazifalar bilan bog‘liq xolda rivojlangan. 1900-yillar boshlarida siyosiy afishalar yuzaga keladi va demokratik harakat va tinchlik uchun kurash sohasida xizmat qiladi. 1910-yildan kitob-jurnal grafikasidan uzoqlashib, dastgoh grafikasiga yaqinlashgan afishalar rang-tasvir, grafika, foto san‘ati bilan ko‘proq bog‘landi. XX asrda afishalar tashviqotning jangovar quroliga aylandi. Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘ta ta‘sirchan vositaga aylangan bo‘lsa, hozirgi kunda jamiyat taraqqiyoti uchun muhim rol o‘ynamoqda.

O‘zbekistonda poster tushunchasi (afisha) XIX asr oxiri – XX asr boshlarida paydo bo‘ldi. Dastlabki yillarda asosan qo‘lda ishlangan va ko‘paytirilgan plakat va hajviy rasmlar keng qo‘llanilgan. Bosma afishalar 1923–1924-yillardan chop etila boshlagan. Bu borada usta Nabi Hafizov, M.Kurzin, V.Ufimsev, V.Kaydalov va boshqalar samarali ijod qildilar. Ikkinchi jahon urushi yillarida afishalar yetakchi o‘rinni egaladi. Bu yo‘nalishda faoliyat yurituvchi rassomlar uyushmasi tuzildi, O‘zTAG oynasi tashkil etildi (1941). Afishada so‘nggi yangiliklar va muhim voqealar o‘z aksini topdi. 1960–1980-yillarda A.Balkanov, V.M.Gromiko, F.Kagarov, V.Yevenko, T.Tkachev va boshqa rassomlarning tinchlik, axloq, iqtisod, madaniy ma‘rifiy mavzulardagi asarlari yaratildi. Jumladan, F.Kagarovning tinchlik mavzusidagi plakatlari xalqaro anjumanlarning ramziga aylandi. Rassomlarning ijodiy izlanishlari tufayli poster O‘zbekistonda tasviriy san‘atning eng ta‘sirchan ommabop turiga aylandi (A.A.Ziyoyev, T.A.To‘xtarova, X.Hasanov, N.Hakimov, N.Husanov, I.Abdullayev, A.Nurqobilov va boshqalar). [2]

Zamonaviy poster, odatda, rassom yaratgan asl nusxadan bosmaxonada ko‘paytiriladi. Olisdan ko‘zga yaqqol tashlanishi, o‘ta ta‘sirchanligi, ommabopligi, tasvirning kinoyalarga boyligi, hammabop ramzlar ishlatilishi, turli hajmdagi shakllarni qiyoslash, umumlashma tasviriy shakllardan foydalanish kabi o‘ziga xos badiiy vositalari bilan boshqa axborot manbalaridan farq qiladi. Bunda shrift va matnning joylanishi, shartli ranglar qo‘llanilishi muhim rol o‘ynaydi. Tasviriy vosita sifatida ko‘p hollarda fotografiya ishlatiladi.

Axborot texnologiyasining rivojlanishi, poligrafiya ishlarining yangilanishi hamda hayotga keng ko‘lamda kompyuter grafikasining kirib kelishi posterning yangi imkoniyatlarini izlashni talab qiladi.

Kino olamida posterlar tushunchasi XX asrdan boshlab jahonda keng qo‘llanila boshlagan. Bunda asosiy mazmun mohiyat tayyor bo‘lgan kinoning e‘lon qilinishidan oldin marketing tamoyillariga ko‘ra uni ommaga taqdim etishdagi chorlovga asoslanadi. Asosiy e‘tibor zamonaviylik va kinoning diqqatni jalb qiluvchi qismlarini aks ettirishga qaratiladi. Shuning uchun ham bugungi kunda kino olamida posterlar ustida ishlash muhim hisoblanmoqda. Har qanday kinoning bugun asosiy qiyofasi posterlar bilan uzviy bog‘langandir.



Kino sanoati-filmdan nusxa ko‘paytirish, kino-videokassetalar, kino ishlash uchun asbob-uskunalar, jihozlar ishlab chiqaruvchi, kinotexnika sanoati bilan shug‘ullanuvchi soha. Boshqa sanoat tarmoqlaridan farqli o‘laroq kino sanoatining pirovard mahsuli kino va videofilmdir.

Kino posterlari – bu filmni targ‘ib qilish va reklama qilish uchun, birinchi navbatda, kinoteatrga pul to‘laydigan mijozlarni jalb qilish uchun ishlatiladigan plakat. Studiyalar ko‘pincha turli ichki va xalqaro bozorlar uchun hajmi va mazmuni bilan farq qiladigan bir nechta posterlarni chop etadilar.

Kino afishalari ko‘pincha kinoteatrlarning ichida va tashqarisida, ko‘chada yoki do‘konlarda namoyish etiladi. Xuddi shu tasvirlardan veb-saytlarda, DVD qadoqlarida, fleerlarda, gazeta-jurnallardagi reklamalarda va filmni targ‘ib qilish bilan bog‘liq boshqa joylarda ham foydalanish mumkin.




Bugungi afishalarda ko‘pincha asosan aktyorlarning bosma suratlari yetakchilik qilmoqda. O‘zbekistonda posterlar shakllanish davrida fotosuratlar o‘rniga illustratsiyalar ancha keng tarqalgan edi. Kino afishalaridagi matn odatda katta harflar bilan film va asosiy aktyorlar nomini o‘z ichiga oladi. Shuningdek u rejissyorning ismi, chiqarilgan sana va boshqa tegishli tafsilotlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Kinoijodkorlar tomonidan so‘nggi yillarda tayyor maxsulotni reklama qilishga ya‘ni posterlar yaratishda badiiy-g‘oyaviy yondashish holatlari ko‘zga tashlanmoqda. Odatda poster ma‘lum bir filmning g‘oyasi yoki mavzusidan kelib chiqqan holda umumiy manzarasini aks ettirishi lozim. Shu bilan birga, filmdagi ma‘lum bir epizod yoki uning qahramonlari aks etgan lavlar,

film janriga xos elementlar, ramziy-metafarik topilmalar ifoda etilishi mumkin.

Xususan, O‘zbekiston “Kinematografiya” agentligi buyurtmasiga binoan suratga olingan Jahongir Ahmedov rejissyorligidagi «Ilhaq» badiiy filmi posterida bosh rol ijrochisi Dilorom Karimova tomonidan yaratilgan ona obrazi hamda film jarayonlari ifoda etiladi. Bu ramziy timsol g‘amgin va ta’sirli. Ona timsoli tomoshabinni jiddiy o‘ylantiradi. Bu obrazning poster markazida tasvirlanishi filmning yetakchi g‘oyasi ona qalbi iztiroblari bilan bog‘liq ekanligini anglatadi.

Aksariyat hollarda posterlarda faqat film aktyorlari qiyofalarini ko‘rish mumkin. Kinoijodkorlar nazdida mashhur aktyorlar film qiymatini belgilaganidek, posterlarda ham ularning qiyofalari tomoshabin diqqatini jalb qilishi mumkin. To‘g‘ri bu ham haqiqat. Ammo har bir san‘at asari ma‘lum bir g‘oyaga asoslanishi kerak. Posterlarni san‘at asari ekanligini inobatga olsak, bu kabi bir yoqlama yondashish film qiymatini tushurishi mumkin.



“Ilhaq”, “101 reys”, “O‘zbek qizi”, “Bahodir Yalangto‘sh” kabi so‘nggi yillarda suratga olingan filmlarning Rustam Meliyev, Shuhrat Yodgorovlar ijodiga mansub posterlarida badiiy-g‘oyaviy jihatdan puxta yondashish ko‘zga tashlanadi. Xususan, davr muhitini aks ettirish, qahramonning obrazli qiyofasi, g‘oya va mavzuning ifoda etilishi, ranglar siluetidan to‘g‘ri foydalanish har qanday tomoshabinni film voqealariga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otmay qolmaydi. So‘nggi yillardagi film posterlarida ramziylikka alohida ahamiyat qaratilmoqda va shu bilan birga jimjimadorlikdan qochish, imkon qadar kam elementlar orqali g‘oyani ochib berish kuzatilmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi natijasida posterlarning elektron ko‘rinishlari paydo bo‘ldi. Sifat va qulaylik darajasidan internet posterlari oldinda turadi. Hozirda web seriallar, ijtimoiy tarmoq filmlari internet posterlaridan unumli foydalanadi. Xulosa qilib aytganda, kino posterlari filmning ommaga tanitishdagi dastlabki namoyish hisoblanadi. Shu boisdan filmni suratga olish ishlari kabi posterlarni yaratish ham ulkan ahamiyat kasb etadi. Jahonda film posterlari alohida yo‘nalish sifatida tan olingan va bu bilan maxsus mutaxassislar shug‘ullanadi. Mamlakatimizda ham film posterlarini badiiy jihatdan yanada mukammalashishi va rivojlanish, alohida sohaga aylanishi uchun bu borada izlanishlar olib borish zarur. Kinooperator, fotografiya hamda grafik va media dizayn yo‘nalishida ta‘lim beruvchi muassasalarda bu sohani alohida fan sifatida kiritish maqsadga muvofiqdir. Boisi, kino san‘ati jamiyat hayotining bir qismiga aylanib borayotgan ekan, uni har tomonlama targ‘ib va tashviq qilish davr talabidir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6202-son Farmoni. Kino san‘ati va sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida.

**Иззат Каландаров**  
старший преподаватель кафедры  
Государственного института искусств и культуры

## СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ КИНООПЕРАТОРСКОМ ИСКУССТВЕ

***Аннотация.** Профессиональное образование в области киноискусства играет ключевую роль в формировании новых поколений кинематографистов, режиссеров, сценаристов и операторов. В условиях стремительного развития технологий и изменения эстетических стандартов современное образование в киноискусстве сталкивается с необходимостью балансировать между традициями и инновациями. Эта статья исследует, как традиционные подходы к обучению в киноискусстве сочетаются с современными требованиями и технологиями, а также как сохраняется преемственность в обучении будущих профессионалов.*

***Ключевые слово:** кино, образование, технология, навыка, стиль, метод, искусство, индустрия, креатив, постпродакшн, медиаскейн иммерсив, проект, мышления, тренинг, команда, интеграция.*

***Annotatsiya.** Bugungi kunda rejissyor, ssenariynavis va operatorlarning yangi avlodini shakllantirishda kinematografiya sohasida kasbiy ta'lim muhim o'rin tutadi. Texnologiyaning jadal rivojlanishi va estetik standartlarning o'zgarishi bilan zamonaviy kino ta'limi an'analar va innovatsiyalar o'rtasidagi muvozanatni saqlash zaruriyatiga duch kelmoqda. Ushbu maqolada kinooperatorlik ta'limidagi an'anaviy yondashuvlar zamonaviy talab va texnologiyalar bilan qanday uyg'unlashgani, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda uzviylik o'rganiladi.*

***Kalit so'zlar:** kino, ta'lim, texnologiya, mahorat, uslub, san'at, sanoat, ijodiy, post-produksiya, immersiv mediascape, loyiha, fikrlash, trening, jamoa, integratsiya.*

***Annotation:** Professional education in the field of cinematography plays a key role in the formation of new generations of filmmakers, directors, screenwriters and cameramen. In the context of rapid technological development and changing aesthetic standards, modern education in cinematography faces the need to balance tradition and innovation. This article examines how traditional approaches to film education are combined with modern requirements and technologies, and how continuity in the training of future professionals is maintained.*

***Keywords:** cinema, education, technology, skill, style, method, art, industry, creativity, post-production, immersive mediascape, project, thinking, training, team, integration.*

Образование в киноискусстве зародилось вместе с развитием самого кино. Одним из первых примеров систематизированного обучения в области киноискусства можно считать создание факультетов и школ при крупных студиях в начале XX века. Важную роль в формировании традиций сыграли фигуры, такие как Д. В. Гриффит, который не только революционизировал кинематограф, но и оставил значительное наследие в образовательных подходах. Традиционные ме-

тоды обучения в киноискусстве включают освоение основ кинематографического языка, таких как кадрирование, монтаж, свет и звук. Классическое образование фокусируется на обучении техническим навыкам, истории кино и анализу фильмов. Важным аспектом является изучение работы мастеров, таких как Сергей Эйзенштейн и Андрей Тарковский, чьи работы служат учебными примерами.

Кинооператорское искусство, как ключевой компонент кинематографического процесса, требует постоянного обновления знаний и навыков в соответствии с последними технологическими достижениями и изменениями в индустрии. Современные тенденции в профессиональном образовании кинооператоров отражают развитие технологий, изменений в зрительских предпочтениях и новые требования рынка. В области кинооператорского искусства акцентируют внимание на использовании цифровых технологий. Студенты обучаются работе с передовыми цифровыми камерами, такими как RED, ARRI Alexa и Blackmagic URSA, которые предлагают высокий уровень качества изображения и гибкость в съёмке. Особое внимание уделяется пониманию технических характеристик камер и их влиянию на визуальный стиль фильма.

Современные тренды в съёмке включают использование стабилизаторов (например, Steadicam и gimbal-систем) и дронов для создания динамичных и визуально впечатляющих кадров. Образовательные программы теперь включают обучение работе с этими технологиями, что позволяет студентам осваивать новые техники съёмки и расширять свои возможности в создании уникальных визуальных решений. Курсы по кинооператорскому искусству акцентируют внимание на важности постпродакшна, включая цветокоррекцию и работу с визуальными эффектами. Студенты изучают программы, такие как DaVinci Resolve, которые позволяют им улучшать визуальное качество изображения и соответствовать современным стандартам в кинематографе.

В кинооператорском искусстве включают обучение работе с различными жанрами и форматами, такими как веб-сериалы, короткометражные фильмы и VR-контент. Это позволяет студентам быть готовыми к работе в разнообразных областях и адаптироваться к быстро меняющемуся медиаландшафту. Образование в кинооператорском искусстве теперь включает изучение креативных техник съёмки, таких как необычные углы, сложные планы и использование различных источников света. Эти методы помогают создавать визуально захватывающий контент и раскрывать уникальные художественные решения.

С ростом интереса к иммерсивному и интерактивному контенту, учебные заведения начинают внедрять курсы по съёмке и созданию контента для VR и AR. Это включает изучение специфических техник съёмки и монтажа, которые требуются для создания интерактивных и погружающих проектов. На сегодняшний день в современные образовательные программы акцентируют внимание на практическом обучении через проектную работу и стажировки в профессиональных студиях. Студенты имеют возможность работать над реальными проектами, что позволяет им применять теоретические знания на практике и строить профессиональное портфолио.

Кафедра «Звукорежиссура и операторского мастерство» ГИИКУз устанавливают партнерства с профессиональными кинооператорами, студиями и продюсерскими компаниями, что предоставляет студентам доступ к мастер-классам, лекциям и сетевым мероприятиям. Это способствует формированию профессиональных связей и пониманию текущих тенденций в индустрии. Кроме того, участие студентов в кинофестивалях и конкурсах способствует не только улучшению их навыков, но и предоставляет возможность для демонстрации своих работ широкой аудитории. Это также помогает студентам получить признание в профессиональной среде. Современное образование в области кинооператорского искусства уделяет особое внимание развитию творческого и критического мышления. Студенты учатся анализировать визуальные решения, разрабатывать собственные концепции и подходы к съемке, что помогает им стать более гибкими и адаптивными в профессиональной среде. Командная работа и коммуникация становятся важными навыками для успешной карьеры кинооператора. Учебные программы включают тренинги по работе в команде, ведению переговоров и управлению проектами, что помогает студентам эффективно взаимодействовать с другими членами съемочной группы и продюсерами.

Кинооператоры должны учитывать культурные и социальные тренды при создании контента. Образовательные программы помогают студентам понимать, как эти тренды влияют на визуальное повествование и выбор стиля съемки, что способствует созданию более релевантного и актуального контента.

Современное образование в области кинооператорского искусства адаптируется к технологическим и культурным изменениям, предлагая студентам инструменты и знания, необходимые для успешной карьеры в кинематографе. Интеграция новых технологий, применение креативных методов съемки, практическое обучение и развитие мягких навыков определяют ключевые тенденции в обучении. Эти тенденции помогают будущим кинооператорам быть подготовленными к вызовам и возможностям в быстро меняющемся мире киноискусства и обеспечивают их успешную карьеру в этой динамичной области.

## ЛИТЕРАТУРА

1. Абул-Касимова Х., Тешабаев Д., Мирзамухаммедова М. Кино Узбекистана. – Т.: изд-во им. Г.Гуляма, 1985.
2. Абул-Касимова Х. Кино и художественная культура Узбекистана. – Т.: Фан, –1991.
3. Abulqosimova X. Kino san’ati asoslari. – Т.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2009. – 100 b.
4. Akbarov H. Adabiyot va kino. – Т.: G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, –1984 y., – 49 b.
5. Tadjibayeva O.K.; Melikuziyev I.M.; Khusanov Sh.T., Issues of the using the Special Effects as means of Visual expression in the Cinema art. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7, 2, 2020, 2204-2215.

**Saidahmad Hakimov**

*O'zMTRK "Foreign languages" telekanali rejissyori,  
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti o'qituvchisi.*

## **O'ZBEK MILLIY TELERADIOKOMPANIYASI REJISSURASI VA UNDA FAOLIYAT YURITGAN REJISSYORLARNING IJODIY FAOLIYATI**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada televizion rejissyorlik san'atining o'ziga xosligi, murakkab tabiati borasida fikr yuritiladi. O'zbekiston televideniyesining ustoz rejissyorlaridan biri Qo'zijon Hakimov ijodi, uning uslubi, faoliyatining muhim jihatlari borasida mushohada qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** televideniye, rejissura, teatr, ko'rsatuvlar, jonli efir, musiqiy konsertlar, pult, tasvir.*

***Аннотация.** В данной статье рассматривается уникальность и сложный характер искусства телевизионной режиссуры. Козиджона Хакимова, одного из ведущих режиссеров узбекского телевидения, будут наблюдать с точки зрения его работы, его стиля и важных аспектов его работы.*

***Ключевые слова:** Телевидение, режиссура, театр, шоу, прямое вещание, музыкальные концерты, дистанционное управление, имидж.*

***Annotation.** This article examines the uniqueness and complex nature of the art of television directing. Kozijon Khakimov, one of the leading directors of Uzbek television, will be observed in terms of his work, his style and important aspects of his work.*

***Keywords:** television, directing, theater, shows, live broadcasting, musical concerts, remote control, image.*

O'zbek milliy televideniyesi o'zining ko'p yillik an'ana va qadriyatlariga ega buyuk maskan. Televideniye sintetik san'at hisoblanib, kino, teatr, tasviriy san'at, musiqa va boshqa ko'pgina san'atlarning qonun qoidalarini o'zida mujassamlashtiradi. Va shu sababdan ham bu sohada faoliyat yuritayotgan ijodkorlardan mukammallik va keng dunyoqarash talab etadi. Bu soha vakiliga aylangan ijodkor yuksak bilim va mahoratga ega bo'lsagina, televideniyaning bir bo'lagiga aylanadi, hayotini va borini o'z ishiga bag'ishlaydi. Mazkur maqolada uzoq yillar televideniye rivoji uchun hizmat qilgan va kasbi fidoyisiga aylangan ijodkorlar haqida so'z yuritiladi va ularning o'ziga xos ijod yo'li tahlil qilinadi.

Televideniye o'zi nima? U bizning hayotimizga qachon va qayerdan kirib keldi? **Televideniye** (grekcha:  $\tau\acute{\eta}\lambda\epsilon$  – uzoq va lotincha: video – ko'raman) – harakatlanayotgan tasvir va tovushni masofadan uzatish tizimi. Televideniyaning ishlash prinsipi tasvir kadrini satrlarga bo'lib uzatishga asoslangan. Kadrlar almashinishi chastotasi tasvir o'zgarishi tezligiga qarab tanlanadi.

Kino auditoriyaga ma'naviy-axloqiy, estetik g'oyaviy ta'sir ko'rsatish va vatanparvarlik tarbiyasini singdirishda muhim vositalardan biridir. Bolalarni har tomonlama yetuk shaxs sifatida tarbiyalash jarayonida kinoning muhim o'rni, uning, shaxsga ta'sirining ijtimoiy-psixologik imkoniyatlari bilan bog'liq. Filmlarni tomosha qilish va muhokama qilish – bu ma'naviy xordiq chiqarish bilan bir qatorda insonning o'z-o'zini tarbiyalash usulidir. Yuqori sifatli va "aqlli" kino bolaga eng yuksak umuminsoniy qadriyatlarni yetkazishning ajoyib usulidir.

Har bir inson o'z hayotining bolalikdek oltin davri haqida ko'p xotiralarga ega bo'ladi. Ushbu xotiralarning yoqimli taassurotlari o'sha davrlarda ko'rilgan yaxshi filmlar va o'qilgan sehrli ertaklarga bo'lgan muhabbat bilan bog'liq. Bolalikdagi har bir film va ertaklar har birimiz uchun o'rnak bo'lgan. Qahramonlar o'zlarining mehri-muhabbat, sadoqat, topqirlik, adolat kabi insoniy fazilatlarini bilan ajralib turgan.

Bolalar filmlarida har doim o'ziga xoslik, sehr, biroz soddalik, yorqinlik aks etadi, yaxshilik va adolat doimo g'alaba qozonadi, do'st hamisha yordam qo'lini cho'zadi.

Bular sizni sezgir, mehnatsevar bo'lishga, do'stlaringizga va vataningizga sadoqatli bo'lishga o'rgatadi. Filmida qahramonlar ma'lum bir xatolarga yo'l qo'yadi, bunday hayotiy vaziyatlarda qaxramonlar o'z aql va idroklari bilan vaziyatni o'zgartirishadi, bu bilan yosh tomoshabinlarga kelajakda ana shunday holatlardan qanday qilib chiqib ketish g'oyalari singdiriladi. Bolalar filmlarida ularga chuqur o'ylash uchun mavzu taklif qilinadi va jiddiy muammolar ko'tariladi. Insonning illatlari qoralanadi, bola tashqaridan u yoki bu salbiy jihatlarni kuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Zamonaviy dunyoda videomahsulotlar ishlash san'atning eng qulay va mashhur turlaridan biriga aylandi. Ehtimol, zamonaviy odamlarning eng ko'p vaqtini tomoshaga bag'ishlayotganliklari sabab kinoning ta'sir kuchi borgan sari ortmoqda. Butun dunyoda ijtimoiy tarmoqlar berayotgan chegarasiz va o'ta tezlik bilan tarqalish imkoniyati videomahsulotlarning mazmuni, sifati, unda ko'tarilayotgan g'oyalarni filtrlash darajasini borgan sari pasaytirmoqda. Zamonaviy videomahsulotlar, xususan, ba'zi bir filmlar syujetlarida ko'pincha salbiy komponentlar: urush, jazavaga tushish, o'lim, qotillik, bahs, shuningdek, nutq madaniyatining past darajasi kuzatilmoqda. Shundan kelib chiqib, bunday video mahsulotlarining tomoshabinlar, xususan, bolalarga ko'rsatadigan ta'siri muhim masala hisoblanadi. Bir qarashda zararsiz bo'lib ko'ringan personajlar ortida nimalar yotganligini va bu filmlar bolalarning nozik va sezgir dunyosiga tajovuzkorlik, noma'qullik va xudbinlik olib kelishi mumkinligi haqida jiddiy o'ylab ko'rish lozim.

Zamonaviy filmlar bolani super qaxramonga aylantirishga majbur qiladi – o'zi yolg'iz hamma vazifani uddalay oladigan odam. Bolalar bunday filmlarni tomosha qilganda, ular ushbu filmlarning ijobiy qahramonlariga taqlid qilishga harakat qilishadi: qaxramonning tilidan chiqadigan iboralar, uning hatti-harakatlari, imo-ishoralar va hokazolar. Agar filmida salbiy belgilar hamdardlik bilan ko'rsatilgan bo'lsa, u holda bola bunday qahramonlarga taqlid qilishga harakat qilishi mumkin. Shuningdek, gunohkor xatti-harakatlarning tanqidsiz va hatto ijobiy ko'rinishi yosh tomoshabinda ularni qilish istagini uyg'otishi mumkin, chunki, uning sevimli qahramonlari buni qiladi va bu yaxshi, maqtovga loyiq ko'rinadi. Shuningdek, ular filmlardan qadriyatlar va g'oyalarni o'rganadilar.

Bolalar ko'pincha ekran voqeligini haqiqat yoki ular intilishi kerak bo'lgan ideal sifatida qabul qiladilar. Ko'pgina zamonaviy filmlar axloqiy me'yorlarning mavjudligi yoki o'zgarmasligini inkor etadi. Ba'zida butun filmning g'oyasi qahramonning axloqsiz harakatini oqlash bo'lishi ham mumkin.

Kinoda zo'ravonlikni ko'rsatish uzoq vaqtdan beri tomoshabinlarni jalb qilish va ko'ngil ochish vositasi bo'lib kelgan. «Ijobiy» qahramonlar o'z harakatlarining adolatiga shubha qilmasdan, raqiblarini shafqatsizlarcha o'ldiradilar. Ko'pincha bunday filmlarning zamirida o'ldirilgan qarindoshlar yoki do'stlar uchun qasos olish, o'ldirish jinoyat emas degan fikr yotadi.

Bugungi kunda, har qachongidan ham, umuminsoniy va milliy g'oyalar singdirilgan bolalar filmlarini qayta tiklash mavzusi juda dolzarb. Bolalarga vatanparvarlik, mo'jizalarga ishonish, do'stlik qadri, odamlar bilan munosabatda o'zaro hurmat va ilqlik kabi muhim tushunchalarni filmlar orqali eslatib turish kerak. Ushbu filmlar sodda

va tushunarli bo'lishi kerak. Bolalar film qahramonlari misolida, yaxshi insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalanadilar. Bolalar o'zlari tomosha qilgan filmlar haqidagi taassurotlari bilan o'rtoqlashishni yaxshi ko'radilar, lekin, ularning ko'pchiligi o'z hissiyotlari tufayli filmning asosiy mazmunini anglashga va uni atrofdagilarga yetkazib berishga qiynaladilar. Shu sababli, bolalar uchun, avvalo, to'g'ri film tanlash, o'sha filmni ular bilan birga tomosha qilish va undan so'ng film mazmuni haqida bolalar bilan suhbatlashish bu borada yaxshi natija beradi. Yaxshi film ko'rish va u haqida suhbatlashish orqali bolalarda atrofda sodir bo'layotgan voqealarga nisbatan shaxsiy munosabat yuzaga keladi, ular o'z fikrlarini harakatlarida ifoda etishni o'rganadilar.

Kino terapiyasi bolalar uchun oddiy va samarali usul. Bolalar uchun ishlangan filmlar juda ta'sirli bo'lib, yosh tomoshabinlar o'zlari guvohi bo'lgan voqealar haqida uzoq baxslashishadi, muhokama qilishadi va his-tuyg'ularini birgalikda baham ko'rishadi. Ular o'zlarini va atrofdagi yaqinlarini baxtli qiladigan ezgu his-tuyg'ular va fazilatlarini anglay boshlashadi.

Albatta, har birimiz ota-ona sifatida farzandlarimizning videomahsulotlar oqimida oqayotgan qo'pollik, yovuzlik ta'sirida tarbiyalanishini istamaymiz. Shuning uchun ham ko'p vaqtimizni ma'naviy-axloqiy mazmundagi filmlarni tomosha qilishga bag'ishlaymiz. Bu esa soha mutaxassislarining oldiga katta va o'ta ma'suliyatli vazifalarni qo'yadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirzamuhamedova M. O'zbekistonda bolalar kinosi. – Toshkent, 1976.
2. Belinskiy V.G. Tanlangan asarlar. – Toshkent: “O'zbekiston Davlat nashriyoti”, 1955.
3. O'tayev O'. Televideniye – davr ko'zgusi. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2010.

## KINOSHUNOSLIKDA TEXNOLOGIK VOSITALARNING O'RGANILISHI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kinoshunoslikda texnik va texnologik vositalarning o'rganilishi, uning vujudga kelishi va rivojlanishi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** kino, texnika, texnologiya, kinooperator, montaj, xronofotografiya, metamorfoza, fotografiya, ekspozitsiya, plyonka, kinokamera.

**Аннотация.** Данная статья посвящена изучению технических и технологических средств в кинематографии, их возникновению и развитию.

**Ключевые слова:** кино, техника, технология, кинооператор, монтаж, хронофотография, метаморфоза, фотография, экспозиция, пленка, пленочный фотоаппарат.

**Abstract:** this article talks about the study of technical and technological tools in cinematography, its emergence and development.

**Keywords:** cinema, technique, technology, cinematographer, montage, chronophotography, metamorphosis, photography, exposure, film, film camera.

San'at turlari orasida kino eng yoshi bo'lsa-da, tadqiqot obyekti sifatida ilmiy-nazariy jihatdan o'rganib kelinayotgan soha sanaladi. Mazkur san'at turi auditoriya-sining kengligi, g'oyaviy-badiiy jihatdan ko'lamliligi va hammabopligi bilan boshqa san'at turlaridan ajralib turadi. Kinoning sintetik san'at sifatida shakllanishi esa nazariyotchilar qarashlarining ham turli-tuman bo'lishiga olib keldi.

Inson tafakkuri mislsiz kashfiyotlar yaratishga qodir. Bu yaratuvchanlik silsilasi olam ibtidosidan bugunga qadar muttasil rivojlanib kelmoqda. Ming yilliklar chegarasi shu mezon asnosida bani basharni moddiyatdan ajratib, ma'naviyat sari yuksaltirdi. Zotan, ma'naviyat "insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch" [4. B.19.] mujassam. Inson ana shu yuksaklikka intilish pallasida borliqni tushunish, ichki kechinmalar in'ikosini ifodalash, yon-atrofda bo'layotgan hodisalarga munosabat bildirish ehtiyojini sezdi, mazkur jarayonlar san'at vositasi orqali yuzaga chiqdi. Hamonki bu soha hayot bilan hamnafas, doimo jamiyat turmushi bilan muloqotda.

San'atning yangi turi bo'lgan kinoning vujudga kelishi va rivojlanishi fan, texnika taraqqiyoti hamda ungacha bo'lgan san'at turlarining erishgan yutuklari bilan bog'liqdir. Kinoning paydo bo'lishiga bir qator kashfiyotlar ham sabab bo'ldi. XIX asrning oxirlarida odamlar turmushiga elektr quvvati kirib keldi, kimyo fani rivojlandi, u fotografiya (surat olish)ning paydo bo'lishiga, keyinroq esa plyonkani ixtiro qilishda (1887-yil) katta rol o'ynaydi.

Kinoning birinchi va asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan proyeksiya ibtidoiy davridayoq ma’lum. Yovvoyi odamlar g‘or devorlaridagi o‘z soyalari, qo‘llari bilan hosil qilinadigan tasvirlarni tomosha qilganlar. Yorug‘lik va soyaning o‘ynoqi tasvirlari odamlarni hayratga solgan, ularga zavq va shavq bag‘ishlagan. O‘rta asrlarda Xitoy va Hindiston qo‘g‘irchoqbozlari shaffof matoga qo‘g‘irchoqlaridan tushgan soyalarni o‘ynatib qadim rivoyat va ertaklar asosida tomoshalar ko‘rsatishgan. Yevropada ham XVIII asrda bunday tomoshalarni ko‘rsatish urf bo‘lgan.

Bo‘ljak kino san’ati uchun J.Plato harakatlanuvchi rasmlarga ega bo‘lgan apparat ixtiro qilgan. Bundan tashqari, telefonni o‘ylab topgan mashhur ixtirochi Tomas Edisonning harakat bosqichlari (fazalari)ni perforatsiyali (teshikchali) kinotasmaga yozib olish imkonini beruvchi maxsus apparati – “kinokamera”si muhim ahamiyat kasb etgan. Ayni vaqtda ketma-ket tasvirlarni ekranga tushirib, harakatni ko‘rsatuvchi proyeksiyon apparatni ham yaratish yuzasidan tajribalar olib borilgan.

Bir qancha mamlakatlarda (AQSH, Germaniya, Fransiya, Rossiyada) kinoni kashf etish yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan izlanishlar olib borildi va asosiy texnikaviy kashfiyotlar qilindi: filmni suratga oluvchi va ko‘rsatuvchi (syomka uchun kinokamera va namoyish etish uchun kinoprojektor) apparatlar yaratildi, maxsus perforatsiyali kinotasmalar ishlab chiqarildi, ko‘plab izlanishlar olib borildi. Jumladan:

1830-yilda Maykl Faradey va uning do‘sti Maks Rodjer suratlarni jonlantiruvchi apparat “Fenakistiskop” yaratadilar. Bu apparatga harakatning bosqichlari (fazalari) aks ettirilgan suratlar qo‘shib berilgan.

Fotografiya 1830-yillarda kashf etildi. Ammo faqat 1850-yillarga kelibgina (eks-pozitsiya qilish, ya’ni yorug‘likni plenkaga tushib turish vaqtining davomiyligini qisqarishga erishilgach) harakatdagi obyektlarni ham fotoga olish imkoni yaraldi. Unga cha harakatdagi obyekt tasvirlari, yuqorida qayd etilganidek, xuddi tumanda fotoga olingandek xira bo‘lib chiqar edi.

“Xronofotografiya” – bir xil vaqt oralig‘ida suratga olingan fotografiyalar 1870-yillardan ishlatila boshlandi.

1876-yilda fransuz professori Eten Mare “fotomiltiq” ixtiro qildi. Unda qog‘oz tasma ishlatilgan.

1876-yilda Parijda “kadrli kinematograf” paydo bo‘ldi.

1877-yilda rus olimi Boldirev selluloid plyonka (tasma) ixtiro qildi. Etyen Marey o‘z fotomiltig‘ini seluloid tasma bilan ishlashga moslashtirdi.

Angliyalik fotograf Edvard Maybridj (1830-1904) va fransuz fiziologi Etyen Marey (1830–1904) harakatlanayotgan obyektlarni suratga olish uchun maxsus “fotoapparat” ixtiro qilganlar. Shundan so‘ng fotografiya juda ommalashib ketdi. Xonadonlarda ko‘plab fotosuratlar, maxsus fotoalbumlar paydo bo‘la boshladi.

1880-yillarga kelib ixtirochi Emil Reno “optik teatr” deb nom olgan moslama yaratadi. Bu katta o‘lcham, hajmdagi “sehrli fonus”ning bir turi edi. Bu moslama ichida tasma yuritilgan. Tasmaga (namoyish etiladigan lavhalarning mazmunidan kelib chiqib) 80, 90, 100 tagacha suratlar tasviri tushirilgan. Maxsus taklif etilgan aktyor lavha mazmunini, voqealarini sharhlab borgan. O‘sha paytlarda Parijda 12 ta ana shunday “optik

teatr” mavjud bo‘lgan. Ushbu moslamaga o‘xshash texnik vositani rejissyor Damir Salimovning “Shum bola” badiiy filmida ham ko‘rganmiz.

1880-yillarda ko‘plab ixtirochilar kinematografning ikki eng muhim unsurlari: harakat tasvirini fotografik suratga olish (kinosyomka) va alohida tasvirlarni ekranga tushirish (proyeksiya) orqali harakat taassurotini uyg‘otish ustida izlanishlar olib bordilar.

Harakatlanuvchi tasvirlarni yaratish yo‘lida ishlagan ko‘plab mutaxassislar ichida Tomas Edison, aka-uka Lyumelar va rus olimi Iosif Timchenkoning ixtirolari, texnik moslamalari bugungi kinematografga ancha yaqin bo‘lgani bilan ahamiyatlidir.

1889-yilda Tomas Edison kinokamera yasaydi. Unda birinchi “Kodak” fotoapparatlari uchun mo‘ljallab endigina ixtiro qilingan yupqa, egiluvchan, shaffof plenka (tasma)dan foydalanilgan.

1893-yilda ukrainalik muhandis Iosif Timchenko filmlarni maxsus teshikchalari (perforatsiyalari) bo‘lgan tasmaga suratga oluvchi kinokamera hamda ularni namoyish etish uchun mo‘ljallangan kinoprojektor ixtiro qilgan.

1894-yilda Tomas Edison (telefon apparati, shaharlarni yoritish tizimi ham uning ixtirosi) kinematograf ustidagi ishlarini Genrix Uilkonsga taqdim etadi. Uilkons Edinsonning rahbarligi ostida “kinetaskop” apparatini yaratadi. Tomas Edison filmlarini “kinetaskop” darchalari orqali ko‘rish mumkin bo‘lgan. Bu moslamaning kamchiligi shunda ediki, u namoyish qilayotgan harakat tasvirlarini faqat bir kishi kuzatishi mumkin bo‘lgan. Bunday moslamalarning 100 ga yaqini ishlab chiqarilgan. Bu kinetaskoplar ham xuddi keyinchalik Lyumelar yaratgan moslamalardagi kabi ayrim o‘lchamlar, xususiyatlarga ega bo‘lgan. Misol uchun: tasma eni 35 mm, namoyish tezligi sekundiga 23-24 kadr, kadr tomonlarining nisbati 1:1,32 ekanligi nazarda tutilmoqda.

1895-yilda aka-uka Lyumelar o‘z ixtirolari bo‘lmish “kinematograf” (yoki “sinematograf”)ni namoyish qildilar va kinematografiyani san’at turi sifatida kashf qilgan insonlar sifatida tarixdan o‘rin oldilar. Filmlarning dastlabki sinov va ommaviy namoyishlari 1888-yildan o‘tkazila boshlangan bo‘lsa-da, ularning birinchi yopiq namoyishi 1895-yilning 22-martida patent olish uchun ariza topshirish paytida Parijda tashkil etilgan.

Lyumelar o‘z ixtirolarining birinchi ommaviy pullik namoyishlarini 1895-yil 28-dekabrda Parijning Kappusinlar xiyobonidagi “Gran-kafe” salonining zallaridan birida o‘tkazganlar. Shu kuni tomoshabinlar e’tiboriga “Aka-uka Lyumelar Sinematografi” tomonidan “Poyezdning kelishi”, “Jiqqa ho‘l suv sepuvchi”, “Go‘dakning nonush-tasi” nomli dastlabki filmlar havola etilgan. “Gran-kafe”dagi bu seanslar aka-ukalar uchungina birinchi pullik, tijorat kino namoyishlari bo‘lgan. Kinematograf tarixidagi birinchi tijorat kino namoyishlarini bundan avval 1895-yilning 22-fevralida Jan Le Roy Klinton shahrida, may oyida Uilyam Latam Nyu-York shahrida o‘tkazgan. Yoz oylarida Boston, Chikago va Norfolk shaharlarida Latam va Le Roylar kinoapparatlarining namoyishlari keng tashkil etilgan. Ammo ularning birortasi ham Lyumelarning seanslari kabi e’tiborga, shov-shuvga sabab bo‘lmagan edi.

Shuning uchun ham 1895-yilning 28-dekabri butun jahonda kinematografning san’at turi sifatidagi tug‘ilgan kuni, deb rasman qabul qilingan. Ammo, agar chuqur-roq mushohada qilinsa, 1895-yilning 28-dekabri kinematografning emas, ilk ommaviy

kino namoyishlarning, ya'ni bugungi kun gapi bilan aytganda, kinoprokatning tug'ilgan kuni deb hisoblanishi kerak. Chunki namoyish etilgan filmlar bu sanadan ancha ilgari suratga olingan.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, 1895-yilga kelib "harakatlanuvchi fotografiyalar" namoyishlarining ham, ularni tashkil etuvchilarning ham soni ancha ko'paygan edi. Ammo ko'p ixtirochilar bir-birlarini bilmas, tanimasdilar. Bu hol keyinchalik kinematografning ilk ixtirochilari kim ekanligini aniqlashda ko'plab bahs-munozara, kelishmovchiliklarga sabab bo'lgan.

1896-yili aka-ukalar o'z ixtirolari bilan jahonni aylanib chiqdilar. London, Nyu-York, Mumbay shaharlarida bo'ldilar. Lyumelarning ommaviy pullik namoyishlari xalq orasida juda mashhur bo'lib, tijorat nuqtayi nazaridan muvaffaqiyatli chiqqani uchun ularning apparatlari keng tarqalib ketdi.

Kino tarixiga nazar tashlansa, 1895-1896 yillarda olingan filmlarda hech qanday g'oya ham, aktyorlar ham bo'lmaganini ko'rish mumkin. Ularning nomlari ham xuddi syujetlari kabi judda oddiy: "Poyezdning stansiyaga kirib kelishi", "Qor bo'ron", "Qopda yugurish", "Fotosuratchi xonasida" (aka-uka Lyumelar); "Tosh yo'nuvchilar ish ustida", "Model ayolning yechinishi", "Sartaroshxonada" ("Pate"); "Vena tomosha zalida qushlarning don yeyishi" ("Gomon"). Biror g'oya uchun maxsus qilingan effektlardan asar ham yo'q edi.

Kino tarixidagi eng birinchi tryuk Parijdagi Opera maydonidagi tasvirga olish ishlari paytida kashf qilingan. U paytlar hali takomillashib ulgurmagan kinokamerlardan birida tasvirga olish paytida kutilmaganda kinotasma uzilib ketadi va kamera to'xtab qoladi. Yangi kinotasma qo'yilgunigacha oradan biroz vaqt o'tadi. Tasvirga olinayotgan obyektlar: foytunlar, ko'p o'rinli izvoshlar (omnibus), odamlar o'z harakatlarida davom etaverdilar. Yangi kinotasma qo'yilib ish davom etadi. Kinotasma proyavitelda qayta ishlanganidan keyin uni ko'rgan rejissyor g'aroyib metamorfozga duch keladi. Jorj Meles bu voqeani xotirlar ekan, shunday degandi: "Men kinotasmani proyektorda ko'rayotgandim va film uzilish ro'y bergan joyiga yetganda Madlen – Bastiliya omnibusing ruhlari bilan o'rab olingan dafn aravasiga, erkaklarning ayollarga aylanib qolganini ko'rdim. Bu tryuklar sirini topdim va ikki kun o'tib erkak kishining ayolga aylanishi, to'satdan yo'q bo'lib qolish va paydo bo'lish kabi, keyinchalik misli ko'ril-magan muvaffaqiyatga erishgan tryuklarni yaratdim". [1. B. 131.]

"Aylanish" bilan bog'liq mo'jiza o'z-o'zidan, hech qanday qo'shimcha texnik vositalarsiz, faqatgina kameraning o'zi bilan amalga oshdi. Havaskor-illyuzionist bo'lgan Jorj Meles kameraning bu kabi g'ayrioddiy imkoniyatlariga befarq qaray olmasdi. Melesga, borliq olamni shunchaki tasvirga tushirish emas, balki ijodiy yondashib uni o'zgartirgan holda, aslida mavjud bo'lmagan narsalarni ko'rsatib berish fikri keladi. Bu soddagina "sehrgarlik" stop-kadr deb nomlangan ilk usulning paydo bo'lishi edi.

Apparatning buzilishi uning shu kungacha aniq bo'lmagan xususiyatini – bir kadri boshqa bir kadr bilan tezlikda almashtira olish imkoniyatini ochib berdi. Shu tariqa ilk kinematografik tryuklar kashf etildi. Aniqlik kiritib o'tish joizki, bu tryuklar kinematografik tryuklar edi, ya'ni ular aynan kinokameraning imkoniyatlari vositasida yaratilgandi. Chunki, 1898-yilda Alfred Klark tomonidan suratga olingan "Mariya Styu-

artni qatl etilishi” filmida mexanik tryuklar yordamida “qirolichaning boshini chopish” sahnalari yaratilgan. Unda aktrisa boshiga mumdan yasalgan sun’iy bosh o’rnatilgan va tasvirga olish paytida shu boshni kesib tashlashgan. O’zi turli fokus va tryuklar “qozonida qaynab” yurgan Meles sirli “aylanish” va “g’oyib bo’lish”larni ko’zboylog’ichlarning eski uslublarida emas balki, o’zi ixtiro qilgan usullarda amalga oshirishga qaror qiladi. Melesning ixtirolari – kinematografik tryuklar ilk kino janrlarining paydo bo’lishi va rivojlanishiga turtki bo’ldi.

1896-yilda suratga olingan “Rober Uden teatrida ayolning o’g’irlanishi” filmida Jorj Meles ekranda g’ayrioddiy fokus yaratdi. Fokuschi rolini ijro etayotgan aktyor aktrisa boshi uzra qo’llarini aylantirib bir-ikki afsunlar o’qidi va shu onda Meles kamerani to’xtatdi. Aktrisa kamera oldidan nari ketadi va shu onda tasvirga olish yana davom ettiriladi. Namoyish paytida tomoshabinlar filmning to’xtaganini sezmadilar ham, balki haqiqiy “sehrgarlik”ning guvohiga aylandilar. Mo’jiza shundoqqina tomoshabinlarning ko’z o’ngida, hech qanday fokusning ishtirokisiz ro’y bergandi.

Kino afsungari o’z tryuklarining asl mohiyatini sir tutishi orqali ularning tomoshaviyligini yanada oshirishga erishdi. “Bir daqiqada havodan 10 ta shlyapani olayotgan fokuschi” (1896-y.), “Rober Uden teatrida ayolning o’g’irlanishi” (1896-y.) “Fantasmagorik illyuziyalar” (1898-y.), “Chaqmoq tezligidagi aylanishlar” (1899-y.), “Tirik kartalar” (1905-y.) – bu filmlar nomlari tomoshabinlar ularda qanday mo’jizalarni ko’rishi mumkin bo’lganidan darak berib turibdi.

Buyuk fransuz kinodarg’asi bundan tashqari kadrma-kadr tasvirga olish, ikki karra va ko’p karra ekspozitsiyalash, tezlashtirilgan va sekinlashtirilgan tasvirga olish, kashe-dan foydalanish va boshqa usullarga asoslangan effektlarni birin-ketin kashf qila boshladi va uni kinorejissuraning kundalik amaliyotiga kiritdi. Kinoda yangi tasviriy ifoda vositasini kashf etdi.

Bir tomondan bu kabi murakkab tasvirga olish usullarini “effektlar” deb atash hozir biroz kulgulidek tuyulishi mumkin. Lekin, ishonchimiz komilki, stol ustida raqs tushayotgan jimitdekkina balerina yoki tog’ddek ulkan dev boshi bilan jang qilayotgan botir yigit u paytlar uchun haqiqiy “sehrgarlik”dek qabul qilingan.

Melesning murakkab tasvirga olish usullardan foydalanish asosida yaratgan ilk 2 daqiqalik filmi “Iblis qasri” (*Le manoir du diable*, 1896) kartinasi bo’lib, rejissyor bu filmda o’ziga ma’lum bo’lgan barcha murakkab tasvirga olish usullaridan foydalanishga harakat qilgan. Dahshat va fantastika janrida suratga olingan bu filmning syujeti quyidagicha: qadimiy qasrlarning birida kadrda ko’rshapalak paydo bo’ladi va u bir aylanib Mefistofelga aylanadi. Mefistofel sehrlil qozonga afsun o’qiydi va qozondan dahshatli maxluqlar, ajina va alvastilar chiqib xonada izg’iy boshlaydilar. Mefistofel o’z bandilarini shu yo’l bilan qo’rquvda ushlar edi. Bandilardan biri juda qo’rqib ketadi va Xudodan yordam so’rab cho’qinadi. Ana shu lahzada Mefistofel g’oyib bo’ladi.

Film kino tarixidagi maxsus effektlardan foydalanib yaratilgan eng birinchi filmidir. Uning premyerasi 1896-yil 24-dekabrda Parijdagi “Roben Uden” teatrida bo’lib o’tgan va unda tomoshabinlarga sekin asta paydo bo’lish (poyavleniye), g’oyib bo’lish, odam va predmetlarning bir turdan ikkinchi turga aylanishi (transformatsiya) kabi ef-

fektli kadrlar ilk bor namoyish etilgan. Bu filmni ko‘rgan tomoshabinlarning o‘sha paytdagi taassurotlari naqadar g‘aroyib bo‘lganini tasavvur qilish qiyin emas.

Hozirda jahon kinosi misli ko‘rilmagan texnik va texnologik imkoniyatlarga ega. Maxsus effektlarning tur va shakllari esa nihoyatda ko‘p bo‘lib, ularning kino san’atidagi beqiyos o‘rni alohida maqolalar mavzusidir. Xulosa qilib aytganda, kino taraqqiyoti inson omili va texnik o‘shish bilan birgalikda tobora rivojlanib borishda davom etaveradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abulqosimova X. Kino san’ati asoslari. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2009. – 100 b.
2. Akbarov H. Adabiyot va kino. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, –1984. – 49-b.
3. Бондаренко Е.А. Путешествие в мир кино. – М.: ОЛМА-ПРЕСС Гранд, 2003. – 256 с.
4. Садул Ж. Всеобщая история кино. Т.1. – М., 1958.

## **TARIXIY FILMLAR MAVZUSINING BUGUNGI O'ZBEK KINOSIDAGI DOLZARBLIGI**

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada o'zbek kino san'atida tarixiy filmlarni yaratish jarayonlarini o'rganish, tahlil qilish, tarixiy janrlar va voqelik mohiyatini teran anglash va filmda aks ettirish masalalariga e'tibor qaratilgan.*

**Kalit so'zlar:** *kinematografiya, operator, rejissyor, estetik, badiiy, texnik.*

**Аннотация.** *Данная статья посвящена изучению и анализу процессов создания исторических фильмов в узбекском кино, глубокому пониманию исторических жанров и сущности действительности, а также вопросам отражения в фильме.*

**Ключевые слова:** *кинematография, оператор, режиссер, эстетическое, художественное, техническое.*

**Annotation.** *This article focuses on the study and analysis of the processes of creating historical films in Uzbek cinema, the deep understanding of historical genres and the essence of reality, and the issues of reflection in the film.*

**Keywords:** *cinematography, cinematographer, director, aesthetic, artistic, technical.*

Kino – ommaviy san'at turi. U na yosh tanlaydi, na chegara. Hammani birdek o'ziga rom etadi va ta'sir o'tkazadi. Shunday bo'lsa-da, ishlab chiqarilayotgan filmdagi davr, qahramonlar, manzaralar, g'oyaviy va badiiy xususiyatlar insonning did, yosh va salohiyat darajasiga qarab ajratiladi. Qaysidir film zamonaviy, qaysidir film fantastik-xayoliy, yana qaysi biridir tarixiy. Aynan tarixiy filmlar tomoshabin ongi va qalbiga ta'sir etuvchi muhim effektiv kuchga ega. Masalan, tarix haqidagi tasavvurlar jonlanadi, ajdodlarimizga munosib bo'lish, fahrlanish hissi paydo bo'ladi. Shunday ekan, tarixiy kino shaxs tarbiyasi va tasavvurlarini rivojlantirish borasida samarador yo'riqnoma, harakatlanish xaritasidir.

Bu borada bizning o'zbek kino san'atida qay darajada o'rinli va unumli ijodiy jarayonlar kechayotgani xususida so'z yuritishga harakat qilib ko'raylik. Tan olish kerak, so'nggi yillarda tarixiy filmlar yaratish yuzasidan qator yutuqlarga erishayapmiz. Bir qancha tarixiy filmlar ishlab chiqarildi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, tarixiy filmlarda yoki davr, yoki tarixiy voqea, yoki tarixiy shaxs asosiy o'ringa olib chiqiladi. Dastlab, so'nggi yillarda yaratilgan filmlar orasida tarixiy voqea atrofida sodir bo'lgan filmlarga e'tibor qarataylik. Har qanday film estetik zavq baxsh etishi bilan birga ma'naviy ozuqa ham berishi kerak. Ana shunda u kuchli kinoasarga aylanadi. Tomoshabin kartina qahramonlari kulganda kulib, yig'laganida birga yig'lasa, dard-u g'amini o'zinikiday his qilsa ana shu uning katta yutuqlaridan biri bo'ladi.

Bu borada "Ilhaq" filmi alohida o'rin tutadi. Unda urush ortidagi xalqimiz, mush-tipar onalarimiz, ayollarimiz jasorati, matonati, fidoyiligi, mehnatsevarligi, oilasiga, Vataniga bo'lgan mehri va sadoqati namoyish etilgan. Toshkent viloyati Zangiota tu-

mani, Xonobod qishlog'ilik Zulfiya aya Zokirova taqdiri xususida hikoya qilinadigan mazkur filmning yutuqlaridan biri real voqelikka asoslanganligida. Rejissyor Jahongir Ahmedov va Hasan Toshxo'jayev hammuallifligida yozilgan asar professional ishlangan. Aktyorlar mahorati, sahna o'sha davr ruhiyatini bera olgan. Kinoda aktyorlarning yuzi so'zlaydi. Ularning nigohidan quvonchni, qahrni, nafratni, hatto beg'ubor muhabbatni ilg'ash mumkin.

Zulfiya ayaning kino boshidagi mag'rur qaddi, yuzidagi farzandlari kamolidan xursandligi asta-asta qayg'uga, alamga aylanadi. Axir besh nafar farzandini urushga yuborib, ulardan ketma-ket qora xat olgan onaning yurak-bag'ri qon bo'lmaydimi? Ammo shunda ham aya kelinlari, nevaralari kamoli uchun qaddini tik tutadi. Ayniqsa, aya bor iztiroblarini soy bo'yiga borib to'kib kelishi, kelinlariga uni ko'rsatishni istamagani uning mardligidan dalolat. Zulfiya aya timsolida minglab onalarimiz yuragining bir parchasi yosh navqiron farzandlarini urushga yuborib, unsiz yig'lagan qalbini his qilish mumkin. Kelinlar timsolida esa o'zbek ayollarining oilasi, turmush o'rtog'ining pok xotirasiga bo'lgan sadoqatini ko'rish mumkin.

Aktyorlar ijrosi ham film muvaffaqiyatini ta'minlagan. Aya farzandlarida barqurgan chapanilik, g'urur, oriyat xalqimizning mard o'g'lonlariga xos fazilat edi. Buni har bir farzandi o'zining qahramonlarcha kurashida namoyon etgan. Nemislar qo'liga asir tushgan akaning vataniga sodiqligi, yurtdoshlari taqdirini ukasining o'limidan ham afzal bilishi, qizaloqni o'rmonga yuborib o'zi nemis gazandalarini qirish uchun o'limga tik boqishi o'zbeklarga xos mardlik namunasi edi. Yaralanib uyiga qaytgan Muhammadjonning qayta urushga ketishida yigitlik oriyati namoyon bo'ladi.

Filmning so'nggi lavhalaridan biri. Urushni g'alaba bilan tugaganligi haqidagi xushxabarni hamma hayajon bilan eshitmoqda. Barchaning ko'zida quvonch yoshlari, lekin onaning qalbida hech narsa bilan to'ldirib bo'lmaydigan bo'shliq bor. «Birortasiyam qaytib kelmadi-ya...» beixtiyor shivirlaydi onaning lablari. Tomoshabinni larzaga solmay iloji yo'q, bu kadrlar...

Ilhaq. Qalbida ilhaq bo'lib farzandlarini kutgan ona timsoli. Film so'ngida keksaygan Zulfiya aya kenja o'g'lining daragini topgachgina joni orom oladi. Zulfiya aya misolida o'zbek onalarining tengsiz mehrini, matonatini ko'rish mumkin.

Kartina tomoshabinga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bunga erishish uchun mualliflar urush haqidagi filmlarda keng tarqalgan klishe'larga – qolip obrazlar va situatsiyalarga murojaat qilgan. Bu o'rinda burch va manfaat o'rtasida qolib ketgan rais, qora xat olib kelaverishdan jigar-bag'ri ezilib ketgan pochtachi, bu pochtachini urib alimini olayotgan ayollar, beshafqat harbiylar, urushdan qochib yurgan yoshlar kabi misollarni keltirish mumkin. Buningdek klishe'larni urush haqida asarlarda juda ko'p uchratganmiz. Ular bir martalik emotsional ta'sir o'tkaza oladi, lekin yodda qolib ketmaydi, aksincha, asarning originalligini tushirishga xizmat qilishi mumkin. Shu tariqa film ayrim kamchiliklardan ham xoli emas.

Filmda aktyorlar o'z prototiplariga tashqi o'xshashligiga urg'u berilgan. Lekin ayrim obrazlar ochilmay qolgan (masalan, Yigitali Mamajonov ijrosidagi Shokir va Rayhona Asadova ijrosidagi Zulayho rollari). Hammaga ekran vaqti yetmagani yoki ssenariydagi kamchiliklar bunga sabab bo'lgan bo'lsa kerak.

Postanovka sifatli, sun'iy epizodlar deyarli yo'q, faqat Isoqjonni (Ilhom Sodiqov) va Vahobjonni (Husan Rashidov) qatl etgan fashist zobiti Turkistonni bunchalik yaxshi bilishi-yu, ikki aka-uka o'limidan oldin bir yerda uchrashib qolgani (va fashistlar ularning aka-uka ekanini bilishi) notabiiydek ko'rinadi.

Tarixiy muhit juda yaxshi jonlantirilgan. «Ilhaq»ning yana bir shubhasiz yutuqlaridan biri u sho'rolar propagandasiga aylanib qolmaganidadir. Ikkinchi jahon urushi voqealari ortiq darajada siyosiylashtirib yuborilayotgan bugungi zamonda bu mavzuga siyosatni qo'shmay qo'l urish nihoyatda murakkab. Oltin o'rtalikni topish joiz. Rejissyor Jahongir Ahmedov bayonda xolislikni saqlagan, dohiylarning manfaatlari to'qnashuvida qolib ketib qurbon bo'lgan, taqdiri singan oddiy odamlarni yaxshi ko'rsatib bera olgan. Film urushning yomonligi va beshafqatligini, urushga bahona qilib ko'rsatiladigan ideallar tinch turmushimizni buzishga va jonimizni qurbon qilishimizga arziemasligini ko'rsatib bergan.

Mana tayyor syujet. Ona besh farzandini urushga yuboradi. Farzandlarining hech biri qaytib kelmaydi. Bir qarashda bari oddiydek, ekranda nimani ko'rsatish tayindek. Aslida bu tugunni g'oyaviy va texnik to'ldirish san'atkordan fantaziya, bilim, ijodkorlik talab qiladi. Film voqeani turli rakurslardan, turli qahramonlar nuqtayi nazaridan ko'rsatishi, u yoki bu qahramon tuyg'ulariga ko'proq urg'u berishi, syujetni har xil qurish mumkin. Deylik, voqealarni bir boshidan bayon etish; faqat qishloqdagi voqealarni ko'rsatish; qishloqni va frontni navbatma-navbat ko'rsatish; voqealar ketma-ketligini o'zgartirish, masalan, bayonni o'rtadan boshlash; faqat onaning tuyg'ulariga urg'u berish; aka-ukalardan birigagina urg'u berish mumkin; xullas, yo'l-yo'riq ko'p.

Rejissyorning mana shu nuqtadagi vazifasi voqealarni qay tartibda joylashtirishga urg'u berishdir. Demak, rejissyor mas'uliyati nafaqat munosib asar tanlay bilishi va uni suratga olishida, balki unga o'zining ijodkorlik talqinini ham singdira olishida. Rejissyor uchun boshqaruvchi va tashkilotchi sifatida faoliyat yuritish ma'lum film ijodiy jamoasini nazorat qilish va uning tashkiliy masalalariga mualliflik qilish bilan chegaralanmaydi. Rejissyorning ijodkorligi uning ma'lum asarga qanday talqinda yondashishi bilan o'lchanadi. Aynan filmdagi rejissyor talqini orqali kinoasarning ahamiyati, qiymati va tomoshaviyligi oshadi.

Talqin tushunchasi mohiyatan ma'lum san'at turida ijodkorning o'z dunyoqarashi, fikrlashi va uslubiyatiga xos yondashuvlari majmuyidir. Demak, ma'lum film talqini aynan san'at vositalaridan qay usulda va shaklda foydalanilganlik darajasi bilan nisbatlanadi. Shu asosda, rejissyor filmni suratga olish jarayonida har bir komponent uchun ijodiy talqin nuqtayi nazaridan yondashishi kerak bo'ladi. Buning uchun rejissyor badiiy fikrlay olish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Ayniqsa bugungi kun kino san'tida bu nihoyatda muhimdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. –T., 2000.
2. Abulqosimova H. Kinoteleradio tarixi va nazariyasi. –T., 2008.
3. Akbarov H. Kino san'ati tarixi. –T., 2002.
4. Muhammedov M. Rejissura asoslari. –T., 2007.

## MUNDARIJA

<b>Shuhratilla Rizayev.</b> O‘zbekiston kinosining nurlı yo‘li .....	3
<b>Nodirbek Sayfullayev.</b> Kino san‘ati: tinchlik, taraqqiyot va ma‘rifat vositasiga aylansin! .....	9
<b>Nigora Karimova.</b> Kinoavangarddan kinoklassika (mumtoz kino) sari bosib o‘tilgan yo‘l .....	12
<b>Hamidulla Akbarov.</b> Kino oliygohi mukammallashuvi omillarini bilasizmi? .....	16
<b>Oltinoy Tojiboyeva.</b> Televideniya serialliligi: uslublar, yo‘nalishlar, o‘ziga xosliklar .....	22
<b>Марфуа Хамидова, Алексей Хмыров.</b> Некоторые вопросы о развития звукорежиссуры кино в Узбекистане .....	27
<b>Эльнур Мехтиев.</b> Новая ступень формирования и развития киноиндустрии в Азербайджане .....	30
<b>Ozkan Avci.</b> Tarihi figurlerin beyazperdede hayat bulmasi (Celaleddin Manguberdi dizisi uzerine) .....	38
<b>Muqaddas Ahmadjonova.</b> Kelajak va o‘tmish ko‘prigi – “Yakshanba” .....	40
<b>Iqbol Meliqo‘ziyev.</b> Kinooperator mutaxassislarni tayyorlashda ta‘limni modernizatsiyalash .....	47
<b>Vaxtiyor Yakubov.</b> O‘zbek badiiy kinosida ilk tarixiy-biografik film .....	52
<b>Аида Машурова.</b> Современный кинематограф Казахстана (2021–2024): тенденции и достижения .....	57
<b>Гульбара Толомушова.</b> Поэтика кыргызского мироустройства в фильмах Клары Юсупжановой .....	62
<b>Jean-Marie Laronze.</b> Uzbekistan at cannes: a rising star in global cinema .....	69
<b>Диана Маркарян.</b> Корейская дорама: скрытые смыслы в простых фразах .....	72
<b>Абдурахим Исмаилов, Камола Хидирова.</b> Творческое исследование проблем кино в творчестве Сергея Михайловича Эйзенштейна .....	75
<b>Sabohat Xaytmatova.</b> Kinoshunoslik fan sifatida .....	79
<b>Sayyid-Akmal Rasulov.</b> Tasviriy kayfiyat – dramaturgiyaning plastik obrazi .....	85
<b>Ma‘mur Umarov.</b> Badiiy filmlar yaxlitligida montaj san‘atining o‘rni .....	88
<b>Aybek Kopadze.</b> Animatsiya film dramaturgiyasining o‘ziga xos tamoyillari .....	93
<b>Feruza Fayziyeva.</b> Teleseriallarning g‘oyaviy ifodasidagi izlanishlar .....	97
<b>Barno Ungboyeva.</b> O‘zbekistonda kinoindustriya rivoji: xalqaro aloqalar va koproduksiyalar .....	101
<b>Хамидулла Хасанов.</b> Современный кинематограф: тенденции и перспективы .....	106
<b>Sevara Mahmudova.</b> Milliy seriallarning mahoratli rejissyori .....	111

<b>Faxriddin Abduvohidov.</b> O‘zbek kinodramaturgiyasida zamonaviy mavzuga yondashuv masalalari .....	115
<b>Matluba Isokova.</b> Abduxalil Mignarov ijod maydonida .....	122
<b>Батир Базарбаев, Шахислам Жолдасов.</b> Стандарты и компетентность в образовании Узбекистана: теория и практика .....	126
<b>Saxobiddin Xudayberdiyev.</b> Kino san’atida sun’iy intellektdan foydalanishning samaradorligi .....	135
<b>Манноб Кучкаров.</b> Фестивальное движение, как стимул для развития кинообразования .....	139
<b>X.X. Niyazova.</b> O‘zbekiston badiiy kinosida zamondosh obrazining transformatsiyasi .....	145
<b>Nodira Kasimova.</b> Formation of short films .....	151
<b>Muhayyo Muxtorova.</b> Yangi davr kinokomediylarida badiiy makon va qahramon muammosi .....	157
<b>Azizbek Matyakubov.</b> “O‘zbek qizi” filmi talqinida urush mavzusining yoritilishi .....	162
<b>Robiya Tursunmetova.</b> Zamonaviy o‘zbek kinosida xarakter yaratishdagi vorisiylik .....	167
<b>Barno Nurmanova.</b> Aktyor ijodida xarakter va xarakterlilik uyg‘unligi .....	173
<b>Mohinur Ahmetjanova.</b> O‘zbekiston zamonaviy badiiy televideniyesida teleserialning o‘rini .....	178
<b>Zamira Axmedova.</b> Iqtidorli talaba-yoshlarni ilmiy-ijodiy ishlarga yo‘naltirishda aktyorlik san’ati ta’limotining ahamiyati .....	183
<b>Rashid Usnatov.</b> Aktyor tarbiyasida pedagogning roli .....	187
<b>Mahmud Tajimuradov.</b> Montaj – badiiy vosita sifatida .....	192
<b>Yolqin To‘ychiyev.</b> Ekrandagi vaqt .....	199
<b>Анвар Адиллов.</b> Музыкальные видеоклипы – как платформа для воплощения идей и творчества молодых кинооператоров .....	202
<b>Doston Hojimatov.</b> Davr solnomasining hujjatli kinodagi aksi .....	205
<b>Шохрат Аманмурадов.</b> Инновационные технологии в преподавании звуко-режиссуры .....	207
<b>Karamatdin Zaretdinov.</b> Naushniktiń zıyanı .....	211
<b>Manas Abdreymov.</b> Filmlarda Qoraqalpog‘iston ekologiyasi mavzusining talqin topishi .....	213
<b>Александр Кудрявцев.</b> Мировое кино сегодня: явные тенденции и перспективы .....	216
<b>Нодира Абдуназарова.</b> Роль исторических фильмов в формировании идеологического иммунитета молодежи .....	219

<b>Dilorom Mirsaidova.</b> The peculiarities and development of dubbing art in uzbek cinema .....	223
<b>Orif Raximdjanov.</b> Kino san'atida ovozning o'rni va ahamiyati .....	227
<b>Nargiza Gapparova.</b> Buyuk ma'rifatparvar Is'hoqxon Ibrat .....	231
<b>Gulchehra Mufti-zade.</b> Ma'naviy barkamollik va san'at .....	235
<b>Behzod Kadirov.</b> O'zbek kino san'ati badiiy estetikasi shakllanishida yorug'likning o'rni .....	240
<b>Gavhar Nazarova.</b> Hujjatli kino rejissurasida uslub va talqin masalalari (Nelya Ataulayeva ijodi misolida) .....	245
<b>Kamola Suleymanova.</b> Animatsiya industriyasi shakllanishida rejissyor-animatorning o'rni .....	249
<b>Mohina Isroilova.</b> O'zbekiston televideniyesida kino san'atiga oid ko'rsatuvlar .....	254
<b>Muzaffar Pirmatov.</b> Zamonaviy badiiy kinoda rejissura masalasi .....	257
<b>Jamoliddin Chaqqonov.</b> Bugungi kun o'zbek kinosining muammolari .....	262
<b>Bobonazar Turobov.</b> Kino san'ati targ'ibotida posterlarning ahamiyati .....	266
<b>Иззат Каландаров.</b> Современные тенденции в профессиональном образовании кинооператорском искусстве .....	270
<b>Saidahmad Hakimov.</b> O'zbek milliy teleradiokompaniyasi rejissurasi va unda faoliyat yuritgan rejissyorlarning ijodiy faoliyati .....	273
<b>Quatbay Tilepov.</b> Kórkem filmler jaratıwdıń jańa usılları .....	277
<b>Умид Маликов.</b> Особенности метафор в жанровых фильмах .....	281
<b>Gulrux Shokirova.</b> Kinoteleoperatorlik ta'limidagi o'ziga xosliklar .....	286
<b>Sevara Bekmurodova.</b> Bolalarning shaxs sifatida shakllanishida ekran san'ati mahsulotlarining tutgan o'rni .....	289
<b>Husan Alijonov.</b> Kinoshunoslikda texnologik vositalarning o'rganilishi .....	292
<b>Fotih Nasimov.</b> Tarixiy filmlar mavzusining bugungi o'zbek kinosidagi dolzarbligi .....	298

# “MARKAZIY OSIYO FILMLARIDA AN’ANALAR VA YANGILIKKA INTILISH TENDENSIYALARI”

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

Muharrir

T. Mirzayev

Badiiy muharrir

D. Mulla-Axunov

Sahifalovchi

G. Ahmedova

Noshirlik faoliyati to‘g‘risidagi xabarnoma  
6.11.2023-yil qabul qilingan, tasdiqnoma № 156149.  
Bosishga 2024-yil 15-sentyabrda ruxsat etildi.  
Bichimi 60x84 <sup>1</sup>/<sub>8</sub>. Shartli bosma tabog‘i 35,34.  
Adadi 75 nusxa. Buyurtma raqami № 021-24.

“Donishmand ziyosi” nashriyotida nashrga tayyorlandi  
va matbaa bo‘limida chop etildi.  
Toshkent shahri, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.